TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

ABAY
JAMBUL

72



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

ABAY
JAMBUL





"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT – 2022

O'ZBEKISTON DAVLAT
XOREOGRAFIYA AKADEMIYASI
REG. 239

UO'K 821.512.122-1
KBK 84(5Qoz)-5
A 12

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Alimurod Tojiyev

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvarli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.


Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8733-9-1

©"O'zbekiston" nashriyoti, 2022

ABAY





QOZOQ XALQINING ULUG‘ NAMOYANDASI

Qo‘nonboy o‘g‘li Abay (Ibrohim) — qozoq yozma adabiyotiga asos solgan, ajoyib iste’dod sohiblaridan biri. U XIX asrning ikkinchi yarmida yashab, ijod etgan qozoq poeziyasining yorqin yulduzidir.

U hozirgi Sharqiy Qozog‘izton (avvalgi Semipalatinsk) viloyatiga qarashli Abay tumanidagi Chingiztog‘ etaklarida joylashgan To‘biqti urug‘laridan bo‘lib, 1845-yilning 10-avgustida Qashqabuloq maskanida, o‘ziga to‘q Qo‘nonboy oilasida dunyoga kelgan.

Abay Qo‘nonboyning 41 yoshida ko‘rgan farzandidir. Qo‘nonboyning otasi O‘skenboy ham, uning otasi Irg‘izboy ham badavlat kishilardan bo‘lsa, eng ulkan bobosi O‘ljoy botir kishi bo‘lgan.

Abayning asl ismi Ibrohim bo‘lgan. Ammo onasi Uljon uni erkalatib, ardoqlab Abay degan. “Abay” so‘zining asl ma’nosi “avayla”, “ehtiyot bo‘l” degani.

Abay o‘n yoshga qadar ota-onasining tarbiyasida bo‘lib, boshlang‘ich ma’lumotni o‘z ovulidagi G‘abitxon ismli mulladan oladi. So‘ngra Semipalatinsk shahridagi madrasaga o‘qishga boradi. U avval Abdujabbor, keyinchalik Ahmad Rizo ismli mullalarning qo‘lida uch yil tahsil oladi.

Bu yerda Abay ertak va afsonalarni, qissa va dostonlarni ko‘proq mutolaa eta boshlaydi. Hatto arab, fors va eski o‘zbek tilidagi ertak, afsona, hikoya va dostonlarni ham zo‘r mahorat bilan o‘qib savod chiqaradi.

Ayniqsa, Sharq klassiklari asarlarini alohida mehr bilan o‘rganib, Firdavsiy, Nizomiy, Xo‘ja Hofiz, Alisher Navoiy, Fuzuliy va boshqa shoirlarni o‘ziga ustoz deb bilib, ularning asarlaridan bahra oladi va g‘azallarini yodlaydi.

Darhaqiqat, ulug‘ mutafakkirlar ijodini qunt bilan mutolaa etishi natijasida ularning durdonalaridan ilhomlanadi. Asarlari-

ga ijodiy yondashib, ba'zilariga taqlidan she'riy asarlar yozishni mashq qiladi. Shuning uchun ham u 1858-yili, o'n to'rt yoshida yozgan "Fuzuliy, Shamsiy, Sayqaliy" nomli she'rida Sharq shoirlarining nomlarini alohida hurmat bilan tilga oladi, ularga hurmat izhor etadi.

Abay tahsil davrining so'nggi yillarida Semipalatinsk shahridagi "Prixodskaya shkola" deb nomlanuvchi rus maktabida uch oy o'qib, rus tilini ham mukammal o'rganishga intiladi. Natijada rus adabiyotining buyuk namoyandalari bo'lmish A.S. Pushkin, M.Y. Lermontov, I.A. Krilov kabi shoirlarning she'riy asarlari ham bo'lajak ijodkorni alohida ilhomlantiradi.

Abay endigina o'n uch yoshga kirganda, otasi Qo'nonboy unga el boshqarish mansabini olib berish maqsadida o'qishdan bo'shatib, o'z ovuliga olib ketadi. U yurtiga borganidan so'ng, 1875-yili Qo'ng'irko'kcha maskanida yashovchi elga bo'lis (hokim) bo'lib, xalq boshqarish ishiga aralasha boshlaydi.

Abay sekin-asta hayotning past-balandini anglab, ijtimoiy turmushdagi qarama-qarshiliklarning sirini tushuna boradi. El-yurt orasidagi ziddiyatlarni, zo'ravonliklarni, o'zaro kelishmovchiliklarni ko'zi bilan ko'radi, hayotni o'rganadi.

Hatto, o'z otasi Qo'nonboyning xalqqa nisbatan qilayotgan adolatsizliklarini, zo'ravonlik — xiyonatlarini ko'rib, unga tez-tez qarshi chiqishga majbur bo'ladi. Endi u o'z otasi, badavlat Qo'nonboyning birdan-bir yordamchisigina emas, balki adolat bayrog'ini baland ko'taruvchi, adolatni yoqlovchi, xalq hayotini himoya qiluvchi haqiqiy inson bo'lib shakllana boshlaydi.

Shu tufayli u o'z elida, o'z ovulida bo'layotgan kirdikorona ishlarga, dov-janjallarga aralashib, ularni adolatli yechishga alohida e'tibor beradi.

Lekin uning bu maqsadi turli-tuman qarama-qarshiliklarga, ziddiyatlarga uchrab, ko'p narsaga yetisha olmaydi. Hatto o'zi ham jabr-jafo chekadi.

U o'z davrining ziddiyatlarini teran tushungan, o'z zamonasining ilg'or g'oyalari bilan keng qurollangan, g'oyat ilmli, faylasuf shoir sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, shoir o'zining mazkur satrlarida:

O'z so'zidan boshqa so'zni uqmaydigan,
Og'zi bilan o'roq o'rgan o'nkay qirting,
Bosh-boshiga biy bo'lgan nuqul qiyqim,
Mana, ko'r, buzmadimi elning turqin! —

deb, hech kimdan cho'chimasdan, haq gapni ochiq tilga oladi.

Abay "Yuragim mening qirq yamoq", "Molga do'stning g'ami yo'q moldan boshqa" kabi she'riy asarlarida boylarga, zo'ravonlarga qarshi chiqib, eskilikning kirdikorlarini ham keskin tanqid ostiga oladi. Buyuk insoniy fazilatlarni yuqori baholab, adolatsizlikni qoralaydi. Doimo qashshoq-kambag'allarning tarafdori bo'ladi.

Hech narsaning farqiga bora olmaydigan, beparvo, savodsiz, nodon insonlarni tanqid ostiga oladi. Masalan, u:

Qozog'im, sho'rlik yurtim, vayron yurtim!
Qorong'ida yo'l topmay, hayron yurtim!
Yomon bilan yaxshini farq qilolmay,
Og'zida ham qon, ham moy sarson yurtim! —

deydi va kecha-yu kunduz azob-uqubatlar chekib yurgan qozoq xalqining, oddiy mehnat kishilarining ayanchli turmush tarzidan xabar beradi.

Doimo o'qish va izlanishda bo'lgan Abay bilimini oshirishni hamma narsadan afzal biladi. U 19 yoshida o'zining "Alifbo" nomli she'riy asarini yozib, unda qozoq xalqini ma'rifatli, ilmli bo'lishga undagan edi.

Buning ustiga Peterburgdan qozoq sahrosiga surgun qilingan isyonkor Y.P. Mixaelis bilan yaqindan tanishib do'st bo'ladi. Uning maslahatiga ko'ra, rus adabiyotining buyuk namoyandalari bo'lmish V.G. Belinskiy, N.S. Chernishevskiy, A.I. Gersen, I.S. Turgenev, F.M.Dostoyevskiy, Dobrolyubov, Saltikov-Shchedrin, L.N. Tolstoy, A.S. Pushkin, M.Y.Lermontov, A.I. Krilov asarlari bilan kengroq tanishadi, mutolaa qiladi, ba'zilarining she'riy asarlarini qozoq tiliga o'girib, xalqning ma'naviy mulkiga aylantiradi.

Hatto u Arastu, Suqrot, Aflotun, Gegel kabi mashhur faylasuflarning asarlaridan ham bahramand bo'lib, G'arb adabiyotining

klassiklari Bayron, Gyote kabi ijodkorlarning she'riy asarlarini sevib o'qib, qozoq tiliga tarjima qilishni ko'ngliga tugadi.

Abay 1884–1885-yillarga kelib, har tomonlama bilimli, g'oyatda adolatli tarbiya topadi. Natijada uning dunyoqarashi keng shakllanib, hayotda bo'layotgan turli-tuman o'zgarishlarga tanqidiy ko'z bilan qarovchi ulkan shaxsga aylana boshlaydi.

To'g'ri, she'r yozishni yoshligidanoq mashq qila boshlagan Abay el orasidagi adolatsizlik, zo'ravonlikdan nolib, ko'p vaqtgacha qo'liga qalam olmay qo'yadi. U yoshi 40 dan o'tgan chog'ida, 1886-yildan boshlab astoydil ijodiy ish bilan shug'ullanib, ijod qilishga alohida ahamiyat beradi. Shuning uchun ham u: "Yoshim shu yerga yetguncha yaxshi yashadimmi, yomon yashadimmi, harqalay, yashadim. Umrimning ko'pi ketib ozi qoldi, boshimdan ne-ne savdolar kechmadi: olishdim, yulishdim, aytishdim, tortishdim — xullas, boshga tushganini tortdim", deydi va "Mana, endi yoshim qaytib, qaridim, horidim, hamma qilib yurgan ishlarimda ma'no yo'qligini, hammasi shunchalik bir gap ekanligini ko'rdim, bildim. Xo'sh, endi qolgan umrimni qanday qilib o'tkazsam ekan?.." deb o'ziga savollar beradi.

U faqat ijod qilishni asosiy maqsad deb biladi, ijodi tufayli qozoq xalqining asl farzandi sifatida keng taniladi.

Abay hayotlik chog'larida o'z asarlarining o'z nomi bilan chop etilganini ko'rgan emas. Lekin uning ilk "She'rlar" to'plami, 1909-yili Abay vafotining 5 yilligi munosabati bilan Kakitoy Is'hoq o'g'li tomonidan Peterburg shahrida chop etilgan bo'lsa, ikkinchi "She'rlar" kitobi 1916-yili Orenburgda Samad Abish o'g'li tomonidan uchinchisi esa 1922-yili Toshkent bilan Qozon shaharlarida nashr etiladi.

Abaydan 200 ga yaqin she'riy asarlari bilan 3 ta dostoni ("Iskandar", "Azim hikoyasi", "Mas'ud") yetib kelgan.

Umuman, Abayning she'riy asarlarida qozoq xalqini ilm-ma'rifatga, insoniylikka da'vat etuvchi g'oyalar bilan bir qatorda, sof sevgini, do'stlik va birodarlikni ardoqlovchi, chin dildan kuylovchi asarlari ham mavjuddir. Bu borada uning "Yigitlar, o'yin arzon, kulgi qimmat", "Ey muhabbat, ey do'stlik", "Qiz so'zi", "Yigit so'zi", "Oshiq so'zi — tilsiz so'z", "Ba'zan tushar ko'nglimga", "Oshiq-

lik va xumorlik — bu ikki yo'l", "Sen meni ne etasan?", "Yoshlik alangasi, qaydasan?", "Ilmlidan chiqqan so'z" kabi shu va boshqa she'rlarini eslasak, 1882–1885-yillari A.S. Pushkindan "Tatyananing Oneginga yozgan xati", "Tatyananing qirdagi qo'shig'i", "Tatyananing so'zi", "Onegin so'zi", M.Yu. Lermontovdan "Borodino", "Kam so'zlay, ishonay", "Ko'nglim mening" kabi va boshqa asarlarini qozoq tiliga tarjima etganligini ham tilga olish kifoyadir.

U o'zining badiiy jihatdan baquvvat she'riy asarlarida do'stliksiz, muhabbatsiz hayot bo'lishi mumkin emasligini eslatish bilan bir qatorda, "Hayotda inson insonni sevmasdan, jamiyat uchun astoydil xizmat qilmasdan yaxshi yashashi mumkin emas" degan g'oyalarni ham ilgari suradi.

Abay buyuk shoir bo'lish bilan bir qatorda ajoyib kompozitor ham edi. U qozoq xalq kuylarini sevib, alohida ardoqlab, o'zi ham bir nechta kuy bastalagan, ularni ijro ham etgan ajoyib iste'dod sohibidir.

Ana shunday inson, qozoq xalqining buyuk ma'rifatparvar shoiri, hassos qalam sohibi — Abay Qo'nonboyev 1904-yilning 23-iyulida, 59 yoshida olamdan o'tadi. U yaratgan ajoyib asarlar, ilgari surgan g'oyalar o'z xalqi orasidagina emas, balki umumturkiy xalqlar o'rtasida ham, shu jumladan, qardosh va qondosh o'zbek xalqi ma'naviyatidan ham keng o'rin olgandir.

Abay yillar osha o'zbek kitobxonlariga o'z shoirlaridek singib, o'zbek xalqining ham ajoyib farzandi sifatida alohida ulug'lanmoqda. Bu o'rinda Abayning 1922-yili Toshkentda qozoq tilida chop etilgan "She'rlar" to'plami bilan, uning 100-yilligi arafasida Toshkentda 1945-yili nashr etilgan "She'rlar" to'plamini, uning ustiga 1960-yili Qozog'istonda o'zbek adabiyoti va madaniyatining o'n kunligi munosabati bilan o'zbek tilida nashr etilgan "Tanlangan asarlar"ini, shuningdek, 1970-yili G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti tomonidan bosilgan "She'rlar va poemalar"ini eslash kifoyadir.

Shoir asarlarini o'zbek tiliga tarjima etishdagi dastlabki tajribada Uyg'un, Mirtemir, Asqad Muxtor, Sulton Akbariy, Muhammad Ali, G'ulom Shodi, Razzoq Abdurashid, Jumaniyoz Jabborov kabi shoirlarning xizmatlari tahsinga sazovordir.

Bugungi kunda O'zbekistonda Abay nomi bilan ataladigan bir qancha qozoq maktablari bor. Toshkentda Abay ko'chasi mavjud va u Alisher Navoiy ko'chasi bilan tutashadi. 2013-yili Toshkentda Qozog'iston elchixonasi yangi binosining oldida Abay haykali o'rnatildi. U xalqlarimizga qarata: "Azizlar! Bu dunyoda do'stlikdan kuchli hech narsa yo'q. Shunday ekan, doimo do'st, inoq, ahil bo'lib yashanglar!" deb turganday go'yo.

Qaldibek Seydanov,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

SHARQ SHOIRLARIGA TAQLID

Yuzi — ravshan, ko'zi — gavhar,
La'ldek bet uchi ahmar[1].
Tomog'ing qordan ham behtar
Qoshing qudrat, qo'li shiga[2].

Hamma go'zallar-a rahbar,
Sanga oshiq bo'lib kamtar —
Sulaymon, Jamshid, Iskandar
Ololmas bori mulkiga.

Mabodo bo'lsa ul bir ko'z
Tomosha qilsa yuzma-yuz,
Ketib quvvat, yumilib ko'z,
Bo'ying sol-sol bo'la nega?

(1858)

* * *

Fuzuliy, Shamsiy, Sayqaliy,
Navoiy, Sa'diy, Firdavsiy,
Xo'ja Hofiz — bu hammasi
Madad ber, yo shoiri faryod!

(1858)

---

[1] **Ahmar** — qizil.

[2] **Shiga** — go'zal, chiroyli.

"ALIFBE" SHE'RI

Alifdek oy yuzingga ibrat etdim,
Be, baloyi dardingga nisbat etdim.
Te, tilimdan chiqarib turli abyot,
Se, sanoyi madhiya hurmat etdim.

Jim, jamoling qanday oq ro'zi menga,
Xe, xalillik topmadim, jonon, senga.
Xi, xaloyiq, men emas, bari intizor,
Dol, darig'o, ishq o'ti bermas omon.

Zol, zalillik ko'rgan so'ng sayrayver, til,
Re, rizo qilmog'ingni, yor, o'zing bil.
Ze, zaharday kuydirdi ishqing qatti(q),
Sin, salomat qolmog'im bo'ldi mushkul.

Shin, shakarlab esimga tushgan sayin,
Sod, sabrim qolmadi, men ne qilayin.
Zod, zoye' umrim o'tdi mening bekor,
To, talabdan haytovur, qur[1] qolmayin.

Zo, zolim ko'p qilich bo'p jonga o'qtaldi,
Ayn, aqlimni boshimdan tortib oldi.
G'ayn, g'ariblik boshimga tushgandan so'ng,
Fe, foydang tegarmi deb jazo soldi.

Qof, qabul bo'larmikan yozgan xatim,
Kof, komil aq(i)ling, asl zotim.
Lom, labingdan em qilsang men dardliga,
Mim, mehringdan qolmasdi bor ofatim.

[1] **Qur** — quruq, bo'sh qolish.

Nun, nola qilib qayg‘ung-la kuydirding ko‘p,
Vov, voylana ishqing vahim yeb.
He, hech foydang tegmasa o‘ldi o‘ylangiz,
Lom-alif, lo iloha illollo deb.

Yo, yorim, qalay bo‘lar javob so‘zing,
Mad — qoshing, tashdid — kiprik, sokin — ko‘zing.
Utir-la osti-ustili yozuvda bor,
Bo‘lishga osti-ustili ko‘nsang o‘zing.

(1864)

* * *

Tinchlan, ko‘nglim, tinch, ko‘nglim,
Soyalamay, soy topmay,
Ne kun tug‘di boshingga,
Kuni-tuni joy topmay?
Sen joyingda yursang ham,
Qiz o‘larmi boy[1] topmay?
Tun kezganing ma’qulmi,
Yon-yoningga yaltoqlay?
O‘larman deb yuribsan,
Shundan boshqa jon topmay?

Tinchlan, ko‘nglim, tinch, ko‘nglim,
Sabr tubi — sari(q) oltin.
Sabr qilsang, joyingni
Bilarmikan bekzotim?
Ko‘ngil ovlab, so‘z aytar
Oradagi tilxatim.
Oqim suvday toshadi
Loysiz chiqib suvatim[2].
Xasta emas, sog‘ emas,

[1] **Boy** — bu yerda er, turmush o‘rtog‘i.

[2] **Suvat** — suvning yoqasi.

Quridi hol-quvvatim.
Tinchlan, ko'nglim, tinch, ko'nglim!
Sano qilma bekorga.
Son qilganda foyda yo'q,
Dunyo tayyor o'targa,
Ajal tayyor yetarga.
Xo'sh, qiz olsin qo'yniga,
Zahmat chekmay, davlat yo'q.
Hali borib ketarga.
O'ngingga-yu, bo'yingga
Imon, davlat bitarma?
Halolni sotsang haromga,
Xudo qabul etarma?
Qiz sevadi meni deb,
Unga ko'ngil ko'tarma!

Tinchlan, ko'ngil, tinch, ko'nglim!
Tugadi dema sanasin[1]
Barini o'zing bilsang ham,
Hali-yoq o'zing tonarsan.
O'rtanarsan, yonarsan.
O'z-o'zingdan mehnatga
O'z boshingni solarsan.
Qay manzilda to'ydirding.
Ayiqdayin og'asin,
Xotini-yu xalajin?
Qarsaq[2] yo'rtmas qora adir,
Qaramay nega choparsan?
Shunda yaxshi bo'larmi,
Ushlab olib savalasin?
Kiyimingni to'nasin,
Elda kulgi bo'larsan.

Tinchlan, ko'nglim, tinch, ko'nglim,
Sog'inch aro sarg'ayma.

---

[1] **Sana** — bu yerda, aql-idrok degan ma'nolarda.

[2] **Qarsaq** — mo'ynasi qimmatbaho tulkining bir turi.

Tinch yursang sen qiz quvmay,
Seni birov qarg'arma?
Qiz izlasang, qalin ber,
Bunisi aql bo'lmayma?
Ko'rib olsang ko'rklini,
Tanlab olsang taglini
Shunda ko'ngil to'lmayma?

(1864)

BURGUTCHI

Qor yoqqanda burgutchi chiqar ovga,
Toshdan tulki topilar poylaganga.
Yaxshi ot totuv yo'ldosh — bir g'animat,
Yaxshidir ixcham kiyim ovchi odamga.

Birdaniga yo'liqsa tulki izi
Axtarib ovchi har yon ko'z solganda.
Burgutchi tog' boshida, qo'lda burgut
Ketgan izni sinchiklab payqaganda.

Tumag'ini burgutchi boshdan olar,
Qiron qush ko'zi ko'rib intilganda.
Past uchsam tulki o'rlar qutular deb,
Uchadi ko'z o'ynatib tik osmonga.

Ko'rib, to'xtab qoladi qochgan tulki
Qutulmasin bilgan-chun bo'sh qochganga,
Og'zin ochib qaqaqlab, tishin qayrab,
U ham kurash qiladi chivin jonga.

Qiziqar shunda ovchi, zavqqa to'lib
Ot qo'yar qaramay hech yiqilganga.
Qirq pichoq-la g'ijinib turgan tulki,
U ham o'ng'ay yov emas zo'r qironga.

Sakkiz nayza qo‘lida ko‘z olmasdan
Botir ham tashlanadi u qurbonga.
Qanot, dumi shuvillab ishqiradi,
Ko‘kdan qiron yashinday quyilganda.

Yarq-yurq etib ikkovi olishadi,
Yakka botir chiqqanday jang maydonga,
Biri havo, biri yer yovvoyisi,
Odam uchun botishar qizil qonga.

Qor — oppoq, burgut — qora, tulki — qizil,
O‘xshaydi go‘zal suvda cho‘milganga.
Qora sochin ko‘tarib ikki barmoq,
U ham bilq-bilq etmasmi siypaganda.

Oppoq et, qip-qizil bet yap-yalang‘och.
Qora soch qizil yuzni yashirganda.
Kuyovi er, qaylig‘i go‘zal bo‘lib,
Yana o‘xshar tor to‘shakda yotishganga.

Yag‘rini orqasidan bilqillaydi,
Qiron buklab ostiga dal bosganda.
Qushi ham egasiga xo‘rozlanar,
Oltmish ikki hiylali sayd olganda.

Ovchining chehrasiga shodlik chiqar.
Tulkini qanjig‘aga boylaganda,
Silkib kiyib tumag‘ni, ham nosvoyni
Bir otasan dilga shodlik joylanganda.

Tog‘dan jiyda terganday ola bersa,
Bir yashaysan xumoring har qonganda.
Ko‘nglida yo‘q hech qanday yomon niyat,
Ov bo‘ladi kengashing qush solganda.

Hech kimga ziyoni yo‘q o‘zim ko‘rgan,
Xo‘b qiziq ish ekan bu shum dunyoda,

Sezgisi chuqur hamda aqli borga
Bari aniq ko'rinar o'ylaganda.

Uqmassan ustin qarab o'ta bersang,
Suratin ko'rolmassan ko'p boqmasang.
Ko'lankasi tushadi tez ko'nglingga
Har so'zni bir o'ylanib salmoqlasang.

Yigitlar, bu so'zning hech ma'nosini,
Bilolmassan qush solib zavq olmasang.

(1882)

* * *

Porlagan oq kumushday keng manglayli,
Olasi oz qora ko'zda nur chaqnaydi.
Ingichka qora qoshi — chizilganday,
Men unga o'xshataman tuqqan oyni.
Qirli burni manglaydan to'g'ri tushgan,
Oqcha yuz, ol-qizil bet til bog'laydi.
Og'zin ochsa, ko'rinar marvarid tish,
Naq qo'lda tizilganday ich qaynaydi.
So'zlasa, so'zi odobli ham ma'noli,
Kulgusi — xuddi bulbul qush sayraydi.
Yup-yumur, oq to'rg'inday[1] bo'yini bor,
Ulviragan tomog'in kun chalmaydi.
Tep-tekis yag'irini bor, iyig'i[2] tik,
Ikki olma gavdasida qiyshaymaydi.
So'roqi uzun ham emas, qisqa ham emas,
Nozik bel tolchiviqday buranglaydi.
Etiday yosh bolaning bilagi bor,
Ajinsiz oq savsog'i[3] ishga o'ng'ayli.

[1] **To'rg'in** — oq ipak mato.

[2] **Iyiq** — bo'yin, yelka.

[3] **Savsoq** — qo'lning barmoqlarga ajralgan joyi.

Qalin ipak sochi bor ipak tolday,
To‘rg‘inday to‘lqinlanib ko‘z tanlaydi.

Qizda qanday lazzat bor jon totmagan?
Suluvi bul zamonning tek yotmagan.
O‘n sakkiz-o‘n to‘qqizga kelgandan so‘ng
Olmasi o‘pka[1] bo‘lar qo‘l botmagan.
Bularning qay birining minazlari[2]
Hech narsa ko‘rmaganday burtaqlagan[3].
Qay biri chehram yana ochilsin deb,
O‘rinsiz odamlarga iljaygan ham.
Avvaldan suluv o‘rni bizga ma’lum,
Yurt maqtagan yigitni qiz yoqlagan.
Qay yigit maqtanishga qiliq qilmay,
Vujudi kamtarlik-la sir saqlagan.
Qay yigit orsizlik-la uyatsinmay
Qo‘li yetmas narsaga tirtaqlagan.[4]

O‘rinli ishga yurib, o‘y[5] topmagan,
Yo bo‘lmasa yumush qilib, mol boqmagan.
Xosiyatli bo‘lmaydi unday yigit,
Anchayin bekor yurib bulg‘aqlagan.

(1884)

* * *

Yoshlikdan bilim izlab yugurmadim;
Xayrin bildim, biroq, yuz o‘girmadim.
Ulg‘ayganda qarasam qo‘lim quruq,
Kechikib qo‘l cho‘zdim-u, ulgurmadim.

---

[1] **O‘pka** — o‘pkaday yumshoq demoqchi.

[2] **Minaz** — fe’l-atvor, xarakter.

[3] **Burtaqlamoq** — nozlana uyalmoq.

[4] **Tirtaqlamoq** — behuda harakat qilmoq.

[5] **O‘y** — bu yerda aql-farosat, odob ma’nosida.

O‘ZBEKISTON DAVLAT XOREOGRAFIYA AKADEMIYA
REG. 239

Bilimsiz qolganimga kim gunohkor?
Izlasam bo'larmidim munchalik xor?
Odamzod tasallisi farzand ekan.
Farzandimni bilimga qo'ymadim zor...

Madrasaga berdim men adab uchun,
Bilim uchun, nainki mansab uchun!
O'zim ham yuksaklarga qanot qoqdim,
Ayb bo'lmas orzu uchun — talab uchun...

Kim aytar: yomon bo'ldim, yo'ldan qaytdim?
Qozoqqa shirin-shirin o'lan aytdim;
O'landa hech kim menga teng kelmadi,
Lekin qadrim topolmay, yig'layman jim...

(1885)

* * *

Qaridik, g'amga botdik, uyqu sergak,
Achchig'ing xuddi zahar, o'ying ko'lmak.
Dardlashishga kishi yo'q so'z uqarlik,
Kim ko'ngilni ko'tarib bo'lar ermak.

Yosh — qarir, yo'q — tug'ilar, tug'ilgan — o'lar,
Taqdir yo'q, o'tgan umr qaytib kelmas;
Bosgan iz, ko'rgan qiziq qola berar,
Bir Xudodan boshqaning bari o'zgarar.

Mard ishi aqlga kirmas, bo'yni yengar,
Hunarsizning qilig'i chala ko'rar.
Chin o'ylamay berilib bir ish qilmay,
Erinchak oqibatda ko'pga ko'nar.

Yomonlar qilolmaydi halol emgak,
G'arlik, o'g'irlik qilib kular toza,

Harom ishdan yomonlik ko'rmay qolmas,
Ming kun sinmas, bir kuni sinar ko'za.

Odamzod tiriklikni davlat bilsin,
Aql topsin, mol topsin, halol yursin.
Ikkovining biri yo'q, ovul kezib,
Xo'rlanib, bekorga kun o'tkazmasin.

Nodonlar bo'sh so'zlarga quloq solar,
Chin so'zning foydasidan chetda qolar.
Rost so'zning hech bilmaydi xosiyatin,
Chinni qo'yib, yo'q so'zdan lazzat olar.

Aqlli qora qilni qirqqa bo'lar,
Har narsaga o'ziday baho berar.
Nodon kishi hech narsa bilmay turib,
Maqtanib, ko'cha-ko'yda ko'krak kerar.

Xalqqa ichidan yov, sirtdan kular,
Tirigida do'stin so'kib, o'lsa yig'lar.
Bir-ikki yo'li bo'lgan kishi ko'rsa,
Xudo sevib yaratgan ushbu deyar.

El buzilsa topadi, shayton o'rnak,
Farishta pastga tushib, qayg'u yemak.
O'zimning istagimdan bo'ldi demay,
Yengding-ku deb shaytonga qilar ko'mak.

Qo'ldan kelsa berarmi yurt boshqarmoq,
Halollik, haromlikni kim teng ko'rar?
Shuhrat uchun g'ayratsiz bo'lis bo'lmoq,
Itday bo'lib o'ziga so'z keltirar.

(1886)

* * *

Qaridik, g‘am bitmay, ko‘paydi armon;
Bizdan so‘ng yoshlarga qoladi zamon.
Ularning xulqidan ko‘nglim xavotir:
Ter to‘kmay, yulg‘uchlik payida hamon.
Boy olar, “takaga oshlik beray” deb,
“Kezida qo‘yningga solib beray” deb,
Biy bilan bo‘lis ham rosa ishlatar
“Qo‘shningdan o‘chingni olib beray” deb.
Do‘st deydi: bermasang o‘zingdan ko‘r,
Yo‘q desang, tilingdan, so‘zingdan ko‘r;
Ertaga yovlarning qatorida
Meni ham ilg‘asang — ko‘zingdan ko‘r.
Shumlarni shumlikdan pand bermoqchi,
Suydim deb, suykalib, to‘sh kermoqchi;
Yuz qo‘yning ikki yuz xaridori
Bir boshdan shox-tuyoq tekshirmoqchi.
Mol so‘ysa, sen ham so‘y deganidir,
El yig‘sa — o‘zining yeganidir.
Qarg‘aday qag‘illab yurt to‘plansa,
O‘zini qul qilib berganidir.
Yuz-xotir qilmaydi, og‘zi chatoq,
Ont ichar, bilmaydi — lafzi chatoq.
O‘zidan bo‘shrog‘i duch kelganda
It bo‘lib qopadi, nafsi chatoq.
Erk berdim saylovga, deydi o‘rle,
Kimniki saylasang, derman durust.
Buzilsa buzildi, tuzalmadi
U to‘ra bo‘lgach ham, bizning ulus.
Juda ko‘p haromni ep ko‘rganlar,
Gapirsang yuzini chet burganlar.
Bormikan astoydil rozi bo‘lib
Xudoning berganin yeb yurganlar.
Otasi o‘glidan or qiladi,
Og‘asi inisini xor qiladi,

Birovi mol uchun vijdon sotib,
Yopiray, yo‘q yerdan bor qiladi.
Mehr yo‘q, do‘nim yo‘q, bari chigal,
Bir-birin ko‘rolmas bovur-jigar.
El to‘zg‘ib nizodan, sob bo‘ldi-ku,
Jon deb neni yaratding, Parvardigor?
Ont ichib baxsh etgan joni qursip,
Or sotib undirgan moli qursin;
Umringning qirq yeriga tuzoq qo‘yib,
Quvlikni kasb etganning holi qursin!

(1886)

* * *

Qozog‘im, sho‘rlik yurtim, vayron yurtim!
Qorong‘ida yo‘l topmay, hayron yurtim!
Yomon bilan yaxshini farq qilolmay,
Og‘zida ham qon, ham moy sarson yurtim!

Qarasam, ajabtovur yuzing sening,
Nechun axir, aldamchi so‘zing sening?
Donolarning hikmati pisand emas,
G‘ofil qolgan, adashgan o‘zing sening!

Tunda uyqung buzilar, kunduz — kulking,
Dardingga em bo‘lmadi moling — mulking!
Ochko‘zsan, tamakorsan, qurumsoqsan,
Bor savlating boshingga kiygan tulking...

Biy bo‘ldi qiyqim boylar bosh-boshiga,
Dog‘ soldi, zahar soldi yurt oshiga,
Qo‘rqaman, asosi yo‘q ko‘r singari,
Elim unar buzuqlar aldashiga!..

Otalarga o‘xshamay qoldi turqing,
Yopiray, muncha ketdi, elim, xulqing!

Birlik yo‘q, baraka yo‘q, buzildi fe’l,
Qani yiqqan davlating, boqqan yilqing?

Elat bilan elat yov biylik uchun,
Og‘a bilan ini yov siylik uchun,
Qozog‘im, o‘z-o‘zingni o‘nglamasang,
Badbaxt kunga qolmasmi taqdir butun?

Men netay, axir kimga umid bog‘lay?
Qo‘rqoq qullar yurtida ne baxt chog‘lay?
Bir yo‘lchi topilmasmi sarson elga,
Men izlay, men axtaray, men so‘roqlay...

(1886)

* * *

Boylar yurar yiqqan molin qo‘rg‘alatib,[1]
O‘z yuzin, rangin berib olar sotib.
O‘nni olib, to‘qsondan tama qilib,
Bu yurtni qo‘ymaganmi Xudo otib.
Borib kelsa Ertishning[2] suvin totib,
Berib kelsa bitta arz butab-chatib.
Elni olib, Edilni olib gerdayadi,
Shishib-qurib, qavarib kelayotib.
Nari-beri aylansa oti oriqlab,
Chiqinga belchasidan obdon botib.
Shum, surqiyo,[3] quv, bilgich atalay deb,
Xudo xumor qilibdi holsiratib.
Qo‘riqlasa,
qo‘rqdimi deb qo‘ymagan so‘ng,
Choptiradi qal’aga boy onglatib.[4]

[1] **Qo‘rg‘alatib** — qo‘riqlatib, qorovullatib.

[2] **Ertish** — daryo nomi.

[3] **Surqiyo** — ikkiyuzlamachi, zolim.

[4] **Onglatmoq** — poylatmoq, josus yoki izquvar qo‘ymoq.

Kuchli — yiqar, boy — yengar avvalboshdan,
Qo'lga tushar sillasi obdon qotib.
Joni ayovli yaxshini qopdiray deb,
Har kim bir it saqlaydi irillatib.

(1886)

* * *

Ko'nglim qaytdi do'stdan-da, dushmandan-da,
Aldamagan kim qoldi tirik jonda?
Olis-yaqin qozoqning barin ko'rdim,
Yolg'iz-yarim bo'lmasa onda-sonda.

Foyda uchun birov yo'ldosh bugun tongda,
Turmaydi u boshdan jig'a qiyshayganda.[1]
"Men bundan nimamni ham ayayman?" deb,
Yoningda kim ham turar bu maydonda?

Hozirgi yurtning so'zi — o'g'ri-g'arlik,
Aqlli jon ko'rmadim so'zni uqarlik.
Ushbu kunda ushbu elda donaga yo'q
Mehr qonib, mast bo'lib quvonarlik.

Boy yurar mol qizig'in bila olmay,
Yoz yuborib, kuz otini mina olmay.
Sabiltirib,[2] o'g'irlatib, iz yo'qotib,
Izzalanib irjayar kula olmay.

Savdogari yurar savdo qila olmay,
Qo'ldan berib, xor bo'lib, ola olmay,
El ovloqda xo'p degan-u, to'pda[3] tongan,
Orsiz yurtdan endi ko'ngli to'la olmay.

---

[1] **Jig'a** — boshdagi sallaga, dubulg'aga taqiladi.
Jig'aning qiyshayishi — biror kor-hol bo'lganini bildiradi.

[2] **Sabiltirmoq** — kecha-yu kunduz minmoq.

[3] **To'p** — ko'pchilikning oldida, degan ma'noda.

Eslilar bu ishlardan quvonmaydi,
El ozdi der, nodonlar munglanmaydi.
Ola ilon, och baqa gupildoqlar
Odammi deb ulug'dan uyalmaydi.

Beklikda[1] birov o'rnak bo'la olmas,
U ham hech o'g'ri-g'arni tiya olmas.
Qarshilik kunda qilgan teli-tentak[2]
Jazo tortmas, hech kim so'roq qila olmas.

Qardosh yurar qora yerga tiqa olmay,
Birining so'zin biri ma'qul olmay,
Quda-tomir, do'st-yoron, xotin-bolang
Ular ham sen tarafli bo'la olmay.

Bir kuchli ko'p tentakni yiqa olmay,
Ichda dardi o't bo'lar, chiqa olmay.
Aroq ichgan, mast bo'lgan yurtning bari
Na foyda, na zararni bila olmay.

Yoz yetilgan yaylovga qo'nolmaydi
Kuz fasli janjalsiz bo'lolmaydi.
Qish qishlovi — u ham bir qizil balo,
O'ralsa hech bir chorva o'ngolmaydi.

Yoshi kichik ulkandan uyalmaydi,
So'ramsoqlar[3] nafsini tiyolmaydi.
Salom — bu burch, so'z — quvlik bo'ldimi, bas,
Har kim sirtdan so'z bo'lar, sinalmaydi!

(1886)

---

[1] **Beklik** — hukumat, boshqaruv ishlari.

[2] **Teli-tentak** — yosh tentaklar degan ma'noda.

[3] **So'ramsoq** — tilanchi, landovur, ishyoqmas.

* * *

Adashganning oldi — jo‘n, orti — so‘qmoq,
Ularga jo‘n bekorchi so‘zni uqmoq.
Qosh kerik; molga botgan kishi yanglig‘
Unda yo‘q egrilikdan qitday qo‘rqmoq.

Bir gaz mata choponi kalta-yu choq,
Belin bog‘lab, gerdayar, altoq-taltoq,
Bog‘ichlarin tomoqqa tortaman deb,
Oq tumog‘in qulog‘i kir va shaltoq.

Yoz kuni ham boshidan bo‘rki tushmas,
Qo‘lida bir gaz tayoq u ham oppoq.
Keragiga tayog‘ini sanchib qo‘yib,
Bo‘rkin ilib, qaraydi yaltoq-yaltoq.

Chalvori quvligiga guvoh yolg‘iz,
Tizzasini tortdilar o‘tirsayoq.
Tutqundagi kishiday bir holi bor,
Kuni bo‘yi yechinib, izlar yotoq.

Kim uchrasa o‘zini tengdosh ko‘rib,
Ishi uning suykanmoq va tirjaymoq.
So‘zlasa basharasi yuz turlanar —
Qosh kermoq, bo‘yin burmoq, xo‘rozlanmoq.

Bunday shiydang el ichra uchrar ko‘proq,
Barchasi ham chorvada o‘loq-cho‘loq,
Ichi puch, lekin sirti yaltiraydi,
Bekorchi, shovqin solar va maqtanchoq.

Yo‘q ularning fikrida molin boqmoq,
Mehnat qilib, hunar bilan elga yoqmoq.
Yolg‘iz otin terlatib el qidirar,
Salomlashmay, ishshayar ko‘rsa olchoq.

(1886)

* * *

Bo‘z bolalik chinakam go‘zal davron,
Lekin qarshi manglayda bor-ku ayon.
Yoshlikda ko‘krak kerik, vahima yo‘q,
Baxt qayda deb yurmaymiz sira hayron.

O‘lan aytmoq erta-kech bizning yumush,
Latifadan iborat go‘yo turmush.
Qizlik ovul yonidan ketolmasdan,
Maqtanchoqlik etadi dilini xush.

Demanglar: “Upmas ishga yupanaylik,
Aql topsak, mol topsak — quvonaylik...
Yor sevganda birni sev, tanlab topib,
Kunda bir oshiqlik bu — devonalik.

Yoshlikda bir kulganing — bir qoralik[1]
Kulgi degan bir ko‘rar bechoralik.
Avvalo hunar izla, qo‘ldan kelsa,
Yo ter to‘kkin, ko‘rmaysan hech xoralik.

To‘y bo‘lsa, to‘n kiyaylik, yur — boraylik,
Birimizni birimiz ag‘daraylik,
Ot oriqlar, to‘n to‘zar, qadr ketar,
Es borida bu gapga bir qaraylik...

Mard xislati esining borligidir,
Mushkuli — dunyo qo‘lin torligidir.
“Hay-hay” bilan bo‘larmi, bo‘z bolalar,
Bu besh kunlik dunyo er orligidir.

Xumorliging tutsa ham berilma hech,
Vahima yo‘q oldimda deb bilma hech.
Yalinib va yolvorib, sarson kezib,
Ko‘rasan barini ha, kerilma hech.

[1] **Bir qoralik** — bir mol bahosida.

Oliftalikdir boshga bitgan balo,
Uning ham so‘ng manzili bor avvalo.
O‘g‘ri ham bo‘lar kishi, daydi-sayoq,
Mol topmasa mehnatga bo‘lib shaydo.

Otalar boshdan aql bo‘lmasa gar,
O‘ylatishga yo‘q esa yo akalar,
Qaydan topar o‘tkazgan davronini,
Oxirida kimdan borib u o‘pkalar?

Bu elda bo‘z bola yo‘q, so‘z uqarlik,
Yaxshi ayg‘irga biya yo‘q, ot tug‘arlik.
Haytovur, oqsoqollar aytmadi deb
Yurmasin-da, ozgina so‘z chiqardik.

(1886)

* * *

Yigitlar, o‘yin arzon, kulgi qimmat,
Ikkisi ikki narsa — sir va simbat.
Soxta emas, chin qalbdan kuladigan
Kishi bo‘lsa, yaraydi qilsa suhbat.

Bir xil odam tinglar uydan chiqqanicha,
Bir xil odam quloq osar uqqanicha.
So‘z ma’nosin tushunar ba’zisi bor,
Avaylar har bir so‘zni o‘z holicha.

Chin yurakdan sevsa ekan kimni sevsa,
O‘z so‘zida tursa ekan yonsa, kuysa.
Bir xil nozik, ipak kabi bo‘z bolalar,
Arzon bo‘yoq kabi aynar bir nam tegsa.

Bo‘z bolaga kelishadi talabchanlik,
Xushfe’llik, hunar bilish va ishchanlik.

Ba'zi yigit sirtidan xush ko'rinadi,
Qilgan ishi maqtanchoqlik va manmanlik.

Shu ajoyib kunlaringni totuv o'tkaz,
Yetishmasa biringniki, biring yetkaz.
Beg'araz, inoq bo'lgin chin ko'ngildan,
Xiyonatli bo'lishlikni dildan ketkaz!

Bir yerda birga yursang boshing qo'shib,
Bir-biringga so'zlagin qalbdan jo'shib,
Bir-biringni hurmat etkil, izzat etkil,
Turmagin bir-biringdan qo'rqib, cho'chib.

Chin do'stlik, suhbatdoshlik ulug' ishdir,
Buning qadrin noqobillar bilmas hech bir.
Chin inson ortdan so'zlab, kulib yurmas,
O'zgalarga zinhor-zinhor yetkazmas sir.

Badavlat yigitman, deb, hamon bo'lmas!
Yengiltaklik qilsang sira ko'ngil to'lmas.
Er yigit o'z yo'lini topib yursin,
Haromtomoq bo'lsang agar, baxting kulmas.

Birovni husni bor deb yaxshi ko'rma,
Beqaror nafsing uchun chopib yurma!
Xotin yaxshi bo'lmaydi husni bilan,
Xulqini yaxshi bilmay ko'ngil berma!

Ko'p chidamas, arzon mato tezdan to'zar,
O'tkinchi, yengil havas dilni buzar.
Kunda ko'rgan bitta betdan ko'ngil qolsa,
Qilni qirq yorgan dono doim o'zar.

Yuragingning to'lqinin xatday tanir,
Qandaycha sezdirmaydi so'qsa tomir.
Yor uchun joningni ham fido qilib —
Yurganingni bilsa albat, qilar sabr.

Hadeganda ko‘rinar suluv ortiq,
Bilgin, ko‘pi ularniig bo‘lar injiq.
“Betim bor-da, betimga kim chidar” deb,
Biri raso bino qo‘yar, biri tantiq.

Aql kerak, ish kerak, xulq kerak,
Er uyalar ish qilmas bo‘lsa ziyrak.
Shilta, shilqim, lo‘ttiboz bo‘lsa agar,
Undaylarga do‘st topilar juda siyrak.

Xotining seni suysa, sen uni suy,
Birga yonib, birga shodlan, bir o‘tda kuy.
Er aqlli, xotini dono, lobar,
Totuv bo‘lib yashasa gullaydi uy.

Yo‘q bo‘lsa xotiningning chetdan yori
Va bo‘lmasa xulqining kirdikori,
Ko‘ngli toza, qalbi sof bo‘lsa bir gul,
Hamon birga borishar baxt sari.

Bezangan, moli ko‘p, deb, boydan olma,
Yo‘qsil qizi arzon, deb hech xo‘rlanma.
Ori bor, aqli bor, nomusi bor,
Ota, ona qizidan g‘ofil qolma.

Uyingga totuv tengdosh kelsa kirib,
Qovoq solma sen uni iymandirib.
Eri sevgan kishini u ham sevsin,
Xizmat qilsin ko‘ngli toza yurib.

Boadab, ochiq ko‘ngil bo‘lsin o‘zi,
Ma’noli dil og‘ritmas bo‘lsin so‘zi.
Sen uni hurmat qilib so‘zlaganda,
Xotiningda bo‘lmasin uning ko‘zi.

Do‘st bo‘ladi bugun totuv, ertang botar —
Qalbingga. Hamma ishi seni sotar.

Yuragida buzuqlik yo‘q, xiyonat yo‘q,
Chin do‘stni ko‘ngli ochiq kimsa topar.

“Foyda”, “mol” deb tug‘ilar endigi yosh,
Mehnat qilib, terin to‘kib hech ishlamas.
Yoymachilik qilar o‘zi kulgi bo‘lib,
Olsa bermas, hamon uning ko‘zi to‘ymas.

Savdo ishi qimor kabi — olish, berish,
Ko‘p kishining qilgan kasbi, mana shu ish.
Biri foyda talashib, biri aldab,
Dovlashib, urishib, sindirar tish.

Yosh bolalar tez orada do‘stlashadi,
Juda yaqin inoq bo‘lib olishadi.
Bir-birini quchoqlab, hayqirishib,
O‘yin bitar chog‘ida solishadi.

Bittasi yig‘lab kelsa uyi tomon,
Ota-ona shovqin solar undan yomon.
Totuvligi qurib ketsin, o‘yini ham,
Xuddi shunga o‘xshaydi ushbu zamon.

Yomon do‘stlik qaziydi o‘zingga go‘r,
Ishonsang unga, bir kun bo‘lasan xo‘r.
Ori bor, uyati bor zo‘rga ishon,
O‘zi zo‘rning bo‘ladi himmati zo‘r.

Qozoqning qaysi elining bor sarasi.
Qilt etsang doim tayyor bir balosi.
Xulqining bir belgisi tuhmat qilish,
Yo‘q bo‘lsa ham besh berib, olti olasi.

(1886)

* * *

Podsho Xudoy, sig'indim
Avvalboshda o'zingga.
Yov yoqadan olganda
Jon ko'rinmas ko'zima.
Arg'in, Nayman[1] yig'ilsa,
Hayron qolgan so'zima.
Hikmat so'zim xor bo'ldi,
To'biqtining heziga.
Samorodniy[2] sari oltin
Savdosiz bersang, alishmas
Shaldiragan jeziga.
Shildiroq sari qamqani
Sadag'ang ketgir, so'raydi
Samarqandning bo'ziga.
Kasalli tugun yechilsa,
Manman bo'yin kesilsa,
Kelib qolar o'ziga.
U ham Xudo bandasi,
Tushmay ketar dermiding
Tangrining ko'rgan teziga.

(1886)

* * *

Bozorga, qarab tursam, har kim borar,
Izlagani ne bo'lsa shu topilar.
Birov ovqat oladi, birov marjon,
Har kimga bir xil narsa bermas bozor.

Har kimning izlagan bir narsasi bor,
Chamalab oqchasiga shundan olar.

[1] **Arg'in, Nayman** — urug'-qabila nomlari.

[2] **Samorodniy** *(ruscha)* — asl yombi.

Birov uqmas bu so‘zni — birov uqar,
Bahosin fahm qilmay hayron qolar.

So‘z uqar ushbu kunda kishi bormi?
Demayman so‘zim yurtga birday yoqar.
Yozgan so‘ng yerda qolmas teshik munchoq,
Birovdan birov olib, elga tarar.

Bir kishimas, yozganim yalpi yurt-ku,
G‘ijinmayoq chiroqlar uqsang yarar.
“It marjonni na qilsin” degan so‘z bor,
Dili o‘tli yigitlar bir o‘ylanar.

(1886)

* * *

Internatda o‘qiydi
Talay qozoq bolasi.
Yosh o‘spirin, ko‘ko‘rim,
Go‘yo qo‘lning salasi[1].
Bolam zakon bildi deb
Quvnar ota-onasi.
O‘yiga kelmas ularning
Shariatga chalasi.
Rus tilini, yozuvin
Bilsam deydi talashi.
Prosheniye[2] yozishga
Tirishar kelsa chamasi.
Insofsizga ne kerak
Ishning oq-u qorasi.
Non topmaymiz demaydi
Bo‘linsa elning orasi.
Ijdihotsiz[3], mehnatsiz

[1] **Sala** — hovuch, kaft.

[2] **Prosheniye** *(rus.)* — Kechirish, afv etish, gunohidan o‘tish.

[3] **Ijdiho** *(arab)* — jahd, g‘ayrat, intilish.

Topilmas ilm sarasi.
Oz bilganin ko'psinsa
Ko'p qozoqqa epsinsa
Kimga tegar panasi?
O'ris-ku ters aytmaydi,
Yomon bo'l deb ularni.
Qoni buzuq o'zi o'ylar
Quv yoki shum bo'larni.
O'risda qolar jalasi[1].
Bu ishga kim vinovat?
Yo Semeyning qal'asi?
Yo qozoqning olasi?
O'yida yo'q birining
Saltikov yo Tolstoy.
Yo tilmoch, yo advokat
Bo'lsam degan barida o'y.
Ko'nglida yo'q sanasi[2].
Aqli kimning bor bo'lsa,
Demas buni til achchi(q).
Aytingiz-chi, bo'lsangiz
Zdravomislyashiy,[3]
Aql aytmasmi og'asi?

Foyda o'ylama, or o'yla,
Talab qil ortiq bilishga.
Ortiq bilim — kitobda,
Erinma o'qib ko'rishga.
Voenniy[4] xizmat izlama,
Yaltiroq kiyim kiyishga.
Bo'sh maqtovga tushay deb,
Bekor ko'krak kerishga.

---

[1] **Jala** — tuhmat, shubha, gumon.

[2] **Sana** — aql, idrok, zakovat.

[3] **Zdravomislyashiy** — sog'lom fikr yurituvchi, o'ylab ish qiladigan, halol odam *(rus)*.

[4] **Voenniy (ruscha)** — harbiy

Xizmat qilma o‘yazga[1],
Yonmay yotib so‘nishga.
Qalay sabr qilarsan
Gunohsiz kunda so‘kishga?
Hunarsizning qilig‘i —
To‘g‘ri so‘zin aytolmay,
Yaxshilikka botinolmay,
Xo‘rlik ila chirishga.
Oz oqchaga yollanib,
O‘ngmas ishga aldanib
Yo‘l topolmay yurishga.
Olis bo‘lsa-da izlab top
Korennoy[2] ishga kirishga.
Halol yurib, halol tur,
Schyoting[3] to‘g‘ri kelishga.
Joningga yoqsa ergashib,
Yalqovlanma yurishga.
Qiyshiq bo‘lsa — zakon[4] bor
Sudyalarga berishga.
U ham o‘yaznoy emas-ku
Tenglik qilar deyishga.
Yo yuzma-yuz tavakkal
Zanimaysya pryamotoy[5].
Yengil ko‘rma, jahd kerak
Unga ham ilm, unga ham o‘y,
Qayerda, nima qilishga!

(1886)

---

[1] **O‘yaz** *(ruscha "uyezd")* — uyezd hokimi.

[2] **Korennoy** *(rus)* — asosiy kasb, oilangni boqadigan qo‘lingdagi hunar, degan ma’nolarda.

[3] **Schyot** *(rus)* — hisob-kitob, yaxshi amallaring degan ma’noda.

[4] **Zakon** *(ruscha)* — qonun.

[5] **Zanimaysya pryamotoy** — to‘g‘riso‘z, ortga qaytmaydigan odamlarning ishini qil, degan ma’noda.

* * *

O‘kinch to‘la ko‘p umr ketdi o‘tib,
Mukammal bo‘lolmadik har ne etib.
Dononing men ham sonli biriman deb,
Talab, o‘ysiz, maqtovni yurdik kutib.

Ulgisiz yurtni o‘rgatib, qoldik keyin,
Ko‘p nodonlar o‘ziga tortar lekin.
Ayrilmas odat bo‘ldi kulgichilik,
Hiringlagan itfe’llik degandayin.

To‘g‘ri tilli kishini deymiz o‘ris,
Jirkanib, jilpanglikni demas burish[1].
Jilpilloqdan ayrilib, singisha olmay,
Odamlikni yo‘qotar oxir bu ish.

Ishonchi yo‘q sharmanda sirni buzdi,
Aniq toza ko‘rmaymiz do‘stimizni.
Qilt etmoqqa ko‘ngilning kechuvi yo‘q,
Yuragida yotadi o‘pka muzi.

Do‘st-oshiqning bo‘lmaydi bo‘tanligi[2],
Qo‘shilgan bo‘shashmaydi yurak ipi.
Bizning do‘stmiz, oshiqmiz deganimiz —
Yolg‘onlikdan yasalgan ko‘ngil yuki.

Ishongan do‘stim ham yo‘q, oshig‘im ham,
Oxiri o‘lan qildim, shoshildimma?
Ko‘rmagan kun dunyo ko‘l ko‘rindi,
Kirlamagan ko‘ngilning ochig‘inda.

Xudo bergan bu do‘stlik — konning biri,
Munglashganda qolmaydi ko‘ngil kiri.
Qo‘ldan do‘stlik yasagandim bo‘lar-bo‘lmas,
Itburunday[3] nodonning yirtdi biri.

[1] **Burish** — qiyshiq, teskari.

[2] **Bo‘tan** — begona, yot, notanish.

[3] **Itburun** — tikanak, tikanli o‘t.

Shu do‘stni soya topmay izlaydi jon,
Yo‘qlaydi gungranib ham qo‘zg‘alib qon.
Yov yoprilsa buzilmas jon ko‘rmadim,
Ortiq yo‘ldosh topmadim totuvlikdan.

(1886)

* * *

Sabrsiz, orsiz, erinchak,
Ko‘rsaqizar, yalmog‘iz,
Sho‘rlik qozoq shuning-chun
Oltibaqan[1], ola og‘iz.
O‘zini o‘zi kunlaydi,
Yaqinin yolg‘on ayblaydi,
Shu — orsizlik belgisi.
Uyalmasdan, o‘ylanmay,
Qo‘y deganga til olmay,
Ish qilarmi ul kishi?
Bir sakrab chiqaman deb,
Bir irg‘ib tushaman deb,
Martigadi[2] yotadi.
“O‘g‘irlab mol topaman,
Tortishsa — ovul chopaman!”
Deb, Xudodan topadi.
“Bu nimang?” degan kishiga,
Yo‘q narsani chatadi.
Qutulay deb ishidan,
Barin ko‘rib kishidan,
Chiqimga obdon botadi.
Bu bo‘lmasa unisi,
Ag‘darilib qo‘nishi[3],

[1] **Oltibaqan** — oltita asosga qurilgan, uchib o‘ynaladigan arg‘imchoq, o‘yin nomi.

[2] **Martikmoq** — shikastlanmoq, suyakning ezilishi.

[3] **Qo‘nish** — cho‘pon, podachi, otarning yaylovda egallagan o‘rni.

Olisdan ta'm totadi.
Xizmat qilib mol topmay,
Ilm o'qib o'y topmay,
Faqat uyda yotadi.
El oralab, osh ichib,
Erkak orin sotadi.
Xotin, bola-chaqasi
Uyida muzlab-qotadi.

Mehnati yo'q, erkashib[1],
Bir cho'loq-la serkashib[2],
Pishiq degan ont chiqdi.
Bir so'z uchun yov bo'lib,
Bir so'z uchun do'st bo'lib,
Yuz burgan odat chiqdi.
"Pishiq kim?" deb so'rasang, —
Qal'aga chopsa dam olmay,
Yolg'on ariza ko'p bersa,
Ko'rganlardan uyalmay.
Shivirdan boshqa siri yo'q,
Chorvaga qarar qiri yo'q,
O'tirik, g'iybat, maqtovga
Oqib turar xuddi suv.
Ot-chopondan kam ko'rmas,
Birov otin qo'ysa "quv",
Quv nafsini tiyolmay,
Otim chiqib yursin deb,
Barakaga qasd bo'lib,
Qarab turar aytaqqa[3],
Aroq ichmay, mast bo'lib.
El tinchmi — bu ozadi,
Zerikib o'layozadi.
Uyda o'tirsa shalvirab,

[1] **Erkashib** — erkalanib.

[2] **Serkashib** — o'zini serka (rahbar, yo'lboshchi)day sezish, katta ketish.

[3] **Aytaq** — itga nima qilish-qilmaslikni aytib-o'rgatiladigan so'z, harakat.

Tuzga[1] chiqsa alvirab,
Kishini ko'rsa qiljanglab,
Hazillashgan bo'p tirjanglab,
O'z uyida qiypanglab[2],
Kishi uyida so'z poylab,
Aq(i)li bor kishini
G'iybatlaydi, dodlaydi.
Dasturxonli qarindoshin,
Xayrsiz it deb yotlaydi.

Mol va baxtning dushmani,
Kasalli pishiq ko'paydi.
Kuchuk itday vovullab,
Kimdan kamman, demaydi.
Quv til bilan qutirtib,
Kesadi bir kun o'tirtib.
Xizmati singgan kishini
Quritishga tayaydi.
Qilib yurgan hunari:
Harakati — zalolat.
O'zi o'ngmagan ont urgan,
Kimga o'ylasin barokat?
Kimni ham u ayaydi?
Rosti yo'qdir so'zining,
Rizqi yo'qdir o'zining,
Ko'tara lof so'z bilan
Chinning betin bo'yaydi.
Bu so'zimda yolg'on yo'q,
Aytilmay so'zim qolgan yo'q,
Ehtiyotlab payqangiz —
Elning rasmi shulaydir.

(1887)

---

[1] **Tuz** — maydon, tashqari.

[2] **Qiypanglamoq** — o'z-o'zidan uyalgan bo'lib, xijolat chekkanday yurish.

* * *

O‘zga elda bor bo‘lsa,
Siylashuvchi, fikrdoshing,
Ko‘pdan sirdosh, shivirdosh,
Totuv bo‘lgan qiymasing,
Boshingga yumush tushganda,
Nimani u o‘ylasin?
Ochib berar yovingga
O‘zi ko‘rgan qo‘ymasin[1].

Quturgan yovga kez bo‘lsa,
Arazligi so‘z bo‘lsa,
“Barakalla, botir” deb,
“Zo‘r bo‘p borayotir” deb,
Maqtab-maqtab qo‘zdirar.
Eski do‘stin ko‘rganda,
Hisobi yo‘q ont ichib,
Arvoh, Xudo aytishib,
“Sir olgali aytdim” deb,
“Yovingni aldab, qaytdim” deb,
Xudodan qo‘rqmay, ont urgan,
Imon yuzin to‘zdirar
Kelib-kelib ko‘p yurib,
“Men do‘stingman” deb yurib,
Dushmanligin o‘zdirar.
Aldaydi deb yovingga,
El torttirmay bag‘ringga,
Ko‘ringanni azg‘irar[2].

Kasalli bo‘lib bitadi
Yaxshiga bitgan yaqinlar.
Yov yoqadan olgan kun

[1] **Qo‘yma** — yashirin sir, biron erga yashirib qo‘yilgan maxfiy narsa, xazina.

[2] **Azg‘irmoq** — aynitmoq, yo‘ldan urmoq.

O‘zlari itday taqimlar[1].
Uyda o‘tirib esganda[2]
Bari chechan, taqillar.
Ovloqqa chiqib, biriga
Biri so‘zini ma’qullar.
Yov ko‘p bo‘lsa boshingda,
Biri qolmas qoshingda,
Yetaklasang — tovonlar[3].
Dalaga chiqib, o‘zingni
Yovdan battar yomonlar.
Yalvorinib kun ko‘rib,
Yaqinin sotib, jo‘n ko‘rib,
Qaltang-qultang amallar.

Tug‘ishganga kekchili,
Yosh boladan battardir.
O‘ylash, fikr qilish yo‘q
Kelar bilan ketarni.
Yaqinga ergashib — mol solmay,
Yovni ko‘rib — jon solmay,
Qaydan ham bilsin axir u
Og‘ir bilan yengilning
Orasidan o‘tarni?
Yo‘ldosh oz bo‘p shoshganda,
Avval undan eshitasan
“Ot ustidan ko‘tar...”ni.
Og‘ir yumush kez bo‘lsa,
Arazligi so‘z bo‘lsa,
Arazlagan kishi bo‘p,
Siltov qilar bekorni.
O‘rganmaydi kishidan,
Tirjanglar, topib battarni.

---

[1] **Taqimlamoq** — yovga bo‘lishish, sotqinlik qilish ma’nosida.
[2] **Esmoq** — bu yerda o‘zaro suhbatlashganda degan ma’noda.
[3] **Tovonlamoq** — qarshilik qiladi demoqchi.

Baxtingiz chopsa, agar siz
Har yerdanoq ko‘payar
Nurli yuz ham mollingiz[1].
Falonchini uray deb,
Tuvanchini qiray deb,
Torchilikda tayranglab,
Kengchilikda vayronlab,
Ko‘p maqtovga qoldingiz.
Agar tilin topsangiz,
Kishi qolmas kishidan.
Agar tilin topmasang,
Burqsib yonar ichidan.
Har kimda bordir tug‘ishgan,
Qaysisi yovni quvishgan?
Kun yoqqanda — qo‘yningda,
Kun ochiqda — bo‘yningda,
Ketmas bir minnat bo‘lgan so‘ng,
Har kimning ko‘ngli sovushgan.

Yaxshiga bitgan og‘ayin
O‘z uyida kezaksiz
Chechan bo‘lar shartillab.
Birov bilar yer kelsa,
So‘z topolmas qaltillab.
Hazilda ham no‘noq u,
Yov kelganda qo‘rqoq u,
Erkin yerda izzaxo‘r[2].
Hovliqadi tarqillab.
Odob bilmas, nodonvash,
Minazi totli bo‘lmaydi.
Manmanrog‘-u pongkalla,
G‘irt maqtanchoq o‘ngmaydi,
Kibrlanib, yalpillab.
Birovga o‘ktam ish qilsa,

[1] **Mollingiz** — molli, boy-badavlat, oshnolar demoqchi.

[2] **Izzaxo‘r** — jizzaki, sal narsaga xafa bo‘lib qoladigan.

O‘z kuchim deb o‘ylaydi.
Agar kuchi yurmasa,
Bu boyagi yaxshining
Qilgani deb qo‘ymaydi.
Yot iymanar ishi yo‘q,
Yov hayiqar kuchi yo‘q,
O‘z erkiga qo‘yvorsang,
Hech narsaga to‘ymaydi.
Qozonbuzar bir xirs,
Aytgan so‘zga ko‘nmaydi,
Tentak ishin ko‘rmaydi.
Hazili — ters, so‘zi — urush,
Shunday kasal tug‘ishgan,
Qandoq bo‘la olardi,
Ko‘ngilga — madad, dilga — xush?!
Balodan hazar qilmoqni
Yurt unutdi biryo‘la.
Chini bilan tamom el
Ketarmikan it bo‘la?
Ichganlar — mast, yegan — to‘q,
Qayg‘u qilar birov yo‘q, —
Hech bo‘lmasa bo‘lsaydi
“Bulut — ola, yer — shu’la...”

So‘zi o‘tar kengash yo‘qoldi,
El shivirni[1] qo‘lga oldi,
El ichida bitimchi
Tugal olib kelmaydi
Keladigan bir molni.
El yamagan biylar yo‘q,
El izlab, holdan toldi.
Yashirin borib duchlashsa,
Aqcha berib ushlasa,
Haqini arang shu oldi.

[1] **Shivir** — shivir-shivir g‘iybat, maxfiy aytilgan sir.

O‘ris siyaz[1] qildirsa,
Bo‘lis elni qamraydi.
Quv starshin, och biylar
Och yurakni dog‘laydi.
O‘rissiz biron to‘p bo‘lsa,
Chaqirilgan kishi bormaydi.
Bitim qilib bir kishi
Halol molini olmaydi.
Qizig‘i ketgan el boqib,
Navbati o‘tgan so‘z boqib,
Endigi otga minganlar
Kunda ertangga tolmaydi.

Bosh qo‘shilsa arisga[2]
Kim chopadi nomusga?
Yotga qarar beti yo‘q,
Yalinmay turar k... yo‘q,
Ishi ketib chalishga[3].
El bo‘lagi To‘biqti
Xo‘p pishiqqa yo‘liqdi.
Mollining molin ko‘rolmay,
Burchini tugal berolmay,
Ko‘rdi o‘ziyam xo‘rlikni.
Qozoqning molin shopirib,
Ko‘p baloga chatilib,
Kasofatga yo‘liqdi.
O‘zidan chiqqan yaxshilar
Tuzata olmay zo‘riqdi.
Bo‘tan elning odami,
Tindirmagach, haromi,
Ko‘ngli obdon to‘riqdi[4].

---

[1] **Siyaz** — syezd, yig‘in, qurultoy.

[2] **Aris** — urug‘-qabila, toifa, el-xalq.

[3] **Chalish** — xato bosilgan qadam.

[4] **To‘riqmoq** — umid uzmoq, ixlosi qaytmoq.

Savdogar qochdi bu eldan,
Nasibasin yig‘olmay.
Yo‘qsil, ojizlar qoldi
Yo‘g‘onlarga sig‘olmay.
Ishonchsiz bo‘ldi alashga[1]
Barimtasin[2] tiyolmay.
Ishonchi yo‘q, onti bor,
El nusxasi ketdi-ku.
Elman degan odati bor,
Hali kungacha qayg‘u
Qilgan jon yo‘q, uyalmay.

(1887)

* * *

O‘lan — so‘zning poshshosi, so‘z sarasi,
Qiyindan qiyiltirar er donosi.
Tilga yengil, yurakka iliq tegib,
Tep-tekis, silliq kelsin aylanasi.

Saralanmay bulg‘ansa so‘z orasi,
Bu — oqinning bilimsiz — bechorasi.
Ham oqin, ham tinglovchi ko‘pi nodon,
So‘z tanimas bul yurtning bir porasi.

So‘z boshi avval hadis, oyat bo‘lur,
Shirasi ham ma’nosi g‘oyat bo‘lur.
Payg‘ambar ham so‘zini o‘lan qilgan;
O‘lan aytay, shoyadki ko‘nglim to‘lur.

O‘landay xutba o‘qir keksa mullo,
O‘lan aytib yig‘lagan valiyullo,
Hamma ham chamasicha o‘lan o‘qir,
O‘lan bilan yozilgan kalimullo.

---

[1] **Alash** — xalq, qavm, ko‘pchilik.

[2] **Barimta** — bosqinchilik.

O‘langa ishqimiz bor qadim choqdin,
Lekin qanday naf bo‘lar maqtanmoqdin!
Ichi zar, sirti kumush so‘z yaxshisin —
Kelishtirar kim ham bor mo‘l qozoqdin?

So‘zni chertib so‘zlasang har kim siylar,
Maqol qo‘shib so‘zlarkan keksa biylar.
Oqinlari beaql, nodon ekan,
Bekor so‘zni teriday nuqul iylar.

Qo‘lida ham qo‘bizi, ham do‘mbira,
Hammaga maqtov o‘qir, qo‘ymas sira.
O‘lan aytib xayr tilar elni kezib,
So‘z qadrin yerga urar, bo‘lib xira.

Mol uchun so‘zni bezar, vijdon sotar,
Mol uchun bo‘yin egar, molday yotar.
Mol uchun ham aldaydi, ham avraydi,
E, Xudo, shu oqinlar qachon qotar

Boylarni maqtay berib so‘z qolmabdi,
O‘lan aytib, mol yig‘ib, boy bo‘lmabdi.
O‘lanning qadri ketdi el ichida,
Qadrini ketkizganlar yo‘qolmabdi...

Keksa biydek maqolga burmagayman,
Yo oqindek xayr tilab yurmagayman.
So‘zim — o‘zga, tinglovchi, sen ham tuzal,
Behuda gapdan suhbat qurmagayman.

El chopgan botirlardan so‘ylab bersam,
Oshiqlar, ma’shuqlardan kuylab bersam,
Anchayin hangoma deb tinglardingiz.
So‘zlarning sarasini so‘ylab bersam...

Ammo, aql chaqirilmagan mehmon emish,
Aqli borga bunday umr zindon emish...

Kechiring, nodonlarga tegib o'tsam,
Bu elda to'g'ri aytgan yomon emish...

To'g'riso'zlik o'lanim o'zing ko'rkam!
Mayli, tatimasa ham so'yla bardam...
Bu yurt so'z oshig'imas, mol oshig'i,
Roziman, mingdan biri tushunsa ham...

O'zi bilan yovlashgan yurtim, tingla!
O'zi bilan dovlashgan yurtim, tingla!
Dardingga davo bo'lsin o'lanlarim,
Bir-birini ovlashgan yurtim, tingla!

Nahot senda qolmagan nomus va or?
Nahot nomus va insof emas darkor?
Teran o'y, teran ilm yo'ling ochsin.
Yolg'on o'lan va so'zdan olam bezor...

(1887)

* * *

Birovning kishisi o'lsa, qorali — ul,
Qazo ko'rgan yuragi yarali — ul,
Ko'zining yoshin tiymay yig'lab yurib,
Zorlanib, nega kuyga soladi ul?

Kuyov keltir, qiz uzat, to'yingni qil,
Qiz tanishtir — qiziqqa yurt kulgichil.
Qinamende[1], yor-yor-u betochar bor,
O'lansiz shular qiziq bo'larmi gul?

Bola tug'sa, kuzatar chillaxona,
Yana o'lan, qizadi sho'x tantana.

[1] **Qinamende, betochar** — to'yda o'tkaziladigan marosim nomlari. Qinamende — kuyovni tanishtirish marosimi. Betochar — kelinsalomga o'xshash marosim.

Burungi yaxshilardan o'rnak qolgan,
Biyda taqmaq[1], maqol bor — fikr qil, sara!

Tug'ilganda dunyoni ochar o'lan.
O'lan bilan yer qo'yniga kirar tanang.
O'lan bilan dunyoning bor qizig'i,
O'ylasang-chi, bosh qoqmay alang-salang.

O'lanni aytmoq tugul, uqolmassan,
Aytsang ham, uddasidan chiqolmassan.
Seni bilmas ekan deb aytmasinmi,
Nega buncha tirashib, xo'p olmassan?

O'lan degan — har so'zning unasimi[2],
So'z qo'sharlik, o'rtada yarashimi.
So'zi totli, ma'nosi tuzuv kelsa,
Unga kimning topilar talashuvi?

Qorni to'q xossa nodon uqmas so'zni,
So'zni uqar ko'kragi bo'lsa ko'zli.
Yaxshi so'zning qadrini bilar jonga,
Topib aytgin ungayam aytar kezni.

Siy-hurmat ta'ma qilma hech odamdan,
Nimang ketar yaxshi o'lan-so'z aytgandan.
Mehr ko'rsatgan odamni hurmat qilgin,
Ovloq bo'l so'zin sotib narsa olgandan.

Ko'p ichida so'z bilgan ozdir biroq,
Unday yerda so'z aytib bo'lma mazoq.
Birov undoq, birovi bunday qarab,
Tugal so'zni tinglashga bormi qozoq?

Sho'rtanboy, Dulat bilan Buqar jirov,
O'lani — biri quralgan, biri — yamov.

---

[1] **Taqmaq** *(taqpaq)* — naql so'z, maqol, ifoda bilan o'qiladigan she'r.

[2] **Unasim** — unamoq, yarashimli, bir-birini taqozo qiluvchi.

Attang, dunyo-ay, so‘z tanir kishi bo‘lsa,
Kamchiligi har yerda ko‘rinib tur-ov!

Maqsudim til rivoji, hunar sochmoq,
Nodonning ham ko‘zin, ham ko‘nglin ochmoq.
Ulgi olsin deyman o‘yli, yosh yigitlar,
Yengil yo‘lga ketmasin huv boshda-yoq.

(1888)

KUZ

Sur bulut, rangi sovuq, to‘lar osmon,
Dalani quchog‘iga bosar tuman.
To‘ygandanmi, bilmayman, to‘nggandanmi,
Uyur-uyur yilqilar chopar har yon.

Maysazor yo‘q, tarasa, yellarda soch,
Tilanchiday qup-quruq har bir yog‘och.
Go‘daklar shovqin solmas, yugurishmas,
Cho‘l yonib ketgan kabi qip-yalang‘och.

Birovlar — po‘stin tikar, terisi mo‘l,
Birovlar — juldur chakmon, kezadi cho‘l;
Boy uchun kiygiz bosar gala cho‘ri,
Birovlar kuni uchun oladi yo‘l.

Turnalar to‘p-to‘p uchar tushlik yoqqa,
Sarboni bor karvonni boshlamoqqa.
Qay ovulga bormagin, g‘ussa to‘liq,
Yel o‘shqirib chopadi tog‘dan toqqa.

Ko‘ngilsiz qora sovuq, qirda yursang;
Birov kelib qaramas yolg‘iz o‘lsang.
Go‘daklar och, ingrashar kampir ham chol,
Itlar ham och uvlashar qayda ko‘rsang.

Yoz o‘tdi ayron ichib yaylovlarda;
Olov yo‘q, bu choq qora o‘tovlarda.
Sho‘ring qursin, qozog‘im, sho‘ring qursin,
Moling mo‘l, och kezasan qishlovlarda.

(1888)

* * *

Yoz ketdi, qishning boshi, dala bejoy,
Qora yel so‘qib turar bir-ikki oy.
Qor tushguncha yaylovni foyda ko‘rib,
Qishloqdan hamon nari o‘tirar boy.

Gadoy sho‘rlik yuradi poda boqib,
O‘tini yo‘q, isinsa olov yoqib.
Xotin urchuq yigirar, yung savalab,
Chakmon tikar sovuqda yelka qoqib.

Juldur o‘tov ichida muzlar go‘dak,
Na quyuq, na suyug‘i... bo‘zlar go‘dak.
Churik kiygiz ostida titrar bobo.
Tushida go‘sht ko‘rganini so‘zlar go‘dak...

Qari qo‘y so‘ydirar boy baxilligi,
Och yuribdi kambag‘al aqlligi.
Urishmayin yarim qon qiy bersa ham,
Qo‘ychi boyning kattakon saxiyligi...

Bo‘ronda ham to‘ngmaydi boy bolasi,
O‘tov issiq — kiygizli aylanasi,
Qarol o‘g‘li bosh bukar xizmatida,
Pisand emas ko‘z yoshi, oh-nolasi.

Och bolaga o‘rin yo‘q boy uyida,
Sorqo‘tga ham ilinmas shu ko‘yida,

Lekin uzoq ketolmas, chorasi yo‘q,
O‘tirar uygan yukdan sal quyida.

Qaroliga bermaydi boy parcha non,
Xizmatga ham xayri yo‘q, yovuz hayvon.
Mehri yo‘q, insofi yo‘q, imoni yo‘q,
Nega odam yaratding, qodir Mavlon?!

Qaroli och o‘lsa ne, boy o‘zi to‘q,
Mehnat bilmas, haq bermas ko‘zlari lo‘q.
Yaxshi bola, kampir, cholni tentiratmay,
Hech bo‘lmasa bir qish boq, insofi yo‘q!

(1889)

QISH

Oq kiyimli, pahlavon, oq soqolli,
So‘qir, gung, hech tanimas tirik jonni,
Ust-boshi oq qirov-u, tusi sovuq,
G‘archillab keldi qishning qahratoni.

Nafasidan esib turar ayoz va qor,
Qari tullak qish kelib tashvish soldi.
Chaqmaqi bo‘rkin kiygan chekkasiga,
Ayozdan yuz qirmizi chiroy oldi.

Ikki ko‘zin bulutday qoshi yopgan,
Bosh silkisa, qorlar yog‘ib, mazang olar.
Ola-tasir bo‘ronday jini qo‘zg‘ab,
Olti qanot oq o‘rdaga titroq solar[1].

O‘ynamoqqa chiqib qolgan yosh bolalar
Bet-qo‘li to‘ng‘ib qolib, ushuk urdi.
Qavat-qavat chopon kiygan molchi hatto,
Izg‘iringa chidolmasdan yuzin burdi.

[1] **Olti qanot o‘rda** — olti keragadan qurilgan katta o‘tov.

Qor tepishdan horimas yilqilar ham
Holdan toyib, diydirab, turib qoldi.
Qish bilan birga chovut soldi qashqir,
Cho'ponlarim, xor qilmangiz unga molni.

Molni yoyib, ko'z-u quloq bo'l, birodar,
Uyqu qochmas, g'ayrat qilib, buz qamalni!
It yegancha Ko'ndibo-yu Qanay[1] yesin,
Mayli, quruq jo'nat manov qari cholni.

(1888)

KO'LAMBOYGA

— Va alaykum assalom!
Mingboshi, mol-jon omonda.
Yaxshilarga duch kelding
Alg'ov-dalg'ov zamonda.
Ota-bobong el biylamay
O'tgan edi armonda.
Bo'lislikni ishga sol —
Xarjing qaytar, demasmi.
Hazillashdim, yo bunga ham
Chamaginang kelmasmi?
Tura solib chopasan
Chopar kelsa qichqirib.
Ne qilarsan Uyaz kelsa
Ajdahoday o'shqirib?
O'tiribsan uyingda
O'z-o'zingdan ko'pirib
Mansab bekor bo'lguday
Birov o'tsa tupurib...

(1888)

[1] Ovul nomlari.

* * *

Yelsiz tunda yorug‘ oy
Nuri suvda dirillar.
Ovul oldi teran soy,
Daryo kabi gurillar.
Qalin daraxt barglari
Shivirlashar, g‘oz qotar.
M aysazordir taglari,
Ko‘m-ko‘k tovlanib yotar.
Yangrar edi tog-u tosh,
Kuylab kelgan chog‘ida.
Yo‘limga chiqar eding,
Ko‘rishardik ovlog‘da.
Qalbi gup-gup urardi.
Sovuq ter bosardi goh.
Horib shunda turardi,
Cho‘chib tushardi nogoh.
So‘z aytolmas, tili lol,
Notinch edi yuragi.
Suyanib turar behol,
Tomoqqa botib iyagi.

(1888)

* * *

Mast bo‘ladi bo‘lising
Yelkaga ulug‘ qoqqanga.
Yaltiratib o‘rising
Unvonli chakmon yopganga.

Kunda yaxshi bo‘larmi
Bir qilig‘i yoqqanga?
Zarbof to‘nlar to‘larmi
Or-uyatin sotganga?

Kulimsirab qaqqayar
Tushdim deya maqtovga.
Tang qolaman qampayib
Yo‘qni borga chatganga.

Uyi mast bo‘p, qo‘y so‘ydi
Suyunchiga chopganga.
Ovora qildi, o‘y soldi
Uyda tinch yotganga.

Hech narsa emas yupanar,
Aql ko‘zi-la boqqanga.
Yosh boladay quvonar
Bir ta’mli osh topganga.

Ko‘zi borlar kuladi
Shundayda k..in ochganga.
Bo‘yidagi xislatni
Bekor to‘kib-sochganga.

Quvonarlik qiz emas
Yaltiroq narsa taqqanga.
O‘zgalarni, biz emas
Tushirmoqchi qopqonga.

Shu ham hisob bo‘larmi
Or va obro‘ topganga?
Miyang bo‘lsa, yo‘lama
Bo‘sh ilikni topganga.

Bir besh nodon, o‘ngmassan
O‘nta boshni qo‘shganga.
Shoshil, yomon bo‘lmassan
Yomonlikdan qochganga.

U “bo‘ldim-ov!” deyverar,
Ket o‘ynatib har jonga.

Alanglab ham qaraydi
Ko‘z olartib osmonga.

Joyi ma’lum cho‘chqaning,
Turtganiga cho‘chima.
Bir olimdan boshqaning
Kasali ko‘p oshganning.[1]

Undan umid kim qilar,
Yo‘l topar deb shoshganda?
Unday odam yo‘liqar
Ko‘p o‘tma yoq to‘sganga[2]!

* * *

Qalbingda o‘ting bo‘lsa,
Ushbu so‘zga ber ko‘ngil!
Agar o‘ting bo‘lmasa,
Mayli tiril, mayli o‘l!
Tanimassan, ko‘rmassan,
Ko‘z o‘tingni bossa kul.
Imomsizlik namozda
Qizil boshdan qolgan ulg
Chuvlagan el ne topar
Boshqarmasa bitta qo‘l.
Barakali bo‘lsa el,
Yoqasi yaylov u bir ko‘l.
Yaproqlari chayqalib,
O‘ynab turar essa yel.
Yon-beriga gurkirab,
Quyib tursa oqqan sel.
Uning moli o‘zgadan
O‘zgacha bo‘lib o‘sar ul.

[1] Bunaqa oshib-toshishlarga olim (o‘qigan) odamdan boshqalar yaramay qoladi, demoqchi.

[2] “To‘siq” degan ma’noda.

Barakasi ketgan el
Suvi sassiq, botqoq ko'l,
Qushlar qanqib yoqalab,
Bola ochmas sira ul.
Uning suvin ichgan mol
Ichi ketib oshmas bel.
Qo'l deb, uni kim aytar
Suvi qursin — u bir cho'l.
Yedinitsa yaxshisi
Ergashgan el — shunday nol.
Yedinitsa nolsiz oq
Bosh boshdoqlik bo'lar ul.
Yedinitsa bo'lmasa
Nima bo'lar hamma nol?
Barakangni qochirma,
El tinch bo'lsa yaxshi ul.
To'g'ri so'zga talashib,
Oq yem bo'lma, jonim bo'l!

(1889)

* * *

Men o'lanni yozmayman ermak uchun,
O'tkan-ketgan gaplarni termak uchun.
Men o'lanni yozaman tushunganga,
Avlodimga bir saboq bermak uchun.
So'zimni tentak uqmas, ziyrak uqar,
Ko'nglining ko'zi ochiq, sergak uqar.

Qiyshiq-qing'ir yo'llardan kelma menga;
To'g'ri kel, ko'p sir ochib tashlay senga.
Ehtimol, birinchi gal uqmassan ham,
O'lan alifbesidan boshlay senga.
Aytib qo'yay, yoqmasa shu zamonoq ayt;
Yangi o'lan so'ramay, ovulingga qayt.

Men o‘landa afsona kuylamadim,
Oltindan quyma qizni o‘ylamadim.
Keksalarga hech o‘lim tilamadim,
Yoshlarga yomon bo‘l, deb so‘ylamadim.
Jirkanmayin, so‘z aslin mendan so‘ra,
So‘zimning tagi teran, payqab qara.

Ota bilan olishgan — odam emas...
Sargardon ham sayoqlar hech kam emas.
Vatansiz, nodon, molsiz yetib-ortar,
Xotinboz, quruq savlat, sir ham emas,
Qozoqda bangilar ham chiqib qoldi.
Behunar hangilar ham chiqib qoldi.

O‘lan ko‘p, tuzsiz o‘lan tegdi jonga,
Yolg‘on gap tegib ketdi bu jahonga.
Oqinlarga, yalinaman, aqlga kir.
Asl so‘z, saylab so‘yla yosh insonga.
O‘lan bor — o‘lanlarning o‘lanidir.
O‘lan bor — bema’nidir, bema’nidir.

(1889)

* * *

Avvaldan bir sovuq muz — aql ziyrak.
Isitgan butun bo‘yni issiq yurak.
Sabotlik, talabgorlik, chidamlilik
Bu g‘ayratingday chiqadi, bilsang kerak.
Aql, g‘ayrat, yurakni birdan ushla,
Shunda to‘lqin bo‘lasan eldan bo‘lak,
Yakka-yakka hech biri yoritmaydi.
Yo‘lda yo‘q yarim pishi yaxshi demak.
Aql ham, g‘azab ham yo‘q, kulki ham yo‘q,
O‘ynab, qaynab bir yurak qilar halok.
Birovining kuni yo‘q, birovisyz,
Ilm — shu uchovining jo‘nin bilmak.

(1889)

* * *

Oshiqlik bor, xumorlik bor — bu ikki yo‘l,
Xumorlik — bir nafs uchun bo‘ladi qul.
Sendan ortiq jon yo‘q deb, oshiq bo‘ldim,
Men ne bo‘lsam bo‘layin, sen omon bo‘l!

Ko‘nglimning rohat, g‘ami — sen bo‘lgan so‘ng,
Yashrinma hech, nuringdan jon quvonsin.
Birga yoqqan birovga yoqmas edi,
Tirik jonga sevimli netgan jonsan?!

Oshiqlik kelsa — yengar bo‘yingni olib,
Ozdirar bezgak kabi og‘riq solib.
Bor vujud sovuq qotar — umid uzsa,
Tamalansa, o‘rtanar kuyib-yonib.

(1888)

* * *

Xor bo‘ldi jonim,
Sensiz o‘tib kunim.
Bek bitdi holim,
Taqdirdan kelgan zulm.
Taqdir qilsa Alloh,
Ne ko‘rmaysan, oh-oh!

Sayrayver, tilim,
Sarg‘ayibsan darddan.
Bukildi belim,
Yor toygach har shartdan.
G‘amgin tortdi ko‘ngil,
Ne qilsam, bo‘lar yengil?

Sog‘indim seni,
Ko‘rmadim deb ko‘p zamon.

Odam deb meni
Solmading sen xat hamon.
Joy topolmay yurak,
Qum bo'ldi bu suyak.

Bu qilgan zorim
Borsa yorning yoniga,
Shu — qilgan dorim
Oshig'imning joniga.
Tiklab qaddi-bo'yni,
Tuzatmasmi o'yni?
(1888)

YIGIT SO'ZI

Salom berdim, qalamqosh,
Senga qurbon mol ham bosh.
Sog'inib, seni o'ylab,
Ko'zdan oqar qaynoq yosh.

Sendan ortiq jon tug'mas,
Tug'sa tug'ar — ortilmas.
Bir o'zingdan boshqaga,
Oshiqligim aytilmas.

Asl odam aynimas,
Ishq o'tidan qayrilmas.
Ko'rmasam ham, ko'rsam ham,
Ko'nglim sendan ayrilmas.

Ko'zim yotga qaramas,
Yosh ham menga yaramas.
Tor to'shakda to'shingni
Iskarmidim yalang'och?

Iyig‘imda sumbul soch,
Quchoqlashsak biz birpast.
Lazzat olsak bo‘lmasmi,
Ko‘z yumilgan, ko‘ngil mast!

Sizda noz, bizda ixlos,
Shu so‘zimning bari rost.
Sizday yorning dunyoda,
Lazzatiga jon to‘ymas.

Eting etga tekkanda,
Daming tiyib suyganda.
Tan jimirlab, bo‘y erib,
Ichim o‘tday kuyganda.

Yurak erib iyganda —
Ichki sirni tuyganda —
Izlab topar shunqorman,
Go‘zalimni quvganda.

Jonim, hijronni yo‘qot,
Qarab to‘ymayman yuz qat.
Issiq tiyib borasan,
Bir soatdan — bir soat.

Siz qirg‘ovul jez qanot,
Gul yuzingni bir qarat.
Yaqinlayber yonashib,
Xumorimni bir tarat.

(1889)

QIZ SO‘ZI

Kelishtirib maqtaysiz,
O‘ylasang na topmaysiz?
Bizda erk yo‘q, o‘zing bil!
Alla nega boshlaysiz!..

Biz ham odam payqaymiz,
Biz mardlarni yoqlaymiz.
Sizday asl gez kelsa,
Qaytib boshni chayqaymiz.

Aqllisan, so‘zing boy,
Siz yalqin cho‘g‘, biz bir moy.
Issiq so‘z kirdi ichga,
Moy turarmi erimay.

Qabul ko‘rsang ko‘nglim joy,
Tashlab ketsang, yopirim-oy!
It xo‘r odam bo‘larmi?
Bu dunyoda sho‘rligingday.

Tilagimni bermasang.
Amalim ne, yerlasang,
O‘rgatmagin bo‘yingga,
Aniq yaxshi ko‘rmasang.

Asl oshiq erga teng,
Qora ko‘nglim yerga teng.
Sensiz menga yot to‘shak,
Bo‘lar xuddi go‘rga teng.

Siz bir shunqor shohparvoz,
Yer yuzidan olgan boj.
Bizday g‘arib hisobsiz,
Ko‘yingda yurar muhtoj.

Tol chiviqday o‘ralib,
Gul shoxiday buralib,
Salmog‘ingdan yanchilib,
Qolsin xumor bir qonib.

Buni yozdim o‘ylanib,
O‘yda bordan to‘lg‘anib,
Yoqsa dilga o‘qiy ber,
Yigitlar qo‘lga olib.

Buni o‘qisa kim tanib,
Yuragida o‘t yonib,
So‘z uqarlik jon topsa,
Aytsa bo‘lar kuy solib.

(1889)

* * *

Bilakday orqasida o‘rgan burum,
Cho‘lpisi[1] shildiraydi yurgan sayin.
Kamshad[2] bo‘rkli, oq tomoq, qora qoshli,
Ko‘rganmiding suluv qizning bunday turin?

Olasi oz qora ko‘zi oynadayin,
Yurakka issiq tegar borgan sayin.
Hilpillagan oq etli, ochiq yuzli,
Tishi — durday ko‘rganmisan qiz chiroyin?

Ingichka bel, sarvqomat, kichik oyoq,
Bo‘ladi bunday go‘zal yakka-yu toq.
Pishgan olmaday kabi totli qizni,
Bo‘laman men tushimda ko‘rgandayoq.

[1] **Cho‘lpi** — yurganda shildir-shildir ovoz chiqaradigan taqinchoq.

[2] **Kamshad** — suvsar.

Agarda qo‘ling tegsa bilagiga,
Lopillab qon uradi yuragingga.
Tomog‘iga betingni tayab bersang,
Jimillab titroq kirar suyagingga.

(1888)

* * *

Metin do‘stlik xalqda yo‘q,
Aynimas shart qayda bor?
Oldda ko‘rgan ortda yo‘q,
G‘iybat, fisq-u hiyla bor.

Yaxshiliging kunda unut,
Bir yanglishsang — bo‘lar kek.
Foydasidan qo‘l sovut,
O‘zi tegmay yursa tek.

Foyda, maqtov o‘zidan
Ortarmidi ont urib?
Taralsa g‘iybat so‘zidan,
Aytaversin charx urib.

Kimga do‘stlik ko‘p etdim,
Oxiri koyish eshitdim.
Yaxshi umrim ovora,
Yaxshi yor topmay o‘tdim.

Yov kekkayib-burtayib,
Do‘st tuslanib, ovora etar.
Kimi tentak, kimda ayb,
Tekshirolmay umr o‘tar.

Siylashguday yaxshining,
Kim tanimas nusxasin?
Kunda o‘zimchil[1] eplining
Nimasin odam ushlasin?

(1888)

[1] **O‘zimchil** — manman, o‘zim bo‘lay deydigan odam.

* * *

Yoshlikning o‘ti, qaydasan,
Yurakni turtib qo‘zg‘amay?
Il(i)mning bilib foydasin,
Dunyoning ko‘rkin payqamay?

Odamning topib hiylasin,
Insonlikni o‘ylamay.
Yarog‘in ko‘ngil shaylasin,
Qo‘lga kelmas shahd aylamay.

Muhabbat, qiziq kim ko‘rar,
Uning ham ta’min totmasa?
Bir yo‘la boshni kim berar,
Joniga qayg‘u botmasa.

Ayamay jonin do‘st yurar,
Yo‘ldoshlikni oqlasa.
Oldingga haydab kim kelar,
Erinmay yurib boqmasa.

Mol boqmoq ro‘zg‘or bo‘lib,
Halol topib, oshiqmay.
Quruq hoy-huyla ovora bo‘p,
Hunarning o‘rnin komil uqmay.

Endi neni izlaymiz,
Baridan ham bo‘sh qoldik.
“Og‘zimga kelib tush” deymiz,
Ish — tarallabedodlik!

(1888)

* * *

Yarq etmas qora ko‘nglim ne qilsa ham,
Osmonda oy bilan kun chaqilsa ham.
Dunyoda sira senday menga yor yo‘q,
Senga yor mendan ortiq topilsa ham.

Sho‘rlik oshiq sarg‘aysa, sog‘insa ham,
Yor toyib, yaxshi so‘zdan qoniqsa ham.
Chidaydi rizo bo‘lib yor ishiga,
Xo‘rlik va mazog‘iga bosh ursa ham.

(1888)

* * *

Em topolmay,
Yongan o‘tday,
To‘ldi qayg‘u gavdaga.

Sirlasholmay,
So‘z ocholmay
Bandaga.

Ko‘p uyaldim,
Ko‘p iymandim,
Kimni ko‘rsam men undan.

Yuzni bosdim,
Turib qochdim
Titrab jon.

Uyqu, tomoq,
Qoldi shundoq,
Keragi yo‘q ish bo‘lib

Tinch yotmog‘im,
Hol olmog‘im,
Xush bo‘lib,

Yosh yuragim,
Yondi mening
Joy topolmay, yo pirim!

O‘zing boshla
Yaxshi yo‘lga
Asta-sekin.

Yosh daraxtning yaprog‘i
Silkinadi so‘qsa yel.

Egildi bo‘ynim,
To‘ldi qo‘ynim,
Oqdi sel.

Men vang edim,
Beg‘am edim,
Har nimadan qayg‘usiz.

Goh sevindim,
Goho kuydim,
Goho muz.

(1890)

* * *

O‘zgaga, ko‘nglim, to‘yarsan,
O‘lanni qandoq qo‘yarsan?
Uni aytganda to‘lg‘anib,
Ichdagi dardni tiyarsan.
Sayra-da, zorla, qizil til,
Qora ko‘nglim uyg‘onsin.
Yig‘lasin, ko‘zdan yosh oqsin,
O‘mrovlarim bo‘yalsin.
Qora bosgan, qangg‘igan
Xos nodon neni uqa olsin?
Ko‘kraginda o‘ti bor,
Qulog‘in dono er solsin.
Tinglamasa hech odam,
O‘z yuragim to‘lg‘ansin.
Har so‘ziga qarasin,
Ichdagi dardim qo‘zg‘alsin.
Havolansin, qalqisin,
O‘tda temirday balqisin.
Yig‘lay-kuylab o‘lganda,

Ortdagiga so‘z qolsin.
Menday g‘arib kez bo‘lsa,
Bo‘ynin solsin, o‘ylansin.
Maqbul ko‘rsa so‘zimni,
Kim tanisa — shu olsin.
Ne foyda bor — ming nodon
Sirtdan eshtib tanglansin.
Undan tag‘i bir esli,
Ichki sirin anglasin.
O‘zlaring ham o‘ylanglar,
Necha turli jon borsan.
Ilm, miya bo‘lmasa —
Daladagi ovlarsan.
Yuraging-la tinglamay,
Qulog‘ing-la qamrarsan.
Shuni ko‘rib, shularga
Qandoq qilib kuylarsan?

(1890)

* * *

Ba’zan esar ko‘ngil qurg‘uring
Muhabbat izlab talpinar.
Ichay deb mehnat suvsinin[1],
Asov yurak yulqinar.

Tortgan mehnat, o‘tgan yosh,
Yurakning o‘tin so‘ndirmas.
Muhabbat — umrning ko‘rki, rost,
O‘lgan so‘ng u ham indamas.

Muhabbatsiz — dunyo do‘st,
Hayvonga uni qo‘shinglar,
Qiziqdan o‘zga qolsang bo‘sh,
Xotining, bolang, do‘sting bor.

[1] **Suvsin** — chanqovbosdi ichimlik.

Yuragi yumshoq bilgan qul,
Chin do‘st topmay tinchimas.
Foyda, maqtov bari — tul,
Do‘stsiz og‘iz cho‘chimas.

(1890)

KO‘KLAM

Ko‘klam kelsa, qolmaydi qishning izi,
Qulf urar ko‘kalamzor yerning yuzi;
Jon kiradi borliqqa, tabiatga,
Ona yanglig‘ jilmayar kunning ko‘zi,

Kulishar, o‘lan aytar yigit-yalang,
O‘tovda o‘tirolmas qari-qartang;
Jon-jonivor, odamizod yayrab ketar.
Qushlarning qo‘shig‘idan havo jarang.

Qirdagi, soydagi el aralashar,
Qo‘y qo‘zilab, oyoqqa o‘ralashar,
Qish bo‘yi bir-birini ko‘rmaganlar,
Quchoqlashar, o‘ynashar, hol so‘rashar.

Tuya bo‘zlar, ot kishnar, qo‘ra shov-shuv,
Kapalaklar gul izlab uchar duv-duv.
Yetti rangli gilamday yashil tusda —
Suluv qizday buralib oqadi suv.

Ko‘l yoqalab uchishar o‘rdak ham g‘oz,
Uya izlab yugurar bola shovvoz;
Uchqur otni egarlab ko‘lga tushsang,
Chaqmoqday tez ov olar bo‘z dovulboz.

Qanjig‘ada o‘ljasi — ovchi qaytar,
Suluv qizlar nozlanib, salom aytar.

Qush go‘shtiga mos tushar nordon qimiz,
Badaningni bolkitar, jimirlatar.

Ko‘klamday kiyinishar kelinchaklar,
Chakkasida gunafsha, boychechaklar,
Qirda to‘rg‘ay sayrasa, soyda bulbul,
Gul bilan to‘lib ketar — tul etaklar.

Dehqonlar qo‘sh qo‘shadi, ekar ekin,
Hafta o‘tmay ko‘karar ekin-tikin,
Savdogarlar mol yuklab, tuya qo‘mlab,
Olis-olis yo‘llardan kelar sekin.

Olamga bezak bergan qodir mavlon,
Yer — ona, quyosh — ota, nuri jahon,
Onaday emizdirar ko‘ksidan yer,
Otaday mehr to‘kar yorug‘ osmon.

Bulut o‘tsa arillab oqadi soy,
Kechasi chaman yulduz va to‘lin oy,
Ne qilsin qorong‘ida yarqiramay,
Quyosh chiqar chog‘ida holiga voy.

Quyosh — oshiq yerni ko‘p sevar emish,
Yer ishqida o‘rtanib, kuyar emish,
Oshiq yigit ufqdan ko‘ringanda,
Yulduz va oy sevgini qo‘yar emish.

Oshiq quyosh tun bo‘yi kutar emish,
Visol paytin poylab ko‘z tutar emish,
Sahardan og‘ush ochib sevganini,
Muhabbat olovida o‘rtar emish...

Qish bo‘yi yer — quyoshni izlar mushtoq,
Kuta berib sochlari bo‘larmish oq;
Ko‘klam va yoz vasliga qonib toza,
Gul ochilib, to‘lisharmish, yetmay quchoq.

Quyoshga to‘g‘ri boqqan — ko‘r bo‘ladi,
Quyosh kulsa olamga nur to‘ladi.
Ne bilay, o‘zim ko‘rdim, quyosh har kech —
Oltin chodiriga kirib dam oladi.

(1890)

* * *

Oshga, to‘yga boradigan
Joni oshiqib yosh yigit,
Yovga qarshi safga turgan,
Tirik odamning ishi — umid.

Qo‘zg‘adilar botir erni
Yovga vayron solgali.
Qallig‘i-chi, qolaverdi
Tayin edi olgali.

Oshiqsang ham, chirog‘im,
Senga degan Xudoning.
Yozilgan qanday yorlig‘i,
Eshitgan yo‘q qulog‘ing.

Qallig‘i-chi sevmoqqa —
Kuyoviga intizor.
Kelishi bilan tegmoqqa
Tayyor turish o‘yi bor.

Oqdan ko‘ylak tikdirib,
Kuni-tuni dam olmay,
Tayyor tursam der bitirib,
Oshiqqanday, to‘xtalmay.

Seni oshiqqan ekan deb,
Alloh amrini o‘zgartmas.
Aytganing bo‘larmikan deb,
Men qo‘rqaman, ko‘z yetmas.

Yara bosdi gavdani,
Yovdan o‘ldi or uchun.
Eslamay o‘zga dunyoni,
“Oh!” deb o‘tdi yor uchun.

Yomonlik turmas kuttirib,
El eshitdi, qiz bildi.
Oq ko‘ylakni bitirib,
Kafan deb kiydi, qiz o‘ldi...

Qo‘l yetmagan nikohni
Suyub ketgan jon ekan.
Ko‘zing nega yetadi,
Qo‘shilmoq unda bormikan?

Chindan oshiq yor bo‘lsa,
Nega o‘ldim deb nolimas.
Unda ikkovi kez kelsa,
Birini biri tanimas.

(1890)

* * *

Ota-onaga ko‘z quvonch —
Oldiga olgan erkasi.
Ko‘kragiga ko‘p yupanch,
Gullansa o‘y o‘lkasi.
Erkalik ketdi,
Er yetdi,
Ne bitdi?

O‘qitarsan mullaga uni,
O‘rgatarsan har neni.
Tirak qilib o‘yi shuni,
Joni tinchlik ko‘rmadi.
Yosh edi, kutdi,
Tama etdi,
Bo‘shga o‘tdi.

Ota ko‘ngil yonmasa bir
Ortiq hunar chiqmasa.
El tanimay, uy tanisa,
Tashvishlarni uqmasa —
Umidi qayda?
Shuni o‘yla,
Avayla!

Suyar o‘g‘ling bo‘lsa sen suy,
Suyunarga yarar ul.
Suykumi[1] yo‘q muttaham biy —
Suyratilib o‘tar shul.
Topilmas hiyla,
Voy-voyla —
Ne foyda?

Zorlanarsan, o‘ylanarsan,
Ne bo‘larman deb endi?
Tengdoshlardan xor bo‘larsan,
Tangri ishiga ko‘n endi.
Qayg‘usiz banda
Ko‘rdingma
Umringda?

Tangri sho‘rlik etsa, banda
Ne bitirar quruq yig‘lab.
G‘ayrati yo‘q, aqli kalta,
Yonbosh urib, yot sulab.
“Bir yomon menma?” —
Dedingma
Ko‘nglingda?

(1890)

[1] **Suykum** — yoqimli qiliq, xush yoqadigan xislat.

* * *

Toyga mindik,
To‘yga chopdik,
Yaxshi kiyim kiyinib.
Uki[1] taqdik,
Kulgi boqdik
Yo‘q narsaga suyunib.
Kuykuntoy[2] kutdi,
Qush etdi,
Ne bitdi?

Otamiz bor,
Mullamiz bor,
Aytganiga ko‘nmadik.
Oxiri xor,
Biz unga zor
Bo‘lamiz deb bilmadik.
Urlanib qochdik,
Yo‘l oshdik,
Chuvlashdik.

Yozuv yozdik,
Xat tanidik,
Bo‘ldik ozod mulladan.
Chala o‘qishdan
Nima topdik?
Qolaverdik bir nodon.
Bebaho chog‘lik —
Bo‘z yoshlik,
Adashdik.

Bo‘z bolalik —
Qiz qaradik,
Hazil-huzul so‘ylashdik.

---

[1] **Uki** *(ukki)* — patdan yasalgan jig‘a, tantanali marosimlarda bosh kiyimiga taqiladi.

[2] **Kuykuntoy** — qirg‘iydan kichik yirtqich qushning nomi.

Nom yaratdik
Va taratdik
Havoyi kuy kuylashdik.
Ko'ngilga kelar,
Kim yo'lar,
Kim ko'nar?

Qayin bordik,
Xotin oldik,
Enchi[1] tegdi ozgina.
Oila bo'ldik,
Endi o'yladik,
Qoldi yoshlik, hu ana.
Burungi qayda?
Voy-voyla —
Ne foyda?
(1890)

* * *

Zamonoxir yoshlari,
Qo'shilmas hech bir boshlari.
Biriga-biri qasd o'ylab,
Qo'ynida yurar toshlari.

Savdosi — or-u imoni,
G'ayrat yo'q o'zin tiygani.
Mehnat-la etin og'ritmay,
Til bilan bo'lsa yiqqani.

Unumsiz ishga ja chevar,
Maydonga tushmasa ne unar?
Sigirday to'yib, mast bo'lib,
O'raga kelib suykanar.

[1] **Enchi** — meros.

Kulmanglab kelar ko'zlari,
Uyalmas sira o'zlari.
O'yindan o'ymoq chiqqanday,
Cho'chqa tug'ar so'zlari.

(1891)

* * *

Ko'zidan boshqa o'yi yo'q,
Nodonning ovvorasi.
Shundayam ko'ngli to'qdan to'q,
Taralla bedod yurasi.

Bilmaysa desa, o'pkalab,
Deydi tag'in: Tangri ishi,
Birini biri bo'laklab
Egamning odil bandasi.

Yurakning ko'zi ochilsa,
Tushar haqlikning shu'lasi.
Ichdagi kirni qochirsa,
Odamning hikmat gavdasi.

Nodonning ko'nglin bosganda
Qorong'ilik pardasi,
Gavdadan aql qochadi,
Tashvishga to'lar to'rvasi.

Kitobni mulla ters o'qir,
Tog'oraday bo'p sallasi.
Molxumor ko'ngli — xo'p so'qir,
Burgutdan kammi yem-nesi?

Yurakda oyna bo'lmasa,
So'z bo'lmaydi o'zgasi.
Tinglovchi qancha ko'p bo'lsa,
Fahmlashga kam kishi.

(1891)

* * *

Yoshlikning o‘ti lovullab,
Yosh yurakda yongan chog‘.
Talabning oti chopqillab,
Har qiyinga solgan chog‘.

G‘am-qayg‘u oz, umid ko‘p,
Bel og‘rimas mehnatga.
Bugun-erta yetay deb,
Ko‘ngil uchar davlatga.

Shahd bilan boshlab, yalinmay,
Aql yo‘l topib, qarasa,
“Qalayman?” deb dam urmay,
Iliq yuz bilan yayrasa.

Shahdga ishonib, zo‘riqmay,
Yo‘lini topib gaplashar.
Xotincha til-la, hovliqmay,
Maydonga chiqsa, yarashar.

Yolqini qaytar tananing,
Doimo turmas ushbu choq.
Talaygi qari dunyoning
Bir ketigin ushlab boq.

Quyrug‘i chayon, beti odam,
Payqamay, duch kelsang zo‘riga.
Jilpangi sirtda, ichi harom,
Kez bo‘lar qayda sho‘rlikka.

Do‘stingga do‘stlik — qarz ish,
Dushmaningga odil bo‘l.
Shoshilinchning tubi — o‘kinish,
O‘ylanib olmoq — sabr bo‘l.

Oq ko‘ngilli yaxshidan
Ayanmay, solish o‘rtaga.
Aqlsiz, orsiz, kekchining
Quv so‘zin olma jo‘rttaga.

Shum, surqiya, quv zamon
Gul ko‘rinar yigitga.
Umr qizig‘i bir ummon,
Gavdalar to‘lib umidga.

Bir narsani yoqtirsa,
Qayta o‘ylanmas bunday yosh.
Maqtansa, tinglab, yurt bilsa, —
Xumori o‘sha, qizma bosh.

Ishonchga navbat kelganda,
Ishonaverar tanlamay.
Yurt qurg‘ur ishonganda
Tursinmi quvligi avj olmay?!

Nariga ketgan aldog‘ich,
Meni yoq alda, so‘kmayin.
Boli tomgan yosh qamish
O‘rmasang-chi ko‘klayin!

Seni yaxshi ko‘rmasa,
Ishonarmidi so‘zingga?
“Yo pirim-ay!” deb, terlasa,
Or emasmi o‘zingga?

(1891)

* * *

Qizarib, surlanib,
Lupillib yuragi,
O'zgadan hurkanib,
O'zli-o'zi keragi.

Ikki oshiq xumorli,
Bir yo'ldan qaytolmay,
Yo'liqsa ul zorli,
Jo'nlab so'z aytolmay.

Anglatib oxirin,
Yurak-la olishib,
Shovqinin, tiqirin,
Ko'ngil-la tanishib.

Nafaslar isinib,
Barmoqlar qaltirab,
Belgisiz qisinib,
Bichimlar shalvirab.

Iyiqlar[1] tegishib,
Tumanlab ko'zlari.
Indamay o'pishib,
Mast bo'lib o'zlari.

Yonida yap(i)roq,
Ustinda yulduz-da,
Hilpirab-qaltirab,
Yigit va ul qiz-da.

O'zga o'ydan tiyilib,
Birovi biri ila,
Yurakka quyulib
Jon rohat bir shu'la.

[1] **Iyiq** — bo'yin bilan qo'l oralig'i, yelka.

Yuraklar yeljirab,
Bo‘g‘inlar bo‘shanib.
Lazzat-la holsirab,
Ko‘zlarga yosh olib.

Yugruk til, teran o‘y,
O‘shal payt qayda eding?
Oshiqqa qoyil-ey,
Yengilding, yengilding!

(1891)

* * *

Suluvlar sarasi,
Ko‘zimning qorasi!
Qiynaydi jonimni —
Muhabbat yarasi...

Qozoqning donosi, —
Ulug‘i, og‘asi,
Der: “Unga teng kelmas—
Hech odam bolasi...”.

Yig‘layman, bo‘zlayman.
Dardimni so‘zlayman,
Sen uchun so‘zlarning
Gavharin izlayman.

Dardimni qo‘zg‘ayman,
Hajrida to‘zmayman.
O‘zi ham bilmasmi,
Gapni ko‘p cho‘zmayman.

O‘zi xo‘p biladi,
Har zamon keladi;
Sir bermay, so‘z demay,
Bag‘rimni tiladi.

Oqadi ko‘z yoshim;
Yo‘q yolg‘iz mungdoshim,
Kuyaman, yonaman,
Aylanar sho‘r boshim.

Shunchalar sitammi?
Shunchalar alammi?
Yurakda o‘ti yo‘q —
Odam hech odammi?

Ko‘rkingning dog‘i yo‘q,
Dog‘ tushar chog‘i yo‘q;
Arzimni aytayin,
Xoh tushun, xohi yo‘q.

Oq manglay, qalin soch,
Soch degan bir quloch,
Qirmizi yanoqlim,
Qarog‘im, yuzing och!

Suv bo‘lib oqishing
Ham qiya boqishing —
Oromim olibdir,
Tokay jon yoqishing?

Raso bo‘y, xipcha bel,
Qayrilar essa yel;
Tokay men oh uray,
Qarog‘im, beri kel!

Sen kulsang — yoz bo‘lur,
Hasratim oz bo‘lur.
Kulib qo‘y, ochilib,
Tokay bu noz bo‘lur?

Dardingda yuraman,
Azoblar ko‘raman,

Mol tugul, yo‘lingda —
Boshni ham beraman.

Gul hiding anqiydi,
Ko‘rking nur chalqiydi;
Uzoqdan ko‘rganda —
Suyagim balqiydi.

Maqtashga so‘zim yo‘q,
So‘zlashga yuzim yo‘q;
Quyoshday go‘zalim,
Qarashga ko‘zim yo‘q.

Sensan — jon lazzati,
Ko‘rk — Tangri davlati;
Suluvni sevmoqlik —
Payg‘ambar sunnati.

Quloq sol dodimga,
Oh-u faryodimga;
Ko‘nglimni ochdim men —
Sen parizodimga.

U yog‘ni o‘zing bil;
Mayliga, bag‘rim til,
Uzun gap qisqasi —
Ketganman senga zil.

Yig‘latmay beqaror,
Zeroki, bo‘lsang yor;
Kulishing, kelishing,
Qiladi ko‘p xumor.

Taysalgan — yigitmas,
Javob ayt bu nafas...
Xudoyo, yuragim
Yonishin qilgin bas!..

(1891)

* * *

Mensinmas edim nodonni,
Aqlsiz deb uni, xor tutib.
Tuzatmoq bo'ldim zamonni,
O'zimni juda zo'r tutib.

Topmadim ko'mak o'zimga,
Ko'p nodon bilan olishib.
Ko'nmadi hech kim so'zimga,
Odatiga qarishib.

Jon cho'chirlik turinda,
Bari birday yelirib[1].
Ushlay olmadim birin-da,
Kekkaydi ortga chekinib.

Xo'p-xo'p deya, el ketdi,
Xo'rozlanib, maqtandi.
Quvvat bitdi, kun o'tdi,
Yorlaqa, Xudoy, yotganni.

Men charchadim, og'riqman,
Xotin-bola qo'nag'i.
Senlardan sira qoniqmam,
Yurting — boya-boyagi.

Jorli[2] emasman, zorliman,
Uniyam o'yla to'lg'anib.
Yurtim deyishga orliman,
O'zga yurtlardan uyalib.

Barimta-yu partiya[3] —
Bari mastlik, yurtxumor.

---

[1] **Yelirmoq** — quturmoq, tentaklarcha harakat qilmoq.

[2] **Jorli** — kambag'al, yo'qsil.

[3] **Barimta** — zo'rlik bilan mol haydab ketish. "Partiya" so'zi — bo'linib olib, tarafkashlik qilish ma'nosida.

Tentak, manman, surqiya,
Piyanchik, o'g'risi bor!

Totuvlikka, tinchlikka,
Ola qarar, kam ko'rar.
O'g'irlikka, quvlikka
Qiziq ko'rib, yugurar.

Bunday eldan bo'ying tort,
Men charchadim, bechora.
Aytib-aytib, qoldim chet,
Yurt ko'nmadi... ne chora?!

(1891)

TOPISHMOQ

Alloh miqti yaratgan sakkiz botir,
Azal-abad kurashib hali yotir.
Kezak-kezak olishar yotib-turib,
Kim yiqishi belgisiz tubinda oxir!

Yechimi:
Buni topsam o'ylanib — shoir denggiz,
Topolmasam, aq(i)lli bo'lar ne-miz?
Qish bilan yoz, kun va tun, toq bilan juft,
Yaxshilik va yomonlik — bo'ldi sakkiz

(1891)

TOPISHMOQ

Qora yer — odamzodga bo'lmish makon,
Xazina ichi to'lgan har turli kon.
Ichida yuz ming turli noyobi bor,
Shularning eng ortig'i nima ekan?

Yechimi: temir.

(1891)

TOPISHMOQ

Sinalmoq, yigitlar, keldi yering,
Shu'lang bo'lsa bu yoq kel, shahdam turing.
Jon xumori dunyoda nimadir u —
Shuni bilsang, har neni bilganlaring!

Yechimi: ilm-fanga, bilimga ishtiyoq.

(1891)

* * *

Yuragim, o'y-bay, urma endi,
Bo'laverma ko'p kulgi.
Ko'rmaysanmi, to'xta endi,
Kimga ishonsang, u — kuyki[1].

Yetimqo'zi — toshbag'ir,
Umid uzib, o'tig'ar[2].
Sho'rlik yurak, buncha og'ir,
Nimani buncha sog'inar?

Ishonarli jon topmay,
Ovvora kezar et yurak.
Tiriklikda bir qonolmay,
Bu ne sayoq — tentirak?

Yo'qmi sira keraging,
Guruh to'plading bir bo'lak.
Kezak kelar demading,
Endigi kerak — ne kerak?

(1892)

---

[1] **Kuyki** —yaramas, harom, ishonchsiz.

[2] **O'tiqmoq** — yangi tug'ilgan uloqning o'tni yeb o'rganishi.

* * *

Qayg‘u chiqdi il(i)mdan,
Izza bo‘ldim bilimimdan[1].
Qayg‘u va izza qisganda,
Zorlar chiqdi tilimdan.

Endi qandoq kun ko‘ray,
Ovora sarson kunimdan?
Qayrilib-payqab qarasam,
Ot chopolmas aybimdan[2].
Qayg‘uli, qartang menday chol,
Qarab ko‘rsang qayda yo‘q?
Tentak, olg‘ir bo‘lmasang,
Tirik yurganda foyda yo‘q.

Aql bitmas davlatga,
Davlat bitmas savlatga.
Bo‘limsiz quvlik — to‘yimsiz,
Bo‘ladi bolang yo‘rgakda.
Ichida yov bo‘p, sirtidan
Kim to‘yar qilgan hurmatga?
Kengchillikda tug‘ishgan yo‘q,
Chiqsin desa yel betga.
Torlikda, qancha taypalsa[3],
Qadri bo‘lmas albatta.

Siylasa eling ulug‘lab,
Oralasang qiziqlab.
Qiziq bilan tinchlikka

[1] Shoir bu satrlarda ilm-bilimga qiziqib, o‘rgangani sayin, o‘z bilimsizligini sezib, vaqtida o‘qiyolmaganidan nolimoqda.

[2] *Satrning ma’nosi:* ayblarim, nuqsonlarim ko‘p, yuklasalar ot yurolmay qoladi, demoqchi.

[3] **Taypalmoq** — amal-taqal qilib yo‘l izlash.

Qozoq turmaydi to‘xtab.
Qangqillab biri kuylasa,
Birisi kelsa yovuqlab,
Tepinishib, qamalar,
To‘xtatib bo‘lmas siriqlab[1].
“To‘g‘ri bo‘l!” degan kishiga,
To‘g‘ri boqmaydi qiliqlab.
Quruq[2] bilan ushlatmas,
Ketib qoladi qochqoqlab.

El-joyin bilib-qonsangiz,
Aytayin quloq solsangiz.
Qay biri burni osmonda,
Yertangri deysiz ko‘rsangiz.
Qay birisi zakunchik,
O‘ngmaysan, arza bersangiz.
Qay biri pirga qo‘l bergan,
Ichi — zolim, sirti — abiz[3]
Qay biri hajga bormoqchi,
Bo‘lmasa ham haji farz.
Musulmonlikni u o‘ylab,
O‘taganmikan u qarz?

Davlati yo‘q burilsoch[4],
Uyingga ket, to‘pdan qoch.
Og‘aynim deganlaring
Hozir bo‘lar toy-talosh.
Partiya yig‘ib, mol so‘ysa,
Fotha o‘qiysan, yersan bosh.
Ulgi so‘z, hikmat senda yo‘q,
Aytar so‘zing: “moling soch”.

---

[1] **Siriq** — molni, podani, hayvonni urib haydaydigan tayoq.

[2] **Quruq** — otni ushlash paytida bo‘yniga tashlanadigan ipli dasta, moslama.

[3] **Abiz** — qadimgi yozuvni biladigan, dono, o‘qigan odam, ma’nolarida.

[4] **Buril** — sochiga oq oralagan, kumushrang sochli odam.

Sirayam indat[1] tilama,
Yot uyingda o'lsang ham och!
O'ylab-o'ylab qarasam,
O'shandoq chol qayda yo'q?
Qo'zg'ov solib qo'zdirsa...
Kezma choldan foyda yo'q!

(1891)

* * *

Isitgan, sovutgan
Bo'yingni bir ko'ngil.
Dunyoni unutgan,
Xumorman, o'zing bil.

Avvalgi kezinda
Qaytmagan ko'ngilning,
Hisob qil o'zing-da,
Turidan umrning.

"Bir yaxshi kunim" deb,
Qiziq-la so'zlashib.
Ortidan "u — kim?" — deb,
Uyalib, eslashib.

Bir tentak hangoma,
Misoli ko'rinar.
Unisin o'zgaga,
Aytishga erinar.

Aytishni bilsa, erinmas,
Nodonlik ila yengilmas.
Bilgan kishi aytsa-chi,
Nodonligi kamilmas.

(1892–1893)

[1] **Indat** — mollarni qirib yuboradigan kasallik nomi.

* * *

Ba'zi o'smir zamondoshlar xafa qilar,
Uquvi yo'q, har qadamda xato qilar.
Or-nomusi, toqati yo'q, ishonchi yo'q,
Tayini yo'q, faqat kayf-u safo qilar.

Yomon bilan yaxshini farq qilsa, koshki,
Yoki din-u diyonatin bilsa koshki;
Qasam ichib, lof urib izlagani
Bir ot bilan oshdan nari jilsa koshki.

Bunday yoshlar o'z yurtining ko'rnamagi,
Na o'qiydi, na bir hunar o'rganadi.
Mehnat qilmay, bir amallab mol topmoqchi,
Na imon-u na inon bor, surgaladi.

Unda uni aldaydi u, bunda buni,
Jon bersang ham, topilmaydi so'zning chini.
Gumdon bo'lsa, elga qittak ziyon kelmas,
Bir semizroq ot bo'ladi uning xuni.

(1894)

* * *

Sevgi tili — so'zsiz til,
Ko'z bilan ko'r, dildan bil,
Bir qarash, yo bir imo —
Yetar... Bog'lanar ko'ngil!

Bilardim bu tilni men,
Ovlardim ko'p dilni men:
Unutdim: bu til sirin,
Va sochi sunbulni men...

(1894)

ABDURAHMON XASTALANIB YOTGANDA

Ey, Xudo, o‘rinlat
Tilagan tilakni.
Ortiqcha qo‘rqitma
Cho‘chigan yurakni.
Yalinib-yolborib,
Ollodan tilaymai:
Dardiga davo ber,
Yana ne qilay man?
Yuragim shuvillab,
Suyagim jimirlab,
Ollodan tilayman,
O‘zimcha shivirlab.
Zorlansa bandasi,
Bermasmi Ollosi.
Sog‘liq ber erkamga,
Shu ota duosi.
Ne yozay, men behol,
Qo‘l cho‘ltoq, tilim lol.
Seni sog‘ ko‘rishlik
Cho‘ng orzu, cho‘ng xayol.
Bir sovib, bir isib,
Bormoqda ich pishib.
Yuzingni bir ko‘ray,
Suygancha bir quchib.
Goh umid, tag‘in xavf
Ko‘ngilga yo‘l topib —
Kirgan so‘ng qiyindir,
Es og‘ib, es og‘ib.
Ikki on shu ahvol
Yotibdir bemajol.
Ey, Xudo, doktorlar
Diliga to‘g‘rilik sol.
Olmasa doktorga,

Ko‘rsatma so‘qirga.
Vizitga to‘lamay,
O‘ylanib o‘tirma.
Doktorlar em topsin,
Chiroyin ilitsin.
Oqchani ayama,
Uyqungni tinchitsin.
Absamad jiyaning,
U ham bir jigaring.
Do‘stligin do‘stlik-la
O‘tamoq tilagim.
Ko‘nglimning xushligi —
Ko‘ngilga do‘stligi.
Borardim, bo‘lmadi
Qo‘limning bo‘shligi.
Sarg‘aydi yuzimda,
To‘rt bo‘ldi ko‘zimda.
Sog‘ayib ket tezroq,
So‘qir — folbin ma’nosida.
Sog‘indik o‘zimiz.
Xatimni olingiz,
Ko‘nglimni bilingiz.
Kuch-quvvat bor bo‘lsa,
Kechikmay kelingiz.
Bu — o‘sgan elingiz,
Tug‘ishgan yeringiz.
Zor qilmay meni ko‘p,
Kechikmay kelingiz.
Vahmda dil nuqul,
Xudodan umid shul.
Bir qarab kelsangiz,
Umringiz bo‘lgay gul.

(1894)

* * *

Talay so‘z bundan burun ko‘p aytganman,
Tegin o‘ylab, ko‘p qayg‘u yeb aytganman.
Aqllilar orlanib uyalgan-chun,
O‘ylanib, tuzalarmi deb aytganman.

Qozoqning boshqa yurtdan so‘zi uzun,
Birining biri tezdan uqmas so‘zin.
Ko‘zning yoshi, yurakning qoni bilan
Eritishga bo‘lmaydi ichki muzin.

Do‘stim-ay, havolanmay so‘zga tushun,
O‘ylan-chi sirtin qo‘yib, so‘zning ichin.
Irjanglamay tinglasang nimang ketar,
Chiqargan so‘z emas-ku jinni uchun.

Adashib alanglama yo‘l topolmay,
Beriroq to‘g‘ri yo‘lga chiq qamalmay.
Yo ilm yo‘q, yoinki mehnat ham yo‘q,
Eng bo‘lmasa ketding-ku mol boqolmay.

(1895)

* * *

Och kishi tinchlanarmi to‘ymaguncha,
To‘q kishi to yorilib o‘lmaguncha?
“Bir to‘ysang — chala boylik” degan qozoq,
Et topsa — qo‘ymas holdan toymaguncha...

Mehnatsiz, harakatsiz, sho‘rlik qozoq!
Ovqat izlab tentirar, gado-qashshoq.
Tushlariga kiradi qimiz ham go‘sht.
Yo‘qchilik girdobiga tushgan shundoq!

Bo‘lsaydi qimiz tekin, ham go‘sht arzon,
Undan ham shirin ovqat qilar armon...
Ter to‘kib, kun ko‘rmoqlik — odat emas,
Tilanchilik, ey Tangrim, qanday yomon!

Holi yo‘q o‘z uyida o‘t yoqishga,
Tentirar qaramayin qora qishga;
Bir suyag-u bir oyoq qimiz bergan —
Darrov bog‘lab soladi mol boqishga.

Ne iloj, yotga yollan, mol topib kel...
Moling bo‘lsa, siylamay turolmas el...
Yoshlik o‘tgan behuda va bemehnat,
Yoshliging o‘tgan izsiz misoli yel!

Hunari bor — hech kimga qaram bo‘lmas!
Erinchak hech qachon ham odam bo‘lmas!
Eshak dumini yuvsang ham, halol mehnat,
Halol mehnat — hech qayda gunoh emas!

O‘g‘ri bo‘lib yaxshi to‘n kiyolmassan,
Bir o‘rgansang nafsingni tiyolmassan;
Davlat ketar, or bilan nomus ketar,
Ammo, chivin joningni qiyolmassan.

Ba’ziga quvlik bilan davlat bitar,
Ba’zilar to o‘lguncha tilab o‘tar.
Mehnat qilmay topganing — davlat emas,
Qor suviday bir zumda oqib ketar.

Qasam urgan quvlardan nari yurgin!
Tinib oqmas suvlardan nari yurgin!
Bu yurtda tilanchi ko‘p, erinchak mo‘l,
Mehnat sevmas... ulardan nari yurgin!

(1895)

* * *

Yoshlik o‘tdi, bildingmi?
Yigitlikka keldingmi?
Yigitlik o‘tdi, ko‘rdingmi?
Keksalikka ko‘ndingmi?

Kim biladi, shum taka,
Ne gunohlar qilgansan.
Ne qilmishlar bilgansan,
Qay ko‘chaga kirgansan,
Ne yo‘llardan yurgansan.

Kim biladi, shum taka,
Tugal badbaxt bo‘larsan,
Og‘ilda o‘lgan tuyaday,
Sen ham harom o‘larsan.

(1895)

* * *

Tabiat o‘lar, balki inson o‘lmas,
Garchi u qaytib kelmas, o‘ynab kulmas.
Mening-la tabiatim ayrilganin
“O‘ldi” depti bir nodon, o‘zin bilmas.

Ko‘p odam bu dunyodan sitam ko‘rgan,
Sitam ko‘rgan, ro‘shnolikni nam ko‘rgan.
O‘lim — nima, o‘ylang-chi, o‘lmas so‘zlar
Qoldirganning o‘lganin kim ham ko‘rgan?!

Tirikchilik tashvishin o‘ylagan kas,
Boqiy dunyo ma’nosin anglab yetmas.
Mening qayda ekanim bilolmaydi
Teran o‘yning tizginin kimki tutmas.

Dunyoga — do'st, oxiratga do'st bo'lmas,
Ikkovi ham bir dildan o'rin olmas.
Dunyoga o'ch, mahsharga begonaning
Imonin but deyishga og'zim bormas.

(1895)

ABDURAHMON O'LGANIDA

Nargi otasi hoji edi,
Behishtdan totgan sharbatni.
Yorug'likning[1] hunari
Aytmoqqa tilni tebratdi.
Halollik, aql yoshlikdan
Qo'zg'agan, tinchlik bermabdi.
Mol tugul, jonga mirza edi,
Har qiyinga sermabdi.
Mungli, g'amli, yo'q-yo'qsil,
Sog'inib, oldin kernabdi[2].
Barining ko'ngli tindirib,
Birovin ola ko'rmabdi.
Odil, mirza, er bo'lib,
Olamga yoygan o'rnakni.
Tavbasin esga tushirib,
Tentakni tiyib, yerlabdi.
Qozoqning o'g'li qamalab[3]
Izlagan yuzini ko'rmakdi.
Aq(i)lidan olib qaytgan,
O'lguncha bo'lar ermakli.
Ul sifatli qozoqdan

[1] **Yorug'likning** — rahmatlikning degan ma'noda.

[2] **Kernamoq** — oldini to'smoq. Bu yerda, oldidan chiqib, yordam so'ragan degan ma'noda.

[3] **Qamalamoq** — atrofini o'rab degan ma'noda.

Dunyoga hech kim kelmabdi.
O'lmasday atoq qoldirib,
Dunyoga ko'nglin bermabdi.
Yorligiga Allohning
Erta o'ylagan ko'nmakni.
Ular ham tirik qolmadi,
Tiriklik orti — o'lmakdi(r).
Uniyam oldi bu o'lim,
Sabrlik qilmoq kerakdi(r).

(1895)

* * *

Kechagi O'spon og'asi
Kishi molini yemabdi.
Mol so'ragan kishiga,
"Yo'q, ne qilay?" demabdi.
Quvvati ortiq, o'yi keng,
Yurtning barini sinabdi.
Do'stga — naq yoz,
yovga — ayoz,
Olishganni yengibdi.
Halollik uchun olishib,
Yegichga haqini to'latdi.
Bosh chayqayman deganning
Boshiga soldi halakni.
Qadri qalin, moli ko'p,
Qilmagan kimga sababni.
Ola qo'lsiz mirza edi,
Kam-ketikni yamabdi.
Uniyam oldi bu o'lim,
Sabrlik qilsak kerakdi.

(1895)

* * *

Kechagi o'tgan er Abish,
Eldan bir oshgan siyrak-di.
Yuragi — iliq, bo'yi — qurch,
Turishi jondan bo'lak-di.
Hunari uning yurt oshgan,
Ilmga ko'ngli ziyrak-di.
Ayamagan g'aribdan
Qo'lidan kelgan ko'makni.
Kishiga minnat yuklatmay,
Mehnat-la topgan ko'rkni.
Birovdan qilgan qarzini,
Ayttirmay ortiq to'labdi.
Bo'yamasiz oq ko'ngil,
Kirlatmay ketdi yurakni.
O'ylamagan o'limdan
Seskanaman demabdi.
Taqdirga tabdil bo'larmi,
Sabrlik qilmoq kerakdi(r).

(1895)

ABDURAHMON O'LGANIDA

Vujudi to'la uyat-or eding,
Ishini bilib-o'ylagan.
Tavakkalga nor eding,
Talashib teran bo'ylagan.
Erlikka ham bor eding,
O'rganishdan to'ymagan.
Yoshga — yosh, o'yda — donishmand,
Ota nomini yo'ymagan[1].
Zamona, bunchalar tor eding,
Shu erkamni qo'ymagan.

(1895)

[1] **Yo'ymagan** — yo'qotmagan, unutmagan.

ABDURAHMONNING O‘LIMIGA

Yigirma yetti yoshida
Abdurahmon ko‘z yumdi.
Shu’la bo‘lsa boshingda,
O‘yla, topmassan, o, endi!

Dunyolikka ko‘ngli to‘q,
Og‘ayinga mehribon.
Kibr-u yolg‘on unda yo‘q,
Aynimas yurak, kulging — bol.

Ilm o‘qib bilgancha,
Tinim, tinchlik topmagan.
Dunyoni kezib ko‘rgancha
Rohat izlab yotmagan.

Uzoq umr ne berar,
Ko‘rgan, bilgan bo‘lmasa?
Yotgan nodon ne bilar,
Ko‘ngilga shu’la to‘lmasa.

Petrburgda yurib oq
Bilibdi dardning borligin.
Tavakkal qilib, bildirmay,
Kutibdi Tangri yorlig‘in.

Hazili-chini aralash,
Um(i)rim oz deb bildirib,
O‘zga bir ko‘zda ko‘rsa yosh,
O‘ynayman deb kuldirib.

Oz umrini uzaytdi[1],
Ilmga bo‘yi to‘lgan so‘ng.
Ko‘rgan yerlarin mo‘l aytdi,
O‘qib, bilib bo‘lgan so‘ng.

[1] Uzaytirdi, demoqchi.

Qrim, Kavkaz, Turkiston,
Rossey, Sibir qolmadi.
Xabarlanib tur-tushdan,
Ko'rmay damin olmadi.

Quyruqli yulduz shaklli,
Tug'ilib, ko'p turmadi.
Ko'rgan-bilgan o'kindi,
Ayb taqar jon qolmadi.

Tavakkal — zo'r, aql — mo'l,
Qo'rqmay to'sdi taqdirin.
Qiyinsinmay o'limni ul,
Bildirmadi hech sirin.

Ota-onaning xizmatin,
Olgan yorning qar(i)zin,
O'talmay ketgan mehnatin,
Qog'ozga yozgan ar(i)zin.

Ko'rgani bilan bilgani,
Yuzga kelgan choldan ko'p.
Bizga qayg'u yegani —
Armonda bo'lib qoldi deb.

Yangi davrning boshchisi — ul,
Men — eskining orti edim.
Armon degan achchiq shul,
Suyakka tegdi, qari edim.

Qayg'u bo'ldi kuyganday,
U quvvatim edi, rost.
Ko'zga qamchi tekkanday,
Chir aylandi so'nggi yosh.

(1895)

7 – 22-355

ABDURAHMONNING O‘LIMIGA

Talabning minib tulporin,
Tosh qiyaga o‘rlading.
Bilim olmoq edi qaroring,
Ilmga qo‘l sermading.

Ko‘zingni solding turg‘iga[1],
Mehnatin qiyin ko‘rmading.
Birga o‘qigan qurbiga[2],
Bosh poygani bermading.

Bola bo‘lding, yosh bo‘lding,
Yolg‘onlarga yurmading.
To‘ra bo‘lding, bosh bo‘lding,
Ko‘kragingni kermading.

El ichida sog‘ yursang,
Ta’lim aytmas ermiding?
Yo‘l ko‘rsatib, so‘ng o‘lsang, —
Armonim bor, dermidim?

Izlab topar yolg‘ondan[3],
Bolasi o‘lgan bandaman.
Banda o‘lmaydi armondan,
Mana men-da o‘lmayman.

(1895)

---

[1] **Turg‘i** — yonidagilar, tengdoshlar.

[2] **Qurbi** — tengdosh, birga yurgan, teng qator.

[3] Yolg‘onchi dunyodan, demoqchi.

ABDURAHMONGA

O‘rinsiz gap aytmagan,
To‘g‘ri yo‘ldan qaytmagan.
Yaxshilik qilar o‘rinda
Ayanib, bo‘yin tortmagan.
O‘rtasida ko‘prikning
Haromidan totmagan.
Umr bo‘yi talpinib,
Ilm izlagan, yotmagan.
Turlanmay, to‘ra bo‘ldim deb,
Esarlanmasdan, chaqnagan.
Yuz ming tanga kelsa-da,
Muhabbatini sotmagan.
Yugrukman deb, kekkaymay,
To‘g‘ri so‘zni yoqlagan.
Bola aytsa ham haq so‘zni,
Burilmasdan to‘xtagan.
Yolg‘onni aytmas to‘g‘richil,
Hech so‘zi yo‘q topmagan.
Siylashguday kishiga,
Odob-ikrom saqlagan.
Bovurlarin[1] erkalab,
Nima so‘rasa, qoqmagan[2].
Bildiruvchi edi, indamay,
Har ishga ko‘ngil chog‘lagan.
Og‘ayni bilan qardoshni
Tiriklikda maqtagan.

(1895)

[1] Qarindoshlarni, jiyanlarni.

[2] Qoqib tashlamagan, muloyimlik qilgan, demoqchi.

ABDURAHMON O‘LGANIDAN SO‘NG O‘ZIGA AYTGAN YUPATISHI

Bermagan qulga, qaytarsan,
Yulqinib chiqar er(i)kni.
Ajal to‘g‘ri kelgan so‘ng
Chidatmaydi ber(i)kni.
G‘ariblikka ko‘z yetdi,
Olgandan so‘ng sherikni.
Umrini bergan Xudoyim,
Ajalin ham beribdi.
Saqla deymiz, qaytamiz,
Ilingan yolg‘iz tirakni.
Taqdirga hech tabdil yo‘q,
Tavba qilsak kerakdi(r).
Karkidon, fil day quvvatli,
Yana, arslonday yurakli.
Aflotun, Suqrotday aqlli,
Qahramon, Ali bilakli.
O‘z ongimcha o‘xshatdim
Xudoyim bergan tilakni.
O‘sponniyam oldi bu o‘lim,
Tavba qilsak kerakdi(r).

Musulmonga qo‘ymagan
O‘rinsiz janjal, chatoqni.
Bahs-qasdlashgan yovlarin,
Kishan solib matabdi[1].
Zakot yig‘ib, ekin sop,
To‘ydirgan g‘arib-yotoqni.
Iskandar, Temur, Chingizday,
Musulmonda atoqli.

[1] **Matab bog‘lash** — yechilmasday qilib, mustahkam qilib bog‘lash.

Muqim qozoq bolasi,
Tekis aql so'rabdi.
To'biqtini[1] el qilib,
Boshini yig'ib-qurabdi.
Makkada vaqf-uy solib,
Otasi yoqdi chiroqni[2].
Bir Xudoning yo'liga,
Molni ayamay beribdi.
Ajal vaq(i)ti yetgan so'ng,
Uning ham guli quvrabdi.
Hojini[3] olgan bu o'lim,
Sabr qilsak kerakdi(r).

(1895)

ABDURAHMONNING AYOLI MAG'ISHGA ABAYNING AYTGAN YUPATISHI

Yig'lamoqni to'xtatib,
Insof qilsak yaraydi.
Qo'ymasang qayg'u og'ir bo'p,
Bor bo'yingga taraydi.
Qizil guling qovjirab,
Oq ko'ngling aniq qoraydi.
Hamma jonni hovlisi bilan
Podsho Xudoy sinaydi.
Bir sen emas, yig'latgan
Singarin[4] olgan talayni(ng).

---

[1] **To'biqti** — Abay mansub bo'lgan urug'-qabilaning nomi.

[2] Qo'nonboy bobo Hajga borganida Makka shahrida hojilarga atab mehmonxona qurdirgan.

[3] Qo'nonboy hoji bobo ko'zda tutilayotir.

[4] **Singar** *(siqar)* — Juftning bir poyi, bittasi.

Barimizni ayasang,
To‘xtov qilsang yaxshi edi.
Unutganing xush kelmas,
Yaratuvchi Xudoyni.
Xalqni biylagan podsho ham
Vaqti kelib qulaydi.
Aniq vaq(i)ti yetganda
Talayning guli quvraydi.
Rasulni[1] olgan bu o‘lim
Kimdan ham ruxsat so‘raydi.
Qanday odam bulqinib,
Bunga ko‘nmasdan turardi?
Men bilaman, ne qilay,
Bunaqa asl tug‘maydi[2].
Qancha yig‘lab nolisang,
Shundayam erkka qo‘ymaydi.
Olgisi kelsa dunyoning,
Aytganingga qo‘ymaydi.
O‘ylasang-chi, Mag‘ishim,
Kimning guli so‘lmaydi?
Ortini tila Xudoydan,
Baribir qolipda turmaydi.
Usti-ustiga boshlasa,
Banda shoshadi, o‘ngmaydi.
Yig‘lama, Mag‘ish, yig‘lama,
Allohdan o‘lim tilama.
Qo‘ldan uchgan oq shunqor,
Qaytib kelib qo‘nmaydi.
Bir onadan tug‘ilgan,
Ketdi baridan yaxshisi.
Ko‘tarmasga iloj yo‘q,
Tegdi dunyoning qamchisi.
Ayasang-chi, yo pirim-ov,

[1] **Muhammad** *(s.a.v.)* ko‘zda tutilmoqda.

[2] Endi tug‘ilmaydi, yana boshqa tug‘ilmaydi, demoqchi.

Ota-ona, bovurin.
O‘zni tutib, to‘xtov qilib,
So‘rasang-chi oxirin!
To‘xtamadi, turmadi,
Ketdi o‘rtadan asilim!
Kibr bosgan, zo‘r ko‘krakni
Ko‘tara olmay bosildim.
Tayanchim edi, suyanchim,
Endi kimga osildim?
O‘ylamabman tuqqanni,
Bir Xudoga bosh urdim.
Yolg‘iz sendan ayrilib,
Ortingga qarab oh urdim.
O‘ylamadim hech jonni,
Rohatlanib, maqtanib,
Qiluvchi edim tomosha.
Chin sho‘rlik — bu men o‘zim,
Mag‘ish o‘ylab qarasa.

(1895)

ABDURAHMONNING AYOLI MAG‘ISHGA ABAY YOZIB BERGAN YO‘QLOV

Aylanayin Xudo-yo,
Xafalik solding yoshimdan.
Onalik zorin torttirding
Besh yoshimda boshimdan.
So‘zlolmay banda chidamas,
Qayg‘u o‘tiga achingan.
Yorimni ko‘rmay, necha yil
Xafalikni oshirgan.
Yorimni olib, xo‘r qilding,
Yosh umrda toshigan.

Ayirib o‘t qilib o‘rtading
Abish singari asildan.
Abishni olib kul qilding
Qip-qizil gulni yashildan.
Hech bo‘lmasa xizmat qilib
O‘tkazmadim qoshimdan.

Yigirma ikki yoshimda
Men ayrildim yorimdan.
Yorug‘ shu’la ko‘rmadim
Chiqqali ona qornidan.
Kuyuk kuchli tushgan so‘ng,
Ketadi ekan sabrdan.
Qiziqli kunim qolmadi
Yig‘lasam aytib zorimdan.
Ko‘rolmay zor bo‘p ayrildim
Xudoy qo‘shgan yorimdan.
O‘zgacha bo‘lib yaralding,
Havasi kelib har kimdan.
Tilakni kesib Xudoyim,
Zorlatib qo‘ydi ortingdan.

Xudoy soldi yurakka
Yolg‘onda[1] bitmas yarani.
Ko‘rolmay xor bo‘lib qolgan so‘ng,
Ketarmi ichdan armoni?
Shu’lamni Xudoy o‘chirdi,
Sarnamasam — choram ne?
Duch keltirdi Xudoyim,
Menga shu kabi doroni[2].
Qalqamni olib, Xudoyim,
Boshimga solding qorani.
O‘zi tugul ko‘rmadim,

[1] Yolg‘on dunyoda.

[2] **Doro** — yakka, yolg‘iz, tanho, boshqalarga o‘xshamagan.

Izi yo‘q bosgan tovoni.
Kuydirib, Xudo olmadi,
Bandaning qurib alami.

Fazlingni sanasam tugamas,
Qanchalik til bilan aytsam ham.
Xudoy o‘lchovsiz beribdi,
Boshingga qilib aql jam.
Sabr, g‘ayrat, talab beribdi,
Aql, rahim mujassam.
O‘tgan kundagi qizig‘im
Uxlab ko‘rgan tushdan kam.

Qorong‘i tunda g‘am-hasrat
Yurakni bosdi, chiqmas kun.
Qo‘ldan kelgan g‘ayratim —
Borimni aytib chiqqan un.
Ko‘ngilda quyosh o‘chdimi —
Qayg‘uli qora bo‘lar tun.

Yig‘lamay banda chidamas,
Qarog‘imni olgan so‘ng.
Sog‘inib ko‘rgan qiziqni
Ko‘rolmay zorlab qolgan so‘ng.
Ochmading, Alloh, qovoqni,
Qabul qilmading tilakni.
O‘lolmay chidab o‘tiribman
Xudoyim hasrat solgan so‘ng.

Chiqdimmi deb edim, Xudo-yov,
Qiziqli kunning chetiga.
O‘chirgan Alloh bo‘lgan so‘ng
Bandasin qo‘ymas erkiga.
O‘lmoqdan boshqa da’vo yo‘q,
Allohning solgan shartiga.

Qutilmas quli yo‘l topmas
Eganing solgan o‘rtiga[1].

Yaltir cho‘qqidan quladim,
Qo‘limdan ketib suyanchim.
Ko‘ngilda quyosh o‘chgan so‘ng,
Yolg‘onda qolmas yupanchim.
Umrimni qilding, Xudoyim,
Qiziqsiz kuyunch, g‘amli, jim.
Umidsiz umr bitirdi,
Yurak muzladi zorimdan.

O‘zgacha bo‘lib yaralgan
Ayrildim erka yorimdan.
Shu erkamni qo‘ymagan,
Zamona qandoq tor edi.
Kun chiqqanday qorong‘i
Kechagi kunning yorug‘i.

Sabr qilib chidarga,
Qayg‘u o‘ti oshdi kuchimdan.
Qiziqli kunim qolmadi,
Abishni ko‘rgan kunimdan.
Sog‘inish zorin bildirmay,
Yuruvchi edim ichimdan.
Fazilating ketarma
Yolg‘onda mening yonimdan.

Sog‘inganda olisdan
Yurardim kunday isinib.
Qiziqning yuksak boshidan
Xorlikka ketdim yiqilib.
Xudoyim qo‘shgan qo‘shoqdan
Yolg‘onda qoldim ayrilib.

[1] **O‘rt** — o‘t, olov. Bu yerda “hasrat” degan ma’noda.

Qayg‘ungda qoldim qamalib,
Qizig‘ing ketdi surilib.

Ko‘ra olmay qoldim qalqamning
Naq ikki yil qizig‘in.
Yurakdagi yozilmay,
Taqdir ham soldi chizig‘in.
Umrning, Alloh, beribsan
Kunda o‘rtarlik zo‘r cho‘g‘in.
Bayoni yo‘q, bog‘lovsiz,
Tilakda yo‘q buzug‘in.

Sog‘inganda umid bor,
Bo‘luvchi edi quvon(i)ch.
Qalqamdan qoldim qars urib,
Topilarmikan yupan(i)ch.
Alloh bergan armonga
Oh ursam bo‘lmas aldanish.
Sabr, toqat qilmoqqa
Qo‘ymadi kuyuk bo‘yimni tinch.
Abish kabi yorimdan
Ayrilgan so‘ng borimdan,
Yolg‘onda qolmas yupan(i)ch.
(1895)

* * *

Molga do‘stning do‘sti yo‘q moldan boshqa,
Olarida chor yo‘q aldamasga.
Qayerda pulni ko‘rsa topinadi,
Odamlar la’nat o‘qir unday pastga.

Mol yoyadi shuhratin bildirmoqqa,
Ko‘z-ko‘z qilar mol bilan kuydirmoqqa.

O‘zi cho‘chqa, o‘zgani it deb o‘ylar.
Suv sho‘rva, suyak bilan suydirmakka.

Aqlli, xushfe’lli va orli deb,
Maqtamaydi hech kimni bu kunda ko‘p.
Shu kunda mol qayerda go‘ng ichida,
Oltin bersang, beradi go‘ngidan yeb.

Shuni o‘qib o‘ylay ber bo‘lsang ziyrak,
Kuchingni sot, or sotib nega kerak?
Uch narsa odamzodning xosiyati,
Zo‘r g‘ayrat, yorqin aql, iliq yurak.

(1896)

* * *

Tuqqan ota-ona yo‘q,
Tuqqizarlik bola yo‘q.
Qizig‘iga teng-u to‘sh,
Tepishib o‘sgan ola yo‘q.

To‘lishay desa chora yo‘q,
Joniga bir ora yo‘q.
Uyquda, oshda xalovat,
Soch-soqolda qora yo‘q.

Qadriga yetar yora yo‘q,
Pandida ozora yo‘q.
Yot qo‘rani poylagan
Cholda aql zora yo‘q.

(1896)

* * *

Bir go‘zal qiz bo‘libdi xon qo‘lida,
Xon ham jonin qiyarkan qiz yo‘lida,
Oltin-kumush kiygani shohi-ipak.
Kutuvchi qiz-kelinlar bor so‘ngida.

Degan so‘z bor “uy-uyga, taka tunga”,
Xon g‘arq bo‘lib yuribdi ovoz dunga.
Qo‘ynimni, chol siypagan, qurt yesin deb,
Jar toshdan qiz qulabdi teran suvga.

Shon-saltanat yupatmas yosh yurakni,
Kim ham bo‘lsin, o‘z tengin tilamasmi?
Vaqti o‘tgan davronni quvalagan,
Na qilsin bir qarigan quv suyakni?!

Qari-yosh davroni o‘zga, totuv emas,
Elga ko‘nar, yosh yurak sotuv emas.
Kimda-kim katta bo‘lsa ikki muchal,
Mol berib olgan bilan xotin emas.

Ko‘p boylar yosh xotinni tutar ekan,
Yosh qayg‘usin bildirmay yutar ekan.
Orasida bularning muhabbat yo‘q,
Tushab qo‘yib qochirar buqamikan?

Boy qarisa moliga berar chilvir,
Mol umrni yangirtmas, Xudo urgir.
Birovning qizin molga sotib olib,
Ilgargini izlagan qanday qurgir.

“Xotinim qanday?” demas oqsoqol boy,
Yosh bilan do‘st bo‘libdi yopirim-oy!
Quv xotining mayishsa shod bo‘lasan,
Shaytonga shogird qilib qo‘yishganday.

Qari boy! Qattiq soq bo‘l, tilga ko‘nsang,
Muyiz chiqar xotinning tiliga kirsang.
Hech oqmassan o‘zingga-o‘zing maz bo‘b,
Dasturxon ham xotinni, maxtan ko‘rsang.

Gunohsiz xotin bilan bo‘lar aroz,
Yoshning ko‘ngli erimas, u o‘zi noz,
Bittasi qizil gul-u, biri quvray,
Bir yerga qo‘shilurmi qish bilan yoz!

Doim bo‘lmas quyruqni bulanglatgan,
Sochidan silab-siypab suyub yotgan.
Ikki ko‘ngil orasi yilchilik yer,
Uni qanday qo‘shadi u ont urgan.

(1896)

* * *

Soatning chiqillashi emas ermak,
Hamisha umr o‘tganin u bildirar.
Daqiqa — bir insonning umri demak,
O‘tdi-o‘ldi, taqdir yo‘q qayta kelar.

Soatning o‘zi o‘g‘ri — chiqillar u,
Umrni bildirmasdan o‘g‘irlar u.
Tiyanoq yo‘q,
suyanch yo‘q, keldi-ketdi,
Qayta aylanmas, burilmas mujmal vaqt bu.

O‘tgan umr belgisi o‘sha shivir,
Ko‘ngilni kunda sindir, yoki tindir.
Aql aniq payqaydi qilig‘ingni,
Quvday qoqding behuda gumbur-gumbur.

Kun yig'ilib oy bo'ldi, o'n ikki oy — yil,
Yil yig'ilsa — qartayib qolganing bul.
Ishongan suyanch davron yolg'on bo'lsa,
Yolg'oni yo'q ey Tangrim, kengchilik qil!

(1896)

* * *

Ko'ngil qushi potirlar chor tarafga,
Odam o'yi turlanib oqqan vaqtda.
Yangroq kuy — ko'lankasi shu ko'ngilning,
Takti[1] bilan biylasin u quloqqa.

Yangrab, qalqib, sho'rg'alib, qanot qoqar,
Yurak tervab boshdagi miyni uyg'otar.
Bu dunyoning lazzati bari shunda,
O'ysiz quloq u shunday siyni olsa agar.

Uxlab yotgan yurakni kuy uyg'otar,
Lazzat, ta'mga o'ralib shu uyg'otar.
Goho zavq, goho mung, dardni qo'zg'ab,
Yosh boladay ko'ngilni xo'p yupatar.

Odam oz buni bilib an[2] solguday,
Tinglovchi ham oz bu kuydan bahra olguday.
Bundan yetgan, o'ralgan totli kuyga,
Issiq yurak qayda bor qo'zg'olguday.

Ko'pincha kuy boshlamasi kelar achchiq,
"Kel, tingla!" deb o'zgaga bo'lar boshchi.
Xush to'lg'anib, boshlasa qang'ir-qung'ir,
Shu yeriga fikr qilib aralash-chi.

---

[1] **Takt** *(ruscha)* — kuy o'lchami, musiqiy ohang mavzunligi.

[2] **An** — kuy-qo'shiq, ohang.

Kuyning ham hushyori bor, esari bor,
Tinglovchining qulog'in kesari bor.
Donishmandning so'zinday, shirin kuyni
Tinglaganda ko'nglimning o'sari bor.

Bilimdondan ayamayman so'zning moyin,
Olti bandda bildirdim kuyning joyin.
Ezma boshlar qang'irsin, erning ko'ngli
Parvoz qilsin kuy tinglab, aytgan sayin.
Ko'kragida o'ti bor o'yli insonga,
Bu sezgining suvrati turar tayin.

Hayotning oldi — issiq, orti — sovuq,
Oldi — o'yin, ort yog'i — mungga to'liq.
Yaxshi kuyni tinglasang fikr ko'zi-la,
Hayot shu'la sochadi suvday tiniq.

Yomonga "yor" deganoq an ko'rinar,
Yaxshi an bilsa — aytmoqqa kim erinar?
Orombaxsh kuy tinglasang, joning erib,
Jabr tortgan ko'ngillar ko'tarilar!

(1896)

* * *

Odamning qay bir kezlari
Ko'ngilda alang[1] bosilsa,
Tangrining bergan hunari
Ko'k bulutdan ochilsa.

Shildirab qator kelishim[2],
Tosh buloqning suvinday,
Kirlagan yurak o'z ichin
Tura olmas asta yuvinmay.

[1] **Alang** — ko'ngildagi bezovtalik, hadik, ilhom.

[2] **Kelishim** — so'zlarning uyg'un qofiyalanib, tizilib kelishi.

Tangrining kuni yarqirab
Uyqudan ko‘ngil ochar ko‘z.
Quvvatli o‘ydan bosh quvrab,
Erkalanib chiqar so‘z.

O‘shanda shoir bel bog‘lab
Oldi-ortiga qaranar.
Dunyo kirin yuvinib,
Ko‘rinib o‘yga so‘z solar.

Qironcha qarab qrimga[1],
Mung va zorni qo‘lga olar.
Keklanib nodon zulmga,
Chig‘irchiq otar,
to‘lg‘onar.

Adolat bilan aqlga
Sinatib ko‘rgan-bilganin.
Bildirsa olis-yaqinga
Shularning so‘yla deganin.

Izzali yurak, shashtli qo‘l,
Zaharli siyoh, achchiq til
Nimani yozsa — yo‘li shul,
Jek ko‘rsanglar, o‘zing bil.
(1896)

* * *

Ko‘k ola bulut bukilib,
Shar-shar yog‘ar qay choqda.
Bo‘y-u basting egilib,
Yosh dumalar ovloqda.

[1] **Qrim** — chekkadagi yer, atrof.

Yog‘gan kunda ko‘karib,
Yer ko‘pchib kuchga qonar.
Oqqan yoshga yozg‘irib,
Bosh lo‘qillar, ich yonar.

(1896)

XOTINI BILAN MASAQBOY

Xotini:
To‘shak qip ostiga
Boyning to‘qimin,
O‘choqning boshiga
O‘tinning qo‘qimin
Bukchayib,
Biqsitib,
Qo‘qsitib keltirdi.
Shularning bari — men,
Ko‘nglining nuri yo‘q.
Yuzining nori — men,
Baxti yo‘q, umri yo‘q.
Bukchayib,
Shumshayib,
G‘o‘dayib o‘ltirdi.

Eri:
Kulgi bo‘p yurganda
Nelarga qodirsiz.
Osh qilib bergancha
Chidamas sabrsiz.
Kelib qoldi,
Dahshat soldi.
Ayovsiz do‘qladi.
So‘zining joni yo‘q,
Aqlsiz qup-quruq —

Xotinning kuni yo‘q,
Qamchidir yo‘l-yo‘riq.
Varqillab,
Sharqillab,
Halpillab to‘xtadi.

* * *

Ko‘k tuman — oldingdagi kelar zamon,
Umidni shu’la qilib, ko‘z qada har on.
Ko‘p yillar ko‘p kunni haydab kelayotir,
Sifat yo‘q, surat ham yo‘q, ko‘zlar tolgan.

Ul kunlar — o‘tgan kun-la baribir, bas,
Kelar, ketar, ortida iz qoldirmas.
Shuning biri — xususan, qoldiq kunlar,
Nargisini bir Allohdan o‘zga bilmas.

Aql va jon — mening o‘zim, tan — meniki,
“Men” bilan “meniki”ning ma’nisi — ikki.
“Men” o‘lmoqqa taqdir yo‘q avval boshdan,
“Meniki” o‘lsa o‘lsin, shunga beki[1].

Chiroqlar, bor hafsala — “meniki”da,
Tan lazzatin izlaysan kunda-tunda.
Adolatlik, orlilik, muhabbat-la
Uy yo‘ldoshing qabrdan nari o‘tganda.

Molga sot, foydaga sot qilig‘ingni,
Loy suv bilan loyqalat tinig‘ingni.
Shunda umrda aldamchi bo‘lolmassan,
U bildirmay o‘g‘irlar qizig‘ingni.

[1] **Bekimoq** — ko‘nmoq, rozi bo‘lmoq, ko‘nikmoq.

Odam g'ofil dunyoni deya meniki,
Meniki deb yurganning bari uniki.
Tan qolib, mol ham qolib, jon ketganda,
Shunda, o'yla, bo'ladi ne seniki?

Mazlumga joning achib, iching kuysin,
Harakat qil, foydasi ko'pga tegsin.
Ko'pning g'amin avvaldan Tangri o'ylagan,
Men sevganni sevdi deb egang sevsin.

Ko'pning barin ko'p dema, ko'p ham bo'lak,
Ko'p it yengib ko'k itni kunda yemak.
Adolat va marhamat — ko'pning ozig'i,
Qayda ko'rsang bo'laver shunga ko'mak.

Har kimning maqsadi o'z keraginda,
Bilolmadim pishig'in, ziyragin-da.
Sayoz suzgan sayqallar[1] g'ofil qolar,
Haqiqatda, din tag'i teranginda...

(1897)

* * *

Kimdir seni ko'pik sochib ko'p maqtaydi,
Ishonmagin, yuragida kek saqlaydi.
Mehnatingga va aqlingga ishon, shular
Ikki yondan suyab seni, qulatmaydi.

Izza bo'lma, laqqa tushib xushomadga,
Kibr-havo bilan qolma malomatga.
El ichida boshginangni egib qolsang;
Yarasharmi bu basavlat xush qomatga.

[1] **Sayqal** — birovni birovga yomonlab, urushtirib qo'yadigan odam, palid, g'iybatchi.

Qayg‘u kelsa, ko‘ksingni tut, bosh egmagil,
Ko‘zga kulgu nuri qo‘nsa — yosh demagil,
Yuragingning tubiga boq, to‘riga boq,
Unda asl javohir bor, tosh demagil.

(1897)

* * *

Quruq hov-huv baqirgan
Quloqqa ang[1]mi shu?
Hunarsiz hayqirgan
Kishiga shonmi shu?

Ont urgan nodonlar
Ne desa — jo‘nmi shu?
Bo‘sh o‘tgan xor kunlar
Umrga sonmi shu?

(1897)

* * *

Men salom yozaman
Qarog‘im, erkama.
Qayg‘ungdan ozaman,
Borganlar aytarma?

Kun bo‘yi kutaman
Kelar deb xabaring.
Qayg‘urmay netaman,
Bizga yo‘q nazaring.

[1] **Ang** — qo‘shiq.

Ko‘nglimning yupanchi,
Sen eding bozorim.
Sensiz yo‘q quvonchim,
To‘zadi ruxsorim.

(1897)

* * *

Quvvati o‘tday burqirab,
Marjon-marjon tizilgan
Yomg‘irli yozdan sirqirab,
Ko‘k bulutdan uzilgan.
Esni hayron qilar so‘z —
Nodonlarga qadrsiz.
Tavakkal deb botir o‘y
Tilni qilichday qayrab,
Ishlatib ming hiyla, yo‘l,
Chopishdi yayrab-yayrab.
Uyg‘onmas yurt, dimgina,
Uyalmay qol jimgina!
O‘ylab-o‘ylab topgan so‘z
Ichda qoldirmas kirni,
Ko‘ngil tilab chopgap so‘z
Qo‘zg‘atar bor tomirni.
Dil orziqib yod olar,
Tagida-chi qo‘r qolar.

(1898)

* * *

Shum dunyo to‘nab yotir, ishing bormi,
Boyagi kuch, boyagi tusing bormi.
Oldi umid, orti o‘kinch, aldamchi umr,
Qars urib yerga tiqmas kishing bormi?!

Ta'mi ketib buzilmas toting bormi?
Besh kunlik bu omonatga birov zormi?
Yaqinni yot, totuvni xun qilar ekan,
Quv umrning qizig'iga el xumormi?

O'ylamay ochilgan og'izning aytma so'zin,
Til balosi yomondir, bulg'ar o'zin.
Tilda suyak, labda esa jiyak bormi?
Chimildiqday ko'rsatmaydi chinning yuzin.

(1898)

* * *

Xasta yurak uradi hech shoshilmay,
Charchab qolgan vujudni boshqarolmay,
Ba'zan issiq qon bosib ketar uni,
Bedor o'tgan tunlarda tinchiyolmay.

Qorong'i, sangrov o'yni qayg'u yenggan,
Erkalik va do'stlikni og'irsingan.
Aqli yo'q o'sha orsiz chuvilloqni
Kunda ko'rib, gavdasi xo'b jirkangan.

O'tganni tiriltirib, tag'in cho'llab,
Ushbu kunni kun demas ayblab, qarg'ab.
Goho tilar baxt bilan yana tinchlik,
Goh qayg'u, goh azobni yurar izlab.

Goho o'ylar yig'lash-chun qayg'u-zorin,
Notinch kunda eslaydi dardning barin.
Goh unisin yashirar ko'zdan nari,
"Yo'qotar" deb mazaxlab betning orin.

Xasta yurak uradi sekin, bejo,
Ichga tiqqan dardini bildirolmay.
Goho uni issiq qon bosib ketar,
Goho birpas tin olar un chiqarmay.

(1898)

ESHAK

(Masal)

Qirq-ellik qo‘sh bir yerdan
Qaytgan ekan karvonlar.
Mol haydab borib har eldan
Savdo qilib yurganlar.

Oltin ortgan bir eshak
Shular bilan kelardi.
U to‘xtasa — yurt to‘xtab,
U yelsa — yurt yelardi.

Tamomi qo‘sh boylari
Hech yonidan ketmasdi.
Xushomad qilmay bari
Nari-beri o‘tmasdi.

O‘rta olib haligini
Bari birday siylar deng.
Biri o‘pib qulog‘ini
Biri junin siypar deng.

Silab-siypar, qadrlar,
Berar yemi ham ortiq.
Eshak manmansiraydi,
Bo‘lib oldi ja tantiq.

Ko‘ch bo‘yi yurt qoshida,
O‘zga bilan hech ish yo‘q.
Otni tepib, odamni
Tishlasa ham so‘kish yo‘q.

"Xudo, o'zing saqla!" deb
Jar ham, suv ham tan oldi.
Erkalatdi jamoat,
"Jabborqul mirzo" nom oldi.

Oltin ustida payti
Erkalanib ko'p yurgan.
Xayolida ko'k eshak
"Ha, men zo'rman!" deb yurgan.

Oltinni bir kun boy oldi,
Yurt tarqaldi har yona.
Jabborqul oti yo'qoldi,
Axlat tashir u, ana!

Qarasang-chi bastingga,
Uzunquloq, shalpang-ey,
Yurtning erkalatgani
Oltin uchun ekan-ey!..

(1898)

* * *

Esingda bormi yosh kuning?
Ko'krakda shiddat, boshing bo'sh.
Qayg'usiz, o'ysiz, mast kuning,
Kimni ko'rsang — bari do'st.

Muhabbat, qiziq, baxt, dunyo,
Ko'rinar hammaga teng go'yo,
Umid yaqin, ko'ngil oq —
Bo'larmi shunday qiziq choq?

Xudo-yov, qayda shul yillar —
Muhabbat, qiziq mo'l yillar.

Ohista-ohista chekinib,
Olislab ketdi qurg‘irlar!

Yalinasan, yig‘laysan,
Sog‘inasan, yo‘qlaysan,
Qiziqlar ketdi, do‘st ketdi,
Yeta olmaysan, to‘xtaysan.

Ko‘zimga yosh ber, yig‘layin,
Chidam ber, sabr qilayin!
Yarali bo‘lgan yurakka
Davo ber, yamab sinayin!

(1899)

* * *

Yuragim mening qirq yamoq,
Xiyonatkor olamdan.
Qanday qilib bo‘lsin sog‘,
Ko‘ngil qolgan hammadan.

Goho o‘ldi, goh bo‘ldi yov
Kimni sevsa bu yurak!
Bari dushman, yo‘lga g‘ov,
Suyanishga yo‘q tirgak.

Yetib keldi qarilik ham,
Uni to‘sar kuch qayda?!
Do‘st bo‘lmas qalbi beg‘am,
Undan bizga yo‘q foyda.

Ey, yuragi dardli odam,
Qalbimdan sen xabar ol:
Unda ne bor, qanday dard, g‘am
Tilga kirar, quloq sol.

(1899)

* * *

Nurli osmonga intilib o‘sgansan sen,
G‘ururlanib, qayg‘ulardan bezgansan sen.
Xuddi shunday bahor chog‘i maysalarning
Quyosh sari rag‘batini sezgansan sen.

Shundan beri ko‘p rahmsiz yillar o‘tdi,
O‘roq oni, yig‘im-terim oni yetdi.
Issig‘ini, sovug‘ini — barin ko‘rib
Munglig‘ ko‘ngil qayishmasdan g‘ayrat etdi.

Og‘ir o‘ylar azobida qiynalib jon,
Qayg‘u, hasrat chehrangga iz solmish ayon.
Doni to‘liq boshaqlarday, u o‘ylar ham
Sening boshing egmak istar yerga tomon.

Tirik jon-ku o‘lmaklikka rozi bo‘lmas,
Go‘yoki u bir umrga yashar, o‘lmas.
Ajal kelib chovut solsa, jonni olsa,
Umr qayda, sen qayda — bir o‘ylasang, bas.

Odam zoti bugun odam, erta — tuproq,
Bu kun umr yashnab turar, aldov — biroq.
Erta o‘zing qayerdasan, bilarmisan,
O‘lmak uchun tug‘ilgansan, o‘yla, chiroq.

(1899)

* * *

Yuragim, nima sezasan,
Sendan boshqa jon yo‘qmi?
Dunyoni ko‘nglim kezasan,
Tayanch yo‘qmi qo‘y, to‘xta!

Sezganingni sezdirib,
Yetolmading o‘rtoqqa.

Tirik jondan bezdirib,
Oborasan qayyoqqa.

O‘rtoqlik, tinchlik, do‘stlik-ku.
Uning qadrin kim bilar?
Har kimga tilak qo‘shdik-ku —
Bari aldamchi savdogar.

Do‘stni qaydan toparsan,
Kengash ishga odam yo‘q.
Nari-beri choparsan,
Yolg‘izlikdan yomon yo‘q.

Aql aytsang birovga,
Iching erib, ilinib.
Uyalmas had tilashga,
Rasvoligi bilinib.

Hadim berib tinglatgan
So‘z ko‘ngilga ko‘narmi?
Qulog‘in sotgan pir urgan.
O‘ngdirarmi, o‘ngarmi?

Kuyasan, yurak, kuyasan,
Kuyganingdan ne foyda.
Dunyoda neni suyasan,
Umr qayda, do‘st qayda?

(1900)

* * *

Ko‘lanka bo‘y uzaytib,
Olisni ko‘zdan yashirsa,
Vaqt oftobni qizartib,
Ufqlardan oshirsa,
Ko‘nglim ma’yus sirlashar
Boqqancha o‘sha yoqqa,
Ne bilan shivirlashar

Qarab yiroq-yiroqqa?
O‘tgan umr — quv so‘qmoq,
Qidiradi talayni.
Kim aldadi, kim to‘qmoq
Soldi — shuni sanaydi.
Neni topsang, shuni top,
Yaramas bir kerakka.
Nuqul og‘u yig‘ishib,
Separ sho‘rli yurakka.
Adashgan kuchuk misol
Ulib, yurtga qaytgan o‘y,
O‘kinish bo‘ldi tole,
Ovvora bo‘lma, uni qo‘y!

(1895)

* * *

Quyoshni vaqt itarib,
Ko‘k ufqdan oshirsa,
Ko‘lanka boshin ko‘tarib,
Uzoqni ko‘zdan yashirsa,
Shunda ko‘nglim yo‘qlaydi
Jondan sevgan oshig‘in.
Ko‘zi yetib to‘xtaydi,
O‘tgan kunning qochig‘in.
Ko‘kka boqdim “Ollo” deb,
Sinab ko‘ray, deb kuchin.
Rahmati uning unda ko‘p,
Foydasi yo‘q biz uchun.
Nega sevsin ul meni,
Dilga uni olmadim.
Ko‘rdim ortiq men seni
Rahmatidan Olloning.

(1900)

* * *

"Uyalaman" degani ko'ngil uchun,
Ushoqqina umrday mungli uchun.
Totuvgina do'stlik ham, qasdlik ham yo'q,
Jigari yo'q tortgali yengil uchun.
Chalqancha tushib yotarichi pishib,
Qaysi jonga yoqarkin bunday ishi.
Yig'ishtirib uyatni, tanin asrab,
Ertasi yo'q, bugundir bor tashvishi.
Tug'ishgani, do'stlari ikki-uchdir,
Shu sababli do'stidan dushman kuchli.
Suysa — yolg'on, suymasa — ayamagan,
Bu ne degan zamonga ishim tushdi?!
Kap-katta-yu qilig'i bolatovur,
Bolachaday ermagi g'ala-g'ovur.
Ota tiysa bolani, bu ham — do'stlik,
Bola tiysa, otaga nechun og'ir?

(1901)

* * *

Bargi so'lib qolgan eski umidman,
Umr surib xayol-la, bo'sh yuribman.
Xayollarim ko'nglimni tinchitmaydi,
O'tgan kunlar o'yi bilan quribman.

U davron — umr emas, bir ko'rgan tush,
O'yga botma, xayolda balanddan tush!
O'z umringga qara-chi, tugalmikan,
Qani o'tli yurak, chiroy, quvvat-kuch?

Sahroda sarob kabi yurt-aymog'im,
Chinga chidab, o'ngolmas ittifog'i,
Ko'pning og'zin kuzatsang, kun ko'rmaysan,
O'zing kuzat o'zingni, kel, chirog'im.

(1900)

* * *

Bo‘g‘insiz tiling,
Bo‘g‘uvli so‘zing.
Ishonchdir odam o‘g‘liga.

Kishining so‘zin
Uqib ol o‘zing
Qiyshig‘in tuzab to‘g‘riga.

“Sezuvchan ko‘ngil
Va issiq yurak —
Topaman” de, qil sabr.

Bir yaxshi do‘st
Judayam kerak —
Fikri va tili bo‘lsa bir.

(1901)

* * *

To‘tiqush tusli kapalak,
Yozda soylarda guvillar.
Boychechak so‘ladi, kuvraydi,
Kapalak qolmaydi, u — o‘lar.

Odamizodga ne kerak:
Sevmoq, sezmoq, koyimoq.
Harakat qilmoq, yugurmoq,
Aql-la o‘ylab, gapirmoq.

Har kimni zamon sudraydi,
Zamonni qay jon biylaydi?
Zamonni yomon deb ko‘r-chi,
Zamona seni iylaydi.

(1902)

* * *

Allohning o'zi ham rost, so'zi ham rost,
Rost so'zlar hech vaqtda yolg'on bo'lmas.
Ko'p kitob keldi Allohdan, uning to'rti
Allohni tanituvga so'z ayirmas[1].

Amantu[2] o'qimagan kishi borma?
Yaktubihi[3] degan-la ishi borma?
Alloh o'zgarmas, odamzod kunda o'zgarar,
Yorliq berdi ul sizlarga, so'zni uqarga.

Zamona, ro'zg'or, axloq kunda o'zgardi,
Ularga navbat ila nabiy[4] keldi.
Qoida[5] shariati o'zgarsa-da,
Ta'rif Alloh hech yerda o'zgarmadi.

Kulli maxluq o'zgarar, Alloh o'zgarmas,
Ahli kitob[6] bul so'zni bekor demas.
Odam nafsi o'zimchil axloq bilan,
Bo'sh so'z bilan qasdlashmay, tuzu kelmas.

Muhabbat-la yaratgan odamzodni,
Sen ham sev ul Allohni jondan totli.
Odamzodning barini sev bovurim deb,
Yana haq yo'l shudir deb adolatni.

---

[1] Bu yerda aytilgan 4 kitob: Muso alayhissalomga nozil qilingan — Tavrot, Dovud alayhissalomga kelgan — Zabur, Iso alayhissalomga kelgan — Injil va Muhammad alayhissalomga nozil qilingan Qur'oni karim.

[2] **Amantu** *(amantu billahi)* — Allohga ishondim, uning borligiga va birligiga (yolg'izligiga) ishondim.

[3] **Yaktubihi** — yana, kitoblariga ishondim. Bu o'rinda imonning yettita shartining ikkitasi keltirilgan.

[4] **Nabi** — payg'ambar, Parvardigori olam so'zlarini odamlarga yetkazuvchi vakil.

[5] **Qoida** — asosiy shart, qonun ma'nosida.

[6] **Ahli kitob** — muqaddas kitoblarda aytilgan, kitob nozil qilingan odamlar (musulmonlar, yahudiylar, xristianlar).

Ushbu uch sevgi bo'ladi imoni gul,
Imonning asli uch deb sen tahqiq[1] bil,
O'ylan-da uchovini taratib boq,
Boshni bog'la yo'liga, moling tugul.

Din ham shu, chin o'ylasang toat ham shu,
Ikki dunyo bul tasdiq[2] — haqning do'sti.
Ushbularni buzg'uvchi yana uch ish bor:
Foyda, maqtov, havasqo'y[3] — shundan cho'chi.

Ro'za, namoz, zakot, haj — talashsiz ish,
Yaxshi bo'lsang, yaxshi tut barin tekis.
Dastlabki uchin berkitmay, so'nggi to'rtni
Qilgan bilan totimli bermas yemish.

Bosh yuqori yaralgan, bo'yin — tuban,
Qaragin, tana bitgan navbat bilan.
Ishning boshi — retini tanimoqlik,
Imon bilmas toatni qabul demang.

Imomlar ibodatdan[4] so'z qo'zg'agan,
Husnizan[5] va imonni bildi o'ylagan.
Imonning tozaligin yaxshi uqtirmay,
Sirtin qancha yuvsa-da, ichi o'ngmagan.

Alloh aybsiz avvaldan, payg'ambar haq,
Mo'min bo'lsang — o'rganib, sen o'xshab boq.
Qur'oni — rostdir, Allohning kalomi — ul,
Taulin[6] bilarlik il(i)ming chaq.

---

[1] **Tahqiq** — aniq, ravshan, amalga oshirish, bajarish. Biror masalaning to'g'riligini tekshirib, haqiqat ekanligiga ishonish degan ma'noda.

[2] **Tasdiq** — ishonch, chin.

[3] **Havasqo'y** — ko'rsaxumorlik, hamma narsaga egalik qilish orzusi.

[4] **Ibodat** — sig'inish, toat-ibodat qilish.

[5] **Husnizan** *(forsiy ibora)* — yaxshi niyat, chiroyli o'y va fikr.

[6] **Taulin** — aniq ma'nosiga yeta olish.

Allohning, payg'ambarning yo'lindamiz,
Fe'limizni buzmaslik — imonimiz.
Foyda, maqtov, havasqo'y — shayton ishi,
Qani bizning nafsni tiyganimiz?

Mo'min bo'lsang, avvalo iymonli bo'l,
Bandaga imon o'zi ochadi yo'l.
Chin inon-da, toza o'yla bir imonni,
Munofiq[1] namoz qilmabmi, ma'lumku ul.

Alloh ichingni ayttirmay biladi o'yla,
Bandasiga qasdlik-la gina qo'yma.
Rost so'z ila talashma mo'min bo'lsang,
O'yla, aytdim, odamlik otin yo'yma![2]

(1902)

* * *

Yurak — dengiz, qiziqning bari olmos,
Shul qiziqsiz umrda yurak qolmas.
Yurakdan issiq-qizma keta qolsa,
O'zga tandan hech qiziq ish topilmas.

Do'stlik, qasdlik, bor qiziq — yurak ishi,
Or, uyatning bir aql — kuzatuvchisi.
Or va uyat sinmasa, o'zga qiliq,
Katta ketmoq — bu kunning martabasi.

Keksarganda odamda o't ozayar,
O't ozaysa, har ishning bari toyar.
Har ko'ringan senga bir aql aytib,
Yo'ling toyar, oyog'ing maymoqlanar.

(1902)

[1] **Munofiq** — ikkiyuzlamachi odam, sirtdan musulmon ko'ringan bo'lib, ichdan kofir bo'lgan odam.

[2] **Yo'ymoq** — yo'qotmoq, ajralib qolmoq.

* * *

Yolin va o'tdan yaralib,
Yaraqlab Ra'd yoyni haydar[1].
Yomg'iri yerga taralib,
Yasharib chiqib gul yayrar.

Yoyiga birov kelsa kez,
Belgili yumush — sho'ri qaynar.
Quvvati kuchli nurli so'z,
Quvvatin bilgan avaylar.

Yolin va o'tdan yaralgan
So'zni uquvchi qaysing bor?
Partiya yig'ib, pora olgan,
Fe'li gadoy, boysan, tor!

Quvlikdan, xavf-xatardan
Zeriksang — yaxshi jonsizlar.
Tuzalmasa chug'uldan,
Harsillar-u qarsillar.

Shumi hayot,
Shumi yurt?
Baring ezma,
Bosh og'rit!

(1903)

* * *

Do'mbiraga qo'l suqma,
Jimirlatib bir-birlab.
Yuragim, so'qma, kel to'xta,
Yosh kelar ko'zga porillab.

---

[1] Kitobda diniy tushunchalarga ko'ra, "chaqmoq chaquvchi, quyoshni kurkuratib ovoz chiqaruvchi farishta" deb izoh berilgan. Aslida, Ra'd, arabcha — momoqaldiroqni bildiradi *(Qur'oni karim, 13-sura)*.

Qayg‘uli ko‘nglim qaydagi
Burungini yangilar.
G‘ayratni olib bo‘ydagi,
Boshimda qayg‘u qang‘irar.

Undancha, iliq yuz bilan
Kel, yorim, qara betimga.
Iliq, totli javob ayt,
Ichdagi qayg‘u-dardimga.

Ichdagi eski yolqinni
So‘ndir yangi qiliq-la.
So‘zlashgin, yaxshi, yoqimli,
Menday ko‘ngli siniq-la.

Siniq ko‘nglim ko‘p ko‘char,
Mayda qo‘l bilan ushlasang.
Ko‘ngilga turli o‘y tushar,
Teranga qarab boshlasang.

Kuyli-kuysiz poygaga,
Charchadi ko‘nglim ko‘p chopib.
Ko‘p qiynamay har nega,
Semirtir endi, em topib.

* * *

O‘z aybimga ko‘z solib
O‘yga botdim, to‘lg‘ondim.
O‘z aybimni qo‘lga olib,
Tekshirishga o‘ylandim.

O‘zimga o‘zim yoqmadim,
Endi qayga sig‘oldim?
O‘rgangan bu ko‘ngilni
Qanday qilib tiyoldim?

Gunohimni sanasam,
Tog‘ toshidan oz emas.
Yuragimga ko‘z solsam,
Igna qadar tozamas.

Archib, olib tashlashga
Jo‘yakdagi o‘t emas.
Hammasi ham o‘zimdan,
Tangri bergan, “yot” emas.

Shuncha ahmoq bo‘lganman,
Ko‘ringanga qiziqdim.
Adolatlik yurakning
Odilligin buzibman.

Aql bilan bilimdan
Juda umid uzibman.
Hiyla bilan quvlikni
Marvaridday tizibman.

Yalmog‘izday men ochko‘z,
Or, nomusdan bezibman.
Quvlik bilan shumlikka
Tentak bo‘lib uchibman.

“Siz bilasiz — deganga,
Kunda kuyib-pishibman.
Har kimsaga maqtanib,
Aytibman men pishiqman.

* * *

“Men bo‘laman!” demanglar,
Gerdayib oyoq bosganga.
Ikki ko‘zing olayib,
Qarab qolsin osmonga.

Bir olimdan boshqaning
Bari-da kasal maqtovga.
Unday odam yo'liqar
Kechikma yoq bir g'ovga.

* * *

Olimdan nodon ortmas uqqan bilan,
Taqdir ko'rmay qo'ymaydi buqqan bilan.
U tag'i qolipidan osholmaydi,
Qizg'aldoq erta ko'klab chiqqan bilan.

* * *

Tubinda chin mehnat — bu ekin solgan,
Yoshlikdan o'quv o'qib, bilim olgan.
Biy bo'lmoq, bo'lis bo'lmoq hunar emas,
Mehnatning bundan boshqa bari yolg'on.

* * *

Yo'l ko'rmoq, dastur bilmoq, jahon kezmoq,
Obro'dir er yigitga aql topmoq.
Ko'ruvchi o'z taqdirin Paqdan bilib,
Yurar hunar egasin doim maqtab.

Niyating to'g'ri bo'lsa sening oppoq,
Ikki enlik og'izga qo'ysang qopqoq.
Shivir, g'iybat deganni sirtlab yurib,
Ilm-u hunar,
mol topmoq — yurtga yoqmoq.

BOLALIK CHOG‘

Bitmas ishga tug‘ildik,
Ko‘z yoshiga yuvindik.
Eshitibmiz, kelibmiz,
Tonibmiz va uqibmiz.

Suydiribmiz, suyubmiz,
Shoshilibmiz, kuyubmiz.
Qaqillabmiz, qaqshabmiz,
So‘zga talash boshlabmiz.

Undan nari o‘tganda,
Kishining erkin tashlabmiz.
Erklik qilib qolibmiz,
Erkinlik suyub qolibmiz.

O‘yin-kulguga taltoqlab,
Hiylakor bo‘lib horibmiz.
Qartaymaymiz dedik biz,
Qaydagi shumga ergashib.
G‘amsizlik qartaytirdi,
Quvvat ketdi tirkashib...

LOCHIN BILAN CHUMCHUQ

Erta bilan bir lochin
Qiyalab uchdi qiyadan.
Yemish izlab uchgandi
Qorni ochgan so'ng uyadan.
Cho'p boshidan bir chumchuq
Chirqirab uchib jo'naldi.
O'rdak-g'ozdan kam ko'rmay,
Uchgan lochin shuni ildi.
Chirqiratib chumchuqni,
Chiqarmay ildi qiyaga.
Kichkina qorin to'yar deb,
Oborib qo'ndi uyaga.
Bechora chumchuq lochinga
Shunda yig'lab, aytdi arz:
— Menga o'lim g'am emas-ov,
O'zim mitti, go'shtim oz.
Jilla qursa, bo'lsaydim,
Siz to'yguday o'rdak-g'oz.
Shahzodam, siz — oqsuyak, men,
Arzimasman tamoman.
Yesangiz — men yuq bo'lmasman,
Qorningiz ham to'ymaydi.
Maqtansangiz, barcha qushlar
Sizga kulmay qo'ymaydi.
Xo'rak bo'lmas yegan bilan
Podsho qulning tomog'in[1].
Chirkin ochlik to'rajonning
Kirlatdi, eh, tirnog'in.
Gavdam bo'lib sal kattaroq,
Bo'lsa edi go'shtim mo'l,
Arzir edim maqtansangiz,
Eh, men — jimit, mitti, go'l...

[1] **Tomoq** — bu yerda taom, egulik, degan ma'noda.

Chumchuq rostin gapiribdi,
Yesa — qorin to'lmaydi.
"Kuching shunga yetdimi?" deb,
Gapirmagan qolmaydi.
"Hamma qotil, zo'ravon deb
Ko'rsatar men shumshikni...".
Lochin shunda rahmi kelib
Qo'yvordi tez chumchuqni.

Bilib gapirsa — qizil til
Jonni saqlar, buni bil.

SHARIFGA

To'nliqboyning xotini oting Sharif,
Erga yolchib ko'rmagan sen bir g'arib.
Sen chiqqan yo'l yoqasida tanho tup chiy,
Ko'ringan it ketadi bir-bir sarib[1].

ABRALIGA

Men yosh chog'dan ko'p ko'rdim
Musulmonni, kofirni.
Abralidek ko'rmadim
Namoz bilmas faqirni.
Qiroatin o'qitib,
Ko'rgan edim, yanglishdi.
Niyat qila bilmaydi,
Ne qilarkan nafilni.

Namozshomning ortidan
Qiyshang-qiyshang etadi;
Uchuq tekkan kishiday
Tutqanog'i tutadi.

[1] **Sarib** — ho'l qilmoq

Nafil tugul namozin
Bari yelga ketadi.

"Ennatoyin kalkavsar"[1]
Deya bo'lma gunohkor.
Oxirin o'ylab aytgani,
"Har kuyga moyillik bor"
Shu tariqa o'qisa
Namozda ne savob bor?
Tagin o'ylasang unda
Miya yo'qdir, quloq bor.

1878

JAQSILIQQA

Qadamingni o'ylab bos, ey, Jaqsiliq!
O'z boshingda tug'yon bor bir baxshilik.
Burchdorlik inson uchun qiyin savdo,
Har qayda naf beravermas mol topqirlik.

1879

ILM TOPMAY MAQTANMA...

Ilm topmay maqtanma,
O'rning topmay boplanma,
Huzurlanib shodlanma,
Chuv tushib yot kulguga.
Besh narsadan qochiq bo'l,
Besh narsaga oshiq bo'l,
Inson bo'lgum desangiz.
Tilaging, umring oldingda,
Uni deb g'am yesangiz.
G'iybat, yolg'on, maqtanmoq,

[1] **Kalkavsar** — noto'g'ri aytilgan oyat

Yalqovlik, bejiz mol sochmoq —
Besh yovingiz bilsangiz.
Hunar, mehnat, teran o‘y,
Qanoat, shafqat, o‘ylab qo‘y —
Besh asl ish, ko‘nsangiz.
Yomonlik ko‘rgach nafratli,
Sovutib ko‘ngilni tiysangiz.
Yaxshilik ko‘rgach ibratli,
Uni o‘yga yig‘sangiz.
Olim bo‘lmay ne erur,
Bolalikni qilsangiz.
Bo‘lmasang ham mengzab boq,
Bir olimni ko‘rsangiz.
Undoq bo‘lmoq qayda deb,
Aytma ilm suysangiz.
Sizga bilim kim berar,
Yonmay turib so‘nsangiz?
Dunyo ham, mol ham o‘zidur,
Bilimga ko‘ngil bersangiz.
Bilganlarning so‘ziga
Muhabbat bilan kirsangiz.
Aql ishongach chog‘laning,
Bir ishga duch kelsangiz.
Oqsoqol aytdi, boy aytdi,
Kim bo‘lsin, mayli, shul aytdi,
Idrok bilan yengsangiz.
Nodonlarga bo‘y berma,
Chin so‘z bilan o‘lsangiz.
Oyat, hadis emas-ku,
Kofir bo‘lding demas-ku,
Qanchalar zid kelsangiz.
Ayon aytma ko‘p joyda,
Bizning gapga kirsangiz.
Buni yozgan kishining
Ismin emas, so‘zin bil.
Bu yolg‘onchi dunyodan

Chechan ham o‘tgandir bulbul,
Sarbon ham minib duldul.
So‘z ma’nosin bilsangiz,
Aql — mezon, o‘lchov qil,
Agar egri ko‘rinsa,
Mayling tashla, mayling kul,
Agar tuzuk ko‘rinsa,
Ko‘p o‘ylab quloqqa il.
Aqlli oz, ahmoq ko‘p,
Dema ko‘pning so‘zi bul.
Yaqinning so‘zi totli deb,
Yaqinim aytdi demagin.
Nodon bo‘lib aytsa kim,
Tagi yo‘q gapga kirmagin.
Sizga aytgum, xavfim — bul
O‘zing uchun o‘rgansang,
Yomonlikdan jirkansang,
Ochilursan yilma-yil,
Birov uchun o‘rgansang,
Birov bilmas, sen bilsang,
Bilganing bari — tul.
So‘ziga qarab kishi ol,
Kishiga qarab so‘z olma.
Chin so‘z qaysi bilolmay,
Har nedan quruq qolma.
Buni bilib yozgan qul —
Luqmoni Hakimdir bil,
Shunday debdi ul donish,
So‘zin o‘qib, o‘yla tag‘in,
Tez o‘rganib, yo‘yma tez,
Navqiron chog‘ ko‘ngil — gul.

1886

YODINGDA BORMI...

Yodingda bormi yosh payting,
Ko‘ksing to‘liq, boshing bo‘sh?
Qayg‘usiz, o‘ysiz, mast payting,
Kimni ko‘rsang — bari do‘st.

Ishq, havasdan mahobatli bog‘,
Ko‘ringuvchi edi do‘stga o‘rtoq.
Umid yaqin, ko‘ngil esa oq,
Bo‘lurmi shunday maroqli chog‘?

Aytgin, Egam, qayda ul yillar,
Muhabbatga, nurga mo‘l yillar?
Asta-asta chekinib oxir,
Ko‘p olislab ketdi qurg‘urlar.

Yalinasan, gina saqlaysan,
Sog‘inasan, keyin yo‘qlaysan,
Muhabbat ham, do‘st ham ketganda —
Yetolmasdan ma’yus to‘xtaysan.

Ko‘zimga yosh bergin, yig‘layin,
Chidam bergin, sabr qilayin.
Tushgan darzin bemor yurakning,
Malham surib, yamab qo‘yayin!

1899

KUCHUK ASRAB, IT ETDIM...

Kuchuk asrab it etdim,
Boldirimni qonatdi.
Birovga miltiq o‘rgatdim,
Mergan bo‘ldi, meni otdi.

1899

KUYISBOYGA

Duoyi salom yozmoqdaman Kuyisboyga,
Bermoq bo'lgan ayg'iringning ko'zi qayda?
Ko'z ko'rganda — berasan-u yo'qsa — tonib,
G'irt yolg'onchi atalmoqning nesi foyda?

1896

QORA XOTIN[1]GA

Qora xotin deganlarga qora xotin,
Uzib-yulib, olib yurar qanoatin.
Erta yozdek ering kelib orom olmas,
Qozoqning ne qilgaydursan shariatin?

1889

KUN KETIDAN KUN TUVAR...

Kun ketidan kun tuvar,
Bir kun orom tutqazmas.
Oy ketidan oy quvar,
Yelga minsang, yetkazmas.

1898

BOLALIK O'TDI, BILDINGMI?

Bolalik o'tdi, bildingmi?
Yigitlikka keldingmi?
Yigitlik o'tdi, ko'rdingmi?
Qarilikka ko'ndingmi?
Kim biladi miskindek
Muqimlikdan so'ndingmi?

[1] Abayning Boymag'ambet ismli ovuldosh shogirdining xotini

Beqarorga do‘ndingmi?
Charx gardishin kim bilar,
Bo‘tali tuya misoli
Qo‘radan chiqmay o‘ldingmi?

1895

O‘LSAM, O‘RNIM...

O‘lsam, o‘rnim qora yer siz[1] bo‘lmasmi?
O‘tkir til bir iboli qiz bo‘lmasmi?
Muhabbat va adovat-la bahslashgan
Hayratdagi yuragim muz bo‘lmasmi?

Taqdir bir kun ro‘yobli kez bo‘lmasmi,
Birovga sust, birovga tez bo‘lmasmi,
Asov yurak oyog‘ini chalkash bosgan,
Joyin topgach teskari so‘z bo‘lmasmi?

Shunda javob bera olmay men bechora,
Sizlarga erk tegadimi zimdan qara.
Bitta jonga ikki bora kuymoq haqmi,
Qoni qora bir jondirman, joni yara.

Yuragimning tubini sen teran bo‘yla,
Men bir jumboq odamdirman, shuni o‘yla.
Mashaqqatli va so‘qmoqsiz yerda o‘sdim,
Ming-la yolg‘iz olishganman, gina qo‘yma!

Yoshligimda chapdast edim, o‘ydan yiroq,
Mehrga ham, g‘azabga ham yoqdim chiroq.
Erta bedor bo‘ldim, o‘ylab yetolmadim,
Etakbosdi ishlar ko‘rdim eldan biroq.

O‘y kirgali hech tegmadi erk o‘zimga,
Sayoq bo‘lsang tusha ko‘rma sen izimga.

[1] **Siz** — nam

O‘zi yurmay, erk ham bermay yurt xor etdi,
Sen esli jon, tinch uxlatgil, kir so‘zimga.

Ichim o‘tga to‘lib ketgan, sirtim durday,
Qaytmas joyga ketgaydirman tuk undirmay,
O‘lan — jonon, g‘iybatchidek elga yoyar,
So‘z aytmoqni bas qilayin, sirni bermay.

1898

USHBU QIMIZ QOZOQQA...

Ushbu qimiz qozoqqa
Maqtanishmi oshingda?
Qimizni ortdan bosguvchi
Et tayyormi qoshingda?
Bo‘yingga singgib o‘t bo‘lgan
Qizmagin nihol yoshingda.
Qirmizi semiz, yosh qimiz —
Bir ulkan burch boshingda.
Yuvvoshni mingin-u ayron ich,
Yo‘q narsaga urinma.
O‘g‘ri, zolim, quvlarning
Nishoniga ilinma.
Yilqini poylaydi o‘g‘rilar
Har tepaning toshida.
O‘y ko‘z bilan qarasang
Qo‘ydan yilqi asilmi?
Maqtanmoqqa bois yig‘ib
Yilqi deb yurtga bosh urma.
Qimiz, semiz deganing
Bir maqtov-ku, yashirma.
Shuhrat quvma, shon quvma,
O‘ysizlarga qo‘shilma.
Qo‘yinda aqcha, qo‘lda qo‘y,
Nozirga o‘ng‘ay bo‘lma!

1901

DOSTONLAR

ISKANDAR

Bizning yurt Iskandarni bilarmikan?
Makedoniya shahari — unga makon.
Filipp podsho bolasi, er ko‘ngilli,
Maqtov suygich, qizg‘anchiq odam ekan.

Filipp o‘ldi, Iskandar podsho bo‘ldi,
Yoshi arang yigirma birga to‘ldi.
O‘z yurti oz ko‘rinib, qo‘shnilarga
Ko‘z olartib qaradi o‘ngni-so‘lni.

Shumlik-la askar yig‘ib quvvatlandi,
Yaqin yerga yov bo‘ldi, tura otlandi.
Bo‘ysunmagan ko‘p elni qirdi-surdi,
Shohni o‘ldirib, qal’asin tortib oldi.

Begunoh yaqin elning barin chopdi,
Daryoning suvi kabi qonlar oqdi.
Chopgan elning barin ham bo‘dam[1] qilib,
Hukumatni qo‘liga tortib oldi.

Iskandar elin olmagan xon qolmadi,
Olgan sayin ko‘ngli bir to‘ymadi.
Ishtaha borgan sayin qatti(q) ochilib,
Yer yuzini olishni u o‘yladi.

Qonichar, qahrli shoh, achchig‘i ko‘p,
Atog‘idan qo‘rqadi yurt qayg‘u yeb.
O‘shal kun xushomadni aytaverdi,
Xonning xoni,
podshoning podshosi deb.

[1] **Bo‘dam, bo‘dan** — ruscha “poddanniy” so‘zining buzilgan shakli.

Talay yerga atog‘i uning yetdi,
Yer yuzini olishga talab etdi.
Hisobsiz askar olib, yarog‘lanib,
Eshitgan ellar tomon yurib ketdi.

Oldidan chiqolmadi hech kim uning,
Barini oldi, qo‘rqitdi yo‘ldagining.
Jon chiqmadi oldidan, to‘xtovi yo‘q,
Yer yuzin olsam deya o‘ylovchining.

Yura-yura bir elsiz cho‘lga tushdi,
Olib yurgan suvining barin ichdi,
Odam, hayvon bari ham birday cho‘llab,
Boshiga Xudoy soldi qiyin ishni.

Sandaldi[1] sar(iq) dalada suv topolmay,
Cho‘llagan yurt ne qilsin bo‘sh qamalmay.
Barcha xizmatkorlarin o‘ldirmoqchi
Bo‘libdi, cho‘llaganga chidayolmay.

Misoli, ostdagi ot tag‘in uchdi,
Iskandar ham otining yolin quchdi.
Yaltirab shu’la bergan bir narsaga,
Ot ustida podshoning ko‘zi tushdi.

Borsa, bir oqib yotgan shildir buloq
Ariqdan to‘lib oqar toshib-qulab.
Otdan tushib Iskandar boshin qo‘ydi,
Ichib ko‘rsa, boldan ham bu totliroq.

Qoq baliqni keltirdi shunda turib,
Suvga soldi baliqni bir yuvdirib.
Isi, ta’mi o‘zgacha bo‘lib ketdi,
Tang qoldi buning barin suvdan ko‘rib.

[1] **Sandalmoq** — kezmoq, tentiramoq.

Iskandar der qo'shinga: "Bu netgan suv?
Baring ichib, bu suvga betingni yuv!
Bir boy eldan ushbu suv chiqqan chiqar,
O'rlab borib, ustiga tikaylik tug'!"

Bu totli suvni iching, qoning sizlar,
Bas kelar jin yo'q menga, biling sizlar.
Mendan qolmay, bu suvdan boring o'rlab,
Talqon qilib shaharin oling sizlar.

Yorliq sochdi, qo'l[1] yurdi suvni o'rlay,
To shaharga yetguncha, hordiq ko'rmay.
Ko'k-ko'mbak temir kiygan necha botir,
Torttirib yo'naladi karnay-surnay.

Shu askar suvni o'rlab talay yurdi,
Suvning boshi bir guzar chotga[2] kirdi.
Chotning og'zin bekitgan oltin qo'rg'on,
Darvozasi bekilgan, hamma ko'rdi.

Darvozani ochay deb xon intildi,
Tutqichin ulay-bulay siltab-yuldi.
Ocholmadi eshikni, umid uzib,
Atrofga boqib, hayron qarab turdi.

Iskandar to'xtov ko'rmay o'sgan jon-ku,
Shundaylar bo'lar manman, o'jar, gov, quv.
Dovdirab bari izga qaytib chiqdi,
Olishib, hol yetmasin payqagan-ku.

Iskandarning yuziga g'azab to'ldi,
Achchiq-la darvozaga yetib bordi.
Qasir-qusur qoqdi u darvozani,
— Eshiging och! — deya ayyuhannos soldi.

[1] **Qo'l** — qo'shin.
[2] **Chot** — tog' unguri, g'or, dara, chotqol.

Darvoza naryog'idan birov keldi,
Qorovulmi, kimman deb tovush berdi.
— Ruxsat yo'q senga eshik ochmoqqa hech,
Bu Xudoga boshlovchi eshik, — dedi.

— Bilmasang bil, men — Iskandar podshoh degan!
Urushda yer yuzining barin yenggan!
Darvozang och, xabaring ayt, bildir menga,
Xor sezdim men o'zimni ko'z ko'rmagan!

— Zo'rman deb hech maqtanma, oqil bo'lsang,
Zo'r bo'lsang sen nafsing-la qilib ko'r jang!
Ichi tor, ko'rolmasning biri — sensan,
Unday kishi bu yerga kelmaydi teng.

— Maqsad sari talpingan men ham bir er,
Ko'p yurdim, duch keldi shu ko'rmagan yer.
Eng bo'lmasa, xalqimga ko'rsatayin,
Sovg'a qil, belgi bo'lar bir narsa ber!

Devordan uchib tushdi tugun — ro'mol.
— Sovg'a deb, ey podsho, manovni ol!
Ichida bir narsa bor, hikmat berar,
Olib bor, o'ylanib ko'r, ko'zingni sol!

Iskandar shu tugunni qo'lga oldi,
— Sovg'a oldim! — deb qo'shinga ayta soldi.
Qarasa, tugun ichi — bir quv suyak,
"Bu netgan mazaxi?" deb ang-tang qoldi.

Achchig'landi, ko'ksida tuydi kekni,
— Bilmadi-ya kimga, nima siy bermakni.
Shu menga loyiqmidi? — deb bir hayqirib,
Uloqtirib yubordi u suyakni.

Yo'ldoshi Aristotel — oq(i)li mo'l,
Otvorgan huv suyakni oladi shul.

Shohga dedi:
— Xosiyat bor bu suyakda,
Ko‘zingga ko‘rsatayin, xabardor bo‘l!

O‘shal payt Aristotel aqli sara,
Oqil so‘zin tinglamay bormi chora?
— Tarozini opke, hoy, suyakni sol,
Bir tomonga oltin sol, o‘lchab qara!

Bu so‘zga Iskandar ham qaray qoldi,
Tarozini qurdirib, o‘rtaga oldi.
Pallaga kumush, oltin-zar solsa ham,
Kichkina bir suyakni ag‘darmadi.

Buni ko‘rib Iskandar ang-tang bo‘ldi,
Oltin-kumush yig‘dirib, qo‘sha soldi.
Endi nima qilar deb qaragandi,
Qaytanga suyak battar og‘irlandi.

Aristotel hakimga podsho keldi:
— Manov suyak xazinaning barin yengdi.
Bu suyakni bosarlik narsa bormi?
Aql ila o‘ylanib top-chi! — dedi.

Hakim yerdan bir hovuch tuproq oldi,
Bir pallaga tuproqdan to‘kdi, soldi.
Shunda palla shilq etib yerga tushib,
Suyak esa yuqori chiqib qoldi.

Iskandar buni ko‘rib oz turadi,
Hakimni ovloq yerga chaqiradi.
— Tang qolarlik ish bo‘ldi buning o‘zi,
Ma’nosini aytib ber-chi, — deb so‘radi.

— Bu odam ko‘z chanog‘i, — dedi xonga.
— To‘yarmi odam ko‘zi mingta songa?
Yemit ko‘z yer yuziga to‘ymasa-da,
O‘lsa — to‘yar, ko‘ziga qum to‘lganda.

Kofir ko'zning dunyoda oroni[1] ulkan,
Olgan sayin dunyoga to'yarmikan?
Qancha tirik yursa ham, o'lgan kuni
O'zga ko'z-la birday-oq bo'ladi ekan.

Achchiqlanmang, podshohim, aytayin dod,
Oltin eshik bermadi sizga ruxsat.
Sovg'a deding, bergani — bir quv suyak,
Buni ko'rib, olingiz siz ham ibrat!

O'ylab-o'ylab podshoning bo'yni tushdi,
Xudoyim ko'rsatdi deb bul bir ishni.
O'rinsiz ekan mening bu ishim deb,
Qo'shinni olib ortga qayta ko'chdi.

Shundoqqina qisqa so'z bu hangoma,
Buni bir bekorchining so'zi dema.
Qorning to'ysa, qayg'urma qaydagini,
To'ymas ko'z ham to'yadi, qayg'u yema.

Quv umr mangu emas, tezda o'tar,
O'z kulgungga o'zing g'arq bo'lma battar.
Uyat bilan oringni molga sotma,
Uyatsizda imon yo'q, tubga yetar.

Maqtanasan birovga maqtasin deb,
Shavjoyimdan[2] hech odam qoqmasin deb.
Sen ketganda ortingdan kulib qolar,
Xudoyim ont urgandan saqlasin, deb.

Aqlsiz o'zin maqtab biljiraydi[3],
Bo'yingga o'lchab gap ayt, ne bo'lardi.
Yaxshi bo'lsang — yorug'san, hamma ko'rar,
O'z bahongni o'zingdan kim so'raydi?!

(1900–1902)

---

[1] **Oron** — 1. Xalqum. 2. Nafs.

[2] **Shavjoy** — o'mrov, olqim. Bu yerda, "yoqamdan ushlamasin" degan ma'noda.

[3] **Biljiramoq** — ezmalanmoq.

MAS'UD

Yo Alloh, hurmatingda do'sting Mahmud[1],
Tilga yor ber, bilinsin to'g'ri maqsud.
Horun Rashid xalifa zamoninda
Bag'dodda bir yigit bor, oti Mas'ud.

Shahardan bir kun Mas'ud chiqdi tashga,
Bordimi kezi kelib bir yumushga?
Bir o'g'ri bosh solib, tunab yotgan ekan,
Kez bo'ldi bir ojiz chol boyoqishga.

Bechora chol dodlaydi faryod solib,
Ayirib olar jon yo'q uni borib.
Kim bilsa ham bir erlik qilayin deb,
Mas'ud uchdi o'g'riga o'ng'aylanib.

Mas'udni o'g'ri chopdi qilich bilan,
Joni omon qolibdi yumush bilan.
Eson-omon qutulibdi bechora chol,
Mas'uddan yov qochganda urush bilan.

Mas'udga keldi chol ham ko'zin tiklab,
Ko'rsa, boshdan oqmoqda qon dirdaklab[2].
"Buning qarzin men ham o'tab ketayinchi,
Yigit-ku er, qahramon, dovyurak...", deb:

— Ey, yigit, ne qilsang ham mard ekansan,
Ko'rgaysan mardligingning barakasin.
Sabab bo'p meni ajaldan, sen ayirding,
Menga qilgan qarzingni Alloh o'tasin.

Boy emas, botir emas, xon emasman,
Ortiqcha atoqli bir jon emasman.

[1] **Mahmud** — payg'ambarimiz Muhammad *(s.a.v.)*.

[2] **Dirdaklab** — sho'rg'alab, shovullab.

Sabab bo'lib, ajaldan meni ayirding,
Yaxshilikni bilmaydigan chol emasman.

Men bir chol, bu dunyoda jahon kezgan,
Ertang tushda ketaman shahringizdan.
Ertaroq falon yerda oldimga chiq,
Olib qol bir bozorlik, jonim, bizdan.

Pul uchun qiziqmassan, sen ham bir er,
Seni menga duch qildi Parvardigor.
Bir Xudoning haqi uchun men tilayman,
Qabul ko'r, shartim uchun qo'lingni ber!

— O'g'riga yubormadim men nomusni,
Kim buzar munday-munday bitgan ishni.
Alloh haqi degan so'ng, amal ham yo'q,
Borayin, — deb va'daga qo'l qoqishdi.

Ertasiga u yigit yetib bordi,
Chol ham unga darrov duch kela qoldi.
Qo'lidan ushlab olib, ergashtirib,
Dalada bir xarobaga olib bordi.

Borsa, tomda bir gul turar so'lqillagan,
Boshida uch xil meva bilqillagan.
Biri — qizil, birisi — oq, biri — sariq,
— Tanlab ol, xohlaganing men beraman!

Oqni yesang — aq(i)ling boshdan oshar,
Sariqni ol — davlating suvday toshar.
Agar qizil mevani olib yesang,
Ayol-qizda jon qolmas sendan qochar.

Ul yigit so'zni charxlab tura qoldi,
Ko'zin yerga yuborib xo'p o'ylandi.
Oq va sariq mevani yemayman deb,
Qizil mevani tanlab, qo'lga oldi.

— Men beraman, tonmasman ayta-tura,
O‘kinmassan o‘zing ham yura-bora.
Oq va sariq ikkovin olmaganing,
Ma’nosini tushuntir, jonim, sira.

— Men bo‘lsam agar oqni yeyar edim,
Aqlli bo‘lsam eldan bo‘lak, derdim.
Men aqlni bilaman, ne qilsam-da,
Meni aql boshqarsa kerak, dedim.

Aqlli jon topilmas menga sirdosh,
Ko‘p nodon hikmat so‘zga bo‘ynin burmas.
Adolatsiz, aqlsiz, orsizlarni
Ko‘raversang ko‘ngilda tinchlik turmas.

Odamda dard qolarmi tursa aytib,
Shirin uyqu uxlayolmay tunda yotib.
Eplab boqib, tentakka em topolmay,
Totli taom yeyolmas ta’min totib.

Sariqni yeb, men bo‘lsam, boyning o‘zi,
Og‘zida hamma odamning bo‘lsam so‘zi.
Falonchidan bir narsa olsak-ov, deb,
Tikilar har odamning menga ko‘zi.

Yurt kunlaydi yurtdan ortiq boylik uchun,
Minnatlar birov kuchin, birov ishin.
Ne qilsa ham nodonlar olmoq istar,
Onturg‘an mol kuydirib elning ichin.

Mehnatsiz mol tama etmoq — tilanchilik,
Aqlli erga or bo‘lar bunday qiliq.
Buni o‘ylashga bul kunda odam bormi,
Foyda o‘ylamay qiladi kim totuvlik?

Qizilni yesam, meni ayol sevar,
Haromlikda yurmasam, ne jon kuyar?

Xotin-qizlar ham ko'plik, do'stim bo'lsa,
Deb edim bir foydasi menga tegar.

Erkakda erkak odamning bo'lsa qasdi,
Ayol, checha, qizi yo'q kimning boshi?
Xon qahhor qora kishi qasdlik qilsa,
Shunda ayol bo'lar-ku himoyachi!

Aslinda odam boshi sog' bo'larmi?
Bo'yninda hech tugamas dov bo'larmi?
Eri achchiq aytganda, ayol bossa,
O'shanda burungiday yov bo'larmi?

Shuni o'ylab, qizilni men tanladim,
Bersangiz yemoqqa men bel bog'ladim.
Bekorga shuncha so'zni aytganim yo'q,
Boshin o'ylab, aslini men avayladim.

Bu so'zga solib turdi chol qulog'in,
— Judayam topib aytding, ol, chirog'im.
Aql ham davlat azaldan senda ekan,
Umring bo'yi baxting ortaversin, jonim!

Bu chol — bo'tan[1] chol emas, Xizr edi,
Epin topib, yordamning kezi keldi.
So'ziga, aql-idrok, qilig'iga
Qoyil qolib, shundan so'ng fotha berdi.

Shu-shu, Mas'ud Xizr choldan fotha oldi,
So'ngindan u Shamsijahon deb ataldi.
Ma'nosi shu: "bu dunyoning kuni" demoq,
Ibrat bo'lib odamlarga so'zi qoldi.

Shul vaqtda yoq odamlarni chirish buzgan,
Xavf tug'dirib, bu dunyodan umid uzgan.

[1] **Bo'tam** — begona, yot.

Aql bilan mol-davlatni asray olmay,
Oracha tush deb so‘ragan ayol-qizdan.

Endigiga ne so‘rov bul zamonda?
Aql-o‘y, or-nomus yo‘q hech odamda.
O‘lgan qabr, tuqqan yer yubormaydi,
Bo‘lmasa turmasdim hech bu maydonda.

Shu Mas’ud xalifaga vazir bo‘pti,
Tarqatibdi oldidan ko‘p va to‘pni.
Huv boyagi Xizr chol bir vaqtda
Tushida ayon berib yo‘liqipti.

— Ey bolam, falon kuni yomg‘ir yog‘ar,
Shu yomg‘ir suvida bor kasofatlar,
Yetti kunda, jinlanar suvin ichgan,
Yetti kun o‘tgandan so‘ng hol o‘nglanar.

Shu suvdan tamom suvga suv quyilar,
Sel bo‘lib, suv bag‘riga zahar to‘lar.
Ertaroq toza suvdan suv yig‘ib ol,
Xabarim — shu, saqlangan jon omon qolar.

Shu so‘z-la xalifaga Mas’ud bordi,
Sel xavfidan xalifa voqif bo‘ldi.
Aytilgan kun yaqinlab kelgan vaqtda,
Ertaroq toza suvdan quyib oldi.

Hademay yomg‘ir yog‘di va’dali kun,
Kim suv ichsa aqli og‘ib qoldi nuqul.
Kuni-tuni chuvlashadi, talashadi,
Unutdi ovqat, uyqu — barin butkul.

Bular bir kun keldi o‘rdaga chuvillashib,
Kichik ini, katta og‘a guvillashib, —
Barining ham esi chiqqan, jinli bo‘lgan
Xon va vazir qarab turar ko‘zi toshib.

Shoh xalqining huzuriga yaqin bordi,
Har bir turli so'zlar aytib, aql soldi.
— Bir kasalga, boyoqishlar, yo'liqibsiz,
Uyingga bor, uxlang! — deya hoy-huy qildi.

Ketdi ular xondan xafa, o'pkalab xo'b,
Ko'chada ham chuvillashib-yig'lashar ko'p:
— Xon va vazir naq aqldan ayrilibdi,
O'ldiraylik, ular axir jinni-ku! — deb.

O'ldirmoqqa o'rda tomon qayta yurdi,
Xalqning qaytib kelyotganin xon ham ko'rdi.
— Burungidan kelishi yomon-ku, oh,
O'y-bay, vazir, ne qilamiz, o'yla! — dedi.

— Qutulmoq iloji yo'q manov dovdan,
Biz ham bo'lmas ichmasak jinni suvdan.
Jinni xalq o'ldiradi bizni kelib,
Jinni deb esi durust bizni quvgan.

Ikkovlon jinni suvni ichaverdi,
Quturib ko'p oldiga yetib bordi.
Jinnilar: "Biz payqamay aytibmiz!" deb,
Qulluq qilib, bularga ko'p yolvordi.

Shu bilan uyli-uyga tarqab ketdi,
Haytovur tarqaydigan vaqt ham yetdi.
Ko'rdingmi ko'p tentakning qilgan ishin,
Erksiz esli ikkovin esar etdi.

Ko'pning bari shundaydir, misol etsang,
Ko'p aytdi deb, aldanib, va'da kutsang.
G'ofil bo'lib ko'p narsadan bo'sh qolasan,
Anglamay, ko'p so'zi-la yurib ketsang.

(1882–1903-yillar oraligi)

AZIM HIKOYASI

Bir so'zim bor "Ming bir tun"dan o'qib ko'rgan,
O'lan qilib shu so'zimni aytgim kelgan.
Bo'lgan ekan og'a-ini ikki yigit
Bag'dodda Mustafo va Safo degan.

Ikkovi ham yetim edi, ota o'lgan,
Mehnatkash, yetimmiz deb bo'sh yurmagan.
Tikuvchi, kashtachi edi kichik ini,
Mustafo suratchilik ilmin bilgan.

Ikkovi ikki ayrilmoq g'amin yegan,
Bir chetga ketmoq bo'lar yurt ko'rmagan.
Mol topgani so'ng izlab topmoq bo'lib,
Shart qilib, bir-biriga va'da qilgan.

Ikkovin ikki yoqqa taqdir bo'lgan,
Jonlar edi qatoridan iymanmagan.
Chinmochinga Safosi ketatursin,
Mustafo Bolsuraga yo'l boshlagan.

Mustafo bo'ydoq, yo'qsil bo'lib yurdi,
Kasbida kamol topib, baxti kuldi.
Ozdan so'ng xotin olib, hovli tiklab,
Shaharda u boylarning biri bo'ldi.

Pul topib, kiyim tuzab, qorni to'ydi,
Qog'ozga bezak chizib, surat o'ydi.
Xudoyim kechiktirmay bir ul berib,
Mullalar otin uning Azim qo'ydi.

Yil izidan yil o'tdi, Azim o'sdi,
Vaqt yetib, madrasaga borib tushdi.
Oz yilda yaxshi ilm kasb etdi-yu,
Yuzi nurli yigitning ko'ngli jo'shdi.

O‘qishdan so‘ng ushladi ota yo‘lin,
Oshirdi martabasin, kasb-u korin.
Shul kunlar ajal yetib, Mustafo o‘lib,
Yirtiq-yetim bo‘lmasdan topdi o‘rnin.

Otaning harakatin ushlay oldi,
Hunarini ko‘rganlar qoyil qoldi.
Oluvchilar ko‘payib buning ishin,
San’ati yuksalgandan xo‘p yuksaldi.

Bir kuni lavkasida o‘tirgandi,
To‘rg‘in to‘n, oltin kamar bir chol keldi.
Ne qilsa ham hurmatli odam-ku deb,
Azim turib, egilib salom berdi.

Chol ham alik oldi-yu, omonlashdi,
Yoniga yaqin kelib salomlashdi.
— Yot elning odamiman, ey chirog‘im,
Ne harakat qilasan? — deb so‘rashdi.

— Yoshimdan yetim edim ko‘ngli siniq,
Hunarim ortiq emas unday ulug‘.
Mehnat qilib ter to‘kib, kun ko‘raman,
Ishim shu — suratchilik, bo‘yoqchilik.

— Nodon desam, qilig‘ing, tusing yaxshi,
Yaxshi kasb-ku mehnatkash erning naqshi.
Kuni bo‘yi teshilib o‘tirsang, ayt,
Ne topar bu unumsiz ishdan kishi?

Bu so‘zga Azim turib achchiqlandi,
— G‘alati so‘zlaysiz, — deb shoshiladi. —
Otamning kasbidan men xor bo‘lmasman,
Och qolmasman, bo‘lmasam ham boylar oldi.

— Xor ko‘rmasman ham, bolam, zo‘rlamasman,
Teshilgan seni ko‘rib xor demasman.

Kimyo fanin o'rgatay senga o'zim,
Misdan otin yasaysan, aldamasman.

Chin hunar bu, zo'r kasb bu — ko'zing yetsa,
Yaramaydi har kimga buni o'rgatsa.
O'zi o'ng'ay, barakali, ortiq hunar,
Oz ish bilan ko'p oltin hosil etsa.

Men o'zim yurganim yo'q moldan kechib,
Aytaman, bolam, senga mehrim tushib.
Tayin bo'l, ertaga kel mising bilan,
Ko'nglim gumonlarni tarqat, yechib.

Avvalo, haqligimga yetsin ko'zing,
Shart qildim-ku o'rgatmoq bo'lib o'zim...
Erta kun shu o'rinda topilmoqqa,
Ikkovi va'da bog'lab aytdi so'zin.

Chol ketdi, bola hayron uyga qaytdi,
Ko'rganin onasiga kelib aytdi.
Kimyo ilmi bor derlar, ona esa
Boshin chayqab, qayg'urib, ichin tortdi.

— Olib bor-da, mis paqirni oldiga sol,
Oltin chiqsa, bo'lar-ov bir talay mol.
Yolg'izim, ne qilsang ham salomat yur,
Jodugarlik qilmasin ont urgan chol!

Bola dedi: — Tangrim qoqsa, banda netar?
Yolg'on bo'lsa, bilinadi, xor bo'p ketar.
Chin bo'lsa-yu, va'daga men bormay qolsam,
G'ofil derlar, chehramga izza yetar.

Ne qilsa-da, bola shu kun chala uxladi,
O'trik qaysi, rost qaysi — topolmadi.
Mis paqirni qo'liga oldi-yu u,
Lavkasiga kundagidan erta bordi.

Chol ham va'da bo'yicha tez kela qoldi,
Bir idishdan ko'mir bilan ko'rik oldi.
Uskunasin o'rniga qo'yib bo'lgach,
— Mising qani, bolam? — deb digir soldi.[1]

Mis paqirni sindirdi talqon qilib,
Ko'mirga soldi misni do'kon qurib.
Mis biqirlab erigan bir paytda chol,
Cho'ntakdan ushoq qora oldi qirib.

Oldi-da u dorisini misga soldi,
Biqirladi, bilqillab mis chayqaldi.
Ozmi-ko'pmi bulg'aloqlab ne bilandir,
Sovugandan so'ng oltinday qo'lga oldi.

Bolaga berdi keyin oltinini,
— Shahariyning[2] sarobiga[3] solgin buni.
Oltinmas bu, deb birov aytsa, bolam,
Amal yo'q, aldamchi deb bilgin meni!

Oltinni ol-da ko'rsat xalqqa borib,
Mening so'zim chin bo'lsa Tangri o'ng'arib,[4]
Manov bog'cha ichidan topib olgin,
Agar meni izlasang ko'nglingga olib.

Azim uchdi oltinni ola solib,
Ne boylarga ko'rsatdi buni oborib.
— Samorodniy[5] sori oltin ekan-ku deb,
Kim ko'rsa, shuni aytadi ang-tang qolib.

Uch ming uch yuz tillaga ketdi sotib,
Onasiga opkeldi. Hayron qolib

[1] **Digir solmoq** — ovoz qilmoq, hoy-ho'y solmoq.
[2] **Shahariy** — shaharda yashovchilar degan ma'noda.
[3] **Sarob** — oltinning sofligini tekshiradigan asbob degan ma'noda.
[4] **Tangri o'ng'arib** — Xudo berib degan ma'noda.
[5] **Samorodniy** — sof, yombi oltin *(ruscha so'z)*.

Onasi: — Shu kishini chaqir, — dedi,
— Ketsin, — dedi, — uyimizdan ta'm-tuz totib.

Boyagi huv bog'chaga Azim keldi,
Chol ham chiqdi, u shu yerda o'tirgandi.
— Ey, otam-a, qilgan ishing rost ekan-ku,
Qo'noq bo'lib bizning uydan ta'm tot, — dedi.

Qo'sh hovuch tilla berdi Azimga chol,
Dedi: — Sening molingdir, bu mendagi mol.
Yozilishib, sirlashib o'tiraylik,
Har turli qimmatbaho ichkilik ol.

Sirlashsak, suhbatlashsak ovloq afzal,
So'ylashib, topaylik biz nash'a bu gal.
Onangni ham bir yoqlarga yubor, bolam,
Sirimizga bo'y tiqib yurmasin sal.

Kun botmasdan yo'l qarab yurma bizga,
Qosh qoraya kelarman men ham sizga.
Ichmoq-yemoq orasida aytar gap ko'p,
Uyingizda jon bo'lmasin sendan o'zga.

Azim kezdi bozorni xo'p tentirab,
Har turli ichkiliklar oldi so'rab.
Oltinlarni ko'rgandan so'ng onasi ham
Ketdi qo'shni uyga tomon ishonqirab.

Aroq, yemish — har turli ne'mat tayin,
Quvondi bor oltinni olgandayin.
Uyiga boshqa hech bir jonni qo'ymay,
O'zgacha bezantirdi uy afzoyin.

Ko'z bog'lamay, shipillab chol ham keldi,
Azim ham eshik ochdi, tayin edi.
Azimni bolasiday ko'rib, yayrab —
Yashnab chol yorug' yuz-la uyga kirdi.

11 - 22-355

Chol kirib uyni tekis oraladi,
Bir Azimdan boshqa jon topolmadi.
Soddadil, qalbi toza bolapaqir
Ko'ngliga chol qilig'in hech olmadi.

Jo'shib-qo'shib so'zlayotir chol bidinglab,
Azim turar qo'l qovshirib, so'zin tinglab.
Oshni ham yeb, qo'lni yuvib bo'lgandan so'ng,
"Ichkilikni obke" deya qo'ydi imlab.

Avvaldan bu bor ish elning odatinda,
Nemismi — rus, kim bo'lmasin, qay xalqning-da,
Foyda-ku deb, tansog'liq deb ichadilar,
Mevadan so'ng xamr[1] tortarlar osh ortinda.

Podnosga[2] butilka-yu[3] araq to'ldi,
Bir-ikki yaxshi ryumka[4] tayin bo'ldi.
Bor va yo'qni so'zlashib, shovqin solib,
Olishib piyolani, to'qnash qildi.

Yoymashuvoq[5] shum cholning ichi yondi,
Ko'proq ichgan Azim, tez mast bo'p qoldi.
Bir ayoq qo'ldan qo'lga degan bo'lib,
Jodugar stakanga doru soldi.

Shum jodugar tun o'rtasi bo'lgandan oq,
Shu yo'l bilan talay jonni yiqqan, e voh!
Doru qo'shgan aroqni ichgandan so'ng,
Chalqasidan yiqildi Azim shu choq.

Shunda chol hushtak chalib ovoz berdi,
To'rt yigit tobut olib uyga kirdi.

---

[1] **Xamr** *(arabcha)* — mast qiluvchi ichimlik.

[2] Abay ishlatgan ruscha so'zlar tarjimasiz berildi: podnos — patnis.

[3] **Butilka** — shisha idish.

[4] **Ryumka** — shisha, stakan, qadah.

[5] **Yoymashuvoq** — ochiq yuzli, degan ma'noda.

Azimni shu tobutga solib darrov,
Ko'tarib tashqariga ular yurdi.

Azimni mast qilgan chol shod kuladi,
Eshikni yopaman deb hayalladi.
Ortini jim-jirt qilib ont urgan chol,
To'rtovni ergashtirib tez jo'nadi.

Dengizning yoqasida qalin qamish,
Ichida bir kema bor cholga tanish.
Azimni shu kemaga solib, ular
Tumshug'in chetga burib boshlar suzish.
Yonida o'ttizmi-qirq yo'ldoshi bor,
Qal'adan tong otguncha ketdi olis.

Tong otdi. Shunda kampir uyga keldi.
O'g'liga bir gap bo'lgan — ichi bildi.
Zor qilib, o'y-voy solib, ish bitirmay,
Taqdiriga tan berdi — netsin endi?!

Azim keldi esiga erta tushda,
O'z boshin xavf-xatarli ko'rdi ishda.
Qo'l-oyog'i bog'lovli yolg'iz yotar,
Temir chetan qafasday turar ustda.

Irg'alib o'rnidan arang turdi,
Tepasida ont urgan cholni ko'rdi.
— Oqsoqol odam shunday qiladimi?
Onamdan meni ayirib bu ne? — dedi.

— Ko'zingni och, esingni yig', endi o'ynama,
Meni, sen o'z dindoshim deb o'ylama.
Men o'tga sig'inaman, dinimga kir,
Menda borning baridan xavf aylama!

Agarda ko'nmas bo'lsang — nodonchilik,
Har kun tayin sen uchun yuz bir chiviq.

Ming joning bo‘lsa hamki qutulmassan,
Topilmas endi menda mayda qiliq.

Bola dedi: — Dinim uchun jonim qurbon,
Jondan qo‘rqib men o‘tingga boshim urmam,
Dinim haqdir, ishim oqdir, o‘lsam shahid,
Qo‘rqadi deb, umiding uz sen ont urgan!

Bolaning u bor kiyimin yechib oldi,
Yuz qamchidan orqasiga darra soldi.
Inq etib bir tovushini chiqarmadi,
Azim oz-moz talmovsirab, nochorlandi.

Bu ishni xush ko‘rmadi qodir Subhon,
Ko‘k buzilib, yer yuzin bosdi to‘fon.
Bog‘langan bola tutqun qolaverdi,
Kemada ovora edi ko‘p olomon.

Tun bo‘yi uxlamadi Azim mizg‘ib,
Suv sharillab quyilar, kema izg‘ib.
Charchab qoldi o‘ttiz qul yiqilguday,
Sharpillab, tong otguncha suvlar to‘kib.

O‘ttiz qul aqllashdi boshni qo‘shib,
O‘lamiz deb o‘yladi jondan kechib.
Bir chetdan bir yoqaga kelayotgan
Qari itni ushladilar oldin to‘sib.

— Oqsoqol, ish qilasiz o‘ylanmasdan,
Jondan qo‘rqib qochmas edik qora toshdan.
Xudo suymay bizga soldi ushbu ishni,
Qo‘lini yech, rizolik ol manov yoshdan.

Qo‘lini yech, rizolik ol, kishanni buz,
Tezroq ayt, ko‘nasanmi, vaqt tig‘iz.
Bu so‘zga ko‘nmay qolsang, o‘ldiramiz,
Seni suvga tashlaymiz o‘ttizimiz.

Shunda chol manov so‘zga ang-tang qoldi,
Ne qilarin bilolmay xo‘p o‘ylandi.
O‘ttizining vajohatin payqagach, u
Bolaning qo‘l-oyog‘in yecha soldi.

“Chirog‘im!” deb bo‘ynidan quchoqlaydi,
Ko‘zidan yoshi oqib, goh porlaydi.
— Chirog‘im, mastlik bilan qilibman, — deb,
Avvalgi so‘zdan tonib, yana aldaydi.

Azim yosh, oq fe’lli bir yigit edi,
O‘yladi: o‘trik emas, ana, iymandi.
Mastlik bilan qilgan bo‘lsa, qilgandir deb,
Yoshlik qilib, u cholga yana ishondi.

— Mastlik bilan qilgan bo‘lsang, kechdim, mayli...
Qari it ham “chirog‘im”lab qiyshanglaydi.
Yel tinib, kun yaraqlab boyagiday,
Yaratgan kuzatadi, ko‘z tashlaydi.

Bolani silayotir uflab — eplab,
Xushomadlar qiladi chol jilmanglab.
O‘ttiz qul ham: “Manov tek jon emas-ku”, deb,
Xizmat qilar holi yetkuncha tarvanglab.

Bir mahali chol dediki: — Bolam, to‘xta,
Misni oltin qilar dori — anov yoqda.
Olis emas, oz kun yurib, borib kelsak,
Olib kelsak shu doridan ko‘p-ko‘p katta.

Bola aytdi: — O‘zing bil! — deb bu so‘ziga.
Chol quvondi tekkan kabi erk o‘ziga.
Oyog‘ida tikka turib xizmat qilar,
Hiyla, shumlik keltirmaydi hech yuziga.

Chol jo‘nadi bolani ergashtirib,
Shipillab bir makonga bordi yetib.

Bir baraban[1] turgan ekan, qoqqan edi
O‘rab oldi yelmoyalar[2] dupurlatib.

Uch yelmoya ushladi yo‘rig‘iga,[3]
Oziq ortdi birining qo‘mlig‘iga.[4]
Ikkoviga egar solib minib olib,
Barabanni qoldirdi o‘riniga.

Yelmoyalar keladi yelday esib,
Bir tarafni shum cholning ko‘zi teshib,
Boladan so‘raydi u: — Ko‘rdingmi, — deb,
Buldiragan bulut turar alanglashib.

Ul o‘zi — bulut emas, Qofning tog‘i,[5]
Bir bo‘lak ulkan tog‘ning bergi bag‘ri.
Bergi tog‘ning boshida shu dori bor,
Qironday olib qaytamiz ipak bovli.

Tun bo‘yi yo‘l yurdilar, bo‘ldi choshka,
Ko‘rindi yarqiragan uyday narsa.
— Bu nima? — deb so‘ragandi, tura qochdi,
Kofir hayal qilmadi sira salcha.

— Bu nima? — dedi yana Azim sho‘rli,
Qochganing ne qilganing, buncha sirli?
— Chirog‘im, bu judayam xatarli yer —
Bir qasdgo‘y, jodugar devning o‘rni.

Shuni aytib, chol savab[6] yuraverdi,
Bir o‘zan chiqdi yo‘lda, shuni o‘rladi.

---

[1] **Baraban** — ulkan nog‘ora, dovul.

[2] **Elmoya** — tez chopadigan tuya.

[3] **Yo‘riq** — yo‘lda minish uchun, degan ma’noda.

[4] **Qo‘mlik** —tuyaning o‘rkachi, sirti, jo‘tasi.

[5] **Qof tog‘i** — Ko‘hi Qof (Kavkaz) tog‘lari. Bu yerda umuman tog‘, tog‘li o‘lka ma’nosida.

[6] **Savab** — qamchilab, shoshilinch.

O‘zan bo‘ylab o‘rlagancha yuraverib,
Naq peshin vaqtida bir toqqa keldi.

Bir jartoshga[1] keldi-da, tusha qoldi,
Oziq ortilgan moyaning qornin yordi.
Ichini yorib, ichdagi ichak-qornin
O‘pka-bovrin tozalab, borin oldi.

Shunda chol Azimga arqon, xanjar berdi,
— Moyaning ichiga kirib sen yot! — dedi.
Ichini tikib, men ketib yashrinaman,
Tog‘ boshida Semurg‘ bizni ko‘rdi.

Men ketgach, bu yerga huv Semurg‘ kelar,
Moyani ilib uchib cho‘qqiga eltar.
Bir yerga qo‘ngan payti sen yorib chiq,
Odamzoddan iymanib uchib ketar.

Cho‘qqida bor qop-qora ushoq tuproq,
Qopga to‘ldir kechikmay sen ildamroq.
Qop to‘lganda arqonga bog‘lab tushir,
Shoshma yechib olguncha, to‘xta biroq.

Shundan keyin arqoningni toshga boyla,
So‘ng sirg‘anib o‘zing tushar yerni sayla.
Arqondan ushlab olib sirg‘anib tush,
Yaramaydi qilmaslik shuytib hiyla.

Qop oldi, xanjar oldi shunda Azim,
Uqib oldi yanglishmay cholning so‘zin.
— Chirog‘im, aytganlarni yodda tut, — deb
Borincha[2] chol ham unga qilar ta’zim.

---

[1] **Jartosh** — tikka jar yonidagi ulkan tosh.

[2] **Borincha** — ishi bitguncha “ha-ha”lab turdi, degan ma’noda.

Azim ham hayallamas bo‘yin tejab,[1]
Tavakkal deb tuya ichra kirdi, ajab.
Tangrining bir yozgani ikki bo‘lmas,
“Erning ishi — tavakkal” — bor shunday gap.

Azim kirgach, moyaning ichin tikib,
Shum chol ham yashrindi bir tolga kirib.
Qorni tikilgan moyani ildi-ketdi,
Huv tog‘lardan, osmondan Semurg‘ kelib.

Semurg‘ qo‘ndi moyani toqqa oborib,
Er Azim chiqib keldi ichin yorib.
Odamzodni ko‘rgach, qush cho‘chib qoldi,
O‘tirdi Semurg‘ qush ovloq borib.

Tirmashib Azim chiqdi tog‘ boshiga,
Topdi tuproq, to‘ldirdi xaltasiga.
Qop to‘lgach u arqonga mahkam bog‘lab,
Tog‘ boshidan yubordi “otasi”ga.

Yuborib haligi qopni yerga otib,
Ont urgan chol davlatga qoldi botib.
Qopdagi qo‘lga tushgach, dinsiz kofir
Arqonni olib ketdi yula tortib.

Ayrilib arqonidan Azim qoldi,
— Arqonni nega olding? — deb dod-voy soldi.
— Talayni men shu tog‘da qoldirganman,
Shuning biri bo‘larsan, — deb chol ketvordi.

Chol qaramay-qayrilmay ketaverdi,
Azim shum chol dinsizligin aniq bildi.
Kofirning qaytmasligin bilgandan so‘ng,
Tog‘ aro yo‘l topay deb u intildi.

---

[1] **Tejamoq** — bu yerda, bo‘yini yashirib, hayallab turmadi, degan ma’noda.

Ko‘rdi, bildi tog‘dan tushar yo‘l yo‘qligin,
Shundan keyin ko‘ray dedi qorin g‘amin.
Ozroq yemish topib, anov-manov yedi
So‘ng yota ketdi kutib Haq buyrug‘in.

Bir chetda Azim yotar. Kun ham botar.
Atrofin tapir-tupur ovoz qoplar.
Qarasa, uchib yurar ko‘p ajdarho,
Shundayam Azim qo‘rqmay uxlab yotar.

Uxlab yotib, bir mahal tez uyg‘ondi,
Uchib yurgan ko‘p ajdardan cho‘chib qoldi.
“Yo tavakkal!” dedi-yu, bittasining
Boshini xanjar bilan chopib oldi.

O‘zi ham bir tomonga irg‘ib ketdi,
Baland bir og‘och ko‘rib, shunga yetdi.
“Baland yerda bo‘layin”, deb niyatlab,
Shu tunda og‘och boshin makon etdi.

Unday-bunday yotib ko‘rdi, uyqu qani?
Bir uxlab, so‘ng uyg‘onganda to‘rt tomoni
Bo‘shab qolmish, atrof bo‘m-bo‘sh, maxluqlar yo‘q,
U tanidi o‘zi chopgan ajdarhoni.

O‘yladi u: tirik emas, yo‘qdir joni,
Yaqinda borib ko‘ray o‘lgan ajdarhoni.
Tushdi baland og‘ochdan u, qo‘lda xanjar,
Yetib bordi ajdarhoga shul zamoni.

Ko‘rdi, bildi: ajdar o‘lgan, tirik emas,
So‘m tanasin Tangri uzun yaratmish, bas.
Xanjar bilan tasma-tasma qilib olib,
Jo‘n terisin[1] qurutdi u kunga birpas.

[1] **Jo‘n terisi** — jo‘ta (sirt) terisi.

Tasmalarni bog‘lab-eshib qildi arqon,
Azim edi tadbirkor-u uddaburon.
Bir uchini toshga bog‘lab, tashlaganda
Tushar yerga yetib bordi ipi obdon.

Mard Azim tavakkal deb, jondan kechib,
Arqondan ushladi-da ketdi tushib.
Qoraqat yeb, mo‘yil[1] yeb, suvdan ichib,
Pastga qulab, yugurdi. Tirik! Uchib!

Uch qo‘nib, to‘rtinchi kun beldan[2] oshdi,
Shul kuni u bir uyga duchorlashdi.[3]
Tog‘ boshidan tushirgan tavakkal-la,
Shul uyga kirmoq bo‘lib qadam bosdi.

Qoqmadan[4] kirdi ichga qadam bosib,
Bir xonadan ikkinchiga o‘tdi oshib.
Tillashmoqqa hech odam yo‘liqmadi,
To‘rdagi uyga kirdi eshik ochib.

Ikki suluv qiz o‘tirar to‘rgi uyda,
Unday go‘zal topilmaydi butun elda!
Ikkita qiz shatranj[5] o‘ynar. Bilmay kirib,
Bizning Azim turib qoldi o‘rta yerda.

Ikki qiz ham uni ko‘rdi bosh ko‘tarib,
Odamzodga hayron boqdi qoshni kerib.
— Ey yigit, sen chehrasi xush jon ekansan,
Jodugarga ergashdingmi so‘ziga kirib?

Azim dedi hech bir so‘zni yashirma yoq:
— Men bir g‘arib bechoraman yurgan sayoq...

---

[1] **Qoraqat, mo‘yil** — mevasi odam esa bo‘ladigan o‘simliklar.
[2] **Bel** — balandlik, dovon, tepalik.
[3] **Duchorlashmoq** — duch kelmoq.
[4] **Qoqma** — qo‘shtavaqa katta eshik, darvoza.
[5] **Shatranj** — shaxmat o‘yini.

O‘zi ko‘rgan, boshga tushgan savdolarning
Birin qo‘ymay aytaverdi boshdan-oyoq.

Ikki qiz eshitadi Azim holin,
Eshitib, joni achir bilgan sayin.
— Sen bizga bovur bo‘lib, birga yasha,
Ne keraksa, qilaylik barin tayin.

— Xo‘p bo‘ladi unday bo‘lsa, opalarim,
Bu dunyoning tortdim men ko‘p jafolarin.
Sog‘insam, o‘z elimga yetkazarmi
Aytsangiz, marhamatli otalaring?

— Ko‘nglingni sovutmagin bizday qizdan,
Sizga va’da bizlarga Tangri aytgizgan.
Chidagancha chidab ko‘r yonimizda,
Qaytmog‘ing kelar bizning qo‘limizdan.

Biz seni yor qilmasmiz, bovur[1] qilarmiz,
Do‘stlik-la yurak erir, yaxshi bilarmiz.
Tubinda bunda tura olmasang sen,
Elingga yetkazishga intilarmiz.

“Xo‘p bo‘ladi” deyishdi-da, shart bog‘lashdi,
Qattiq-qattiq aytishib va’dalashdi.
Ko‘nglida qoralik yo‘q, oq niyat-la,
Juda yaqin do‘st bo‘lishga so‘z berishdi.

Kun chiqdi. Vujudiga quvvat endi,
Bu uyda yayrab-yashab, erkalandi.
— Yon-yoqni qandoq sayron qilsang — erking,
Faqat manov bir eshikka kirma, — dedi.

Bir kun qizlar yo‘q mahali, yolg‘iz Azim
Ko‘nglida bilish hissi o‘ynab bir zum,

[1] **Bovur** — aslida, jigar, jigar go‘shti. Ko‘chma ma’noda — qadrdon, najon, qarindosh.

Ochma degan eshikka yaqin keldi,
So‘ng ochib, kirdi-ketdi so‘zsiz va jim...

Ko‘rsaki: bir ajib bog‘ toqqa tutash,
Huv chetda hovuzi bor ernagi[1] tosh.
Bulbul sayrab, mevalar pishib turar,
Ta’rifiga so‘z yetmas, yetmas bardosh.

Tosh ham emas ernagi — dur-ru gavhar,
Ketgisi kelmas odam: marvarid, zar.
Mard Azim tomoshalab qarab tursa
Uchib keldi rango-rang, ajib qushlar.

(Poema tugallanmasdan qolgan)

[1] **Ernak** — hovuz, inshootlarning pastki qismi.

QORA SO‘Z

Qozoqboy YO‘LDOSH tarjimasi

MEHR VA QAHR UYG‘UNLIGI

(So‘zboshi o‘rnida)

Ulug‘ qozoq o‘ychili Abayning qo‘lingizdagi kitobi jo‘ngina arzda “Qora so‘z” deb atalishi bejiz emas. Bu o‘rinda “qora” si-ati so‘zning rangini emas, balki uning badiiyat olamidagi mar-abasini bildirishi ko‘zda tutilgan. Turkiy xalqlarda poetik so‘z g‘ayb olamiga daxldor sirli hodisa sanalgan. Chunki hammayam she’r to‘qiy olmaydi, shoirlik — oz sonli iste’dod egalarining nasibasi. Joylashuvidagi ichki tartib, ifodadagi intizomning o‘zi bilanoq odamda ham fikr uyg‘otib, ham tuyg‘u qo‘zg‘aydigan she’r so‘zi nafis so‘z, o‘lchamga solinmay, fikr bildirish uchun har qanday odam tomonidan ishlatilaveradigan so‘zlar qora so‘z hisoblangan.

She’riy so‘z sayqal berilgan, tarashlanib, shaklga solingan bo‘lishi ko‘zda tutilgan. Qora so‘z esa pardozdan xoli, sun’iylik-dan yiroq ko‘ngildan kelganiday moddiylashgan bo‘ladi. Abayning ko‘nglidan kechgan o‘ylari hech bo‘yab-bejalmay, pardozlanmay, boricha qog‘ozga tushirilishi natijasida dunyoga kelgan ushbu bitik shu bois “Qora so‘z” atalgan.

“Qora so‘z” — mutafakkir Abayning hayotiy, maishiy, ma’naviy, siyosiy, falsafiy konsepsiyasini aks ettirgan asar. Unda muallif shoir sifatida emas, balki millat hayotining ma’nosi haqida qayg‘urgan o‘ychil faylasuf, elining odamga munosib hayot kechirishi yo‘lini izlayotgan jonkuyar arbob, millatining ham maishiy, ham ma’naviy, ham intellektual taraqqiyotini ta’minlash uchun jihod qilayotgan fidoyi o‘g‘lon, xalqning tirikchilik tarzini yaxshilash uchun nima

Ochma degan eshikka yaqin keldi,
So‘ng ochib, kirdi-ketdi so‘zsiz va jim...

Ko‘rsaki: bir ajib bog‘ toqqa tutash,
Huv chetda hovuzi bor ernagi[1] tosh.
Bulbul sayrab, mevalar pishib turar,
Ta’rifiga so‘z yetmas, yetmas bardosh.

Tosh ham emas ernagi — dur-ru gavhar,
Ketgisi kelmas odam: marvarid, zar.
Mard Azim tomoshalab qarab tursa
Uchib keldi rango-rang, ajib qushlar.

(Poema tugallanmasdan qolgan)

[1] **Ernak** — hovuz, inshootlarning pastki qismi.

QORA SO‘Z

Qozoqboy YO‘LDOSH tarjimasi

MEHR VA QAHR UYG‘UNLIGI

(So‘zboshi o‘rnida)

Ulug‘ qozoq o‘ychili Abayning qo‘lingizdagi kitobi jo‘ngina tarzda “Qora so‘z” deb atalishi bejiz emas. Bu o‘rinda “qora” sifati so‘zning rangini emas, balki uning badiiyat olamidagi martabasini bildirishi ko‘zda tutilgan. Turkiy xalqlarda poetik so‘z g‘ayb olamiga daxldor sirli hodisa sanalgan. Chunki hammayam she’r to‘qiy olmaydi, shoirlik — oz sonli iste’dod egalarining nasibasi. Joylashuvidagi ichki tartib, ifodadagi intizomning o‘zi bilanoq odamda ham fikr uyg‘otib, ham tuyg‘u qo‘zg‘aydigan she’r so‘zi nafis so‘z, o‘lchamga solinmay, fikr bildirish uchun har qanday odam tomonidan ishlatilaveradigan so‘zlar qora so‘z hisoblangan.

She’riy so‘z sayqal berilgan, tarashlanib, shaklga solingan bo‘lishi ko‘zda tutilgan. Qora so‘z esa pardozdan xoli, sun’iylikdan yiroq ko‘ngildan kelganiday moddiylashgan bo‘ladi. Abayning ko‘nglidan kechgan o‘ylari hech bo‘yab-bejalmay, pardozlanmay, boricha qog‘ozga tushirilishi natijasida dunyoga kelgan ushbu bitik shu bois “Qora so‘z” atalgan.

“Qora so‘z” — mutafakkir Abayning hayotiy, maishiy, ma’naviy, siyosiy, falsafiy konsepsiyasini aks ettirgan asar. Unda muallif shoir sifatida emas, balki millat hayotining ma’nosi haqida qayg‘urgan o‘ychil faylasuf, elining odamga munosib hayot kechirishi yo‘lini izlayotgan jonkuyar arbob, millatining ham maishiy, ham ma’naviy, ham intellektual taraqqiyotini ta’minlash uchun jihod qilayotgan fidoyi o‘g‘lon, xalqning tirikchilik tarzini yaxshilash uchun nima

qilish kerakligi yuzasidan davrining ilg'or odamlari darajasida fikrlaydigan ishbilarmon, elatning ma'naviy hayotini tartibga solish, qavmni Allohga yaqinlatishda tasavvufga tayanish kerakligini asoslagan ilohiyotchi, o'zi yashayotgan davrdagi barcha mutaraqqiy jihatlardan xabardor sergak vatandosh sifatida namoyon bo'ladi.

"Do'st achitib gapirar", degan maqol Abayning "Qora so'z"iga to'la mos keladi. U o'z millati qozoqni bir farzand, bir do'st sifatida astoydil yaxshi ko'radi. Shunchalik yaxshi ko'rib, joni achiydiki, millatning har bir vakili insoniylikning yuksak maqomiga yetgan bo'lishini istaydi. Millat ahli tabiati, turmush yo'sini, o'y-fikri, udumlari, tutumlari, ma'naviy va axloqiy dunyosida zig'ircha illat ko'rgisi kelmaydi. Shu sabab elatdoshlari minazidagi har qanday yetishmovchilikni hech bir ayab o'tirmay, uyg'oq tafakkurning kattalashtiruvchi mikroskopi yordamida butun jirkanchligi bilan ko'rsatadi va ulardan qutulish yo'llari to'g'risida fikr yuritadi.

Elning qoloqligi, taraqqiyotdan ortda qolayotgani, g'oyat nobop turmush yo'sini millatiga cheksiz muhabbat bilan qaraydigan o'ychil shoir tuyg'ularini iztirob alangasida qovuradi. Shu bois u millatidagi illatlarni hech ayab o'tirmay, shafqatsiz tanqid qiladi. "Qora so'z"ning o'ziga xosligi shundaki, bitikda elatdagi kamchiliklar hech bir pardalanmay aytilibgina qolmay, ulardan qutulishning to'g'ri va samarali yo'llari ham ko'rsatiladi.

Abayning "Qora so'z"i janr nuqtayi nazaridan ham o'ta unikal bitikdir. Uni bir vaqtning o'zida falsafiy traktat, islom ahkomlariga amal qilish yuzasidan bitilgan shar'iy-tasavvufiy risola, millatning turmush tarzi va axloqi fikr elagidan o'tkazilgan esse, o'y kishisining o'z qavmi maishiy-ma'naviy hayotini yo'lga qo'yishga doir qarashlari aks etgan didaktik asar, turli etnoslar o'rtasidagi o'xshash va ayirmali jihatlar solishtirilgan sotsiologik tadqiqot, ko'zchil ish odamining mavjud holatni o'nglash yuzasidan bildirilgan amaliy takliflari yoki bugungi til bilan aytganda biznes-reja va bq. deyish mumkin. Asarda bu jihatlar o'rni-o'rni bilan goh alohida-alohida, goh barchasi birvarakayiga namoyon bo'lgan.

Bitik — nafaqat qozoq, balki butun Turkiston realistik nasrining taraqqiyot tadrijini ko'rsatishi jihatidan ham tamomila o'ziga xos estetik hodisa. Unda muallifning nasr yo'lidagi boshlang'ich

qadamlari boricha aks etgan. Abay eng murakkab fikrlarni ham toza qozoq turkiysida ifodalashga erishadi. Chunki adib ushbu bitikdagi qarashlarining millatdoshlari tomonidan to'liq tushunilishini istardi. Shuningdek, "Qora so'z"da minglab yillik og'zaki poetik an'anaga ega etnosning fikrlash stixiyasi undagi o'rinli takrorlar, sa'jga o'xshab ketadigan ifodalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Mutafakkir adib asarning ifoda yo'sinini qalamga olinayotgan voqelik va inson hayotining qanday qirrasini aks ettirishiga qarab tayin etadi. Qozoq xalqining hayot yo'sini tasvirlanayotgan o'rinlarda toza turkiy ifoda, shariat va so'fiylikka doir o'rinlarda arabcha-forscha so'zlar-u serqatlam oborotlar, agiografik qahramonlar tilga olinadi. Etnos hayotini zamonaviylashtirish yo'llariga to'xtalinganda, ruscha kiritmalardan ham foydalanadi.

"Qora so'z" asarida XX asrning 70-yillariga qadar o'zbek qishloqlarida ham faol ishlatib kelingan "minaz", "tirlik", "suysinish", "esar", "tugul", "kerbaz", "mirza", "ont urgan", "soq" singari necha o'nlab so'z va so'z birikmalari qo'llanilgan. Bu hol o'qirmanga qardosh o'zbek va qozoq millatlarining o'rtoq jihatlarini teranroq his qilish imkonini beradi. Shuningdek, "Qora so'z"da qo'llangan "zakon", "uyezd", "nachalnik", "posrednik", "doznaniye", "sud", "jerebya", "fabrika", "elektr" yanglig' qozoq xalqi hayotiga o'sha paytlarda endigina kirib kela boshlagan o'nlab chet so'zlar Abayning lug'atiga ham ko'chganini ko'rsatadi. Muallif bu so'zlarni qozoqcha variantini topolmagani uchun o'z holicha keltirmaydi, balki ularning odamlar tafakkuriga aynan shu shaklda o'zlashgani sabab kishilar tasavvurida oson tiklanishi uchun tarjimasiz beradi. Shuningdek, bitikda Abayning o'rischani shunchaki havasakka o'rganmagan, balki bu tilning yashirin ma'no qatlamlaridan chuqur xabardor bo'lgani ko'rinadi. Bu holat, ayniqsa, qirq uchinchi so'zdagi "podvijnoy element", "sila prityagatelnaya odnorodnogo", "vpechatlitelnost serdsa" tushunchalarini qo'llagan va ularning mohiyatini izohlagan o'rinlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bu asar Abayning dunyoqarashi, e'tiqodini anglatishi jihatidan ham tengsiz ahamiyatga ega bitikdir. Sovet davridagi ko'pchilik abaytanuvchilar o'z tadqiqotlarida mutafakkirning dunyoqarashi shakllanishida madrasa sabog'i muayyan o'rin tutgan bo'lsa-da,

keyinchalik rus va kunbotish mamlakatlari faylasuflarining materialistik ta'limoti hal qiluvchi ahamiyat kasb etganini alohida ta'kidlashgan. Shunga tayangan holda uning ko'z qarashlaridan moddiyunchilik unsurlarini izlashgan.

Adibning avji kamolot pallasida bitilgan "Qora so'z" asari mutafakkirning iymoni mustahkam musulmon, binobarin, olamga muslimning ko'zi bilan qarab, uning hodisalarini mo'minning tafakkuri bilan izohlaydigan, tariqatga doir jihatlarni ham g'oyat puxta biladigan diniy savodi yuksak, millat ma'naviyatini islomiy asoslarda shakllantirishni orzulagan oydin ekanini ko'rsatadi. Bu hol, ayniqsa, "O'ttiz sakkizinchi so'z"da butun qirralari bilan yorqin namoyon bo'ladi. Fikrimizni muallifning "Qora so'z"dagi: "Tiriklikni qimmat baholagan odam o'limni yov ko'rib, oxiratga dushman bo'ladi" yoki "Iymon qo'riqchi-yu parvarishsiz turmaydi, ixlos bilan o'zini o'zi nazorat qilib, chin diniy haqiqatga intilib joni achib turmasa, bunday loqayd bandaning iymoni bor deb bo'lmaydi" singari qarashlari dalillaydi.

Ma'lumki, Abayni anglashda tengsiz ahamiyatga ega o'ziga xos ushbu asar taniqli ijodkorlar tomonidan oldin ham tilimizga ag'darilgan. Biz bitikni o'zbekchaga o'girishda salaflardan o'zgacharoq yo'ldan borishga qaror qildik. Oldingi tarjimonlar e'tiborni asarning mohiyatidagi asosiy jihatlarni o'girishga qaratar edilar. Zero, sovet davrida "Qora so'z"ning zamiridagi ilohiy haqiqatni boricha yetkazish mumkin emas ham edi. Biz asar matnini uning o'ziga xos uslubini saqlagan holda o'girishga diqqat qaratdik. Bunda, imkon qadar, Abayning ifoda yo'sini, uning ijodkor sifatidagi qiyofasini saqlab qolishga harakat qilindi. Shu bois tarjimada muallifning leksikasi, sintaksisi, ifoda uslubi va hatto fonetikasi aks etishini ta'minlashga urinildi. Shuning uchun ham asardagi, bugungi o'qirmanga uncha tushunarli bo'lmagan qaytariqlar, "ham" bog'lovchisi o'rniga "-da" yuklamasidan foydalangan holatlar, imkon boricha, muallif ifoda yo'sinidagi kabi qoldirildi.

O'ylaymizki, mutafakkirning mehri qahri bilan uyg'unlashuvi natijasi o'laroq dunyoga kelgan ushbu kitob bilan tanishuv nafaqat Abay va qozoq xalqini, balki o'zimizni-da chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

BIRINCHI SO‘Z

Shu yoshga yetguncha yaxshi yashadimmi, yomon yashadimmi, haytovur umrimning ko‘pini o‘tkazdim: olishdim, aytishdim, tortishdim, ovoragarchiliklarni ko‘ra-ko‘ra shu yoshga yetdim!!! Endi qolgan umrimni qanday o‘tkazaman, ne yumushlar qilaman, shuni bilmay o‘zim ham hayronman.

Elni boshqarsammikan? Bo‘lmaydi, chunki el boshqarilmaydigan bo‘lib qolgan. Bedavo dardga uchrayman degan kishi yoki yuragida o‘ti bor yigit bu ishni qilsin. Meni esa, Allohim, qo‘limdan kelmaydigan ishlardan o‘zing asra.

Mol boqaymi? Yo‘q, bu ish ham qo‘limdan kelmaydi. Uni, kerak bo‘lsa, bolalar boqsin. Qolgan umrimni qallob, o‘g‘ri va tilanchilar uchun mol boqish bilan o‘tkazmoqchi emasman.

Ilm olaymi? Yo‘q, bilim beradigan ilmli kishi bilan so‘zlashadigan odamning o‘zi yo‘q. Bilganingni kimga o‘rgatasan, bilmaganingni kimdan so‘raysan? Kimsasiz cho‘lda matoni yoyib, qo‘lingga gazcho‘pni olib o‘tirgandan nima foyda? Yoningda quvonch-u shodligingni baham ko‘radigan kishi bo‘lmasa, biliming seni tez qaritadigan achchiq kakraga aylanadi.

So‘fiylik qilib, din bilan mashg‘ul bo‘lganim yaxshidir? Yo‘q, bu ham bo‘lmaydi. Buning uchun ham tinchlik kerak. Ko‘nglingda, ko‘rgan kuningda tinchlik yo‘q. Bunday elda, bunday yerda so‘fiylikka balo bormi?

Bola boqayinmi? Yo‘q, boqolmayman. Jon deb boqardim, ammo boqish nimaligini bilmayman! Uni qanday kasbga, nima maqsadda, qaysi xalq uchun o‘qitay? Bolalar olgan bilimlarini nimaga sarflashlarini ko‘rib turib, qanday ta’lim beray, qayoqqa yo‘naltiray? Bu yerda ham hech narsa qo‘limdan kelmaydi.

Nihoyat, qaror qildim: xayolimga kelgan narsani yozaverayin, oq qog‘oz bilan qora siyohni ermak qilayin, bugundan boshlab qog‘oz va qalam yo‘ldoshim bo‘ladi, o‘yimga kelganini yozaveraman. Ulardan kimdir o‘ziga kerakli so‘zni topsa, yozib olsin yoki esda saqlasin. Keragi yo‘q desa, o‘z so‘zim o‘zimniki dedim-da, oxiri, shunga boylandim. Endi bundan boshqa qiladigan ishim yo‘q.

1890

IKKINCHI SO‘Z

Men bola kezimda bizning qozoqlar sartni[1] ko‘rsa: “Enangni urayin, keng qo‘ltiq, chuldiragan tajik, uyning tepasiga solaman deb orqasiga qamish ortgan, butadan qo‘rqqan, bir-birini ko‘z ko‘rganda “aka-uka” deyishib, biri chiqib ketsa, ikkinchisi izidan so‘kkan, “shart-shurt” qo‘yadigan shular”, deb kulishardi.

No‘g‘ayni ko‘rsa, uni ham so‘kib: “Tuyadan qo‘rqqan no‘g‘ay, otga minsa charchab, yayov yursa dam oladi, no‘g‘ay degancha noqay (dovdir) desangchi, hech narsaga arzimaydi, soldat no‘g‘ay, qochqin no‘g‘ay, bosholshiq[2] no‘g‘ay”, der edi.

O‘risga-da kulguvchi edi: “Ovulni ko‘rsa, bosgan, yomon, sassiqbosh o‘ris yeldek ot suradi, kallasiga nima kelsa, shuni qiladi, “uzun quloq” (xabarchi)ni topib berishni talab qiladi, kim nima desa, shunga ishonadi”, deb.

Shunda men o‘ylaguchi edim: “Ey, Xudo-ey! Dunyoda bizdan boshqa xalqning bari ont urgan, yomon bo‘ladi ekan, eng durust xalq biz ekanmiz deb, haligi aytilmish so‘zlarni bir ulkan haqiqat bilib, quvonib, kulguvchi edim”.

Endi qarab tursam, sartning ekmagan ekini yo‘q, yetishtirmagan mevasi yo‘q, savdogarining bormagan yeri yo‘q, qilmagan hunari yo‘q. O‘zi bilan o‘zi bo‘lib, hech bir shahri bir-biri bilan yovlashmaydi. O‘risg‘a qaragunimizcha qozoqning o‘ligining kafanligini, tirigining kiyimini shular yetkizib turdi. Otasi bolasiga berishni ko‘zi qiymagan molingni shular to‘dalab haydab ketib turdi-ku. O‘risga qaragandan so‘ng ham o‘risning hunarlarini ular bizdan oldin o‘rganib oldi. Ulkan boylar ham, ulkan mullalar ham, eplilik, ko‘rkamlik, sipolik — bari shularda.

Nog‘ayga qarasam, soldatlikka ham chidaydi, qashshoqlikka ham chidaydi, qazoga ham chidaydi, mulla, madrasa saqlab, dinni siylashga ham chidaydi. Ter to‘kib mehnat qilib, boylik ortirish yo‘lini ham shular biladi, saltanat-u hasham ham shularda. To‘ymas tomog‘imiz uchun ularning boylariga birimiz batrak, birimiz xizmatchimiz. Bizning eng boyimizni: “Pol sining tarbayg‘an ayag‘ing

[1] O‘zbek nazarda tutilmoqda (Kitobdagi barcha izohlar tarjimonniki).

[2] **Bosholshiq** — mayda savdogar.

ile basirg'a tugil, chiq, sassiq qazaq", deb uyidan quvib chiqaradi. Buning bari — biri-birini quvib xor qilmay, tirikchilikka urinib, hunar topib, mol topib, zo'r bo'lganlikning belgisi.

O'risga-ku aytarga so'z ham yo'q. Biz ularning qulicha ham emasmiz. Boyagi maqtanchoqlik, boyagi quvonch, birovlarni mazax qilib aytgan so'zlarimiz qayda qoldi?

1890

UCHINCHI SO'Z

Qozoqning bir-biriga ters, ziyonkash, birining tilagiga biri qo'shilmaydigan, rost so'zi oz, amalga talashgich, yalqov bo'lishining sababi nima? Olamga taniqli barcha donishmandlar allaqachon aytishganki, har bir yalqov kishi qo'rqoq va g'ayratsiz keladi; har bir g'ayratsiz qo'rqoq va maqtanchoq keladi; har bir maqtanchoq qo'rqoq, aqlsiz va nodon keladi; har bir aqlsiz, nodon orsiz keladi; har bir orsiz, yalqov kimsadan so'ramsoq (tilanchi), to'ymas, hunarsiz, hech kimga do'stligi yo'q kimsa bo'ladi.

Buning bari to'rt oyoqli molni ko'paytirishdan boshqa o'yning yo'qligidan. Ekinchilik, savdo, ilm singari narsalarga intilinsa, bunday bo'lmas edi. Har bir mol izlagan molim ko'p bo'lsa, o'zim ham, bolalarim ham molli bo'lsak edi, deydi. Moli ko'paysa, ularni molchilarga boqtirishni, o'zlari esa, etga, qimizga to'yib, suluvni quchib, yugurik otlarni boylab o'tirishni orzu qiladi. Mabodo qishlov joyi torlik qilsa, arizabozlik qilib, obro'si-yu boyligidan foydalanib, birovning qishlovini sotib olish, epini qilsa, tortib olishni o'ylaydi. Qishlovidan ayrilgan esa yo boshqa birovga tirg'aladi, yo bo'lmasa, joy yo'qligidan eldan ketadi. Har bir qozoqning o'yi — shu.

Shular bir-biriga do'stlikni o'ylay oladimi? Qashshoq ko'paysa, haqi kam bo'lardi, moldan ayrilganlar ko'p bo'lsa, qishlovi bo'shab qolardi degan o'yda men uning qashshoq bo'lishini, u mening kambag'al bo'lishimni istab, boshidan bir-birimizga ichimizda dushmanlik sog'indik. Bu dushmanlik sal narsaga sirtimizga chiqsa, yovlashdik, dovlashdik, partiyalashdik. Shunday vaqtlarda so'zim o'timli bo'lsin deb, eplab mol yig'ishga, kuchim yetimli bo'lsin deb, amalga yopishdik, biylikka talashdik.

Shu sabab uning bolasi boshqa yoqlarga borib, mehnat qilib, mol topishga urinmaydi, ekinchilik, savdoni kerak deb bilmaydi. Safdoshlarini qanday ko'paytirishni bilmayotgan partiya tuzganlardan bugun biroviga, ertaga boshqasiga, navbati bilan o'z boshini sotib yuradi. O'g'rilar tiyilmaydi. El tinch bo'lsa, o'g'rini hech kim suyamas edi. El bo'lingandan so'ng, kim ont ichib, oqlab, haromligini yoqlab, suyayman desa, shunga taraf bo'lib suyanib, o'g'irlikni burungisidan allaqancha oshiradi.

Eldagi yaxshi odamlarning barining ustidan "chopdi", "taladi" deb quruq yolg'ondan iborat ariza berib, ugolovniy[1] ish qo'zg'atadi. Unga doznaniye — tergov chiqaradi. Boyagi yaxshi odam saylovdan o'tmasligi uchun ko'rmaganini ko'rdim, deydigan o'tirikchi guvohlar ham allaqachon tayyorlab qo'yilgan bo'ladi. U odam boshini qutqarmoq uchun yomonlarga yalinsa, uning-da odamligining ketgani, agar yalinmasa, tergovga, sudga tushgan odam bo'lib, hech bir xizmatga yaramay, boshi xatarga tushib o'tgani. Bo'lis bo'lib olganlar quvlik, haromlik bilan bo'lislikka yetgandan so'ng, mo'minni qadrlamaydi, o'ziday harom, quvlarni qadrlaydi, menga do'st bo'lib yordami tegadi deb, mabodo yovlashguday bo'lsa, menga zarar yetkazish qo'lidan keladi deb o'ylaydi.

Shu kunlarda qozoqlar o'rtasida: "Ishi bilmas, kishi bilar" degan maqol chiqdi. Buning ma'nisi: "Ishingning tuzuk bo'lganidan emas, amaldor, epchil kishing bo'lganidan niyatingga yetasan" degani. Odam uch yilga bo'lis bo'lib saylanadi. Birinchi yili elning "Seni biz saylamadikmi?" degan minnati bilan kuni o'tadi. Ikkinchi yili kim yangi nomzod bo'larkin, degan xavotir bilan kuni o'tadi. Uchinchi yili saylov yaqinlab qolganidan yana bo'lis bo'la olarmikinman, degan o'y bilan kuni o'tadi.

Endi nima qilish kerak? Qozoq xalqining bunday buzuqchilikka botib, yildan yilga tubanlashib borayotganini ko'rganimdan so'ng men bunday o'yga keldim: xalqning bo'lislikka saylayman degan kishisi imkon qadar o'rischa obrazovaniye[2] olgan kishi bo'lsin. Agar o'rtalarida shunday kishi yo'q bo'lsa yoki bor bo'lsa-da, say-

---

[1] **Ugolovniy** — jinoiy.

[2] **Obrazovaniye** — ma'lumot.

lashni istamasalar, bo'lis uyezniy nachalnik[1] bilan voyenniy gubernatorning naznacheniyesi[2] bilan bo'ladi deyilsa, xalqqa ko'p foydali bo'lardi. Buning sababi: avvali, amalga o'ch qozoq o'z bolalariga obrazovaniye berishga tushadiki, buyam foydali ish, ikkinchidan, naznacheniye bilan bo'lgan bo'lislar odamlardan emas, ulug'lardan qarzdor bo'lar edi. Va yana naznacheniye qilinganda tergovga tushgani yoki so'rov berganiga qaralmasa edi, yolg'on da'vo qiluvchilar ozayar, balki yo'qolar edi. Va yana har bir bo'lis o'z elida starshina boshliq bir biy saylaganining xalqqa ko'p zarar bo'lgani ko'rinib, sinalib bilindi. Bu biylik degani bizning qozoqning orasidagi har bir saylangan kishining qo'lidan kelavermaydi. Buning uchun burungi "Qosimxonning to'g'ri yo'lini", "Eshimxonning eski yo'lini", oz deganda, Tovkaxonning Kultepa boshida har kuni kengash qilganda qo'llaydigan "Yetti yorg'i (tuzugi)"sini bilish kerak. Ham u eski so'zlarning zamon o'zgarishlari bilan eskirib, bu yangi zamonga kelishmaydigan joylari bo'lsa, uning o'rniga munosib qaror chiqarib amal qildira oladigan kishi bo'lishi kerak. Bunday kishi juda oz yoki butunlay yo'q.

Qozoqning ahvolini yaxshi biladigan burung'i odamlar aytishgan: "Biy ikkov bo'lsa, dovi to'rtov bo'ladi" deb. Uning ma'nisi — agar toq bo'lmasa, juft biylar talashib, g'avg'oni ko'paytaveradi, deb aytilgan so'z. Bunday qilib biylarni ko'paytguncha har bir bo'lisda el orasidan aqli butun, bilimli uchgina kishi yilini belgilamay saylansa, ular yomonligi oshkor bo'lib, bo'yniga qo'yilgandagina amaldan tushirilsa, bo'lmasa tushirilmasa.

U biylarga da'vogar odamlar qolmay, ikkovi ikki kishini biylikka tanlab olib, ustiga birovni posrednikka[3] saylab olishsa: agar shungayam kelisha olmasalar, boyagi uch biyning birini olib yoki jerebya[4] bilan saylab olib, shunga bo'ysunilsa, g'avg'o cho'zilmay, bitimga kelinardi.

1891

---

[1] **Uyezniy nachalnik** — uyezd boshlig'i.

[2] **Naznacheniye** — tayinlash.

[3] **Posrednik** — vositachi, o'rtadagi odam.

[4] **Jerebya** — qur'a.

TO'RTINCHI SO'Z

Har bir payqaydigan odam bilsa kerak: kulgi o'zi bir mastlik ekanini, har bir mast kishidan g'ofillik ko'p o'tishini, har bir mastning so'ylagan kezida boshni og'ritishini. Kulgiga qattiq berilgan kishi na tirikchilik, na aql, na uyat bilan ishi bor, umrini g'ofillik bilan o'tkazadi. G'ofilligi sabab ko'p xatolar qilgan bunday kishining, o'lmasa, bu dunyoda, o'lsa, oxiratda boshi og'rimay qolmasa kerak.

Har bir qayg'u-hasrat og'ushida yuradigan o'ychil odam dunyo tirikchiligida ham, oxirat yumushlarida ham o'zgalardan yig'naqroq bo'ladi. Har bir yig'noqlik oxiri kengish bo'lsa kerak. Doimo qayg'u-hasratda yura olamizmi o'zi? Doimo kulmay yurishga jon chiday olarmikin? Yo'q, men doim qayg'u-hasratda bo'l demayman. Lekin qayg'u-hasratsizligimizdan qayg'u-hasrat qilib, qayg'u-hasratsizlikdan qutulish yo'lini izlash va topish kerak. Har bir o'rinli harakatning o'zi-da qayg'u-hasratni ozaytadi, qayg'u-hasratni o'rinsiz kulgi bilan ozaytma, o'rinli harakat bilan ozayt!

Chiqar eshigini topa olmay, qayg'u-hasartning ichiga kirib olib, qamalib olishning o'zi ham bir ont urganlik. Yana har bir yomon kishining qilig'iga kulsang, undan rohatlanib kulma, izza bo'lganidan kul, izzali kulgining o'zida qayg'u bor. Shunda bunday kulgili holga o'zing hech tushmaysan, har bir yaxshi odamning yaxshilik topganiga rohatlanib kulsang, uning yaxshilikni yaxshiligidan topganidan ibrat olib kul. Har bir ibrat olmoqning o'zi kishini mastlikdan, g'ofillikdan saqlaydi, vaqtida to'xtatadi. Ko'p kulgining barinida maqtaganim yo'q, ularning ichida bir kulgi borki, u Xudo yaratgan, o'rni bilan ichdan, ko'krakdan, yurakdan chiqmaydi, balki qo'ldan yasalib, bet-og'zini sirtdan tuzab, asl kulgining ohangiga o'xshatib, yaxshi ko'rinish uchun kulinadigan bo'yama kulgidir.

Odam bolasi yig'lab tug'iladi, koyinib o'ladi. Ikki o'rtada, bu dunyo rohatining qayda ekanini bilmay, biri-birini angnib, biri-biriga maqtanib, asl umrni e'tiborsiz, bekorga, yaramas qiliqlar bilan xor qilib o'tkazadi-da, umr so'ngida bor molini sotib ham bir kunlik umrni topa olmaydi.

Quvlik qilish, ko‘z suzib, tilanib, odamdan foydalanish — hunarsiz itning ishi. Avvalo, Xudoga sig‘inib, ikkinchi, o‘z g‘ayratingga suyanib, mehnatingga ishon, mehnat qilsang, qora yer ham beradi, quruq qo‘ymaydi.

1891

BESHINCHI SO‘Z

Ko‘krak to‘la qayg‘u kishining o‘ziga o‘zi egalik qilishiga qo‘ymay, tanasini sirqiratib, bo‘g‘inini quritib, yo ko‘zdan yosh bo‘lib oqadi, yo tildan so‘z bo‘lib oqadi. Qozoqlar: “E, Xudo, meni yosh boladay qayg‘usiz qilgin!” deb tilak tilaganini o‘zim ko‘rdim. Bunisi go‘yo ularning yosh boladan ko‘ra esli kishi bo‘lib, bilmaydigan narsasi yo‘q, qayg‘uga botgan kishisingani. Qayg‘usi nima ekan desang, maqollaridan bilarsan: avvali — “Tushgacha umring qolgan bo‘lsa, bir kunlik mol yig‘”, “O‘zingda yo‘q bo‘lsa, otang ham yot”, “Mol — odamning bovur eti”, “Mollining yuzi yorug‘, molsizning beti choriq”, “Er ozig‘i bilan bo‘ri ozig‘i — yo‘lda”, “Erning moli elda, eringanning moli qo‘lda”, “Bergan — parda buzar”, “Olag‘on qo‘lim — berag‘on”, “Mol topgan erning yozig‘i yo‘q”, “Boydan umidsiz — Xudoydan umidsiz”, “Qorning ochsa, ko‘ringan uyga chop”, “Qirg‘og‘i yo‘q ko‘ldan bez, xayri yo‘q eldan bez”, deganga o‘xshash so‘zlari hisobsiz ko‘p, to‘lib yotibdi.

Bu maqollardan nima chiqadi? Ma’lum bo‘ldi: qozoq tinchlik uchun, ilm uchun, bilim uchun, adolat uchun g‘am yemaydi ekan, mol uchun g‘am yer ekan, biroq o‘sha molni qanday topishniyam bilmaydi ekan, bor bilgani moli borlarni aldab olish yoki maqtab olish, bermasa, ular bilan yovlashish ekan. Molli bo‘lish uchun, otasi bilan yovlashishni ham uyat ko‘rmas ekan. Haytovur, o‘g‘irlik, quvlik-shumlik, tilanchilikka o‘xshagan qiliqlarning qaysisini qilib bo‘lsa-da, mol topsa, aybdor demaslik kerak ekan.

Bularning yosh bolaning aqlidan nimasi ortiq? Biroq yosh bolalar yonib turgan qizil o‘choqdan qo‘rqishardi, bular esa do‘zaxdan ham qo‘rqmaydi ekan. Yosh bola uyalsa, yerga qaraguvchi edi, bu-

lar hech narsadan uyalmaydi ekan. Shumi ularning boladan ortiqligi? Qo'limizdagini ularga talatmasak, biz ham ularday bo'lmasak, bizdan bezadi ekan. Izlagan elimiz shumi?

1891

OLTINCHI SO'Z

Qozoqning bir maqolida: "Hunarning oldi — birlik, rizqning boshi — tiriklik", deyiladi. Birlik qanday elda bo'ladi, qanday qilsa totuv bo'ladi, buni bilmaydi. Qozoq birlik degani ot o'rtoq, osh o'rtoq, kiyim o'rtoq, davlat o'rtoq bo'lsa kerak, deb o'ylaydi. Shunday bo'lgach, boylikdan nima foyda, qashshoqlikdan nima zarar? Og'ayinlar qurimay, boylik izlashning nima keragi bor? Yo'q, birlik — aqlga birlik, molga birlik emas. Molingni bersang, otasi boshqa, dini boshqa, qoni boshqalar ham totuvchilik qiladi! Agar totuvchilik molga sotilsa, ont urganlikning boshi — shu. Og'ayin bo'lsa, olmay totuvlik qilishi kerak. Shunda har kim nasibasini Xudodan tilaydi, bo'lmasa, Xudodan tilamaydi, chora izlamaydi. Avvalo, biriga biri balo izlaydi. Yo tusini, yo qiyofasini o'zgartib, bo'lmasa, bir balo qilib, ishqilib, biri-birini aldashning yo'lini izlashadi. Bularning qayeridan birlik chiqadi?

"Rizqning boshi — tiriklik", deydi. Bu qanday tiriklik? Bu jonning tanadan chiqmaganligimi? Yo'q, unday tiriklik itda ham bor. Bunday tiriklikni qimmat baholagan odam o'limni yov ko'rib, oxiratga dushman bo'ladi. Jonini asrab, yovdan qochib, qo'rqoq atanib, mehnat qilishdan, xizmat qilishdan qochib, erinchak atanib, sho'rlik atanib, hayotda haligi aytilgan rizqqa dushman bo'ladi. Chinakam tiriklik bunday bo'lmaydi. Ko'kragi, ko'ngli tirik bo'lsa, shuni tirik deb aytadi. O'zing tirik bo'lsang-da, ko'kraging o'lik bo'lsa, aql topishga so'z uqmaysan. Halol mehnat bilan erinmay, mol topishga g'ayrat qila olmaysan.

Illatli, yalqov, nayrangboz,
Tekin tomoq, tekin osh.
Sirtdan pishiq, ichdan nos,
Ortin o'ylab uyalmas

bo'lib yurib, tirikman degandan ko'ra Alloh yuborgan haq o'lim hukmi ortiq.

1891

YETTINCHI SO'Z

Bola onadan ikki xil minaz bilan tug'iladi: biri — yesam, ichsam, uxlasam, deydi. Bu — tanning xumori, bular bo'lmasa, tan jonga makon bo'lolmaydi. O'zi o'smaydi, quvvat topmaydi. Yana birovi — bilsam ekan demaklik. Nima ko'rsa, shunga talpinib, yaltir-yultir narsa bo'lsa, unga qiziqib, og'ziga solib, ta'mini tatib ko'rib, tomog'iga, betiga bosib qarab, surnay-karnay bo'lsa, tovushiga intilib, sal kattargach, it hursa-da, mol tovush chiqarsa-da, birov kulsa-da, birov yig'lasa-da, tura yugurib, "Bu nima?", "U nima narsa?", "U nega unday qiladi?", "Bu nega bunday qiladi?" deb ko'zi ko'rgan, qulog'i eshitganning barini so'rab, tinim bilmaydi. Buning bari — bilsam ekan, ko'rsam ekan, o'rgansam ekan degan jonning xumori.

Dunyoning ko'ringan ham ko'rinmagan sirlarini tugallab, eng bo'lmasa, oz-ozdan bilishga urinmasa, odamlikdan bo'lmaydi. Bilmagan va bilishga urinmagan jon, odam joni emas, hayvon joni bo'ladi. Azalda Xudo taolo hayvonning jonidan odamning jonini yirik yaratgan, bu — ishora bilan yaratgani. Quvvati yetmagan, miyasi to'lmagan o'sha esi kam bola vaqtdagi "Bu nima?", "U nima?" deb, bir narsani so'rab bilsam ekan, degan intilishning uyqu va ovqat istagi sabab esdan chiqib ketadigan xumorimizni, nega endi, er yetib, aql kirgach, o'rnini topib — izlanib, egasini topib — so'ranib, ilmga talpinish yo'liga solmas ekanmiz?

Shunday aqlni o'stirib, o'sishimizni yuksaltirib, xumorlanib yiqqan xazinamizni ko'paytish bu — jonning yemishi edi. Jon tandan ortiq edi, tan jonga bosh urishi kerak edi. Yo'q, biz unday qilmadik, hakkaday shaqillab, qarg'aday qaqillab, ovuldagi go'ngtepadan nari o'tmadik. Jon bizni yosh kunimizdan biylab — boshqarib yurar ekan. Er yetgan so'ng, kuch engan so'ng biz unga biylatmadik. Jonni tanga bosh urg'izdik, hech narsaga ko'ngil bilan qaramadik, ko'z bilan ham yaxshi qaramadik, ko'ngil aytib turganiga

ishonmadik. Ko'z bilan ko'rgan narsalarning ham sirtini ko'riboq to'ya qoldik. Siri qalay bo'ladi deb ko'ngilga solmadik, uni bilmagan kishining nimasi ketibdi deymiz, boshqa narsani bilmaymiz, aytib tursa ham uqmaymiz.

Ko'krakda o't yo'q, ko'ngilda ishonch yo'q. Bizning quruq ko'z bilan ko'radigan hayvon, moldan nimamiz ortiq? Qayta bola kunimizda yaxshi ekanmiz. Bilsak-da, bilmasak-da, bilsak ekan degan odamning bolasi ekanmiz. Endilikda hayvondan ham yomonmiz. Hayvon bilmaydi, bilaman deb talashmaydi. Biz sira bilmaymiz, nodonligimizni bilgichlikka bermay, talashganda o'lar-tirilarimizga qaramay, biz bilamiz deb, bo'yin tomirimizni bo'rttirib tortishib yotamiz.

1891

SAKKIZINCHI SO'Z

Shu zamonda aqlni kim o'rganadi, nasihatni kim tinglaydi?

Birovi — bo'lis, birovi — biy. Ularning aql o'rganayin, nasihat tinglayin degan o'yi bo'lsa, bu amalga saylanib-da yurmas edi. Ular o'zimiz tengi yo'q atoqli odamlarmiz, o'zimiz birovlarga o'rnak bo'lib aql beradiganmiz, deb saylandi. Ularning fikricha, o'zlari tuzalib bo'lgan, endi elni tuzatishgina qolgan. Ular qanday qilib nasihat tinglasin va tinglayin desa, qo'li tegadimi o'zi? Uning boshida o'ziga yetarli yumushi bor: ulug'imiz oldida aybdor bo'lmaymizmi, eldagi qilmishlarimiz oshkor bo'lib qolmasmikin, yo bo'lmasa, xalqimizning o'zini yashirib qo'ysakmi, yoki o'zimiz chiqimga tushib, chiqimni qoplay olmay qolaveramizmi, deb birovni yetiltiray, birovni qutultiray degan tashvishning bari boshida, sira qo'li tegmaydi.

Boylar ham boshiga bir kun bo'lsa-da, davlat qo'nib, dunyoning yarmini egallaganday mast. Yupun-yo'qni moli bilan sotib oladi. Ko'ngillari ko'kda, ko'zlari osmonda, adollik, odamlik, aql, ilm, bilim — hech narsani moldan qimmat demaydi. Mol bo'lsa, Xudo taoloni ham pora bilan qo'lga olsa bo'ladi, deydi. Uning dini, Xudosi, xalqi, yurti, bilimi, uyati, ori, yaqini — bari mol. So'zni qanday uqsin, uqayin desa, qo'li tegarmidi? U — molni sug'armoq,

to‘ydirmoq; savdosini yo‘lga qo‘ymoq, kuzattirmoq, boqtirmoq, o‘g‘ri, bo‘ri, qish, sovuq kabilardan saqlaydigan kishi topmoq bilan ovora. Bularning barini joy-joyiga qo‘yib, bosh-oyog‘ini o‘rinlashtirguncha qancha vaqt ketadi? Qo‘li tegmaydi.

Endi o‘g‘ri, zolim, shum, yuzsizlar-ku o‘zlariyoq nasihat tinglamaydi.

Uncha-muncha po‘stakbosh beva-bechoralar kuniniyam ko‘rolmay yuribdi. Anovilar o‘shanday bo‘lib turganda, bular bilim, ilm, aqlni nima qilsin? Yana bilim, ilm kambag‘alga sira keragi yo‘qday: “Bizga nima deysan, ana, so‘zni uqadiganlarga ayt!” deydi. Uning o‘zga bilan ishi yo‘q, anovi oldindagi uchoviday bo‘lgan jonning o‘yida hech bir qayg‘usi, mungi bo‘lmasa kerak.

1891

TO‘QQIZINCHI SO‘Z

Shu men o‘zim — qozoqman. Qozoqni yaxshi ko‘ramanmi, yomon ko‘ramanmi? Agar yaxshi ko‘rsam, qiliqlarini yoqtirishim kerak edi. Va har nechuk ulardan odam yaxshi ko‘rarlik, ko‘ngilga taskin bo‘larlik bir narsa topishim kerak edi. Shuni yo umid uzmaslikka, yoki unisi bo‘lmasa, bunisi bor-ku, deb ko‘ngilga quvvat berishim kerak edi, undayim yo‘q. Agar yomon ko‘rsam, so‘ylashmasligim, majlisdosh, sirdosh, kengashdosh bo‘lmasligim kerak edi, to‘dalashgan joyiga bormay, “Ne qildi?”, “Ne bo‘ldi?” demay, yotishim kerak edi. Buning iloji bo‘lmasa, bularning orasidan ko‘chib ketishim kerak edi. Bularni tuzataman, o‘zlari tuzalar, o‘rganar degan umidim ham yo‘q. Bularning birortasi yo‘q. Bu nimasi?

Men o‘zim tirik bo‘lsam-da, aniq tirik ham emasman. Anchayin o‘shalarning xo‘rligidanmi, o‘zimdan o‘zim xorlanganimdanmi, yoki boshqa bir sababdanmi — hech bilmayman. Sirtim sog‘ bo‘lsa-da, ichim o‘lik. Achchiqlanaman-u, g‘azablana olmayman. Kulaman-u, quvona olmayman, so‘ylaganim o‘zimniki emas, kulganim o‘z kulgim emas, bariyam allakimniki. Quvvatim borida qozoqni ko‘zim qiyib, o‘zga yoqqa ketmak tugul, qozoqni yaxshi ko‘rib, umid qilib yotibman. Qozoqni obdon bilib, undan umidimni uzgan kezlarda menda o‘zga yoqqa ketib, yotni o‘z qilib yashash

uchun quvvat so'nib qolgan ekan. Shu sababdan men — qo'lidan hech ish kelmaydigan bir yurgan gavda. Ba'zida o'ylab qolaman: shunday bo'lganiyam yaxshidir, o'lar chog'da: "Hay, attang, shunday-shunday yaxshi narsalarim qolib ketdi", deb g'am chekmayman. Oldingda amalga oshgan tilaklaring turmasa, ortingga qaramay, o'laverasan ekan.

1892

O'NINCHI SO'Z

Birovlar Xudodan bola tilaydi. Bolani nima qiladi ular? O'lsam, o'rnimni bossin deydi, ortimdan Qur'on o'qisin, qartaygan chog'imda kunimga yarasin, deydi. Bundan boshqa dardi yo'q ularning.

Bola o'rnimni bossin degani nima o'zi? Topgan mol-dunyo egasiz qolmasin deysanmi? Ortingdan qoladigan narsalar g'amini yeganingmi bu? Yoki o'lib borayotganingda o'zgalarga qoldirishdan qizg'anib aytganingmi bu? O'zgalarga ko'zing qiymaydigan qanday ortiqcha boyliklaring borki, ularga achinsang?! Bolaning yaxshisi — quvonch, yomoni — kuydirgi, Xudo senga qanday bola berishini bilib so'radingmi? Bu dunyoda o'zingning ko'rgan xo'rliklarinig ozmidi? O'zingning qilgan itliging ozmidi? Endi bir bola tug'dirib, uniyam it qilishga, unga-da xo'rliklar ko'rsatishga muncha xumor bo'lding?

Ortimdan bolam Qur'on o'qisin desang, tiriklik chog'ingda yaxshilik qilganlaring ko'p bo'lsa, kim ham sen uchun Qur'on o'qimaydi? Yomonliklarni ko'p qilgan bo'lsang, bolangning o'qigan Qur'oni senga nima berardi? Tirikligingda o'zingga o'zing qilmagan ishni o'lganingdan so'ng senga kim qilardi? Bolani oxirat uchun tilaganing — bolam yoshligida o'lsin deganing. Agarda er bo'lib, ulg'aysin desang, qozoqdan ota-onasini do'zaxdan qutqara oladigan bola tug'ilarmikin? Unday bolani senday ota, sening elingday el asrab, ulg'aytira olarmikin?

Qartayganimda qaraydi deganing ham — puch gap. Avvali — o'zing qaramasa bo'lmaydigan darajadagi keksalikka yetasanmi, yo'qmi? Xudo biladi! Ikkinchidan, bolang mehrli bo'lib, senga qaraydigan bo'lib tug'iladimi, yo'qmi? Uchinchidan, mol-

ing bo'lsa, kim ham qaramaydi? Moling yo'q bo'lsa, kim ham senga qarardi? Bolang mol toparmon bo'ladimi yoki mol yo'qotarmon bu hali noma'lum. Xo'sh, Xudo taolo bola berdi ham deylik, uni yaxshi o'stira bilasanmi? Bilmaysan. Avvali — o'z kuningni o'zing ko'ra olmaganing holda bolangning kuniga sherik bo'lasan. Oldiniga bolangni: "Anovini olib beraman, manovini olib beraman", deb o'zing aldaysan. Boshida bolangni aldaganingdan mast bo'lib yurasan. So'ngra bolang aldamchi bo'lsa, kimdan ko'rasan? "So'k!" deb birovni so'ktirib, uni havolantirib, tentaklikka obdon o'rgatib qo'yib, saboqqa berganda mullaning eng arzonini izlab, xat tanib qolsa, bo'ladi, hushyor bo'l, "falonchining bolasi seni sirtingdan sotib ketadi", deb, tirik jonga ishonmaydigan yot minaz qilib, bergan ta'liming shumi? Shu boladan xayrli ish kutasanmi?

Yana Xudodan mol tilaysan, nimaga ishlataman deb tilaysan molni? Avvali, Xudodan tilaysanmi o'zi? Tilaysan. Xudo beradi. Berganini olmaysan. Xudo taolo senga mehnat qilib mol toparlik quvvat berdi. Shu quvvatdan halol kasb qilishda foydalanasanmi? Foydalanmaysan. Xudo senga shu quvvatni, o'rnini topib, sarf qilishni anglatadigan bilim berdi, buni bilmaysan. Bu ilmni o'qisa, uqib olarlik aql berdi. Erinmay mehnat qilsa, to'xtamay izlasa, joyini topib ishlasa, kim boy bo'lmaydi? Buning senga keragi yo'q. Sen birovdan qo'rqitib olsang, birovdan yalinib olsang, birovni aldab olsang — bo'lgani. Izlaganing — shu.

Bu Xudodan tilaganing emas. Bu obro'ni, orni sotib, odamga yalinish — tilanchilik. Xo'sh, shu yo'l bilan mol topding, boyiding, deylik. Aslida shu molni sarf qilib, ilm topish kerak. O'zing topa olmasang, bolang topsin. Ilmsiz oxirat ham, dunyo ham yo'q. Ilmsiz o'qilgan namoz, tutilgan ro'za, qilingan haj, ibodat emas. Molni itlik bilan topsa-da, odamgarchilik bilan ishlatgan biror qozoqni ko'rmadim. Bariyam boylikni itlik bilan topadi, itlik bilan undan ayriladi. Azob, alam, nafrat — uchovidan boshqa hech narsa unga yo'ldosh bo'lmaydi. Borida: "Boyman", deb yo'g'ida: "Menga ham bir paytlar mol bitgandi", deb maqtanadi. Qashshoq bo'lgandan so'ng, yana tilanchilik yo'liga tushadi.

1892

O‘N BIRINCHI SO‘Z

Bu el o‘zi nimaning hisobiga tirikchilik qiladi? Ikki narsaning. Avvali — o‘g‘irlik; o‘g‘irlik bilan mol topaman deb yuradi. Moli bori boylik orttirib, yanada boyiyman deb yuradi. Amaldor: “Olib beraman”, deb da’vogarni, “Qutqarib qolaman”, deb o‘g‘rini talaydi. Qora niyat odamlar o‘g‘irlikni aytib berib, mol olaman deb, o‘g‘riga otimni sotib foydalanaman deb, u nima sotsayam arzonga tushirib olaman deb yuradi. Ikkinchi — buzuqilar birovning xayolida yo‘q yomonlikni o‘yiga solib yuradi: bunday qilsang, bek bo‘lasan, bunday qilsang, gap bo‘lasan, bunday qilsang, kek olasan, zo‘r atalasan, deb. Kim yo‘ldan ozsa, men o‘shanga kerak bo‘laman deb, k...tini qizdirib, o‘zini yem qilayin deb yuradi. Davlatmandlarni yo‘ldan ozdirishga halak bo‘lib yuradi.

Amaldorlar: “Balli-balli, buncha aqllisan, men seni bunday qilib suyayman, — deb, yeb, — Seni unday qilib suyayman”, deb bor-yo‘g‘ini yeb yurishni biladi. Qora xalq mening shuncha uyim, shuncha ovul-aymog‘im bilan so‘yilingni so‘g‘ayin[1], dovulingni qoqayin deb, kim ko‘proq bersa, shunga partiyadosh bo‘laman deb, Xudodan qaytib, o‘lar-qolariga qaramay, boshini, xotin, bola-chaqasini sotib yuradi.

Shu bir o‘g‘ri, buzuqi qallob yo‘qolsa, yurtga aql bitib, tirikchilik ham qilardi. Boy borini boqib, kambag‘al yo‘g‘ini izlab, el shakllanib, oldiga maqsad, tilak qo‘yib, ularga intilgan bo‘lardi.

Hozir yurtning bari shu ikki buzuq ish bilan ovora. Ontning, shartning, odillikning, uyatning to‘xtovsiz yo‘q bo‘lganimi — bu? O‘g‘rini tiyish mumkin, biroq shu buzuqi va g‘alamislarning tiliga ergashadigan, yo‘lidan yuradigan boylarni kim tiyadi?

1892

O‘N IKKINCHI SO‘Z

Kimda kim yaxshidir, yomondir ibodat qilib yurgan bo‘lsa, uni o‘sha ibodatdan qaytarishga og‘zimiz bormaydi, haytovur yaxshilikka qilingan niyatning yomonligi yo‘q-ku, deymiz. Lekin shun-

[1] **So‘yilingni so‘g‘ayin** — tarafingni olib urishayin.

day odamlar to'liq ibodatga ilmi yetmasa ham, urinsa ekan. Buning ikki sharti borligini bilsa ekan. Avvali — iymon-e'tiqodni mahkamlamoq kerak, ikkinchi — o'rganib olgunimcha shu ham bo'laveradi demay, tinmay o'rganaversa ekan. Kimda kim o'rganib bo'lmasdan o'rganishni to'xtatsa, uni Xudo urdi, ibodati ibodat bo'lmaydi. Va lekin, kimda kim iymonning necha narsa bilan kamolot topishini bilmay, qayerdan buzilishini bilmay, boshiga salla o'rab, birodar otini ko'tarib, ro'zachi, namozchi bo'lib yurganlar qizga qalin bermay turib, oqlik da'vo qilgan odamga o'xshaydi.

Iymon qo'riqchi-yu parvarishsiz turmaydi, ixlos bilan o'zini o'zi nazorat qilib, chin diniy haqiqatga intilib joni achib turmasa, bunday loqayd bandaning iymoni bor deb bo'ladimi?

1892

O'N UCHINCHI SO'Z

Iymon degani — Alloh taborak va taoloning sheriksiz birligi, borligi va bizga Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam orqali yuborgan har turli yorlig'iga, bildirganiga bo'yinsinib inonmoqdir.

Endi bu iymon degan inonchga ikki xil narsa kerak.

Avvali — nimaga iymon keltirilsa, uning haqligiga o'z aqli bilan dalil yurgizarlik bo'lib, aqli dalil-isbot qilarga yarasa, buni iymoni yaqin deymiz.

Ikkinchi — kitobdan o'qish bilan yoki mullalardan eshituv bilan iymon keltirib, shu iymon keltirgan narsasiga qattiq ishongan bo'luvi kerak. Birov o'ldiraman deb qo'rqitsa-da, ming kishi ming turli ish ko'rsatsa-da, undan aynib, ko'ngli bo'linmaydigan darajada mahkam bo'lishi kerak. Bu iymonni taqlidiy iymon deymiz.

Endi bunday iymonni but saqlashga qo'rqmas yurak, aynimas ko'ngil, bo'shanmas bo'g'in kerak bo'ladi. Iymoni yaqini bor deyishga bilimi yo'q, taqlidiy iymoni bor deyishga saboti yo'q, yo aldaganga, yo ozg'irganga, yo bir foydalanganga qarab, oqni qora deb, yo qorani oq deb, o'tirikni chin deb ont ichadigan kishini ne deyish mumkin? Bundaylardan Xudoy taoloning o'zi saqlasin. Va har nechuk bilmoq kerakki, yuqorida yozilmish ikki turlidan boshqa iymon yo'q.

Iymonga qarshi borgan hech bir banda Xudo taolo kengchiligi bilan gunohimdan kechadi deb o'ylamasin. Chunki u hol Xudo taoloning avfiga yoki payg'ambarimizning shafoatiga to'g'ri kelmaydi, to'g'ri kelishi mumkin ham emas. "Qilich ustida shart yo'q" degan, "Xudo taolo kechirmas gunoh yo'q" degan yolg'on maqollarga tayangan bunday bandaning yuzi qursin!

1892

O'N TO'RTINCHI SO'Z

Tirik odamning yurakdan aziz joyi bo'ladimi? Bizning qozoqning yurakli kishi degani — botir kishi degani. Yurakning bundan boshqa xosiyatlarini aniqlab bila olmaydi. Rahmdillik, mehribonlik, har turli ishda odam bolasini o'z bovurim deb, ularga-da o'ziga tilaganday ezgulik bo'lsin deyish, bular — yurak ishi. Oshiqlik ham yurakning ishi. Til yurakning aytganiga ko'nsa, undan yolg'on chiqmaydi. Agar amalning tilini olsa, yurak unutiladi. Qozoqning "yuraklisi" maqtovga sig'maydi. Aytganga ko'nadigan, va'dasida turadigan, qo'lini yomonchilikdan tez yig'ib oladigan, ko'chning ortidan ergashgan itday bo'lavermay, adashgan ko'pchilikdan otining boshini burib keta olishga yaraydigan, adolatli aql qo'llagan narsaga, qiyin bo'lsa-da, qo'shiluv, adolatli aql qo'llamagan narsaga, o'ngg'ay bo'lsa-da, qo'shilmaslik — erlik, botirlik shu. Agar shunday bo'lmasa, qozoqning aytgan botiri — shunchaki yurakli emas, balki qashqir yurakli, degan so'z.

Qozoq ham odam bolasi-ku, ko'pchiligi aqlsizligidan emas, yurakda aqlning so'zini uqib olarlik mehr, g'ayrat, tuturiqning yo'qligidan yo'ldan ozadi. Bilimni bilsa-da, orsiz, g'ayratsizligidan uni hisobga olmay, qo'llamay ketadi. Yomonlikka bir elikkanidan so'ng, undan qo'lini tortib ketishga yararlik g'ayrat qozoqda kam bo'ladi.

Shu yurtning ko'pchiligining aytib yurgan "zo'r yigit", "er yigit", "pishiq yigit"ning bari — baloga, yomonchilikka yo'liqtirmoq uchun biri-birini: "Ketdik, botirlab!"[1] deya qizdirib, ortini o'ylamay, yo'ldan ozdiradigan so'zlari.

[1] "Atrofidagi ovullarga bosqin yasab, botirligimizni ko'rsatib qo'yaylik" mazmunidagi maqtanish.

Shunday bo'lsa, Xudoga terslikdan, or bilan uyatga terslikdan qutulib, qo'lini tortib olmagan kishi yaxshi tugul, avvalo, odammi o'zi?

1893

O'N BESHINCHI SO'Z

Aqlli kishi bilan aqlsiz kishi o'rtasida, mening bilishimcha, bir jiddiy farq bor.

Avvali — banda odam bo'lib yaratilgandan so'ng dunyoda hech bir narsaga qiziqmay yura olmaydi. Shu o'zi qiziqqan narsani izlagan kezlari umrining eng qiziq vaqti bo'lib o'yida qoladi. Shunda esli odam kerakli, aytganda quloq, o'ylaganda ko'ngil bo'ysinadigan ishga qiziqib, ko'ngil qo'yar ekan. Uning bu o'tgan umridan o'kinchi bo'lmas ekan.

Aqlsiz, esar[1] kishi o'rnini topmay, keraksiz, tayinsiz bir narsaga qiziqib, xumor bo'lib, umrining qiziq, qimmatli chog'ini itday xorlik bilan o'tkazar ekan. Vaqti kelib bunga o'kinar ekan-u, ammo bundan foyda bo'lmas ekan. Yoshlikda bu qiziq ishdan so'ng yana boshqa bir qiziqarli yumush topib oladigan kishisinib[2], yoshligi to'zimasday, bo'g'ini bo'shamasday yurib, biror kerakli tirikchilik ortidan quvganda, bo'yni qotib, bo'g'inlari bo'shashib, ikkinchi talabgorlikni eplash yo'lida g'ayrat qilishga yaramay qolar ekan.

Uchinchi — har narsaga qiziqmoqlik. Ul o'zi kishida xumorlik paydo qiladigan narsa ekan. Har bir xumorlik o'zicha bir dard bo'ladi ekan, har turli xumor bo'lgan narsaga yetganda yoki ana-mana deb, yetar-yetmas bo'lib yurganda, kishida bir turli mastlik paydo qiladi ekan.

Har bir mastlik odamga ko'p xato qildirib, aqlning ko'zini boylab, tevarakdagi qarovchilarning ko'zini ochib, "anovday-manovday" degizib, sinatadigan narsa ekan.

Shunday vaqtlarda esli kishilar esidan og'may, aqlni qo'ldan chiqarmay, tanani qiynamay yurib, izlanadi ekan.

---

[1] **Esar** — esi yo'q, ovsar.

[2] **Kishisinib** — kishiga o'xshab.

Esar kishilar egar-to'qimin tashlab, bo'rki[1] tushib qolib, etagi otining ketiga yopilib qolib, ikki ko'zi osmonda, jinni odamday ko'rinish beruvni biladi ekan. Shuni o'zim ko'rdim.

Agarda esli kishilarning qatorida bo'lging kelsa, kunida bir marta, bo'lmasa, haftada bir, eng bo'lmasa, oyda bir o'zingdan o'zing hisob ol! Shu oldingi hisob olganingdan beri umringni qanday o'tkazding ekan, yo bilimga, yo oxiratga, yo dunyoga yaramli, o'zing o'ksinmaydigan qiliq bilan o'tkazibsanmi, kuningni? Yo'q, bo'lmasa, qanday o'tkazganingni o'zing ham bilmay qolibsanmi?

1893

O'N OLTINCHI SO'Z

Qozoq qulchiligim Xudoga xush kelsa ekan, deb g'am yemaydi. Faqat yurt qilganni biz ham qilib, yiqilib-turib yursak bo'lgani deydi. Savdogar nasiyasini yig'ishga kelganda, "Topganim — shu, tamom bo'lganman, olsang — ol, olmasang senga bo'liq yerdan mol qazib olamanmi?" deguvchi edi. U Xudo taoloni ham o'sha savdogarday qilaman deydi.

Tilini tiyib, dinini tozartib, o'ylanib, o'rganib ovora bo'lib yurmaydi. "Bilganim — shu, endi qartayganda qaydan o'rgana olaman", deydi. "O'qimading demasa bo'ldi-da, tilimning kelmaganini nima qila olardi?", deydi.

Nima, uning tili o'zgalarnikidan bo'lakcha yaratilganmi?

1893

O'N YETTINCHI SO'Z

G'ayrat, aql, yurak o'z hunarlarining kerakligi yuzasidan talashib, ilmga yukinibdi[2].

G'ayrat aytibdi: "Ey, ilm, dunyoda hech narsa mensiz kamolotga yetmasligini o'zing ham bilasan-ku! Avvali, o'zingni bilishga erinmay-toliqmay, o'rganish kerak, bu — mening ishim. Xudoning dargohida qabul bo'lishga loyiq ibodat qilish ham, erinmay-

[1] **Bo'rk** — issiq bosh kiyim.

[2] O'tinch bilan yuzlanibdi.

zerikmay o'rniga keltirish ham — mening ishim. Dunyoga kerakli hunar, mol-davlat, obro'-mansabni mehnatsiz topib bo'lmaydi. O'rinsiz, bo'lmag'ur narsalarga qiziqmay, tanani toza saqlaydigan, gunohkorlikdan, ko'rsaqo'par yengillikdan, shayton nafsining ozdirishidan qutqaradigan, yanglish yo'lga borayotgan vujudni qayta yig'ishtirib oladigan men emasmi? Shunday bo'lgach, manovi ikkalasi men bilan qalay talashadi?" debdi.

Aql debdi: "Xoh dunyoga, xoh oxiratga, xoh foydali bo'lsa, xoh zararli bo'lsa, biladigan — men, sening so'zingni uqadigan — men, mensiz foydani izlay olmaydi ekan, ilmni uqib o'rgana olmaydi ekan, bu ikkovi men bilan qalay talashadi? Mensiz o'zlari nimaga yaraydi?" debdi.

Bundan so'ng yurak aytibdi: "Men — odam tanasining podshosiman, qon mendan taraladi, jon menda makon qiladi, mensiz tiriklik yo'q. Yumshoq to'shakda, issiq uyda qorni to'q yotgan kishiga to'shaksiz qashshoqning, sovuqda to'nib yurgan yupunning, yemaksiz ochning uy-joyi qanday bo'lib yotir ekan deb o'ylatib, jonini achitib, uyqusini ochtirib, to'shagida bezovta qiladigan — men. Kattadan uyat saqlab, kichikka rahm qildiradirgan — men, biroq odam meni toza saqlay olmaydi, oxirida xor bo'ladi. Men toza bo'lsam, odam bolasini olalab ayirmayman: yaxshilikdan hilvirab, erib ketadigan, yomonlikdan jirkanib, g'azabga minadigan — men, adolat, insof, uyat, rahm, mehribonchilik deydigan narsalarning bari mendan chiqadi. Ular mensiz kun ko'ra olarmidi? Manovi ikkovi men bilan qalay talashadi?" debdi.

Shunda ilm bu uchovining so'zlarini tinglab bo'lib aytibdi:

— Ey, g'ayrat, sening aytganlaringning bariyam rost. Bu aytganlaringdan boshqa ko'p hunarlaring borligi ham rost, sensiz hech narsaning bo'lmasligi ham rost, biroq qariganing sari qahring qattiqligi ham mo'l, foydang ham mo'l, biroq zararing ham mo'l, goh yaxshilikni berkitib, goho yomonlikni berkitib ketasan, shuning yomon, — debdi.

— Ey, aql! Sening aytganlaringning ham bari rost. Yaratgan Tangrini-da sen tanitasan, yaralgan ikki dunyoning joyini-da sen bilasan. Biroq shu bilan turib qolmaysan, amal ham, hiyla ham — sendan chiqadi. Yaxshining ham, yomonning ham suyangani,

ishongani — sen; ikkovining izlaganini ham topib berib yurasan, shuning yomon, — debdi.

— Sen uchovingning boshingni qo'shmoq — mening ishim. Biroq bunda boshqaruvchi, amr beruvchi yurak bo'lgani ma'qul. Aql, sening qirrang ko'p, yurak sening o'sha ko'p qirrangga yurmaydi. Yaxshilik aytganiga joni-dili bilan xumor bo'ladi. Ko'nmak tugul quvonadi[1]. Yomonlikning aytganiga ergashmaydi. Ergashmak tugul jirkanib, uydan quvib chiqaradi. G'ayrat, sening quroling ko'p, kuching mo'l, lekin yurak seni-da o'z erkingga qo'ymaydi. O'rinli ishga kuchingni ayatmaydi. O'rinsiz yerga qo'lingni bo'shatmaydi. Shu uchoving boshingni qo'sh, baring ham yurakka bo'ysun, — deb uqtirib aytuvchining oti ilm ekan.

— Bir kishida shu uchoving mening aytganimday topilsanglar, tovonining tuprog'ini ko'zga surtarlik xosiyatli odam — shu.

Uchoving ola bo'lsang, men yurakni yoqlayman.

Xudoylik shunda, aslingni toza saqla, Xudo taolo aslingga har doim qaraydi, deb kitobning aytgani shu, — debdi.

1893

O'N SAKKIZINCHI SO'Z

Odam bolasining kiyimlarini bulg'ab, biljiratib kiymay, yirtilmagan, toza, sipoyi ham ozoda kiyingani — durust ish. Lekin o'z davlatidan ortiq kiyinmak yo kiyimi ortiq bo'lmasa-da, o'z ko'nglida juda ishmalanib yurmoq[2] — olifta kerbazning[3] ishi.

Kerbaz oliftaning ikki turli qilig'i bo'ladi: biri — bet-bichimi, murti, tana muchalari, yurishi, qosh-qovog'iga qo'ldan zeb berib, bilagini yalang'ochlab, qo'lini sermab ovora bo'ladi. Boshqasi — otini, kiyimini "to'yga borarim" deb, shularning orqasidan sipoyi ko'rinmoq, taniqli yigit atanmoq, o'zidan oldingilarga yaqin bo'lib, o'zi qatorilarning ichini kuydirib, o'zidan keyingilarga: "Attang, dunyo-ey, shularning otiday ot minib, kiyimiday kiyim kiyganning ham armoni bormikin?" degizishni o'ylaydi.

---

[1] Ko'nibgina qolmay, quvonadi ham.

[2] **Ishmalanib yurmoq** — hovliqib, maqtanib yurmoq.

[3] **Kerbɵz** — oliftaligi bilan kerilib yuradigan kishi – Tarjimon.

Buning bari — masxarabozlik, ahmoqlik.

Buday o'yni odam bir o'ylamasin, agarda bir o'ylasa, qayta odam bo'lmog'i — qiyin yumush.

Kerbaz degani "Bu o'shanday kerbaz, kerbazga odamgarchilikdan bermas" naqlidagi kimsaning o'zi. Aslida odam bolasi odam bolasidan aql, ilm, or, minaz degan narsalar bilan o'zmog'i kerak.

Ulardan boshqa narsa bilan o'zdim demoqning bariyam g'irt ahmoqlik.

1893

O'N TO'QQIZINCHI SO'Z

Odam onadan tug'ilganda esi bo'lmaydi: eshitib, ko'rib, ushlab, tatib ko'rsa, dunyodagi yaxshi-yomonni taniydi, ko'rgan-bilgani ko'p bo'lgan shunday odam bilimli bo'ladi. Esli kishilarning aytgan so'zlarini yodida saqlab yurgan kishining o'zi ham esli bo'ladi. Har qanday eslilikning yakka o'zi ishga yaramaydi. O'sha eslilardan eshitib bilgan yaxshi narsalarni yodida tutsa, yomon degandan saqlansa, shunda ishga yaraydi, shunda odam desa bo'ladi.

Bunaqa so'zlarni eshitganda o'zini u yoq-bu yoqqa tashlab, tutqanoqlab yo shalvirab, loqayd tinglasa, yo eshitgan vaqtda tushunib olayin deb qayta so'rab olmasa, yo shu yerda so'zning rost ekaniga ko'zi yetsa-da, chiqishi bilan qayta oldingi qolipiga tushsa, eshitib turib eshitmasa, nima qilish kerak?

O'shanday gap uqmaydigan elga so'z aytgancha, o'zingni taniydigan cho'chqani boqqan yaxshi deb, bir hakim aytgan ekan. Buyam shu shekilli bo'ladi.

1893

YIGIRMANCHI SO'Z

Taqdirning yorlig'ini bilasizlar — o'zgarmaydi. Bandada zerikish degan bir illat bor. U — taqdirda odam bilan birga yaratilgan narsa, uni odam o'zi topgan emas. Agar odam bolasi unga bir ilakishsa, qutulishi qiyin. G'ayratlanib, silkib tashlab ketsang-da, oxirida tag'in kelib, yengadi.

Aqli tugal, o'yli odam fikr qilsa, shu odam bolasi zerikmaydigan biror narsa bormikan? Ko'ngil yemakdan-da, o'yindan-da, maqtanishdan-da, kerbazlikdan-da, to'ydan-da, to'dadan-da, xotindan-da ozmi-ko'pmi, baribir, zerikadi. Chunki barining aslini ko'radi, o'tkinchiligini biladi, ko'rgan-bilgan sari ko'ngli soviy boshlaydi.

Dunyo bir qolipda turmaydi, odamning quvvati, umri ham bir qolipda o'tmaydi. Xudo har qanday maxluqqa ham bir qolipda turmoqni bergani yo'q. Shunday bo'lgach, endi ko'ngil qanday qilib bir qolipda tura olsin?

Biroq o'sha zerikish degan narsa har neni ko'raman degan, ko'pni ko'rgan, ta'mini, bahosini, barining-da o'tkinchiligin bilib yetgan o'yli odamdan chiqadi. Umrning shunchalik o'tkinchiligi, dunyoning har bir qiziqligi oxirning shunchalik cho'loqligini ko'rgan-bilganlar tirikchilikdan-da zeriksa bo'ladi. Bularni ko'rib, ahmoqlik, qayg'usizlik ham bir g'animat ekan, deb o'ylab qolaman.

1894

YIGIRMA BIRINCHI SO'Z

Odam bolasi ozmi-ko'pmi maqtanishning biror turidan omon bo'lishi — qiyin ish. Men shu maqtanish degan narsaning ikki turi borligini payqadim: birovining otini — yiriklik deb atayman, birovining otini maqtanchoqlik deyman.

Yiriklik — odamning o'z-o'ziga ichidan baho berib, yaxshi hisoblashi. Ya'ni nodon atalmaslik, yengil atalmaslik, maqtanchoq atalmaslik, odobsizlik, orsizlik, tiyiqsizlik, keraksizlik, pastkashlik, o'shakchilik, o'tirikchilik, aldamchilik, yoqimsizlik singari yaramas qiliqlardan saqlanib, bu minazlarni o'ziga xo'rlik bilib, o'zini ulardan zo'r hisoblamoq. Bu minaz — aqllilarning, orlilarning, ortiqlarning minazi. Undaylar meni yaxshi demasalar mayli, o'zi bilsin, lekin yomon degizmasam ekan deb azoblanadi.

Ikkinchi — maqtanchoq degan birovi "demasin" demaydi, "desin" deydi. Boy desin, botir desin, quv desin, pishiq desin, har doim ne turli bo'lsa-da, "desin" deb azoblanib yurib, "demasin"ni unutib qo'yadi. Unutmoq tugul, uning oldin qilinadigan ish ekani esiga ham kelmaydi. Bunday maqtanchoqlarning o'zi uch turli bo'ladi.

Birovi yot kishilarga maqtanarlik ish bilan maqtanishni izlaydi. Bu — nodon, lekin nodon-da bo'lsa, odam.

Ikkinchisi o'z elining ichida maqtanarlik ish bilan maqtanishni izlaydi. Uning nodonligi to'liq, odamligi obdon to'liq emas.

Uchinchisi o'z uyiga kelib aytmasa yo ovuligagina kelib aytmasa, o'zga kishi yoqtirmaydigan ish bilan maqtanishni izlaydi. Ul — nodonning nodoni, lekin o'zi odam emas.

Yotga maqtalsam ekan degan elim maqtasa ekan deydi. Elimga maqtalsam ekan degan, og'ayinim maqtasa ekan deydi. Og'ayinining ichida maqtov izlagan o'zimni o'zim maqtasam ham bo'laveradi deydi.

1894

YIGIRMA IKKINCHI SO'Z

Naq shu kunlarda qozoqning ichida kimni yaxshi ko'rib, kimni qadrlayman, deb o'ylab yuribman.

Boyni qadrlayin desang, boy — yo'q. Boy bo'lsa, o'z boshining, o'z molining erki o'zida bo'lmasmidi? Hech bir boy o'z moliga o'zi erkli emas. Qaysi bir boy o'zi birov bilan tirlashaman deb, qo'riqlashga yalinib, yuz kishiga molini bo'lib berib yuribdi. Ahmoqligidan molimni yalintirib berdim, deb o'ylaydi. Yo'q, o'zi yalinib berib yuribdi. Xayr ham emas, mirzalik — molga nopisand ko'zi to'qlik ham emas, o'z eli bilan, o'z yeri bilan yovlashib, o'ysizlarga qo'ynini ochib, molini sochib yuribdi. Qay bir boylar, eldagi qo'r-quti, qatiq-suti borlari o'zaro birlasha olmagandan so'ng, ishonadigani yo'q bu erksiz mulkdorlarni keyingi vaqtda ko'payib ketgan yoqimsiz quv kimsalar o'zlariga yemish — o'lja qilib yuribdi.

Mirzalarni — qo'li ochiq janoblarni qadrlayin desang, shu kunlarda elda chinakam mirza yo'q, molbergich[1] mirza itdan ko'p. Birovi o'zimga biror foyda keltiraman deb mirza ko'rinib yuribdi. Birovlari k...ga tuz solib kuydirilgan kigiz tiqilganday, esidan og'ib, kim chorasiz bo'lsa, o'shanga taltayib, emizib yuribdi[2].

[1] **Molbergich** — mol beradigan.

[2] **Emizib yuribdi** — boqib, to'ydirib yuribdi.

Bo'lis bilan biyni hurmatlayin desang, elda Xudoning o'zi bergan bo'lislik bilan biylik yo'q. Sotib olgan, yalinib, bosh urib olgan bo'lislik bilan biylikning hech bir xosiyati yo'q.

Polvonlarni hurmatlayin desang, yomonlikka elning bari polvon, yaxshilikka polvon kishi elda yo'q.

Esli kishini topib hurmatlayin desang, adolat, uyat, insofga ega esli kishi elda yo'q. Quvlik, shumlik, haromlik, amalparastlikda elning bariyam esli.

G'arib, nochor bechorani hurmatlayin desang, yotgan tuyaga mina olmasa-da, u mo'minlar safida emas. Agar tuyaga minarlik mo'ljali bo'lsa, bir nimani eplab ilib ketarlik mo'ljali ham bor.

Endi qoldi quv bilan shum. Ularning o'zi sarg'aymay, qurimay tinadigan emas.

Bo'ldi endi, kimni suydik, kimning tilovin tiladik? O'zi qurtlanib sochilgan bo'lis-biylar tura tursin. Endi, albatta, amal yo'q, mo'minligidan "Rizq boqqan, janjal boqmas" degan maqol bilan bo'laman deb, bergani bilan yoqa olmay, yarmini berib, yarmini tinchlik bilan boqa olmay, o'g'ri, zolim, quvlarga yemish — o'lja bo'lib yurgan boylarni ayamasang va ularning tilagini tilamasang bo'lmaydi. Shulardan boshqani topa olmadim.

1894

YIGIRMA UCHINCHI SO'Z

Bizning qozoqni o'ngdirmay yurgan bir quvonch, bir yupanch degani bor.

Uning quvonchi — eldagi bir yomonni topib yo buning o'zi qilmagan yomonchilikni boshqa odam qilganini bilib qolsa, quvonadi. Aytadi: falonchidan Xudo saqlasin, u ham odamman deb yuribdi-ku, uning oldida biz nurli kishilarning biri emasmizmi, — deb? Unga Xudo taolo aytibdimiki, falonchidan tuzukroq bo'lsang bo'ladi deb? Yo bilganlar aytibdimi, ishqilib, o'zingdan nodonchiligi oshgan, yomonchiligi ortgan kishi topilsa, sen yomonga qo'shilmaysan deb? Odam o'zini yomonga solishtirib yaxshi bo'ladimi? Yaxshiga solishtirib yaxshi bo'linadi-ku. Yuz ot poygaga qo'shilsa, men ham poygada qatnashdim degan so'z bo'lsa, oldinda necha ot

bor deb so'ralar, ortda necha ot bor edi deb so'ragani nimasi? Men besh otdan, o'n otdan ilgari edim deyishning nimasi quvonchli?

Endi yupanchiga kelsak. Yolg'iz bizmi, elning bari shundayoq yuribdi-ku, ko'p bilan ko'rgan katta to'y, ko'p bilan birga bo'lsak bo'ldi-da degan so'zni yupanch qiladi. Unga Xudo taolo aytibdimiki, ko'pdan qolmasang, bo'ladi deb? Ko'pga mening qahrim o'tmaydi deb. Ko'pga tuzog'im yetmaydi deb. Ilm ko'pga kelganmidi? Yolg'izdan taraganmidi? Hikmat ko'pdan taraydimi? Birdan taraydimi? Ko'pga xo'rlik yurmaydimi? Bir uy ichidagilar tugal og'risa, yengil bo'ladimi? Joyini topolmay yurgan ko'p odam adashib yursa, shu joyni biladigan bir kishining keragi yo'qmikan? Ko'p yo'lovchilarning barining oti horigani yaxshimi? Yut[1] kelsa, elning barini tugallay yutgani yaxshimi? Yo yarim-yortisi bo'lsada, omon qolgani yaxshimi? Ko'p ahmoqning bir ahmoqqa nimasi yupanch?

Urug'imiz bilan og'zimiz sassiq bo'lguvchi edi deyish bilan yomon kuyov qallig'iga yoqibdimi? Shu so'zi qizning ko'nglini rozi qilishga yarabdimi? Unday bo'lsa, ko'pchiligingdan qolma, sen ham og'zingni sasita ber debdimi?

1894

YIGIRMA TO'RTINCHI SO'Z

Shu kunlarda yer yuzida ikki milliarddan ortiq odam bor, ikki millionday qozoq bor.

Bizning qozoqning do'stligi, dushmanligi, maqtanchoqligi, zo'rligi, mol topishi, hunar izlashi, yurt tanishi hech bir xalqqa o'xshamaydi.

Birimiz birimizni angnib, yovlab, o'g'irlab, kiprik qoqtirmay o'tirganimiz o'tirgan.

Dunyoda xalqi uch milliondan ortiq bir qal'a — shahar ham bor. Dunyoning bosh-oyog'in uch aylanib ko'rgan odam ham to'lib yotibdi.

Shunday qilib, yer yuzidagi yurtning xori bo'lib, bir-birimizni angnib o'tamizmi? Yo'q, qozoq o'rtasida ham o'g'irlik, o'triklik,

[1] Yutmoq fe'lidan: vabo, balo, o'lat kabi ma'nolarni ifodalaydi.

o'shak, qasdlashuvni yo'qotib, hunarni, molni to'g'rilikdan topib, boshqa yoqdan tuzuk yo'l bilan izlab, yuksalish kun ham bo'larmikan?!

Ey, qanday bo'lsin?! Yuz qora (mol)ga ikki yuz kishi ko'z olaytirib yuribdi-ku, bir-birini quritmay, o'zi-da qurimay, tinchlik toparmikin ular!

1894

YIGIRMA BESHINCHI SO'Z

Bolalarni o'qitgan ham yaxshi, biroq Tangriga qulchilik qilishga, turkiyni tanishga yetarli darajada o'qisa bo'ladi. Shuning uchunki, bizning yurt dor ul-xarob[1], bunda avvali mol topish kerak, undan so'ng arab, forsiy kerak. Qorni och kishining ko'nglida aql, bo'yida or, ilmga xumorlik qaydan bo'lsin? Yeb-ichishga molning taqchilligi, og'ayinning arazi va har turli balo: o'g'irlik, zo'rlik, quvlik, shumlik shekilli illatlarni o'rganishga sabab bo'ladigan narsalar. Mol topsa, qorin to'yadi. Undan so'ng, bilimdan ko'ra hunar kerak ekan. Shuni o'rganayin, ham bolamga o'rgatayin deb yaxshi o'ylab yuradi.

O'rischa o'qish kerak, hikmat ham, mol ham, hunar ham, ilm ham — bari o'risda. Zararidan qochiq (nari) bo'lish, foydasiga o'rtoq bo'lish uchun tilini, o'qishini, ilmini bilmak kerak. Buning sababi ular dunyoning tilini bilib, shunday bo'ldi. Sen uning tilini bilsang, ko'krak ko'zing ochiladi. Har birovning tilini, hunarini bilgan kishi u bilan birdaylik da'vosiga kiradi, o'ta orsizlik bilan unga yalinmaydi. Dinga ham yaxshi bilganlik kerak.

Yo'rg'alik bilan ko'nglini olsam ekan, degan nodon ota-onasi, og'ayin-yurti, dini, odamchiligini yelkasiga bir qoqib qo'yishga sotadi. Faqat boshliqning kulgani kerak deb k...ti ochilsa-da, g'am yemaydi.

O'risning ilmi, hunari — dunyoning kaliti, uni bilganga dunyo arzonroq tushadi. Lekin shu kunlarda o'ris ilmini bolasiga o'rgatayotgan kishilar shuning quvvati bilan yana qozoqni angnisam ekan deydi. Yo'q, bunday niyat kerak emas. Molni qanday halol mehnat

[1] **Dor ul-xarob** — xarob uy. Bu yerda xarob yurt ma'nosida.

qilgan topar ekan, shuni o'rgataylik, buni ko'rib yana o'rganuvchilar ko'paysa, ulug'singan o'rislarning yurtni zakonli-zakonsiz, birday xo'rlashiga ko'nmas edik. Qozoqqa qo'riqchi bo'layin deb, biz ham el bo'lib, boshqalar bilganni bilib, xalq qatoriga qo'shiluvning g'amini yeylik, deb niyat qilishni o'rganish kerak. Hozirda o'risda o'qigan bolalardan ham ko'p yaxshi kishi chiqa olmay turibdi. Sababi, ota-ona, og'ayin-tug'ishgani bir tomondan buzib yotir. Shunday bo'lsa-da, o'sha o'qigan bolalar anovi o'qimagan qozoq bolalaridan uzuk va o'ziq[1]. Nima bo'lganda ham ularga biror so'zni uqtirsa bo'ladi.

Yaxshi otalarning bolalari ham ko'p o'qigani yo'q, qaytaga kambag'alning bolalarini o'risga xo'rlatib qo'ydi. Ular bundan ortiq nima qilardi? Va yana qay bir qozoqlar og'aynisi bilan arazlashganda: "Sening shu zo'rliklaringga ko'ngancha, bolamni soldatga berib, boshimga soch, og'zimga murt qo'yib ketmasammi?" deguvchi edi. O'shanday yomon so'zni Xudodan qo'rqmay, bandadan uyalmay aytgan qozoqlarning bolasi o'qigani bilan nima degan odam bo'lsin? Shundan keyin o'zga qozoq bolalaridan ortiq o'rgangani nima, nimani ko'p o'rganibdi o'zi? Kirdi-chiqdi, ildi-qaytdi, tubiga yetib o'qigan bola yo'q. Otasi el oqchasi bilan o'qitganga arang o'qitadi, o'z molini qanday qilib sarflasin?

To'g'risini aytganda, bolangga xotin olib berma, enchi[2] berma, boringni sotsang-da, bolangga o'risning ilmini o'rgat! Manovi men aytgan yo'l — mol ayar yo'l emas!

Xudodan qo'rq, bandadan uyal, bolang bola bo'lsin desang, o'qit, molni ayama!

Bo'lmasa, o'zi bir it qozoq bo'lib qolgandan so'ng senga rohat ko'rsatadimi, o'zi rohat ko'radimi yo yurtga rohat ko'rsatadimi?

1894

YIGIRMA OLTINCHI SO'Z

Bizning qozoqning qo'shgan oti oldinda kelsa, tushirgan polvoni sherigini yiqsa, solgan qushi o'lja olsa, qo'shgan iti o'zga it-

[1] **Uzuk va o'ziq** — yetuk va o'zib ketadigan, uzoqqa boradigan.

[2] **Enchi** — ota tomonidan bolaga bag'ishlangan mol-mulk.

lardan oldin ovni keltirsa, esidan ayrilguday quvonadi. Bilmayman, shundan ham ortiq quvonchi bormikan? Ay, yo'q chiqar-ov!

Shu quvonish bari qozoq qarindoshning o'rtasida bir hayvonning hunari ortiqligida yo bir bo'tan[1] odamning yiqqanida senga maqtanarlik nima bor? O'zgan, olgan, yiqqan odam o'zi emas yoki bolasiyam emas. Buning bari qozoqning qozoqdan boshqa yovi yo'q, bitday narsadan bir ulkan ish qilgan kishiday quvongan bo'lib, yana o'zgalarni uyaltirsam ekan ham deydi.

Birovni uyaltirmoq — shariatga harom, tirikchilikka zarar, aqlga ters. Qiziq, bu birovni uyaltirmoqning nimasini davlat bilib quvonadi ekan? Yoki bo'lmasa, izza bo'luvchi buning nimasiga buncha yer bo'lib qoladi ekan?

Yugurik ot — goh bu elda, gohida u elda bo'ladigan narsa. Qirg'iy qushda, yugurik itda — ba'zan buning qo'liga, ba'zan uning qo'liga tushadigan narsa. Kuchli yigit ham doim bir eldan chiqadimi? Goh manovi eldan, goho anovi eldan chiqadi. Buning barini odam o'z hunari bilan yasagani yo'q. Bir o'zgan, bir yiqqan, doim o'zib, doim yiqib yurmaydi. Shuning barini bila turib, nimasiga yerga kirganday bo'lib yo bir haromligi, yomonligi chiqqanday uyalib, xo'rlanadi ekan.

Endi shulardanam bilsangiz bo'ladi: nodon el quvonmas narsaga quvonadi, quvongandayam nima deb, nima qo'yganini, nima qilganini o'zi bilmay, esidan og'ib, bir turli mastlikka duch bo'lib ketadi. Uyalganlari uyalmas narsadan uyaladi, uyalarlik narsadan esa uyalmaydi. Buning bari — nodonlik, ahmoqlikning belgisi.

Bularni aytsang, qay birovlari "rost, rost" deb qo'shilgan bo'ladi. Lekin sen unga ishonma, ertaga u ham haligilarning biri bo'lib ketadi. Ko'ngli, ko'zi yetib tursa-da, hayvon shekilli avvalgi odatidan tiyila olmaydi, bir tayinsizlikka tushib ketadi, hech kim to'xtatib, tushuntira olmaydi. Qanchalik yomon bo'lsa-da, bir narsani odat qilsa, qozoq u odatidan ilojsiz qo'rqqanida yo o'lganida kechadi, bo'lmasa, aqli ustun kelib, bunim to'g'ri emas ekan deb bilib, o'ylanib, o'zicha kechgan odamni ko'rmassan.

1894

---

[1] **Bo'tan** – boshqa, bo'lak.

YIGIRMA YETTINCHI SO‘Z

Suqrot hakimning so‘zi

Bir kuni Suqrot hakimning Aristodim degan olim shogirdiga Xudo tobarak va taologa qulchilik qilish to‘g‘risida aytgan so‘zi. U shogird Xudoga qulchilik qilganlardan kulguvchi edi.

— Ey, Aristodim, sen qilgan hunarlari sabab odamlarni tang qoldiradigan biror odam borligini bilasanmi? — deb so‘raydi.

U aytadi:

— Bunday odamlar to‘lib yotibdi, hazrat.

— Birortasining otini ata-chi, — deydi hakim.

— Homerga baxshiligi sababli, Sofoklga tragediyasi, ya’ni birovning holatiga kira olishi sababli, Zevksisga suratchiligi sababli tang qolaman, — deb, bularga o‘xshagan hunarlari oshkor-u mashhur bo‘lgan boshqa bir qancha kishilarni ham sanaydi.

— Unday bo‘lsa, qoyil qolishga kim ko‘proq loyiq: odamning jonsiz, aqlsiz, quruq bichiminigina yasaydigan suratchimi? Yo jon egasi, aql egasi bo‘lgan odamning o‘zini Yaratuvchimi? — deydi ustoz.

— So‘nggisi loyiq, — deydi shogird, — biroq u Yaratuvchi yaratgandan keyin yaratiq[1] kezi kelib, boshqacha bo‘lib ketmay, boshdan bilib yaratilgan hikmati bilan qola bilsa, — debdi.

— Xo‘p, dunyoda foydali narsa ko‘p, birining foydasi bilinib, ko‘rinib turadi. Qay birining esa foydasi aniq bilinmaydi. Shuning qaysisida hikmat ko‘rasan?

— Foydasi ochiq-oshkor ko‘rinib turganida hikmat bo‘lsa kerak, — deydi Aristodim.

— Xo‘sh, shunday bo‘lsa, odam bolasini dunyoga keltiruvchi Havoga[2] besh tashqi sezgini berganda, chuqur o‘ylab, odamga ularning foydasi borligini, unga tugal muhtoj bo‘larini berganligi oshkor bo‘lib turibdi-ku? Avvali ko‘zni ko‘rsin deb beribdi, agar ko‘z yo‘q bo‘lsa, dunyodagi ko‘rkli narsalarning ko‘rkidan qanday qilib lazzat olar edik? Ko‘zning o‘zi nozik bo‘lganidan kerak vaqtida ochib-yopib turish uchun qovoq beribdi. Yeldan, uchqundan

[1] **Yaratiq** — yaratilgan narsa.

[2] **Havo** — olamdagi birinchi ayol momo Havo ko‘zda tutilgan.

saqlash uchun kiprik beribdi. Manglay terini ko'zga tushirmaslik hamda boshqa bir qancha kerakli ishlarni qilish uchun qoshni beribdi. Quloq bo'lmasa, na dangur-dungur tovush, na yaxshi un, kuy, qo'shiq — hech biridan lazzatlana olmas edik. Burun is bilmasa, dunyoda nima xushbo'y, nima badbo'yligini qaydan bilar edik? Bularning bari bizning foydamiz uchun emasmi?

Ichib-yegan oshining tozaligini ko'rib, isini bilib ichib-yesin deb, ko'z bilan burunni og'izga yaqin yaratibdi. Bizga juda kerak bo'lsa-da, jirkanarlik tomonlari bor teshiklarimizni aziz bilimli yerimiz bo'lmish boshdan olis joyga olib borib qo'yibdi. Bularning bari hikmat bilan bilib qilinganidan dalolat emasmi? — debdi ustoz.

Shunda chuqur o'ylab ko'rgan Aristodim odamning Yaratuvchisi tengsiz hikmat egasi ekani hamda u insonni ulkan muhabbat bilan yaratganiga shubha qilmay qo'yibdi.

— Shunday bo'lgach, nima deb o'ylaysan, hamma maxluqotni yosh bolalariga mehribon qilib, ularni avaylatib qo'ygani yo hamma maxluqotning o'limni yomon ko'rib, ko'proq yashashni tilab ijtihod qilishi, unib-o'sishning g'amida bo'lishdan boshqa narsani oz o'ylashlari — bularning bari o'ssin, unsin, yurt bo'lsin degani uchun emasmi? Shularning barini yaratganda ularning ko'ngillarini shunchalar tiriklikka intiladigan qilib qo'ygani Yaratuvchining yaratiqlarini yaxshi ko'rganidan ekanini bildirmaydimi? — deydi.

— Ey, Aristodim! Sen qalay bir o'zingdan, ya'ni odamdan boshqada aql yo'q deb o'ylaysan? — dedi ustoz yana. — Odamning tanasi o'zi yurgan yerning bir zarraday qumiga o'xshash emasmi? Tanangda bo'lgan namliklar yerdagi suvning bir tomchisiday emasmi? Xo'sh, sen bu aqlga qaydan ega bo'lding? Ishqilib, qaydan kelsa-da, jon degan narsa keldi-da, shundan so'ng sen aqlga ega bo'lding. Bu olamni ko'rding, o'lchoviga aqling yetmaydi, kelbat-u ko'rinishning ham o'ziga munosib, yarashiqli zakon bilan yaratilganini, uning hech birining buzilmasligini ko'rasan. Bularning bariga tang qolasan, ham aqling yetmaydi, shularning barida kezi bilan bir narsadan yaralganmi yoki bularning egasi bir o'lchovsiz ulug' aqlmi? Agar aql bilan bo'lmasa, qanday qilib hisobiga, o'lchoviga o'y yetmaydigan dunyo har bir turli zaruratga ko'ra yaratilib, ham bir-biriga sabab bilan

bog'lantirilib, bandaning aqliga o'lchov bermaydigan puxta ko'rkam zakonga qaratilib yaratildi? — deydi.

Shogird aytdi:

— Bu aytganlaringning bari batahqiq rost, Yaratuvchining ortiq aql egasi ekani ma'lum bo'ldi. Xudoning ulug'ligiga inkorim yo'q. Biroq shunday ulug' Xudo mening qulchiligimga qanday qilib muhtoj bo'ladi? — dedi.

— Ey, Aristodim! Xato qilyapsan. Muhtoj bo'lmaganda ham birov sening g'amingni yesa, sening undan qarzdor ekaningni aytishga ham ustoz kerakmi? — dedi.

Aristodim aytdi:

— U mening g'amimni yeyotganini men qayoqdan bilaman? — dedi.

— Xo'sh, unday bo'lsa, barcha maxluqlarga-da qara, o'zingga-da qara, jonni barimizga-da berib qo'yibdi. Jonning yorug'ini barimizga ham birday uqarlik qilib beribdimi? Odam oldini, ortini, bugungi kunini — uchovini-da o'ylab, tekshiradi. Hayvon ortini, o'sha kunini-da chala-chulpa biladi, ertangi kun haqida o'ylamoqlikni esa butunlay bilmaydi. Hayvonga bergan tanaga qara, odamga bergan tanaga qara. Odam ikki oyog'ini bosib tik turib, dunyoning borini tekis ko'rishga, barini tekis tekshirishga qodir, unda o'zga hayvonlarni o'ziga bo'ysundirib, foydalanish imkoniyati bor. Hayvonning bari oyog'igagina ishonadi, o'ziday boshqa bir hayvonni bo'ysundirarli holi yo'q. Odam o'z-o'ziga ishonmasa, odamni-da hayvon shekilli qilib yaratsa, hech narsaga yaramas edi. Hayvonga odamning aqlini bersa, buncha chevarlik, buncha darkorlik, bir-biriga ilm o'rgatishdagi buncha chechanlik, salohiyat bu tanaga to'g'ri kelmasdi. Qaysi ho'kizning shahar qurib, qurol yasab, necha turli asbob yasab, sipolik va chevarlikning uddasidan chiqarlik holi bor? Biroq odam bolasi suyukli bo'lmasa, bu ajoyib aqlni yanada ajoyib tarzda yasalgan tanaga kirgizib, buncha salohiyat egasi qilgani, hikmat bilan o'zga hayvonlarga sulton qilganligiga dalil emasmi? Agar dalil bo'lsa, odam bolasini ortiq ko'rib, Allohning o'zi uning g'amini avvaldan o'ylab yasaganiga-da dalil emasmi? Endi odam bolasining unga qulchilik qilishga qarzdor ekani ma'lum bo'lmadimi? — debdi.

1894

YIGIRMA SAKKIZINCHI SO'Z

Ey musulmonlar! Birov boy bo'lsa, birov kambag'al bo'lsa, birov sog' bo'lsa, birov ovruv bo'lsa, birov esli bo'lsa, birov esar bo'lsa, birovning ko'ngli yaxshilikka moyil, birovning ko'ngli yomonlikka moyil — birov bular nimaga shunaqa desa, sizlar: Xudo taolo shunday yaratgan yoki uning buyrug'i bilan bo'lgan ish, deb aytasizlar.

Xo'p, unday bo'lsa, biz Xudo taoloning aybi yo'q, mini[1] yo'q, o'zi odil deb iymon keltirgan edik. Endi Xudo taolo bir ont urganga[2] emgaksiz[3] mol beradi ekan. Bir Xudodan tilab halol emgak qilib, foyda izlagan kishining mehnatini yuzaga chiqarmay, xotin, bola-chaqasini eplab asrarlik ham qilmay, kambag'al qiladi ekan. Hech kimga zararsiz bir mo'minni kasal qilib, xo'r qiladi ekan. Ota-onasi ikki bolaning birini esli, birini esar qiladi ekan.

Yurtdagi barcha odamga buzuq bo'lma, tuzuk bo'l deb, yorliq chiqarib, yo'lga soladi ekan. Tuzukni jannatga chiqaraman deb, buzuqni do'zaxga tushiraman deb, ayta turib, bandasining birovini yaxshilikka moyil, birovini yomonlikka moyil qilib, o'zi Xudolik qudrati bilan birovini yaxshilikka burib, birovini yomonlikka burib yuborib turadi ekan. Shularning bari Xudo taoloning aybsiz, minsiz, g'afur va rahmdilligiga, odilligiga to'g'ri keladimi? Yurt ham, mulk ham — bari Xudoning o'ziniki. Bul qilganlariga nima deya olamiz? O'z mulkiga o'zi nima qilsa, qilaveradi.

Uni aybli bo'ladi deya olmaymiz desang, u so'zing Xudo taoloning aybi, mini yo'q emas, balki to'lib yotir, biroq aytishga botina olmaymiz, deganing emasmi? Unday bo'lsa, banda o'z tirishqoqligi bilan nima topadi? Qilguvchiga barini qildiruvchi o'zi ekan. Banda bandadan o'pkalaydigan hech narsa yo'q. Kim yaxshilik, kim yomonlik qilsa-da, Xudodan kelgan yorliqni qilib yurgan ekan, deymizmi?

Har bir aqli bor kishiga iymon farz, har bir iymoni bor kishiga ibodat farz ekan. Yana har bir rost ish aqldan qo'rqmasligi ke-

---

[1] **Min** — kamchilik, yetishmovchilik.

[2] **Ont urgan** — qasam urgan, qasamxo'r.

[3] **Emgaksiz** — mehnatsiz.

rak. Xo'p, biz aqlni o'z erkiga qo'ymasak, Xudo taoloning aqli bor kishiga iymon farz degani qayda qoladi? "Meni tanigan aql bilan tanir", degani qayda qoladi? Dinimizning bir yashirin turgan yolg'oni yo'q bo'lsa, aqlli, sen uni o'ylama, deganimizga banda ishonadimi? Aql to'xtamagandan[1] keyin, dinning o'zi nimadan bo'ladi? Avvali iymonni tuzatmay turib, qilgan ibodat ne bo'ladi? Yo'q, sen yaxshilig u yomonlikni yaratgan — Xudo, biroq ularni qildirgan Xudo emas, kasallikni yaratgan — Xudo, lekin og'ritgan Xudo emas, boylikni, qashshoqlikni yaratgan — Xudo, ammo boy qilgan, qashshoq qilgan Xudo emas, deb ishonib, uqsang bo'lar, bo'lmasa — yo'q.

1895

YIGIRMA TO'QQIZINCHI SO'Z

Qozoq maqollarining ishga tatirlilari ham bor, ishga tatimoq tugul na xudoychilikka, na odamchilikka yaraydiganlari ham bor.

Avvali "Yorli bo'lsang, orli bo'lma", deydi. Ordan ayrilgandan so'ng, tirik bo'lib yurgani qursin. Agar unisi yor uchun yurganingda joningni qiynab mol top, degan so'z bo'lsa, u — ordan ayriladigan ish emas. Tinch yurib, kuchini sotib, birovdan tilanmay, halol emgak bilan mol izlamoq — orli odamning ishi.

"Qalovini topsa, qor yonadi", "So'rovini topsa, odam bolasining bermaydigani yo'q", deganlari — eng borib turgan Xudo urgan so'zlar. So'rovini topaman, qalovini topaman, deb yurib, xo'rlik bilan umr o'tkazgancha, molni yo yerdan so'rash kerak, yo oqqan terdan so'rash kerak.

"Oting chiqmasa, yerni yondir" deydi. Yerni yondirib chiqargan otingning nimasi murod? "Yuz kun atan (bichilgan tuya) bo'lguncha, bir kun bura (bichilmagan tuya) bo'l", deydi. Tangrining oldida gunohkor bo'lib, itday charchab, burnidan tortsa, yiqilguday bo'lib, tilanchilik bilan bir kun qilingan buralik nimaga arziydi?

"Oltin ko'rsa, farishtayam yo'ldan toyadi", deydi. Farishtaning sadag'asi ketkur-ey! Farishta oltinni nima qiladi? Bu maqolni o'zining ko'rsaqo'par shumligini oqlash uchun aytgan.

[1] **To'xtamoq** — tekshirmoq, anglamoq, tahlil qilmoq.

"Ota-onadan mol totli, oltinli uydan jon totli", deydi. Ota-onasidan mol totli ko'rinadigan ont urganning totli derlik nima joni bor? Bularning baridan-da qimmat ota-onasini molga sotmoq eng orsiz kimsaning ishi emasmi? Ota-ona, chamasi kelsa, mehnat qilib mol yig'sa ham, dunyolik yig'sa ham ortimda bolalarimga qolsin deydi. Shu ota-onani molga sotmoq Xudoga dushmanlik ish emasmi?

Shunga o'xshash bilmaslik bilan aytilgan so'zlarga ko'p ehtiyot bo'lish kerak.

1895

O'TTIZINCHI SO'Z

Qirqini minsa, qirdan osholmaydigan shu bir "g'irt maqtanish" degan maqtanish bor, shu nimaga kerak, nimaga yaraydi o'zi? Ul or, esni bilmaydi, nomusni bilmaydi, keng dunyoqarash, ulkan o'y yo'q; yo polvonligi, yo botirligi yo'q, yo odamligi yo'q, yo orliligi, aqlliligi yo'q.

O'zicha ko'tarmalanib: "Voy, Tangrim-ey, qo'ysang-chi buni, kim kimdan ortiq deysan, kimning boshi kimning qanjig'asida[1] yuribdi ekan, u mening qozonimga tuz solibdimi, yo men uning sovlig'ini sog'ib o'tiribmanmi?" deb tengsalib[2] olib yoki: "Ayaganim jonimmi? Voy enasini urayin, o'lib ketmay nima bo'pti? Nari borsa otilib, yo shu uchun haydalib ketsam-da ko'nganim bo'lsin! Haytovur, bir boshga bir o'lim bor-ku!" deb hovliqadigan kishi ko'p.

O'zlaring ko'rib yuribsizlar, shu aytgan so'zlarining ustidan chiqadigan biror qozoqni ko'rdilaringmi? Men o'limga chidaydigan qozoqni ko'rganim yo'q, o'limga chidamayman deydigan qozoqni ham ko'rganim yo'q, kekirdagiga qo'lini arra qilib: "Boshim kesilsin", deb yotgani-yotgan. Agar shu so'zining ustidan chiqadigan kishi ko'rinsa, aqli yo'q bo'lsa ham, g'ayrati bilanoq kishini qoyil qiladigan odam bo'lgani shu! Agar chin xatarni ko'rganda, kirarga teshik topolmaydigan maqtanchoq, yurtni shu so'zim bilan cho'chitaman, "Ey, manovi kofirdan qo'rqqiliq ekan", degizib

[1] **Qanjig'a** — egarning orqa tomoniga bog'langan ip moslama.*(tarjimon)*

[2] **Tengsalib** — o'zini u yon-bu yonga tashlash.

cho'chitayin , deb aytib o'tirgan quruq vahimachi bo'lsa, uni nima deymiz?

Ey, Xudo-ey! Jonga xo'jayinlik qiladigan er shunchakiyoq shartga amal qiladigan, molga joni achimaydigan, dunyoni bir tiyinga olmaydigan jo'mardligi singari biror belgisi bo'lmasmidi?

"Uyalmas betga tolmas jag' beradi" debdi, ko'p javraydigan orsiz, uyatsizlardan yana biri.

1895

O'TTIZ BIRINCHI SO'Z

Eshitgan narsani unutmaslikning to'rt turli sababi bor:

avvali — ko'ngil eslab qolishga moyil, boshqa narsalarga berk bo'lmog'i kerak;

ikkinchi — eshitgan yoki ko'rgan narsadan ibratlanish kerak, ta'sirlanib, tushunib, ixlos bilan uqib olish kerak;

uchinchi — shu narsani ichida bir qancha vaqt qaytarib, o'ylanib, ko'ngilga joylash kerak;

to'rtinchi — kishining o'yi yaramas narsalardan qochiq, uzoq bo'lishi kerak. Agar vaqti kelib qolsa, astoydil bo'lishi kerak.

O'yga zarar keltiruvchi illatlar: beparvolik, ko'ngilsizlik, o'yin-kulgiga o'chlik yo qayg'uga beriluvchanlik, yo biror narsaga xumor bo'lib qolish shekillilardir. Shu to'rt narsa butun aql bilan ilmni to'zdiradigan narsalardir.

1895

O'TTIZ IKKINCHI SO'Z

Ilm-bilim talab qiluvchilar avvali bilmoqlari kerakki, talabning o'zining bir qator shartlari bor. Ularni bilmoq kerak, bilmay izlagan bilan topilmas.

Avvali — ilm-bilim topilsa, unday-bunday ishga sarflar edim, dunyoning bir qiziqarli narsasiga kerak bo'lar edi deb izlash kerak. Buning uchun ilm-bilimning o'zigagina xumor, intiq bo'lib, birgina bilmoqlikning o'zini foyda bilsang, har bilmaganingni bilgan vaqtda ko'ngilda bir rohat, huzur hosil bo'ladi. O'sha rohat bilganingni

"Ota-onadan mol totli, oltinli uydan jon totli", deydi. Ota-onasidan mol totli ko'rinadigan ont urganning totli derlik nima joni bor? Bularning baridan-da qimmat ota-onasini molga sotmoq eng orsiz kimsaning ishi emasmi? Ota-ona, chamasi kelsa, mehnat qilib mol yig'sa ham, dunyolik yig'sa ham ortimda bolalarimga qolsin deydi. Shu ota-onani molga sotmoq Xudoga dushmanlik ish emasmi?

Shunga o'xshash bilmaslik bilan aytilgan so'zlarga ko'p ehtiyot bo'lish kerak.

1895

O'TTIZINCHI SO'Z

Qirqini minsa, qirdan osholmaydigan shu bir "g'irt maqtanish" degan maqtanish bor, shu nimaga kerak, nimaga yaraydi o'zi? Ul or, esni bilmaydi, nomusni bilmaydi, keng dunyoqarash, ulkan o'y yo'q; yo polvonligi, yo botirligi yo'q, yo odamligi yo'q, yo orliligi, aqlliligi yo'q.

O'zicha ko'tarmalanib: "Voy, Tangrim-ey, qo'ysang-chi buni, kim kimdan ortiq deysan, kimning boshi kimning qanjig'asida[1] yuribdi ekan, u mening qozonimga tuz solibdimi, yo men uning sovlig'ini sog'ib o'tiribmanmi?" deb tengsalib[2] olib yoki: "Ayaganim jonimmi? Voy enasini urayin, o'lib ketmay nima bo'pti? Nari borsa otilib, yo shu uchun haydalib ketsam-da ko'nganim bo'lsin! Haytovur, bir boshga bir o'lim bor-ku!" deb hovliqadigan kishi ko'p.

O'zlaring ko'rib yuribsizlar, shu aytgan so'zlarining ustidan chiqadigan biror qozoqni ko'rdilaringmi? Men o'limga chidaydigan qozoqni ko'rganim yo'q, o'limga chidamayman deydigan qozoqni ham ko'rganim yo'q, kekirdagiga qo'lini arra qilib: "Boshim kesilsin", deb yotgani-yotgan. Agar shu so'zining ustidan chiqadigan kishi ko'rinsa, aqli yo'q bo'lsa ham, g'ayrati bilanoq kishini qoyil qiladigan odam bo'lgani shu! Agar chin xatarni ko'rganda, kirarga teshik topolmaydigan maqtanchoq, yurtni shu so'zim bilan cho'chitaman, "Ey, manovi kofirdan qo'rqqiliq ekan", degizib

[1] **Qanjig'a** — egarning orqa tomoniga bog'langan ip moslama.*(tarjimon)*

[2] **Tengsalib** — o'zini u yon-bu yonga tashlash.

cho'chitayin , deb aytib o'tirgan quruq vahimachi bo'lsa, uni nima deymiz?

Ey, Xudo-ey! Jonga xo'jayinlik qiladigan er shunchakiyoq shartga amal qiladigan, molga joni achimaydigan, dunyoni bir tiyinga olmaydigan jo'mardligi singari biror belgisi bo'lmasmidi?

"Uyalmas betga tolmas jag' beradi" debdi, ko'p javraydigan orsiz, uyatsizlardan yana biri.

1895

O'TTIZ BIRINCHI SO'Z

Eshitgan narsani unutmaslikning to'rt turli sababi bor:

avvali — ko'ngil eslab qolishga moyil, boshqa narsalarga berk bo'lmog'i kerak;

ikkinchi — eshitgan yoki ko'rgan narsadan ibratlanish kerak, ta'sirlanib, tushunib, ixlos bilan uqib olish kerak;

uchinchi — shu narsani ichida bir qancha vaqt qaytarib, o'ylanib, ko'ngilga joylash kerak;

to'rtinchi — kishining o'yi yaramas narsalardan qochiq, uzoq bo'lishi kerak. Agar vaqti kelib qolsa, astoydil bo'lishi kerak.

O'yga zarar keltiruvchi illatlar: beparvolik, ko'ngilsizlik, o'yin-kulgiga o'chlik yo qayg'uga beriluvchanlik, yo biror narsaga xumor bo'lib qolish shekillilardir. Shu to'rt narsa butun aql bilan ilmni to'zdiradigan narsalardir.

1895

O'TTIZ IKKINCHI SO'Z

Ilm-bilim talab qiluvchilar avvali bilmoqlari kerakki, talabning o'zining bir qator shartlari bor. Ularni bilmoq kerak, bilmay izlagan bilan topilmas.

Avvali — ilm-bilim topilsa, unday-bunday ishga sarflar edim, dunyoning bir qiziqarli narsasiga kerak bo'lar edi deb izlash kerak. Buning uchun ilm-bilimning o'zigagina xumor, intiq bo'lib, birgina bilmoqlikning o'zini foyda bilsang, har bilmaganingni bilgan vaqtda ko'ngilda bir rohat, huzur hosil bo'ladi. O'sha rohat bilganingni

mahkam ushlab, bilmaganingni tag'i-da shunday bilsam ekan deb umidlangan xumor, muhabbat paydo bo'ladi. Shunda har bir eshitganingni, ko'rganingni ko'ngling yaxshi uqib, aniq o'z surati bilan ichga joylashtirib oladi.

Agar ko'ngling butunlay o'zga narsada bo'lsa, ilm-bilimni o'shanga sababgina qilmoq uchun o'rgansang, unday bilimga ko'nglingning mehri o'gay onaning o'gay bolaga mehri shekilli bo'ladi. Odamning ko'ngli chin mehrlansa, ilm-bilimning o'zi-da odamga mehrlanib, tezroq o'zlashadi. Chala mehr chala payqaydi.

Ikkinchi — bilimni o'rganganda toza maqsad bilan bilmoq uchun o'rganish kerak. Bahs uchun o'rganma, ozroq bahs-ku ko'ngilni pishiqtirmoq uchun zarar emas, ammo u ko'payib ketsa, odamni tuzamak tugul buzadi. Buning sababi har bir bahschi odam haqni yuzaga chiqarish uchun emas, yengish uchun bahs qiladi. Unday bahs hasadni zo'raytiradi, odamchilikni zo'raytmaydi, balki, ozaytadi. Uning maqsadi ilmdagi maqsad bo'lmaydi, odam bolasini chalkashtirib, yolg'on so'zga yengdirmoqchi bo'ladi. Bunday xayol o'zi ham buzuqlarda bo'ladi. Yuzta to'g'ri yo'ldagilarni adashtiruvchi kishi bir qiyshiq yo'ldagini tuzatgan kishiga sadag'a bo'laversin! Bahs — o'zi ilmning bir yo'li, biroq unga xirslanish yaramaydi. Agar bahsga xirslansa, o'zbilamronlik, maqtanchoqlik, o'jarlik uni yengsa, unday odam boshiga xo'rlik keltiradigan o'tirik-dan-da, o'shakdan-da, urish-tepalashdan-da qochib qutulmaydi.

Uchinchi — har bir haqiqatga tirishib, ijtihoding bilan ko'zing yetsa, shuni tut, o'lsang-da ayrilma! Agarda unday bilganliging o'zingni yenga olmasa, kimga qimmatli bo'ladi? O'zing hurmatlamagan narsaga boshqalardan qanday qilib hurmat kutasan?

To'rtinchi — odamning ichida ilm-bilimni ko'paytishning ikki yo'li bor: biri — mulohaza qilish, ikkinchisi — muhofaza qilish, bilganni saqlash. Bu ikkovi quvvatni zo'raytishga xizmat qiladi. Bular zo'raymay, ilm zo'raymaydi.

Beshinchi — ushbu qoraso'zning o'n to'qqizinchi bobida yozilgan aql kasali degan to'rt narsa bor. Shulardan qochiq bo'lish kerak. Ularning ichida loqaydlik, parvosizlik degan bir narsa bor, zinhor, jonim, shunga o'ta soq (hushyor) bo'l, aksincha, u avvali — Xudoning, ikkinchi — xalqning, uchinchi — davlatning, to'rtin-

chi — ibratning, beshinchi — aqlning, orning — barining dushmani. U bor joyda bular bo'lmaydi.

Oltinchi — bilimni, aqlni saqlaydigan minaz degan sovuti bo'ladi. Shu minaz buzilmasin! Ko'rsaqo'parlik bilan, yengillik bilan yo birovning o'rinsiz so'ziga, yo bir kez kelib qolgan qiziqishga bo'la chalg'ib qola bersang, minazning butunligi buziladi. Undan so'ng o'qib-o'rganishdan foyda yo'q. Qo'yadigan o'rni yo'q bo'lgandan keyin ularni qayerda saqlaysan? Qilaman deganing qilarlik, turaman deganda turarlik minazda ozmaydigan aqlni, orni saqlarlik irodasi, g'ayrati bor bo'lsin! Bu iroda birgina aql, or uchun bo'lsin!

1895

O'TTIZ UCHINCHI SO'Z

Agarda boylik kerak bo'lsa, qo'ling hunarli bo'lishi kerak. Boylik yitadi, qo'lning hunari hech qachon yitmaydi. Aldov qo'shmay, halol emgagini sotgan hunarli odam — qozoqning avliyosi shu. Biroq Xudo taolo qo'liga oz-moz hunar bergan qozoqlarning bir qancha illati bo'ladi.

Avvali — bu ishimni u ishimdan oshirayin deb, ko'p ishkorlarni[1] izlab yurib, ko'rib, biroz ishlagan bo'lib, hunar orttirayin deb, to'g'ri hunar izlamaydi. Qo'lidagi o'sha oz-moziga maqtanib, shuyam bizga bo'ladi deb, qozoqning doimgi talabsizligiga borib, yotib oladi.

Ikkinchi — hunarni erinmay izlay berish kerak. Bir-ikki qora topsa, boylikka bo'kib qolgan kishisinib, "menda boylik yo'qmi?" deganday qilib, erinchaklik, loqaydlik, kerbazlikka tushadi.

Uchinchi — "qo'li ochiq boysan, hunarlisan, chirog'im", hay endi "og'ajonim, sendan biror narsa ketarmidi, shugina ishimni qilib ber!" deganlarida "Men ham birovlarni yalintiradigan darajaga yetgan ekanman" deb, maqtanib ketib, foydasiz aldovga, quv tilga aldanib, o'zining vaqtini o'tkazadi. Yana anoviga dunyoning qizig'i aldashni bilganda degizib, qora ko'nglinida havolantirib ketadi.

---

[1] **Ishkor** — ish biladigan.

To‘rtinchi — tomirchil, urug‘chil[1] keladi. Boyagi aldamchi shayton tomirimiz bir deb, bir bo‘limsiz narsani bergan bo‘lib, ortidan unday qilaman, bunday qilaman, boylikka g‘arq qilaman deganiga maz bo‘lib, tomirim, do‘stim desa, men ham kerakli odamlarning biri bo‘p qolibman-ku deb va yoshligidan ish qilib uydan chiqmaganligiga borib, jon-jahdi bilan tirishib, aldayotganlarini bilmay, darrov uning yetmaganini yetkazaman deb, sira yetmaydigan bo‘lsa, o‘zidan qo‘shib, qilib ber deganining barini qilib berib, kuni o‘tib, ish qilar vaqtidan ayrilib, “yuqori chiq” degan mulozimatga g‘arq bo‘lib, yemak, kiyim, ish haqi esidan chiqib ketib, endi bular kerak bo‘lgan kunda, birovning molini qimmatga qarzga oladi.

Uni qilib berayin, buni qilib berayin deb, shu bilan ishi o‘ngmay, qarzi ko‘payib, janjalga aylanib, odamchilikdan ayrilib, xor bo‘lib ketadi. Bu nimasi endi? Qozoqning bolasining o‘zi aldagich bo‘la turib, yana o‘zi birovga aldangich bo‘lganiga nima deyish mumkin?

1895

O‘TTIZ TO‘RTINCHI SO‘Z

Yurtning bari biladi: o‘lishini va o‘lim faqat qartayganda kelmasligini, bir olganni qo‘yib yubormasligini. Qozoq, iloji yo‘qligidan, shunga inonadi, ammo o‘z o‘yiga, aqliga tekshirtirib, astoydil inonmaydi.

Va hammani yaratgan Xudo bor, oxiratda so‘roq qiladi, yomonlikni yozg‘iradi, yaxshilikni yorlaqaydi, yozg‘irig‘i-da, yorlaqashi-da bandalar ishiga o‘xshamaydi, shubhasiz, hisobsiz qiynoqlari bor, shaksiz hisobsiz siylashlari bor deb — bariga ishondik deydi. Yo‘q, bunisiga men ishonmayman. Ular ishondim desa-da, aniq ishongan kishiga vahimali o‘ylar nima kerak? Shu ikkoviga loyiq yaxshilikni ular o‘zlarida izlab topaveradi. Shu ikkoviga bular chala ishonib o‘tirsa, endi yana nimaga ishontira olamiz? Uni qanday qilib tuzata olamiz? Ularni qanday qilib musulmon deb, iymoni bor deb aytamiz?

---

[1] **Tomirchil, urug‘chil** — qarindoshlarga, urug‘doshlarga qayishadigan odam.

Kimda kim oxiratda ham, bu dunyoda ham xor bo'lmayin desa, bilmog'i kerak: hech bir odamning ko'nglida ikki quvonch birday bo'lmaydi, ikki intiq xumorlik birday bo'lmaydi, ikki qo'rqish, ikki qayg'u — birday bo'lmaydi. Bunday ikki narsani birday bo'ladi deb aytish mumkin emas. Unday bo'lganda, qay odamning ko'nglida dunyo qayg'usi, dunyo quvonchi oxirat qayg'usidan, oxirat quvonchidan ortiq bo'lsa, musulmon emas. Endi o'ylab qaray ber, bizning qozoq ham musulmon ekan!

Agar biri oxiratga kerakli, biri shu dunyoda kerakli ikki narsa duch kelsa, birini olsa, ikkinchisi tegmaydigan bo'lsa, shunda birov oxiratga keraklisini olmay, ikkinchi marta duch kelganda olarman deb, yo'q, agar ikkinchi marta duch kelmasa, bag'ri keng Xudo o'zi kengchilik bilan kechiradi, mana hozir duch keb turganini qo'ldan chiqarib bo'lmas deb, dunyoga keraklisini olsa, endi u kishi oxiratini dunyoga sotganim yo'q deb jonini bersa, unga ishonib bo'ladimi?

Odam bolasiga odam bolasining bari do'st. Nima uchun desang, dunyoda yurganda tug'ilishing, o'sishing, to'yishing, ochiqishing, qayg'ung, qazong, tana bichiming, chiqqan joying, boradigan joying — bari birday, oxirtaga qaray olishing, go'rga kirishing, chirishing, go'rdan mahsharda so'roqqa tutilishing — bari birday ikki dunyoning qayg'usi, balolaridan xavfing, ikki dunyoning yaxshiligidan rohating — bari birday ekan. Besh kunlik umring bormi, yo'qmi? Biringga biring qo'noq ekansan, o'zing dunyoga qo'noq ekansan, birovning bilganligiga bilmasligini talashtirib, birovning moliga, bog'iga da'vo qilib yo ko'rsaqo'parlik qilib, ko'z olaytirish odamga munosibmi?

Tilovni Xudodan tilamay, bandadan tilab, ishimni O'zing o'ngla demay, falonchanikini olib ber demak — bu Xudoga aytar so'zmi? Xudo berishi uchun birovga jabr qilishning nima hojati bor? Ikki og'iz so'zning boshini qo'sharga na aqli, na bilimi bor bo'la turib, o'zimnikini o'zdiraman deb, quruq "O'y, Tangrim-ov!", deb talasha bergani nimasi? Uning nimasi odam?

1896

O'TTIZ BESHINCHI SO'Z

Mahshar kuni Xudo taolo hoji, mulla, so'fi, jo'mard, shahidlarni qator qo'yib so'roq qiladi deyishadi. Dunyoda izzat uchun, siy[1]-hurmat olish uchun hoji bo'lganni, mulla bo'lganni, so'fi bo'lganni, jo'mard bo'lganni, shahid bo'lganni bir bo'lak qo'yadi deyishadi. Oxiratga bo'la[2], birgina Xudo taoloning roziligini topmoq uchun bo'lganlarni bir bo'lak qo'yadi deyishadi.

Dunyo uchun bo'lganlarga aytadi deyishadi: "Senlar dunyoda hojiaka, mullaka, so'faka, mirzaka, botiraka atalmoq uchun ish ko'rsatib edinglar, u dunyolaring bunda yo'q. Senlarning u shirin dunyolaring xarob bo'lgan, shu bilan qilgan hunarlaring-da bitdi. Endi bunda hurmat olmoq tugul, so'roq beringlar! Mol berdim, umr berdim, nima uchun shu mollaringning, umrlaringning betiga oxiratni tutib, yurtni aldash uchun sarf qildinglar?" deb.

Anovi chin niyat bilan o'rnini topib, yolg'iz Xudoning roziligi uchun hunar qilganlarga aytadi deydi: "Senlar birgina mening roziligimni izlab mollaringni, umrlaringni sarf qilgan edinglar, men rozi bo'ldim. Sizlarga yarasha hurmatli joyim bor, tayyor, kiringlar! Ham o'sha roziliklaringdan boshqa shu mahshar ichida, sizlar qilgan ishlaringizni o'zi qilmasa-da, ichi erib, intiq bo'lgan do'stlaring topilsa, ularni-da shafoat qilinglar!" deb aytar ekan.

1896

O'TTIZ OLTINCHI SO'Z

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning hadisi shariflarida aytilibdi: "Man lo hayoun falo iymonun lahu" deb, ya'ni uyati yo'qning iymoni yo'q degan. Bizning qozoqning o'zining-da: "Uyat kimda bo'lsa, iymon shunda" degan maqoli bor. Endi bu so'zdan bilindi: uyat o'zi iymonning bir muchasi ekan. Shunday bo'ladigan bo'lsa, bilmak kerak, uyat o'zi qanday narsa?

Bir uyat bor — nodonlikning uyati, yosh bola so'z aytishdan uyalgani kabi yaxshi odamning oldida hech qanday yoziqsizoq,

[1] **Siy** — siylov, ehtirom.

[2] **Bo'la** — uchun.

shunchaki borib yo'liqishdan uyalgan shekilli. Na shariatga ters, na aqlga ters yozig'i yo'q bo'lsa-da, nodonlikdan bo'yini ko'rsatmay, tortinchoqlik qilib, uyalmas narsadan uyalgan bunday uyat chin uyalish emas — ahmoqlik, yomonlik.

Chin uyat shunday narsa, u shariatga ters, yo aqlga ters, yo odamning obro'siga ters bir ish sababli bo'ladi. Bunday uyat ikki turli bo'ladi. Birovi — unday qiliq o'zidan chiqmay, bo'tan bir odamdan chiqqanini ko'rganda, sen uyalib ketasan. Buning sababi shu uyat ishni qilgan odamni ayaganlikdan bo'ladi. "Yo, pirim-ey, manovi boyoqishga nima bo'ladi, endi buning o'zi ne bo'ladi?" deganday, bir narsa ichdan rahm shekilli bo'lib kelib, o'zingni qisib, qizartirib ketadi.

Birovi — shunday uyat, u shariatga ters, yo aqlga, yo odamning obro'siga ters, yo odamchilikka yarashmaydigan yaramas qiliq, xatodan yoki nafsiga ergashib, g'ofillikdan, o'zingdan chiqqanlikdan bo'ladi. Bunday uyat qiliq qilganligingni bo'tan kishi bilmasa-da, o'z aqling, o'z insofing o'zingni so'kkandan so'ng, ichdan uyat kelib, o'zingga jazo torttiradi. Kirib ketarga yer topa olmay, kishi betiga qaray olmay, bir turli holatga tushasan. Bunday uyati kuchli odamlarning uyqudan, tomoqdan qoladiganlari ham bor, hatto, o'zini o'ldiradigan kishilar ham bo'ladi.

Uyat degani — odamning o'z holicha odamchiligi, itligini o'z ichidan bo'yniga qo'yib, so'kish qilgan ruhiy qudratning oti. Bunday vaqtda tilga so'z ham kelmaydi, ko'ngilga o'y ham kelmaydi. Ko'zingning yoshini, burnigning suvini surtib olishga-da qo'ling tegmaydi, bir it bo'lasan. Ko'zing kishining betiga qarash tugul, hech narsani ko'rmaydi. Bunday holga yetib uyalgan odamni kechirmagan, undan o'pkalagan yoki ustiga tag'in ayamay o'rtandirib so'z aytgan kishining o'zining-da odamchiligi yo'q desa bo'ladi.

Shu kunlarda mening ko'rgan kishilarim uyalmoq tugul, hatto qizarmaydi ham. "O'sha ishdan men uyatli bo'ldim dedim-ku, endi nimang bor?" deydi. Yo bo'lmasa: "Bo'ldi-bo'ldi, o'sha ish uchun menoq uyatli bo'layin, sen o'zing-da shunday qilmaganmiding?" deydi. Yoki: "Falon qilgan, tugun qilgan falonchi ham, tugunchi ham tirik yuribdi-ku, meninki ularnikining oldida nima degan so'z falonday, tugunday manisi bor emasmidi?" deb, uyaltiraman de-

sang, bemalol o'tirib, janjal chiqaradi. O'shani uyalgan kishi deymizmi, uyalmagan kishi deymizmi? Uyalgan kishi desak, hadis anovi, yaxshilardan qolgan so'zi anovi. Shunday odamning iymoni bor deymizmi, yo'q deymizmi?

1896

O'TTIZ YETTINCHI SO'Z

1. Odamning odamchiligi ishni qanday boshlaganidan bilinadi, qanday bitirgani bilan emas.

2. Ko'ngildagi ko'rkli o'yning og'izdan chiqqanda rangi qochadi.

3. O'zbilarmon nodonga aytilgan hikmatdan ko'ngil ham uyg'onganday, ham o'chganday bo'ladi.

4. Kishining bilimiga qarab bo'lislik qil, beta'sirga qilingan bo'lislik odamni buzadi.

5. Otasining bolasi — odamning dushmani. Chin odamning bolasi — bovuring.

6. Orli ko'p so'rasa-da, ozga rozi bo'lar, Orsiz oz so'rar, ko'p bersang-da rozi bo'lmas.

7. O'zing uchun mehnat qilsang, o'zi uchun o'tlagan hayvonning biri bo'lasan, odamlikning qarzini to'lash uchun mehnat qilsang, Allohning suygan qulining biri bo'lasan.

8. Suqrotga og'u ichkizgan, Janna d'Arkni o'tda yondirgan, G'aysani dorga torgan, payg'ambarimizni tuyaning yemtigiga[1] ko'mgan kim? U — ko'p, bilging kelsa bil: ko'pda aql yo'q. Epini top-da, yo'lga sol.

9. Odam bolasini zamon o'stiradi, kimda-kim yomon bo'lsa, uning zamondoshlarining bari vinovat.

10. Men agar zakon[2] kuchi qo'lida bor kishi bo'lsam, odam minazin tuzatib bo'lmaydi, degan kishining tilini kesar edim.

11. Dunyoda odamning yolg'iz qolgani — uning o'lgani. Xafachilikning bari shuning boshida. Dunyoda yomon ko'p, biroq unda qiziq ham, ermak ham ko'p-da. Buning boshlanishiga kim chidaydi? So'ngiga kim qiynalmaydi?

---

[1] **Yemtik** — qolgan-qutgan, bulg'anch yemish.

[2] **Zakon** — qonun.

12. Yomonlikni kim ko'rmagan? Umidni uzmoq — g'ayratsizlik. Dunyoda hech narsada turg'unlik, tuturiq yo'q ekani rost, yomonlikda qayerdan doimiylik bo'ladi deb o'ylaysan? Qori qalin qattiq qishning ortidan ko'ki mo'l yaxshi yoz kelguchi emasmi?

13. G'azabli odamning so'zi oz bo'lsa, nafrat quvvati yashirin bo'lgani.

14. Quvonch bilan baxt — mastlikning ulkani, mingdan bir kishiyoq, k...ni ochmaydigan aqlliligicha qoladi.

15. Agar ishim unsin desang, paytin top.

16. Ulkan mansab — ulkan qoya: erinmay sudralib ilon ham chiqadi, shamolday uchib qiron ham chiqadi. Bo'linmas el yetmay maqtaydi, Yelo'pka (hovliqma)lar chin deb o'ylaydi.

17. Dunyo — ulkan ko'l, zamon — esgan yel. Oldingi to'lqin — og'alar, ortqi to'lqin — inilar. Navbat bilan o'linar, boyagiday ko'rinar.

18. Omad bilan erishgan podshodan miya bilan erishgan qoralamon ortiq; Soqolin sotgan qaridan, mehnatini sotgan bola ortiq.

19. To'q tilanchi — odam shaytoni, harakatsiz so'fiy — mo'ltoni.

20. Yomon do'st — ko'lanka: boshingga kun tug'sa, qochib qutilolmaysan, boshingga bulut kelsa, izlab topolmaysan.

21. Do'sti yo'q bilan sirlash, do'sti ko'p bilan siylash. Qayg'usizdan soq bo'l, qayg'uliga yaqin bo'l.

22. G'ayratsiz g'azab — tul, tuturiqsiz oshiq — tul, shogirdsiz olim — tul.

23. Bog'ing o'sguncha tilovingni el ham tilaydi, o'zing ham tilaysan, bog'ing o'sgandan so'ng — o'zinggina tilaysan.

1896

O'TTIZ SAKKIZINCHI SO'Z

Ey, yuragimning quvvati bo'lgan farzandlarim! Sizlarga odam o'g'lining minazlari to'g'risida biroz so'z yozib yodgor qoldirayin. Ixlos bilan o'qib, uqib olingizlar, shuning uchunki, muhabbatning to'lovi — muhabbat. Avvali odamning odamligi aql, ilm degan narsalar bilan. Bularning topilmoqligiga sabablar: avvali salim havas

ham tan sog'lig'i. Bular tug'ilishingdan sen bilan bo'ladi, qolmish o'zgalarining bari yaxshi ota, yaxshi ona, yaxshi qurdosh, yaxshi ustozdan bo'ladi. Talab, uqish muhabbatdan chiqadi. Ilm-bilimga muhabbatlantirmoq hali aytilgan uchovidan bo'ladi.

Ilm-bilimni bola avval boshdan o'zi izlab topmaydi. Boshida zo'rliq bilan yoki aldov bilan bilimga uyir qilish — qiziqtirish kerak, to o'rganib qolib o'zi izlaydigan bo'lguncha. Qachonki bir bola ilm, bilimni muhabbat bilan qo'msaydigan bo'lsa, shundagina uning oti odam bo'ladi. Shundan so'nggina Alloh taoloni tanitmoqlik, o'zini tanitmoqlik, dunyoni tanitmoqlik, o'z odamligini buzmaygina manfaatga erishish va zararni daf qilishni ayirmoqlikka o'xshash ilm-bilimlarni o'rgansa, bilar deb umid qilish mumkin bo'ladi. Bo'lmasa, yo'q, eng bo'lmasa chala. Shuning uchun ko'pincha bolalarni yoshligida ota-onalari xiyonatga o'rgatib oladi, so'ng mullaga bergan bo'ladi, yo bolalarning o'zlari borgan bo'ladi — hech biridan foyda bo'lmaydi.

Bu xiyonatchi bolalar talabga-da, bilimga-da, ustozga-da, hatto, iymon-e'tiqodga-da xiyonat bilan qaraydi. Bu xiyonatchilar — yarim odam, yarim mulla, yarim musulmon. Ularning odamligining kamolot topmoqligi — qiyinlarning qiyini. Sababi Alloh taoloning o'zi — haqiqat, rostlikning yo'li. Xiyonat — haqiqat bilan rostlikning dushmani. Dushmani orqali chaqirtganga do'st keladimi? Ko'nglida o'zga muhabbat turgan odam haqni topmaydi. Odamning ilmi, bilimi haqiqatga, rostlikka xumor bo'lib, har narsaning asli, hikmatini bilmoqqa intilish bilan topiladi. U — Allohning ilmi emas, hammaning biladigan ilmiga intiqlik, odamga o'ziga yarasha ilm beradi.

To'la bilim uchun Allohning o'ziga oshiqlik bo'lishi kerak. Ilm — Allohning bir sifati, u — haqiqat, unga oshiqlikning o'ziyoq haqlik ham odamlikdur. Mol topmoq, g'urur topmoq, izzat-hurmat topmoq shekilli narsalarning muhabbati bilan ilm-bilimning haqiqati topilmaydi.

Odamni mol, g'urur, izzat-hurmatning o'zlari izlab topsa, odamlikni buzmaydi ham unga ko'rk bo'ladi. Agarda odamning o'zi ularga topinib izlasa, topsa-da, topmasa-da, odamligi yo'qoladi. Endi haqiqatni suyib, chinni bilmoq istaging bor bo'lsa, odam-

likka yarasha ixlosni qulog'ingga quy. Avvali dini islom yo'lidagi bandalar iymonning haqiqati nima ekanini bilsin. Iymon deganimiz birgina inonmoqlik emas, sen Alloh taoloning birligiga va Qur'onning uning so'zi ekaniga, va payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vassalam uning tarafidan yuborilgan elchi ekaniga inonding. Shu yetarlimi? Sen Alloh taologa Alloh taolo uchun iymon keltirasanmi yo o'zing uchun iymon keltirasanmi? Sen iymon keltirmasang-da Alloh taologa hech bir kamchilik yo'q edi. O'zing uchun iymon keltirding va inonding. U inonmoqliging quruq inonmoqlik bilan qolsa, senga foyda bermaydi. Chunki sen o'zing inonmoqligindan foyda ola bilmading, foydalanaman desang, foyda beradi, komil iymon bo'lsa. Foydani qanday olishni bilmoq kerak.

Sen "Amantu billahi kama huva biasmoihi va sifatihi"[1] deding. Bu ismlarning hammasi Alloh taoloning fe'li azimlarining otlari, ularning ma'nosini bil ham sakkiz zot sifatlari nima degani ekanini komil o'rgan. O'zingni uning quli bilib, o'zingga muslim ot qo'yib, taslim bo'lganingga rozi bo'lasan. O'z fe'llaringni o'z holingga yarasha shunga o'xshatishni shart qil. Alloh taologa o'xshar olarmidim deb, nodonlik bilan ul so'zdan jirkanma, o'xshamak tus birdaylik da'vosi bilan emas, Uning ortida bo'lmoqdir. Buning uchun Alloh taoloning sifatlari: Hayot, Ilm, Qudrat, Basir, Sami', Iroda, Kalom, Takvin ekanini bil. Bu sakkizidan Alloh taoloday kamolot-azamat birlan bo'lmasa-da, bandasiga-da har biridan o'z holicha bor qilib yaratibdi.

Xo'sh, biz o'zimizning qalbimizdagi sakkiz zarra otdosh sifatlarni Alloh taoloning sakkiz ulug' sifatidan bosh burgizib, o'zga yo'lga solmoq bilan bizning otimiz muslim bo'la oladimi? Bo'lmasa kerak. Bo'pti, u sakkiz sifatiga sifatlarimizni ham ul otlari bilan anglatilgan Xudoning fe'llariga fe'limizni ergashtirmoq qanday amalga oshiriladi, buni bilmak kerak. U Alloh taoloning zoti hech bir sifatga muhtoj emas, bizning aqlimiz muhtoj, yuqorida yozilmish sifatlar bilan ta'riflab uni tanimoq kerak. Agarda u sifatlar bilan ta'riflamasak, bizga ma'rifatullah qiyin bo'ladi. Biz Alloh

[1] Amantu billahi kama huva biasmaihi va sifatihi — Allohga, uning ismlari va sifatlariga imon keltiraman.

taoloni o'zining bilingani qadar bilamiz, tugal bilish mumkin emas. Zoti tugul hikmatiga ham hakim aqil yetishtira olmaydi. Alloh taolo — o'lchovsiz, bizning aqlimiz — o'lchovli. O'lchovli bilan o'lchovsizni bilib bo'lmaydi. Biz Alloh taolo "bir" deymiz, "bor" deymiz, u "bir" demaklikda — aqlimizga uqishning bir tayanchi uchun aytilgan so'z. Bo'lmasa, shu "bir" demaklik ham Alloh taologa munosib kelmaydi. Shuning uchunki, mumkinotning ichida nima narsaning vujudi bor bo'lsa, shu birlikdan tashqarida bo'lmaydi. Har bir hadisga aytiladigan bir qadimgi ta'rif bo'lmaydi. U "bir" degan so'z olamning ichida, olam esa Alloh taoloning ichida, Xudo taboraka va taolo kitoblarda sakkiz subutiya sifatlari birlan va to'qson to'qqiz asmoyi husniyalar birlan bildirilgan. Bularning hammasi Alloh taoloning zotiy, subutiy va fe'liy sifatlaridur. Men bu o'rinda sizlarga to'rtovini bildiraman. Uning ikkovi: ilm va qudrat. Sakkiz sifatdan qolgan oltovi — bularga sharh. O'sha oltovning biri — hayot, ya'ni tiriklik.

Allohni bor dedik, bir dedik, ilm, qudrat sifati birlan sifatladik. Xo'sh, bu birlik, borlik ilm va qudrat olish bilan bo'ladigan narsalarmi? Albatta, ilmning qudrati bor bo'ladi: hayoti — ma'lum, biri — iroda, ya'ni xohlamoq. Ilm bor bo'lsa, xohlamoqlik-da bor. U hech narsaga harakat bermaydi. Hammaga harakat beradigan O'zi. Bu iroda ilmning bir sifati — kalom, ya'ni so'ylovchi degani, so'z harifsiz, tovushsiz bo'larmidi? Allohning so'zi — harifsiz, tovushsiz. Endi shunday bo'lsa, aytganday qilib bildiradigan qudrati yana basar, some, ya'ni ko'ruvchi, eshituvchi degani. Alloh taoloning ko'rmagi, eshitmagi, biz shekilli ko'z bilan, quloq bilan emas, ko'rganday, eshitganday biladigan ilmning bir sifati.

Biri — takvin, ya'ni borliqqa keltiruvchi degan so'z. Agar borliqqa keltirmagi bir o'z oldiga sifat bo'lsa, Alloh taoloning sifatlari o'ziday qadim, ham azaliy, ham abadiy bo'ladi-da, hamisha borliqqa keltirishdan bo'shamasa, bir sifati bir sifatidan ulkan yo kichik bo'lmaydi. Shunday bo'lganda ilm, qudrat shekilli sifatlari to'xtamay, har vaqt yaratishda bo'lsa, bir ixtiyorsizlik kelib chiqadi. Bunday ixtiyorsizlik Alloh taologa munosib emas. Uning borliqqa keltirmog'i — qudratiga bir sharhgina. Bu ilm, qudrat hech bir nihoyatsiz, ilmida g'aflat, qudratida epsizlik va nochorlik

yo‘q. Yaratuvchini yaratiqlariga qarab bilasiz. Bu ko‘zga ko‘ringan, ko‘ngilga sezilgan olamni qanday hikmat bilan yaratib, qanday qudrat bilan o‘rinlashtirganiga hech bir odam bolasining aqli yetmaydi.

Biroq bandasiga aql — hokim, g‘ayrat bilan quvvat — xizmatchi edi. Shunga qarab o‘ylaysan: Alloh taoloning sifati ham shunday bo‘lishi kerak. Biroq avvalda aytganimiz: ilm, qudrat — bizning tushunuvimizgagina ikki narsa hisoblanmasa, birgina ilmning o‘ziyoq qudrat bo‘lishga yararli. Shunday bo‘lmasa, sifatlar o‘z o‘rtalarida biri tabig‘ (erituvchi), biri matbug‘ (eruvchi) bo‘ladi-ku! Bunday ta’rif Rabbiga yarashmaydi.

Sakkiz sifat qilib va bu sifatlar “Lo g‘ayra falo huva”[1] bo‘lib, bunday aytganda, bulardan bir qancha jamoat yoki jamiyat o‘z oldiga chiqib ketadi. Bunday bo‘lishi kelishmaydi. Agarda sifatlarning har birini boshqa-boshqa deganda, ko‘p narsadan yig‘ilib, ittifoq bilan Xudo bo‘lgan bo‘lardi. Bunday deyish botil. Alloh taoloda bo‘lgan qudrat — ilm ham rahmat. Bu — rahmatning sifati sakkiz sifatning ichida yozilmasa-da, Alloh taoloning Rahmon, Rahim, G‘afur, Vadud, Hofiz, Sattor, Razzoq, Nafi’, Vakil, Latif degan ismlarining benihoya bir ulug‘ sifatlaridan hisoblanishga yaraydi. Bu so‘zimga naqliya dalilim — Alloh taoloning yuqorida yozilgan ismlari. Aqliya dalilim — Xudo taolo bu olamni aql yetmaydigan ko‘rinishda yaratgan, bundan tashqari, biridan biri foyda oladigan qilib yaratgan. Jonsiz yaratganlaridan foyda oladigan jon egasi hayvonlarni yaratib, jonli hayvonlardan foydalanadigan aqlli insonni yaratibdi.

Hayvonlarni asraydigan jonsizlarni eti ayrilmaydigan qilib, jon egasi hayvonlarni aql egasi odam bolasi asraydigan qilib ham ularni mahsharda so‘rov bermaydigan qilib, odamni bularning hammasidan foyda olarlik aql egasi qilib yaratgan. Odam bolasini mahsharda so‘rov beradigan qilib yaratganligida ham adolat, ham muhabbat bor. Odam bolasining qurt, qush, o‘zga hayvonlar shekilli yemakni boshi bilan oldirmay, o‘ng‘ay ikki qo‘lni boshga xizmat etdirib, og‘ziga qo‘li osh berganda, nima ichib, nima yeganini

[1] **Lo g‘ayra falo huva** — Allohning O‘zidan boshqa emas va U ham emas.

bilmay qolmasin deb, isin olib lazzatlanadiganday qilib, og'iz ustiga burunni qo'yib, uning ustidan tozaligini payqarga ikki ko'zni berib, u ko'zlarga zarardan qo'rg'ab turarlik qovoq berib, u qovoqni ochib-yopib turganda tegib ketmasin deb kiprik yasab, manglay teri to'g'ri ko'zga oqmasin deb, qoqib tashlashga qosh berib, uning yuziga ko'rk qilib, birining qo'lidan kelmasday ishni ko'plashib bitirmoqqa, birovning o'yini biriga uqtirish uchun tiliga so'z berib yaratgani muhabbat emasmi? Kim o'zingga muhabbat qilsa, sen ham unga muhabbat qilmog'ing qarz emasmi?

Aql ko'zi bilan qara: kunni qizdirib, dengizdan bulut chiqaradi ekan, u bulutlardan yomg'ir yog'ib, yer yuzida necha turli donlarni o'sdirib, yemishlarni undirib, ko'zga ko'rk, ko'ngilga rohat gul-boychechaklarni, og'och-yaproqlarni, shakarqamishlarni undirib, necha turli nabototlarni o'sdirib, hayvonlarni saqlatib, buloqlar oqib ariq bo'lib, ariqlar oqib daryo bo'lib, hayvonlarga, qushga, molga suvsin, baliqlarga makon bo'lib yotibdi ekan. Yer paxtasini, kandirini, yemishini, konini, gullar gulini, qushlar junini, etini, tuxumini; hayvonlar etini, sutini, kuchini, ko'rkini, terisini, suvlar balig'ini, baliqlar ikrasini, hatto, ari bolini, mumini, qurt ipagini — hammasi odam bolasining foydasiga yasalib, hech birida bu meniki degan narsa yo'q, bari odam bolasiga tovsilmas[1] oziq.

Million hikmat birlan yasalgan mashina, fabrik odam bolasining rohati, foydasi uchun yasalsa, bu yasovchi muhabbat birlan odam bolasini suygani emasmi? Kim seni suysa, uni suymoqlik qarz emasmi?

Odam bolasi qanoatsizlik bilan hayvonlarning tuxumini quritib, oldin o'tganlar ortidagilarga jabr qilmasin deb, molni odam bolasining o'zi uchun qo'riqlatib, o'zga hayvonlarning birini uchqur qanotiga, birini kuchli quvvatiga, birini yugurik oyog'iga suyantirib, birini buyuk qoyatoshga, birini teran tubsizlikka, qalin o'rmonga qo'rg'alatib[2], ham har birini o'sib-unmakka xumor qilib, yosh kunida, kichkina vaqtida shafqat bilan boshlarini biriktirib, g'amxo'r qilib qo'ymoqligi — o'sib-unib, odam bolasiga teng bo'lsin emas,

---

[1] **Tovsilmas** — tuganmas, ozaymas.

[2] **Qo'rg'alash** — ayash, qo'riqlash. Bu yerda joylash ma'nosida.

balki odam bolasining uzilmas nasliga tovsilmas oziq bo'lsin deganlikdan. Ha, bu hikmatlarining hammasida ham marhamat, ham adolat zohir ekan.

Biz o'z o'rtamizda bu marhamat, adolatni iymonning sharti deb hisob qilmaymiz, buning uchun muslim bo'lganda, Alloh taologa taslim bo'lib, uning yo'lida bo'lishimiz kerak edi, bo'lganimiz qani? Bular oy bilan kun ikkoviday ma'lum narsa emasmi?

Xudoning fe'llaridan hech biriga amal qilmaymiz, amal qilmagan o'zgalarni-da yomon ko'rmaymiz, bu xiyonatchilik emasmi? Xiyonatchilikka ko'nib turgan odam — yo musulmon emas, eng bo'lmasa, chala musulmon.

Alloh tsborak va taoloning bandalariga ko'rsatgan yo'li qaysi? Uni ko'pchilik bilmaydi. "Tufakkiru fi 'luvvillohi"[1], degan hadisi sharifga, "Innalloha yuhibbu-l-muqsitin"[2], degan oyatga hech kimning ixlosi, ko'ngli va ilmi yetib ma'qullaganini ko'rganim yo'q. "Ata'muruna-n-nasa bi-l-birri"[3] va "Ahsanu vallohu yuhibbu-l-muhsinin"[4], "Vallazina amanu va 'amilu-s-solihati ulaika as'hobu-l-jannati hum fiyha xolidun"[5], degan oyatlar Qur'onning ichi to'la amal us-solih ekanini ko'rsatadi. Biz bularning nimaligini bilmaymiz. "Va ammallaziyna amanu va 'amilu-s-solihati fayuvaffihim ujurohum vallohu la yuhibbu-z-zolimin"[6] oyatiga qarasang, amal us-solih zolimlikning ziddi bo'lar. Shunday bo'lganda, adolati rif'at (yuksak) bo'larga kimda kimning adolati yo'q bo'lsa, uning hayosi yo'q, kimning uyati yo'q bo'lsa, uning iymoni yo'q degan, payg'ambarimiz sallollohu alayhi vasallam hadisi sharifda:

---

[1] **Tufakkiru fi 'luvvillohi** — Allohning ulug'ligi haqida fikr yuritinglar.

[2] **Innalloha yuhibbu-l-muqsitin** (Moida surasi, 42-oyat) — Albatta Alloh adolat qilguvchilarni sevadi.

[3] **Ata'muruna-n-nasa bi-l-birri** (Baqara surasi, 44-oyat) — Odamlarni yaxshilikka chorlab (o'zlaringizni unutasizlarmi?)

[4] **Va ahsanu vallohu yuhibbu-l-muhsinin** (Moida surasi, 93-oyat) — Chiroyli amal qilsalar, Alloh chiroyli amal qilguvchilarni sevadi.

[5] **Vallazina amanu va 'amilu-s-solihati ulaika as'hobu-l-jannati hum fiyha xolidun** (Baqara surasi, 82-oyat) — Iymon keltirib, yaxshi amallar qilgan zotlar esa jannat egalari bo'lib, o'sha joyda abadiy qolguvchilardir.

[6] **Va ammallaziyna amanu va 'amilu-s-solihati fayuvaffihim ujurohum vallohu la yuhibbu-z-zolimin** (Oli Imron, 52-oyat)

"Man lo hayoun falo iymonun lahu"[1], degani dalildur. Endi aniq iymon quruq ishonish bilan bo'lmaydi, yuksak (rif'at) adolat birlan bo'ladi. Amal us-solih adolatli va marhamatli bo'lmoq uchun kulli tan birlan qilgan qulchiliklarning hech biri adolatni, marhamatni bermaydi. Ko'zing kunda ko'radi namoz o'qiydigan, ro'za tutadiganlarning ne holatda ekanliklarini, unga dalil kerak emas. Bilki, adolat barcha ezgulikning onasidur. Insof, uyat — bular adolatdan chiqadi. Shuning uchun adolati odamning ko'ngliga keladi: men o'z ko'nglimda xalq men bilan unday-bunday yo'sinda muomala qilsa ekan, deb o'ylab turib, o'zim shu xalq bilan shunday muomala qilmaganim yaramaydi-ku deb o'ylaganining o'zi adolat va insof emasmi? U hamma yaxshiliklarning boshi emasmi? Shunday xulq bilan shunday o'yni o'ylagan kishi Xalloqiga shukrni nega o'ylamasin?

Ibodatning bari shokirlikdan (shukur qilishlikdan) tug'iladi. Endi zinhor adolat, shafoatdan uzoqlashmanglar. Agar uzoqlashsang, iymon ham, odamlik ham hammasi uzoqlashadi. So'fi Olloyorning "Bo'lur bir pardadin yuz parda bejo"[2] degani o'yingga keladi.

Endi bizning yuqoridagi ta'rif bo'yicha Xudo taolo ilmli, rahmli, adolatli, qudratli edi. Sen ham bu ilm, rahm, adolat kabi uch sifatdan sifatlanmog'ing kerak: ijtihodni[3] shart etding, musulmon bo'lding ham to'liq insoniyating bor bo'ladi. Belgiliki, juvonmardlik uch xislat bilan bo'lar degan: siddiq, karam, aql — bu uchovidan siddiq adolat bo'lar, karam shafoat bo'lar. Aql ilmning bir oti ekanligi ma'lumdur. Alloh taborak va taolo bularni har odamda bor qilib yaratgan. Biroq unga rivoj berib gullatmoq, o'z holicha kamolotga yetkazmoq harakatida bo'lishi kerak.

Bular chin ijtihoding birlan, xolis niyat birlan izlansanggina beriladigan narsalar, bo'lmasa yo'q. Bu aytilmish uch xislat egalarining oldi — payg'ambarlar, undan so'ng — avliyolar, eng oxiri —

---

[1] **Man lo hayoun falo iymonun lahu** — Hayosizda iymon yo'q.

[2] **Bo'lur bir pardadan yuz parda bejo** — Parda bir marta ko'tarilgandan keyin yuz marta ham ko'tarilaveradi (So'fi Olloyorning "Sabot ul-ojizin" asaridan).

[3] **Ijtihod** — kurashish, intilish.

komil musulmonlar. Bu uch fe'l Xudoning ortida bo'lmoq, o'zini qul bilib, Uning fe'llariga oshiq bo'lib yurmoqni payg'ambarlar avliyolarga o'rgatdi, avliyolar o'qidi, oshiq bo'ldi. Biroq uxroviy[1] foydasinigina o'yladi. Oshiqligi shu holga yetdi, hayoti dunyoga tegarlik foydasini unutdi, balki hisobga olmadi.

Hakimlar bu dunyoda tegadigan foydasini so'yladi, ibrat ko'zi bilan qaraganda, ikkovi ham biridan biri yiroq ketmaydi. Shuning uchun har birining so'ylashi, aytuvi boshqacha bo'lsa-da, Alloh taoloning yo'liga qarab fikrlamoqni ikkisi ham aytdi. Fikrlamoqning keyini ibratlanmoq bo'lsa kerak. Bu aql, ilm — ikkovi ham o'zini zo'r hisoblamoqni, zolimlikni, odamning o'ziday odamni aldamog'ini yomon ko'radi. Bu har ikkovi ham adolatli, marhamatli, shafoatli bo'lmoqlikni buyuradiki, bu rahm bo'lsa kerak.

Biroq mening o'yimga keladi: bu ikki toifa kishi o'z nafslarini fido qiluvchilar deb. Ya'ni bandalikning kamoloti avliyolik bilan bo'ladigan bo'lsa, kulli odam tarki dunyo qilib, "hu" deb tariqatga kirsa, dunyo vayron bo'lsa kerak edi. Bunday bo'lganda molni kim boqadi, dushmanni kim to'xtatadi, kiyimni kim to'qiydi, ekinni kim ekadi, Allohning dunyodagi bandalari uchun yaratgan xazinalarini kim izlaydi?

Haromi, makruh bulay tursin, Xudo taoloning quvvati bilan, ijtihod aqling bilan topib, rohat ko'rmagingga bo'la yaratgan, bergan ne'matlariga, undan ko'rish kerak bo'lgan huzurga loqayd ko'z bilan qarab, e'tiborsiz tashlab ketmoq aqlga, odobga, insofga to'ri keladimi? Sohibi ne'matga shukrchiliging yo'q bo'lsa, odobsizlik bilan gunohkor bo'lmaysanmi?

Ikkinchi — bu yo'ldagilar xor bo'lib, dunyodan yo'q bo'lib ketish xavfi ham bor va kofirlarga yem bo'lib ketishi ham, qaysi bir sabrsizi yo'lidan toyib, sabr bilan bir qarorda turaman degani niyatiga yetib qolishi ham mumkin.

Agarda bu yo'l yarim-yortilarga aytilgan bo'lsa, rost dunyoda yarim-yorti bo'ladimi? Rost bo'lsa, hammaga birday rost bo'lsin, olalagan rost ham adolat bo'ladimi? Shunday bo'lsa, u elga hayot yo'q bo'ladi. Umrning o'zi — haqiqat. Qayerda umr yo'q bo'lsa, unda kamolot yo'q.

[1] **Uxroviy** — oxiratga tegishli.

Biroq avliyolarning bari ham birday tarki dunyo qilgan emas edi, asharai mubashsharadan[1] hazrat Usmon, Abdurahmon bin Avf va Sa'd bin Abulhasanning uchovi ham ulkan boylar edi.

Yo dunyo lazzatiga aldanib, ijtihodim chala qoladi deb, o'ziga ishonmaganlik, yo dunyo hirsidan qavmning ko'nglini sovutmoq uchun, ranjga sabr etib, o'zni fido qilib, men jonim bilan jang qilganda, xalq eng bo'lmasa, nafsi bilan jang qilsin, hoyu havasdan, har xil nafs orzusidan tiyilib, adolat, marhamat, muhabbatiga sodiq bo'larmikin degan umid bilan bu tarki dunyochilik paydo bo'lsa kerak. Shunday bo'lganda ham elga bo'lgan ortiq darajadagi muhabbatdan hisoblanadi. Biroq bu yo'l — juda xatarli, nozik yo'l. Bu yo'lda riyosiz, yengilliksiz, mahkam turib izlagan kishigina kamolotga yetadi. Bu zamonda bu yo'l juda nodir, bu yo'lda yurmoq uchun ilmning-da zo'ri, siddiq, g'ayratning-da zo'ri, Xalloqqa va olam xalqiga muhabbatningda juda zo'ri bo'lmog'i kerak. Bularning bir kishida yig'ilmog'i — qiyinning qiyini, balki fitna bo'lar[2].

Boshiga ham o'ziga o'zgachalik bermoq — odam o'g'lini buzadigan ish. Har bir nodonning bir tariqatga kirdik deb yurgani, biz buzildik degani bilan bir bo'ladi. Hakim bilan olim aslida bir so'z, biroq bilishda boshqa-boshqadur. Dunyoda zohiriy ilm bor, ular tomonidan aytilmishlarni ilmi naqliya ham deyishadi. Bu naqliyaga aqli yuguriklar olim atanadi.

Xudo taborak va taolo hech bir narsani sababsiz yaratmagan, buni izarlab[3], "Tufakkiru fi 'luvvillohi"[4] degan hadisga binoan bu san'ati Xudoni izarlab, xumor bo'lib ibratlanuvchilarga cheklov yo'q, balki san'atining sababini bilmoqqa ishqibozlikdan chin oshiqlar chiqadi. Xudo taborak va taoloning zotiga bandasining aqli yetmasa, aniq men shunday oshiqman deyish o'rinsiz. Oshiq-ma'shuqlikka Xoliq bilan maxluq o'rtasi munosabatsiz, Alloh taoloning bandasini muhabbat va marhamat bilan yaratganini

---

[1] **Asharai mubashshara** — jannatga kirishi tirikligida bashorat qilingan o'n sahoba.

[2] Bu yerda ko'pchilik odamlarning buncha ezgu sifatlarni bir o'zida jamlay olmasligi, buzilishga moyilligi ko'zda tutilgan.

[3] **Izarlab** — izlab.

[4] **Tufakkiru fi 'luvvillohi** — Allohning ulug'ligi haqida fikr yuritinglar.

bilib, muhabbatiga muhabbat bilangina qullik qilmoqni Xudoga oshiq bo'ldi deymiz. Bundagi hikmat shuki, Xudoning oldida o'z aqlim yetarlik qadrimnigina bilsam deya, har bir ishning sababini izlovchi bandalarga hakim ot qo'ydi. Bular haq bilan botilni ayirmoqqa, sabablarini bilmoqqa tirishganlari bilan hammasi odam bolasining foydasi uchun o'yin-kulgi tugul, dunyoning butkul lazzatlari ikkinchi martabada qolib, birgina haqni topmoq, har bir narsaning sababini bilmoqdan lazzatlanadi.

Adashmay, to'g'ri izlagan hakimlar bo'lmasa, dunyo vayron bo'lar edi. Fe'l bandaning qozig'i — dunyodagi har narsa o'sha yaxshi hakimlarning istixroji[1] bilan rivoj topadi. Bularning ko'pining ishi — dunyo yumushi, lekin o'sha hakimlarning yasagan, taratgan va aytgan ishlari "Ad-dunyo mazro'at ul-oxirati"[2] deganday, oxiratga ekinzor bo'ladigan dunyo — shu. Har bir olim — hakim emas, har bir hakim esa — olim. Olimlarning naqliyasi birlan musulmon iymoni taqlidiy kasb qiladi. Hakimlarning aqliyasi bilan agar yetolsa, iymoni yaqinga erishadi.

Bu hakimlardan murod — musulmon hakimlari, bo'lmasa, g'ayridin hakimlar — garchi "Fatlubniy fatajiduniy"[3] deyilsa-da, dunyoning hamda odam o'g'li umrining siriga yetsa-da, dinning haq mag'firatiga yeta olmaganlar. Bularning ko'pi iymonning yetti shartidan, bir Allohni tanimoqdan g'ayri, ya'ni oltoviga kimi gumonli, kimi munkir bo'lib, tahqiqlay[4] bilmaganlar. Agar bular din ustozimiz bo'lmasa-da, dinda boshchimiz — Xudoning elchisi payg'ambarimizning hadisi sharifi "Xayru-n-nasi man yanfa'u-n-nasi"[5] degan. Bu hakimlar uyqu, tinchlik, havas-qiziqning barini yig'ishtirib qo'yib, odam bolasiga foydali ish qilmoqlikka, ya'ni elektrni topib, osmonni egallab, dunyoning nargi chetidagi odam bilan so'zlashib, o't bilan suvning aylasini[6] topib, ming odam qilol-

---

[1] **Istixroj** — chiqarib olish, xulosa qilish.

[2] **Ad-dunyo mazro'at ul-oxirati** — Dunyo oxiratning ekinzori.

[3] **Fatlubniy fatajiduniy** — Meni izlasang — topasan (qudsiy hadis).

[4] **Tahqiqlash** — haqiqat qilish, mohiyatga yetish.

[5] **Xayru-n-nasi man yanfa'u-n-nasi** — Odamlarning yaxshisi boshqa insonlarga foydasi tegadiganidir.

[6] **Ayla** — iloj, kelishtirish yo'li.

masday xizmatlarni qildirib qo'yganligi va xususan, odam bolasining aql-fikrini yuksaltirib, haq bilan botilni ayirmoqni o'rgatganligi — barchasi nafli bo'lgandan so'ng bizning ularga noroziligimizga yo'l yo'q.

Bu zamonning mullalari hakim otiga dushman bo'ladi. Bular bilimsizlik, balki buzuq fe'li bilan "Al-insonu 'aduvvun lima johilin"-ga[1] tegishli. Ularning shogirdlarining ko'pi arab-forsiydan biroz til o'rgansa, birda-yarim bo'lar-bo'lmas so'z bahsini o'rgansa, shunga kerilib, o'ziga o'zgachalik beraman deb, ovora bo'lib, yurtga foydasi tegmoq tugul, zararlar keltiradi. "Hoy-hoy" bilan, maqtanish bilan qavmini adashtirib bitiradi. Bularning ko'pi anchayin johil emas, lekin qadimgi johillar kabi bilim talab bo'lib, haq so'zga quloq osib, insofga qaytsin, ham ibratlansin. Rost so'zga chuqur qazib, to'r yasamoq insofdan emas, quruq o'zbilarmonlik va o'jarlik — odam bolasini buzadigan fe'l. Rostning bir oti — Haq, haqning bir oti — Alloh, bunga qarshi g'islanguncha[2] , buni uqib, adolat bilan yon berish kerak. Bunday fe'llilarda kufr xavfi ham bor. Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam: "Oxir zamonda bir yil bir kun bo'lar", deganda, sahobayi karamlar: "Bu bir yillik bir kunda namoz nechov bo'lar?" — deb so'raganlarida, uning fatvosini o'sha zamon olimlari bilar, degan so'zidan ibratlanib qarasang, zamona o'zgarilishi bilan qoidalar ham o'zgarilishi ma'lum bo'ladi.

Bu kunlardagi tahsili ulum eski madrasalar urfida bo'lib, bu zamonga foydasi yo'q bo'ldi. Shunga ko'ra Usmoniya (Turkiya) da yangi nizomga tayangan maktabi harbiya, maktabi rushdiyalar[3] solingan. Bundagilar uzoq yillar umr o'tkazib, ilm uchun foydasiz bahslar birlan kunini o'tkazib, hayoti dunyoda nodon bir essiz odam bo'lib chiqadi-da, hech bir harakatga layoqati yo'q bo'lganidan so'ng, odam ovlashga, odam aldashga tushadi. Ko'pincha, bunday essizlarning nasihati ham ta'sirsiz bo'ladi.

Dunyoning ma'murligi — aqlga nur berib turadigan bir turli narsa. Yo'qchilikning odamni hayvonga aylantirib yuboradigan

---

[1] **Al-insonu 'aduvvun lima johilin** — Inson bilmagan narsasining dushmanidir.

[2] **G'islanish** — qarshi borish, tahdid qilish.

[3] **Maktabi rushdiya** — har xil hayotiy kasblarga o'rgatuvchi maktab.

tomoni ham bo'ladi. Balki, dunyoning ilmini bilmay qolmoqlik — bir ulkan zararli nodonlik, u Qur'onda tanqid qilingan; dunyoda kimda kim o'ziga o'zgachalik berish qasdi birlan boylikka muhabbatini qaratgan; dunyom bo'lmasa, ehsonda qo'lim qisqa bo'lib qoladi, ham o'zim birovga ta'mali bo'lmayin deb, molga muhabbatini qaratib, ezgulikka bo'la halol kasb birlan topgan boylik yomon emas.

Biz ilmni sotib mol topmoqchi emasmiz. Mol birlan ilm kasb qilmoqchimiz. Hunarning o'zi-da — mol, boylik, hunar o'rganmoqning o'zi-da — ehson. Biroq u hunar adolatdan chiqmasin, shariatga muvofiq bo'lsin. Odamga holiga yarasha ehsonli bo'lish — qarz ish. Biroq o'zgalarning ehsoniga suyanmoq durust ish emas. Mullalar tura tursin, xususan, bu zamonning eshonlariga o'ta soq[1] bo'linglar. Ular — fitna olim, bulardan zarardan boshqa hech narsa chiqmaydi. O'zlari hukmi shariatni to'la bilmaydi, ko'pi nodon bo'ladi. Bu ham ozday, o'zini o'zi ahli tariqat bilib, yana birovni yetaklamoq da'vosini qiladi. Bu ish ularning qo'lidan keladigan yumush emas, ularning birovni yetaklamog'i mahol, bular odamni yo'ldan ozdiruvchilar, hatto, dinga ham zararli kishilar. Bularning suygani — nodonlar, so'ylagani — yolg'on, dalillari — tasbihi bilan sallalari, undan boshqa hech narsa yo'q.

Endi bilingizlar, ey, farzandlar! Xudo taoloning yo'li degan yo'l Alloh taoloning o'ziday nihoyatsiz bo'ladi. Uning nihoyatiga hech kim yetolmaydi. Biroq shu yo'lga yurishni niyat qilib kim qadam bosdi, u toza musulmon, to'liq odam deyiladi. Dunyoda asl maqsading o'z foydang bo'lsa, o'zing nihoyatlisan, bu yo'l Xudoning yo'li emas. Butun olamdan yig'ilsin, menga quyilsin, o'tirgan o'rnimga oqib kela bersin degan, bu qanday insof? Ne turli bo'lsa-da, yo dunyongdan, yo aqlingdan, yo molingdan adolat, shafoat qilib birovlarga yaxshilik tekkizmoq maqsading bo'lsa, bu yo'l — Xudoning yo'li. U nihoyatsiz yo'l, nihoyatsiz yo'lga oyog'ingni dadil bosding, nihoyatsiz Xudoga yaqinlik hosil bo'lib, xos ezgu qullaridan bo'lmoq umidi bor, o'zga yo'lda ne umid bor?

Qay birovlarning bor hunari, maqsadi kiyimini tuzamoq, yurish-turishini tuzatmoq bo'ladi-da, shuni o'ziga bir davlat bi-

[1] **Soq** — sergak, hushyor.

ladi. Bu ishlarining bari — o'zini ko'rsatmoq, o'zini o'zi bozorga solib, bor aqli ko'zida bo'lgan ahmoqlarga "barakalla" degizmoq. "O'shanday bo'lsak edi" deb, birovlar havaslanar, birovlar "O'shanday bo'la olmadik" deb kuyinar, lekin bundan nima foyda chiqadi? Sirtga xosiyat bitmaydi, Alloh taoloning qaraydigani qalbingga, bo'yamasiz ixlosingga xosiyat bitadi. Oynaga topingan bu kimsalarning aqli qanchalik o'sadi deysan? Aql o'ssa, u tubsiz teran yaxshilikni suymaklik bilan o'sadi.

Xudo taolo dunyoning kamolotini chevarlik bilan yaratgan, ham odam bolasini o'ssin-unsin deb yaratgan. Shu o'sib-unish yo'lindagi odamning talab qilib izlanadigan qarzli ishining oldi — do'st ko'paytmoq. Bu do'st ko'paytmoqning chorasi odamning o'zgalarga qo'lidan kelgancha do'stlik maqomida bo'lmog'iga bog'liq. Kimga do'stliging bo'lsa, shu do'stlik do'stlik chaqiradi. Hech kimga qasd qilmaslik ham o'zingga o'zgachalik beraman deb, o'zingni til bilan yo qilig'ing bilan ortiq ko'rsatmoq maqsadidan ovloq bo'lmoq ham do'stni ko'paytirish yo'li.

Bu o'zini o'zi ortiq ko'rsatmoq ham bir necha turli bo'ladi!

Avvalgisi — har bir yomonchilikning yoqasida tursa-da, odamning odamligini buzadigan yomonchilikdan o'zini tortmoq, bu odamga nur bo'ladi.

Ikkinchisi — o'zini o'zi o'zgachalik bilan ortiq ko'rsatmoq odamlikning nurini, gulini buzadi.

Uchinchisi — qasd qilmoq, xo'rlamoq, kamsitmoq. Bular dushmanlik chaqiradi.

O'zini o'zgacha tutishning tubi — maqtanchoqlik. Har bir maqtanchoq birovdan oshaman deb, kunchilik qiladi, kunchilik kunchilikni qo'zg'aydi. Bu uch turli ishning yo'qligi odamning ko'ngliga tinchlik beradi. Har bir ko'ngil tinchligi ko'ngilga talab soladi.

Kulli odam bolasini xor qiladigan uch narsa bor. Shulardan qochmoq kerak: avvali — nodonlik, ikkinchisi — erinchoqlik, uchinchisi — zolimlik.

Nodonlik — ilm-bilimning yo'qligi, dunyodagi hech bir narsani ularsiz bilib bo'lmaydi.

Bilimsizlik hayvonlik bo'ladi.

Erinchoqlik — dunyodagi kulli hunarning dushmani. Intilmaslik, g'ayratsizlik, uyatsizlik, qashshoqlik — bari shundan chiqadi.

Zolimlik — odam bolasining dushmani. Odam bolasiga dushman bo'lgan odamlardan ayriladi, bir yirtqich hayvon hisobiga qo'shiladi.

Bularning emi (davosi) bor kishida Xalloqiga muhabbat, olam xalqiga shafqat, g'ayratli, dunyoni bezaydigan, adolat ishining oldi-ortini payqarlik bilimi, ilmi. Bu bilim, ilm Xudoga muqtadiy bo'lsin[1]. Ilm avvali olami ilmga muqtadi bo'lsin. Ya'ni Xudo taolo bu olamni yaratdi, erinmadi, uyg'unlik bilan, hikmat bilan kamolot yo'liga solib yasadi, sizlarning ishingiz ham bir tayanch bo'ladigan, chevarlik bilan tiklangan yaxshilik bino qilishdir. Yana Xudo taolo har nima yaratdi, bir turli foydali hikmati bor. Sening-da ishing biror zarar chiqib kelmaydigan, ko'pga foyda keltirishiga umid qilsa bo'ladigan bir ish bo'lsin. Bularsiz ish — ish emas. Bularsiz toat — toat ham emas.

Belgili, Xudo taolo hech bir narsani hikmatsiz yaratmadi, hech bir narsaga hikmatsiz taklif qilmadi. Barining hikmati bor, barining sababi bor, ilmga muhabbati borlarga sabab, farzlarni bilmakka ijtihod lozim, sizlar har bir amalni ezgulik deb qilasiz, ezgulikka bo'la qasd etib, niyat qilasiz. Niyat uning farzi hisoblanadi, payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning hadisi sharifida: "Innama-l-a'moli bi-n-niyyati"[2] deyilgan. Endi niyat etdingiz tahorat olmoqqa, namoz o'qimoqqa, ro'za tutmoqqa, bu toatlarni niyatingiz zohirida qolib ibodatga yetmaganligi kamchilik emasmi? Sizning botiningiz toza bo'lmog'ining avvali iymon bo'lib, bu zohir ibodatingiz iymonli bo'lgandan so'nggina farz bo'lgan, sizning zohiringizdagi ibodat — botiningizdagi ibodatning ko'lankasi ham shu iymonning nurlanib turishiga ko'rk uchun buyurilgan. Shuning uchun ulamolar iymon ikkov emas, birov, biroq u ezgu toat bilan nurlanadi, toat yo'q bo'lsa, pasayadi, balki so'nish xavfi ham bor degan. Agar nodonlar ibodatni uning ichki sirini esga olmay qilsa, shuni qilib yurib ham iymoni so'nadi.

---

[1] **Ilm Xudoga muqtadiy bo'lsin** — Ilm Xudoga ergashtirsin.

[2] **Innama-l-a'moli bi-n-niyyati** — Amal niyatga bog'liq.

Mening xavfim bor: ular Xudoning bizga buyurgani faqat ibodatning o'zi ekan, biz shuni qilsak, musulmonligimiz komil bo'ladi deb o'ylaydi. Ibodat qo'riqchidir. Xo'sh, qo'riqchi qo'riqlayotgan narsasining omonligini o'ylamay, birgina uyg'oq turmoqning o'ziga qasd qilsa, u qanday qo'riqchi? Qo'riqlagan narsasi qayga ketdi? Maqsad qo'riqlangan narsaning omonligi, tozaligi emasmi?

Ey, ishoratdan xabarsizlar, qara! Bu ibodatning eng ulkani — namoz, ul namozdan avval tahorat olmoq, undan so'ng namozga shuru' qilmoq, tahoratning oldi istinjo edi. Bularni bir qattiq o'ylab ko'r. Oxiri ikki oyoqqa mas'h bilan bitguvchi edi, bularning hammasi bo'lmasa-da, ko'pi ishorat edi.

Istinjoda k...ingizni yuvasiz, sizning k...ingizning hech kimga keragi yo'q edi. Bu bilan sezimning tozalikka ergashganligini, komil ixlosingizni ko'rsatib, ichimning sofligini Xoliq ko'rar, sirtimni-da pok qilaman ham ko'zga ko'rinmaydigan a'zolarimnada pok etaman, bu poklikning ustida Allohga duo qilaman deb hozirlanasiz.

Endi namozning oti — salovat, duo ma'nosini bildiradi.

Oyoq va bo'yinga tortilgan mas'hlar — bu muchalarni yuvish emas, balki ular o'zi yuvilgan deb, qilingan ishorat.

Namozdan avvali quloq qoqdingiz — garchi Alloh taoloni yuqorida deb, makonini ko'rsatmasang-da, gunoh daryosiga g'arq bo'ldim, ya'ni dunyo havasiga g'arq qilmay, qo'limdan tort, qutqar deb, yordam so'raganning ishorati.

Undan so'ng qiyomda turib qo'l bog'lamoq — qulning xo'ja oldida, fuqaroning podsho oldida turganidan ortiq Allohning qudratiga, o'zining ojizligiga iqrorligi mahkamligini ko'rsatgan ishorat.

Qiblaga qaramoq — Xudo taologa hech bir o'rin mumkin emas bo'lsa-da, ziyorat farz qilingan joyga yuz qaratib, o'sha yerdagi duoday qabul bo'lsin degan ishorat.

Undan so'ng qiroat, ya'ni surayi Fotiha o'qiysan, biroq bu haqda so'z uzayadi. Chunki Fotiha surasining ma'nolarida ko'p sir bor.

Rukuga bosh urmoq — oldingda Xudo hozir deganga o'xshash ishorat.

Sajdalarning birinchisi — yerdan yaralganingning iqrori, ikkinchisi — yana yerga qaytmog'ingning iqrori, bosh ko'tarmoq, yana tirilib, so'rov berishingning iqroriga ishorat.

Qadahat ul-oxir — duoning oxirinda Allohga tahiyyat[1], unga tashahhud[2], undan salovat, payg'ambarimiz sallallohu alayhi vassallamga aytmoq uchun eng oxirgi salom bilan topishasiz, ya'ni Alloh taolodan nimalar tilab duo qildingiz. Bu duo xazinasi kulli musulmonlarni o'rtoqlashtirishini, ularga-da salomatchilik ham rahmat tilab bitirasiz.

Xo'sh, bu so'zlardan qanday ibrat oldik?!

1896

O'TTIZ TO'QQIZINCHI SO'Z

Rost, burungi ota-bobolarimiz bizning bu zamondagilardan bilimi, kutimi[3], sipoyiligi, tozaligi tuban bo'lgan. Biroq bu zamondagilardan ortiq ikki minazi bor ekan. Endigi avlod ota-bobolarimizning minli ishlarini bir-bir tashlab kelar ekanmiz, haligi ikkigina yaxshi ishini ham biryo'la yo'qotib oldik. Hozirgilar o'zga minazlar sari o'rmalab borayotganiga qarab, o'sha otalarimizning ikkigina yaxshi minazini yo'qotmay tursak, biz ham el qatoriga kirar edik deyman. Shu ikki minaz yo'q bo'lgandan so'ng, haligi o'rgangan hunarlarimizning bari ham odamchilikka o'xshamaydi, shaytonlikka tortib boradi. Yurtchilikdan ayrilib borayotganimizning bir ulkan sababi shu ko'rinadi.

U ikki minazi qaysi desang, avvali — u zamonda elboshi, to'pboshi degan kishilar bo'ladi ekan. Ko'ch-qo'n bo'lsa, dovjanjal bo'lsa, shular biylik qiladi ekan. Qolgan qora yurt, ya'ni boshqa odamlar o'zining yaxshi-yomon tirikchiligi bilan yuraveradi ekan. O'sha elboshi bilan to'pboshilari qanday qilsa, qalay bitirsa, xalqda uni tekshirmoq, boshqa yo'lga solishga urinmoq bo'lmas ekan. "Qo'y oshig'ini qo'lingga ol, ko'nglingga yoqsa soqqa qo'y", "Bosh-boshingga biy bo'lsa, keng tog'larga sig'massan, bosolqangiz (tengdoshingiz) bor bo'lsa, yongan o'tda kuymassan", deb maqol aytib, tilov qilib, ikki tizgin, bir chilvirni berdik senga, bergan so'ng qaytib buzilmoq tugul, yetmaganini yetkazaman,

[1] **Tahiyyat** — salom.

[2] **Tashahhud** — guvohlik.

[3] **Kutim** — odamni kuta bilish darajasi.

yomonligini yashiraman, yaxshiligini oshiraman deb tirishadi ekan. Uni zo'r tutib, avliyo tutib, undan so'ng yaxshilariyam ko'p yo'ldan ozmaydi ekan. Bari o'z bovuri, bari o'z moli bo'lgandan so'ng chini bilan tirishasan-da, bo'lmasa, shularning g'amini yemay nima qiladi?

Ikkinchi yaxshi minazi — ortalablik ekan. Elning oti atalib, arvoh tilga olingan yerda og'ayindan o'pkalash, arazlashday mayda-chuyda ginalar bo'lmaydi ekan, jonini ayamay solishadi ekan. "O'zinikidan or qilgan yotga yem bo'lar" deb, "Oz arazchilikning ketidan quvgan ko'p foydadan ayrilar" deb, "Og'aynining ozori bo'lsa-da, bezori bo'lmaydi", "Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagin oldirar, to'rtovlon tugal bo'lsa, tepadagin keltirar" deyishib, "Yo'l quvgan xazinaga yo'liqar, dov (janjal) quvgan baloga yo'liqar" deyishib. Hozir endi o'sha ikki minaz qayda bor? Bular orlilik, nomuslilik, tayinlilikdan keladi. Bulardan ayrildik. Endigilarning do'stligi — fidoyilik emas, aldov, dushmanligi — koyish emas, yo kundoshlik, yo tinch o'tira olmay, buzuqilik qilish.

1897

QIRQINCHI SO'Z

Zinhor, senlardan bir so'rayin deb yurgan ishim bor.

Shu bizning qozoqning o'lganining yomoni yo'q, tirisining yomonlashdan omoni yo'qligi qalay?

G'ayrati qaytgan chol bilan yoshning bari kelishadi, chollar ko'p tengqurlaridan ayrilib, ozayib borayotgan bo'lsa-da, bir-biri bilan sira kelishmasligi nimadan?

Begona elda jamoatidan chiqqan kishini tug'ishganiday ko'rib, ichi idrab suyib turgan odam, elga kelgach, nari-beridan ko'rishib, so'ng qochgisi kelib qolishi nimasi?

Yotning bir tuzuk kishisini ko'rsa, "chirog'im" deb parvona bo'lib, maqtay solib, o'z elida undan ortiq odam bo'lsa-da, tan olmagani nimadan?

Bir yo'lovchi olis yerga borsa, borgan eliga o'z elini maqtash uchun o'tirikni gurillatishi, yurtiga qaytgach, o'sha borgan, ko'rgan elini maqtab, o'tirik so'ylashi qalay?

Qaysi qozoqni ko'rsam, bolasi yoshroq ekanida boshida parvona bo'lib, er yetgandan so'ng, durust qaramay qo'yishi qalay?

To'y-to'rkinda, chorasiz o'limda, adolatli ma'rakada birovning yonida turishga og'ayin topilmay, barimta (xun) olaylik, o'g'irlik qilaylik deyilsa, darrov to'plana qolishi qalay?

Poygaga ot qo'shsang, otingni tortishmaydigan og'ayin, oting yetib kelsa, o'pkalashi qalay?

Boyagida birov birovni falon yoshimda tugun joydan kelayotganimda, falon yerga yetkazib qo'ygandi deb, shuni o'lguncha aytib yurguvchi edi. Shu kunlarda bu yilgi berganing endigi yilda eslanmayotgani qalay?

Boyning bolasi kambag'al bo'lsa, o'g'irlik qilishdan orlanmay, boy bo'lishga urinishdan orlanishi qalay?

Bir eldagi ikki yaxshi odam o'rtadagi do'stligini saqlay olmaydi. Qay bir notanish ont urganlarning darrov o'zaro totuv bo'lib qolishi qalay?

Birovni do'stim deb ot berib yursang, unga sening bir dushmaning kelib, toy bersa, ayniy qolgani qalay?

Kunda gapiga kiradigan do'stdan bezib, bir marta so'ziga quloq solgan dushmanga kishining o'layozgani kalay?

Ko'p kishi do'stim o'nglansin demaydi, agarda o'nglanib qolsa, boyagi do'stiga kechirmas dushmanga aylanishi qalay?

Ko'pchilik aql berarlik kishini izlab topa olmaydi. Qilig'ingning aybini tanitadigan kishidan qochib yurishing qalay?

Birov birovnikiga kelganda uydagi molining barini haydab kelib, o'z uyiga kishi borganda bor molini dalaga haydab yuborishi qalay?

Tinchlik izlab topa olmay yurgan yurt tinchlik ko'rsa, tinchlikdan zerikib qolishi qalay?

Elni pishiq biylagani (boshqargani) nimasi? Pishiqning bari kambag'al ekani nimasi?

To'qol (ikkinchi) xotinning o'r bo'lishi nimasi? Illatli kishining o'zini er ko'rsatishi nimasi? Kambag'al kishining oliftaligi nimasi?

Nafsini tiyib, sabr qilgan kishining yomon atanib, nafsining yetovida yurib, kibrga ergashib, balo chiqargan odamning yaxshi atalishi nimasi?

Qozoqning chin so'zga ishonmay, quloq ham solmay, tinglashga qo'li ham tegmay, baloli so'zga, o'tirikka sutday uyib, bor vujudi suvday oqib, uni obdon eshitib uqib olmay tinmasligi qalay?

1897

QIRQ BIRINCHI SO'Z

Qozoqqa aql beraman, tuzataman deb g'am yeb yurgan odamga ikki narsa kerak. Avvali — u o'ta kuchli hukumat, qo'lida yorlig'i bor kishi bo'luvi kerak. Kattalarini qo'rqitib, yosh bolalarini ularning erksiz qo'llaridan olib, madrasalarga berib, birini bu yo'l, birini u yo'lga solish kerak, dunyoda hisobsiz ko'p ilmlarning yo'llari bor, har bir yo'lda o'rgatuvchilarga berib, sen bu yo'lni o'rgan, sen u yo'lni o'rgan deb, yo'lga solib, bundagi xalqqa chiqimini to'latib yuborsa, yaxshi din tanirlik qilib o'rgatsa, shunda sal yoshlar yetib, bu otalari qartayib, so'zdan qolganda, tuzalsa bo'lar edi.

Ikkinchi — u odam hisobsiz boy bo'lishi kerak. Otalariga pul berib, bolalarini olib, yuqorida aytganday yo'lga solib, ta'lim bersa, shunda tuzalar edi.

Elni erksiz qilib qo'rqitadigan bunday kuch-qudrat hech kimga bitmaydi. Barcha qozoqqa pul berib ko'ndirib, bolalarini o'qitarlik davlat ham bir kishiga bituvi-da mumkin emas.

Qozoqni yo qo'rqitmay, yo pora bermay, aql bilan na jirlab[1], na sirlab[2] aytgan bilan hech narsaga ko'ndiruv mumkin-da emas. Etidan o'tgan, suyagiga yetgan, otadan meros qilib olgan, onaning suti bilan kirgan nodonlik allaqachon uni odamchilikdan chiqargan. O'zlarining irshangi[3] bormi, mish-mishi bormi, guppisi bormi, dongdori bormi — dunyoda shularidan boshqa hech bir qiziqarli narsa bor deb yurib, sira jiddiy o'ylamaydi, o'ylasa-da, kirisha olmaydi, agar so'z aytsang, tinglamaydi, tugal tinglab tura olmaydi, yo ko'ngli, yo ko'zi alanglab turadi. Endi nima qildik, nima bo'ldik!

1897

---

[1] **Jirlab** — kuylab, qo'shiq aytib.

[2] **Sirlab** — jiddiylik, viqor bilan.

[3] **Irshang** — nojiddiy, bo'lar-bo'lmasga hiringlayveradigan odam.

QIRQ IKKINCHI SO'Z

Qozoqning yomonlikka uyir bo'laverishining bir sababi — ishi yo'qligi. Agar ekin eksa, yo savdo qilsa, yomonlikka qo'li tegarmidi? U ovuldan bu ovulga, birovdan bir yilqini so'rab minib olib, yemak poylab, bo'lmasa, so'z angnib, quvlik, shumlik bilan odamlarni aldamoq uchun yoki aldovchilarining kengashiga kirmoq uchun, foydasiz, yumushsiz sanqib yurishga xumor. Dunyolik kerak bo'lsa, halol emgakka kirishgan kishi bunday yurishni itday xo'rlik sanamaydimi? O'zining kasbini tashlab, shunday izg'ib yuradimi? Mollilar molini to'kis molchilarga, bola-chaqaga topshirib, qo'lidagi ozdir-ko'pdir, Xudo bergan davlati qiziqsiz ko'rinib, uning o'g'riga, bo'riga, qorga, jarga uchrab ketishiga chidaydi. Mish-mish-u kengashdan qolmay, bir ovuldan boshqasiga borib, quvlik, shumlik qilib yurib, tekintomoq bo'lib, irjinglashni qisqartishga chidamaydi. Nega shunday desang, xalqda odat bo'lgan shu yo'lga ko'nib, tirikchilikka, mol boqish, mol topishga pishiq hunarli kishilarga qo'shilmay, yo o'zi balo chiqarishga pishiq, yo shundaylarning so'zini "eshitganim", "bilganim" deb, elga yoyib yurib, irshanglashga usta "hunarli"larga qo'shilishga urinadi.

Shuning uchun hozirdagi qozoqning ishga yarayman degani o'zining ozdir-ko'pini birovga qo'sha solib, "qarab yur, ko'zlab yur"deb, boshini bo'shatib olib, so'z angnib, tomoq angnib, el kuzatishga chiqadi.

Shu kunlarda boylik bilan, aql, obro' bilan maqtanib bo'lmaydi, bugun ariza bera bilish, alday bilish bilan maqtaniladi. Bu ikkovi qo'lidan kelgan kishi salt (egarsiz) otli, savagich qamchili kambag'al bo'lsa-da, oz bo'lsa-da o'rni to'rda, semiz otga, moyli etga qo'li yetadi. Yelo'pka, maqtanchoq boylarni: "Siz aytsangiz yonib turgan o'tga ham tushaveraman" deb hovliqtirib olib, ishini qilmayoq, molini boqmayoq, o'shaning hisobiga kiyimini butlab kiyib, yaxshi otini minib olib, xatarli bir hurmatga yetib yura beradi.

U boy esa o'z tinchini bilmaydi, bekorga chiqimdor bo'lganini anglamaydi. Biror kishi so'z so'rasa, "Buni nima qilamiz?" deb boyagi ont urgan bilan aqllashadi. U sigirning yo'rg'asiga o'xshab, bu atrofda yolg'iz o'zim bo'lsam ekan, degan niyat bilan boyning

boshqa aqllashar do'sti ko'paysa, qadrim ketib qoladi deb o'ylab: "Voy, Tangrim-ey, shuni bilmay turibsizmi? Unisi u quvlik-ku, bunisi bu shumlik-ku" deb, "Unga bunday qilsangiz bo'lmaydimi?" deb, bor bo'lmag'ur javoblarni aytib o'rgatib, amalning yo'lini o'rgataman deb, boyning o'zini-da kishiga ishonmaydigan qiladi. Yana boyning o'ziga-da odam ishonmaydigan bo'ladi. Boyning o'z javobi, o'z minazi o'ngmay turgandan so'ng, boyagi kishining fikri buzilsa, haligi ont urgan boyga: "Men aytmabmidim, uniki quvlik so'z deb, mana ko'rdingmi?" deb, ikkinchi miq etmaydigan qilib oladi. Yurtning hozirgi aqlida, tilagida, harakatida shu holat.

1898

QIRQ UCHINCHI SO'Z

Odam bolasi ikki narsadan: biri — tan, biri — jondan iborat. Shu ikkovining o'rtasida bo'lgan narsalarning qaysisi jibilliy[1], qaysisi kasbiy ekanini bilmoq kerak. Ichsam, yesam demakning boshi — jibilliy, uxlamoq ham shunga o'xshaydi. Ozmi, ko'pmi, bilsam ekan, ko'rsam ekan, degan orzularning boshi ham — jibilliy. Aql, ilm — bular kasbiy. Ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitib, qo'l bilan ushlab, til bilan tatib, burun bilan iskab tashqi dunyodan xabar oladi. Bu xabarlarning yoqimlisi yoqimli qolipi bilan, yoqimsizi yoqimsiz qolipi bilan, har biri o'z surati bilan ko'ngilga tushadi. U ko'ngilga tushiruvchi boyagi besh sezgidan o'tgan so'ng, ularni joylashtirib, ko'ngilga suratlaydi. Bu jonning jibilliy quvvatidur. Bir unutilmas yaxshi narsadan ko'ngilga yaxshi asar hosil bo'lib, yomon narsadan ko'ngilga yomon asar hosil bo'lishi shekilli. Bu quvvatlar avvalda kichkinagina bo'ladi. E'tibor qilgan odam ulkanlashtirib, ulg'aytirib, u quvvatlarning quvvatini zo'raytiradi. E'tiborsiz qolsa, quvvatning qaysisi bo'lsa-da, yo'qoladi, tamomila yo'qolmasa-da, sal-pal narsa bo'lmasa, ulkanroq bir ishga yaramaydigan bo'lib qoladi.

Kimda kim sirtdan eshitib biluv, ko'rib biluv shekilli narsalarni ko'paytib olsa, u — ko'p yiqqani bor odam: sinab, o'rinli-o'rinsizini — barinida boyagi yiqqan narsalaridan hisob qilib topadi.

[1] **Jibilliy** — tug'ma.

Bunday qilib harakat qilayotgan odamni aqlli deymiz. "Xudo taolo o'zi aql bermagan bo'lsa, nima qilaylik?" deyish, "Xudo taolo sen bilan meni birday yaratibdimi?" deyish — Xudo taologa nohaq ayb qo'yib, o'zini qutqarmoqqa urinish bo'ladi. Bu — o'ysiz, hunarsiz nodon odamning ishi. Unga Xudo taolo ko'rma, eshitma, ko'rgan, eshitgan narsangga e'tibor qilma, esingda saqlama debdimi? O'yin-kulgi bilan, ichmak-yemak bilan, uxlamoq bilan, kerilish bilan ovora bo'l-da, ichingdagi xazinangni yo'qotib, hayvon bo'l degani yo'q.

Qay birovlar: "Aql jibilliy bo'lmasa-da, talab — jibilliy. Talab berilgan odam aqlni topadi, talabi yo'q kishi topa olmaydi", deydi. Buyam — bekor gap. Talab bolada-da bor, bunga talashib bo'lmaydi. Boya aytdik-ku, quvvat boshida kichkina bo'ladi, e'tibor qilmasa, yo'qolib ham ketadi, e'tibor qilsa, kutib quvvatlantirsa, zo'rayib ham ketadi deb. Jon quvvati bilan odam hosil qilgan hunarlar-da kunda tekshirsang, kunda oshadi. Ko'p zamon qo'llamasang, topib olgan hunaringning yo'qolganini va o'zingning u vaqtdagidan boshqa bir odam bo'lib ketganingni bilmay qolasan. Qaysi yo'qolgan hunar: "Qara, men yo'qoldim", deb, xabar berib yo'qoladi. Endi izlasang, avvalgi topganingdan qiyinroq topiladi.

Jon quvvati deyiladigan quvvat — juda ko'p narsa, bu yerda barini yozishga vaqt yetmaydi. Biroq har bir hunarni tashqaridan topib olib, ishga solgani, shuning tomirini mahkam ushlab turishga yarovchi edi. Ko'p zamon eslamagan odamdan u boyagi hunarning eng qiziq, qimmatli yerlari yo'qola boshlaydi. Undan so'ng yana ko'p zamon o'tsa, shu hunarni saqlaydigan quvvatning o'zi ham yo'qoladi. Undan so'ng qayta kasb qilish oson bo'lmaydi.

Jon quvvatining ichida uch ortiq quvvat bor, zinhor, shularni yo'qotib qo'ymaslik kerak. Ular yo'qolsa, odam o'g'li hayvon bo'ladi, odamlikdan chiqadi. Buning birovi o'rischa "podvijnoy element" deb ataladi. Bu nima narsa? Yo ko'rding, yo eshitding, har nechuk bilding, shuni tezlik bilan uqib, uqqanlik bilan turib qolmay, orti qaydan chiqadi, oldi qayga boradi, shu ikki yog'iga-da aqlni yuborib qaramoqqa tez qo'zg'ab yuboradi. Agar bu bo'lmasa, ko'p bilish uchun ko'p o'qish ham tuzukli foyda bermaydi. Kerak-

li vaqtda o'ylamay, kerakli vaqtda qilmay, kerakli vaqtda aytmay, doim vaqtidan kech qolsang: "Ey, attang-ay. Unday qilishim kerak ekan, bunday qilishim kerak ekan", deb, umr bo'yi g'ofil bo'lib o'tirganing.

Birovini o'rischa "sila prityagatelnaya odnorodnogo" deydi. U — bir narsani eshitib, ko'rib bilding, xush keldi, hozir shunga o'xshagan boshqa narsalarni tekshirasan. Tugal o'xshaganmi? Yoki birgina yerida o'xshashlik bormi? Har nechuk shu ishga bir kelishgan yeri bor narsalarning barini o'ylab, bilganini tekshirib, bilmaganini so'rab, o'qib, boshqa bilan xabarlashib bo'lsa-da, bilmay tinchitmaydi.

Uchinchisi o'rischa "vpechatlitelnost serdsa" deydi, ya'ni yurakni maqtanchoqlik, foydaxo'rlik, yengiltaklik, beg'amlik — bu to'rtovi birlan kirlatmay, toza saqlasa, shunda sirtdan ichga borgan har narsaning surati yurakning oynasiga ravshan bo'lib tushadi. Unday narsa butun vujudga yoyiladi, tez unutilmaydi. Agarda boyagi to'rt narsa bilan yurakni kirlatib olsang, yurakning oynasi buziladi, yo qiyshiq, yo xira ko'rsatadi. Endi bunday narsadan o'ngli natija bo'lmaydi.

Har nechuk tan quvvati bilan sirtdan topib, sirtda saqlaysiz, uning oti davlat edi. Uning ham necha turli illati, kasofati bor narsalarini bilmasang, saqlay olmas eding-ku. Shunga o'xshash ichdagi jon quvvati bilan yiqqan narsangning oti aql, ilm edi. Uning-da necha turli kasali, kasofati tegadigan narsalari bor. Bularni bilmasang, asramasang — ayrilasan. Yana har bir yaxshi narsaning o'lchovi bor, o'lchovidan oshsa, yaramaydi. O'lchovini bilmoq — ulkan bir kerak ish. O'ylanmoq — yaxshi ishga chinakam kirishib ketgan odam o'yini to'xtata olmay, aqldan ozib qolishi ham mumkin. Ichmak, yemak, kiymak, kulmak, ko'ngil ko'tarmak, quchmoq, suymak, mol yig'moq, mansab izlamak, oilali bo'lmoq, aldanmaslik — bu narsalarning barining-da o'lchovi bor. O'lchovidan oshirilsa, rasvo bo'ladi.

"Nimani astoydil ko'p izlasang, shuning kuyigini bir tortasan", deganlar. Boz maxfiy qolmasin, men aytgan uch quvvatning ichida ikkovi, ya'ni "sila prityagatelnaya odnorodnogo" birlan "podvijnoy element" — bu ikkovi qo'shilib turadigan narsa, kulli foyda

ham shulardan chiqadi. Mansab suygichlik, maqtanchoqlik, achchig'lanuvchanlik, o'tirikchilikka o'xshagan har bir illatga tortib, ishqiboz qilib, aqldan ozdirib yuboradigan narsalar bari shu ikkovidan bo'ladi. Bularni asoslaganda yaxshi narsalar bilan asoslab, yomon narsalardan, ya'ni yuqorida aytilmish shekilli odamni odamlikdan chiqarib, qimorvozlikka solib yuboradigan narsadan vujudni erta tiyib olish kerak. Foyda-zararni ayiradigan quvvatning oti aql edi-ku. Birgina aqlning quvvati bilan buni to'xtatib bo'lmaydi. Ham aql, ham g'ayrat — ikki yaxshi quvvat qo'shilib to'xtatadi. Shu ikkovi kimda bor bo'lsa, bu quvvatlarning ikkovi-da oz bo'lsa, yoki biri bor, biri yo'q bo'lsa, boyagi yomon quvvatlar boshi bog'siz asov ot, yugansiz toqqa uradimi, toshga uradimi, suvga uradimi, Xudo bilsin, haytovur, yo'lda ko'rgan esli, aqli durust odamlar hol so'rayolmay qoladi. Senda erk yo'q. Ikki etaging yoyilib, ikki ko'zing osmonda, o'lguningcha masxara bo'lib ketasan.

1898

QIRQ TO'RTINCHI SO'Z

Odam bolasining eng yomoni talabsizidir. Talab qiluvchilar ham bir necha turli bo'ladi. Ham talabning o'zi-da turli-turli. Ham shu talablarning bari ham biridan biri unarli, muhimroq keladi. Va lekin odam bolasining yo talablisi, yo talabsizi bo'lsin, haytovur "barakalla"ni kerak demaydigani bo'lmaydi. Har nechuk o'rinsizmi, o'rinlimi, "barakalla" deyuvchini ko'ngil xohlab turadi. Odam bolasi o'zi qay yo'lda, qay maydonda yursa, shu maydondagi kishi bilan sirdosh bo'ladi. Shuning uchun o'zga yo'ldagilardan "barakalla"ni uncha kutmaydi. Menga "barakalla" desa, shu o'zim bilan sherik, sirdoshlar "barakalla" der deydi.

Talabning ichida odam bolasi, ko'pincha, boshiga qadr izlab, talabda bo'ladi. Birov mol quvib yotir. Tubanlik bilan, haromlik bilan, haytovur, mol topsam, "Mol topgan erning yozig'i yo'q" deydigan, "Mollining beti yorug'" deydigan maqollarga ishonib, xalqning holiga qarab, it bo'lsayam mollini so'ka olmaydi deb, bu mol ham foyda, ham bo'yimga xosiyat bo'ladi deydi. Qozoqning o'z xulqiga ko'ra bu — rost. Biroq odamlikka, aqlga qaraganda, rost tugul,

ko'ngil jirkanadigan ish. Shunga qaramay, birov er atanaman, birov hojiaka atanaman, birov mullaka atanaman, birovlar bilgich, quv, shum atanaman deb shuning harakatida yuribdi. O'shalar qozoqqa nimanidir pullamoqi bo'lib: "Shu narsam juda ko'rnakli[1] oziq bo'lar" deb yuribdi. Birisi qozoqning tomirini ushlab-ushlab qaraydi-da: "Manovini olib kelib bersa, qimmatday ekan, manovi ishga bir oz pul kerak ekan" deb, qozoqning betini o'qib, foyda talab qilgan bo'lmasa, kitobdan o'qib talab izlagan odam yo'q. Kitob so'zi bilan talab izlash uchun avvali ko'krakni tozalash kerak, undan so'ng ibodat qilmoq kerak. Qozoqning betiga qarab o'qigan bo'lsa, u talabingni qilaver, ko'krakni butunlay tozalayman dema, uni kim ko'rib yotibdi, ichingda kir qatlanib yotmasa, qut-baraka qayerda yig'iladi, deydi. Endi shunga qarab, talabning qayerdan o'qib, bilib, intiladigan narsa ekanini bilarsan.

1898

QIRQ BESHINCHI SO'Z

Xudo taborak taolo borligining ulkan dalili — necha ming yildan beri har kim har turli qilib so'ylasa-da, bari ham bir ulkan Xudo bor deb kelganligi va necha ming dinning bari ham adolat, muhabbat Xudoga tegishli deganligi.

Biz — yaratuvchi emas, Yaratganning ko'lankasiga qaray biladigan bandamiz. Shu muhabbat bilan adolatga qaramoqchi bo'lamiz. Allohning hikmati birovidan birovini aniqroq sezmoq bilan ortib boradi.

Inondim, ishondim degani inontiraman, ishontiraman degani emas.

Odamchilikning oldi — muhabbat, adolat, sezim. Bularning kerak emas yeri yo'q. U — yartagan Tangrining ishi. Ayg'irning biyani egallamog'ida ham muhabbat bilan sezim bor. Bu adolat, muhabbat, sezim kimda ko'proq bo'lsa, u kishi — olim, shu — oqil. Biz jonimizdan ilm chiqara olmaymiz, yaralib, yasalib qo'ygan narsalarni ko'z bilan ko'rib, aql bilan bilib, sezamiz xolos.

1898

[1] **Ko'rnakli** — sifatli, ko'z-ko'z qilishga arziydigan.

JAMBUL





O'TYURAK SHOIR

Jambul – hayoti bilan ham, ijodi bilan ham ikki asrni qamrab olgan ulug' ijodkor, oltin ko'prik yaratgan oqin hisoblanadi. Uni yana oqib yotgan ulkan va qudratli daryoga ham mengzash mumkin, sababi u o'zining tengsiz iste'dodi bilan, oqinligi, to'kma shoirligi bilan Abay yuksaklarga ko'targan yozma she'riyatni va xalq ijodiyotini bir tutash va mustahkam qilib bog'lay olgan ijodkor. Xalqning oqinlik xazinasidan mo'l-ko'l foydalanib, durri javohir so'zlarni chevarlik ila she'riy misralarga tizgan, hayot hikmatlarini millionlab tinglovchilar qalbiga muhrlagan o't yurakli, o'roq tilli, o'jar Jambulning qarigan chog'laridayam hayron qoladigan darajada badiiy satrlar, o'lmas kuy-qo'shiqlar yarata olganligining o'zi ham butunjahon adabiyotida noyob voqealardan hisoblanadi. Sirasini aytganda, tirikligidayoq jahoniy obro'-e'tibor va e'tirof qozona olgan bunday oqin qozoqda bo'lgan emas. Shuni ham tan olish kerakki, o'z gapini gapirib, xalq badiiyat namunalarini, o'lmas-yitmas so'z marjonlarini sochqiday sochib taratgan shoirning olamshumul obro'-e'tirof qozonishida sobiq sho'rolar hukumati ham anchagina ter to'kkanini aytib o'tish o'rinli bo'lar. Biroq shularga qaramay, to'qson yoshdan hatlagan oqinning yangi zamon mavzulariga, muammolariga labbay deya, javob tariqasida dolzarb gaplar ayta olgani, she'riy satrlarni, durdona fikrlarni, noyob o'xshatish va metaforalarni yomg'irday quyib, tinglovchining, o'quvchining qalbini tamg'aday o'ya olganligining o'zi, so'zsiz, Jambulday oqinning iste'dodidan, qudratidan darak beradi, albatta.

Bo'lajak jirov-oqin Qozog'istonning avvalgi Avliyoota tuprog'idagi Jambul tog'i etagida tug'iladi. Ismining Jambul deb atalishi ham shu tog' nomi bilan bog'liq. Otasi Jappa oddiy bir oila sohibi edi. Avval Qo'qon xonligi, keyinchalik Rossiya imperiyasiga qaragan bu manzilda yashovchi xalqning tirikchiligi, og'ir turmush asoratlari, mahalliy amaldorlarning zo'rlik-zo'mbilikka asoslangan

boshqaruv usullari yosh iste'dod egasining yuragida o'chmas iz qoldirdi. Oqin kuy-qo'shiqlarining mung va nolakorligi, odamiylik va halollikka, botirlik va xalqchil bo'lishga chorlagan o'tli satrlari o'sha turmush sharoitidan ta'sirlanib tilga kelgan bo'lishi shubhasiz. Jambul bola paytida chiqargan "Chaqim" nomli o'lanida ta'lim-tarbiya, o'quv tizimidagi qoloq usullar, ustozlarning tarbiyachiga xos bo'lmagan illatli jihatlarini tanqid qiluvchi satrlarni tilga olishi ham shundan edi. Har holda oqin biografiyasida to yetmish yoshlarga chiqquncha bo'lgan uzoq umrning poydevor yillari haqida, bolalik va yigitlik davri, kamolot yillari, ijodkor, oqin bo'lib shakllanishi haqida ma'lumotlar juda oz. Umr bo'yi o'lan-she'r aytib, xalqning to'y-tomosha, yig'inlarida, ma'raka-tadbirlarida badihago'ylik qilib kelgan odamning barcha aytgan so'zlari, badiha-hazillari, satira-hajviyalari, to'lg'ov, doston, aytishuvlarining hammasiyam saqlanib qolavermagan. O'n besh yoshidan boshlab xalqning, ko'pchilikning, izdihomning o'rtasida do'mbira chertib, odamlarning qalbiga yo'l topib kelgan oqinning ijodidan saqlanib qolganlarini ham dengizdan bir tomchi deb hisoblash mumkin. Ustoziga bag'ishlab aytgan "Mening pirim - Suyunboy, So'z aytmam unga sig'inmay" deb boshlanuvchi durdona bag'ishlovlar yoki "Oykumush qiz bilan aytishuv" singari bebaho nazm injulari to'qsondan oshib, yuzga tutashib ketgan oqinning xazinasida oz durri marjonlar saqlanib qolganmi? Holbuki, Jambul bobo to'yning ko'rki - oqin bo'lib faqat qozoq xalqininggina emas, shu bilan birga, qo'shni xalqlarning to'y-yig'inlarida, turli xil tadbirlarida muttasil qatnashib keldi, o'zining ovozi va sozi bilan, so'zi va nazmiy namunalari, o'lanlari bilan xalqqa zavq-shavq, ma'naviyat va madaniyat ulashdi, ezgulik va yaxshilik urug'larini sochdi, odamlarni birlikka, birlashishga undadi, ezilgan, xo'rlangan, haqoratlanganlarning ko'z yoshlarini artdi, haqqa-haqiqatga umidlantirdi, yaxshi kunlar kelishiga ishontirdi. Xalq botirlari - Manas, Go'ro'g'li, O'tegen, Suronshining qahramonona ishlarini ulug'ladi. Xalq ham bu botirlarning mardona janglarining tafsilotlarini, qahramonligining tasvirini kunlab-haftalab mazza qilib eshitdi, botirlarga qo'shilib jang qilganday havaslandi, ular kabi sevdi, kurashdi, hayot falsafasini chaqdi, o'rgandi va yangi-yangi sarguzashtlarga chog'landi.

"Gadolar kuyi", "Yilqichi", "Manke bo'lis", "Vistavkada" (Ko'rgazmada), "Podsho amri taraldi", "Zilday buyruq", "Vasiyat", "Abayning suratiga", "Alg'aday o'g'lim haqida har bir o'y", "So'nggi so'z" kabi she'rlari davr bilan hamnafas, zamon bilan hamqadam bo'lgan ulug' iste'dodning o't-olov sachratib turgan ilhomli hayotidagi mo'jizakor satrlardan to'qilgan zarrin va naqshinkor kashtalardir.

Ulug' iste'dod, inja so'zning zargari, aytishuv san'atining oldiga ot tushirmaydigan dulduli – Jambul boboning butun umri faqat to'y-tomoshayu, yallo-yallolar ichida o'tdi, deb o'ylash xato. Oktabr to'ntirishigacha bo'lgan davrda qozoq jamiyati ichida ko'zga ko'rinib, xalqning til va diliga aylanib ulgurgan yetmish yashar mo'ysafid ijodkorga haqiqiy olamshumul shuhrat, xalq va hukumat e'tirofi, unvon-u mukofotlar qartayganida — 1934-yildan keyingina yog'ila boshladi. Ungacha esa oqin hayotida turli xil voqealar, turmush tashvishlari, kasalliklar, unutilish va esdan chiqishlar bo'lib o'tdi. 1934-yilda Olmaota shahrida qozoq aytisker (aytishuvchi oqin)larining musobaqasi bo'lib o'tadi. Musobaqa jarayonida Jambul bobo ko'pni ko'rgan oqsoqol-ijodkor sifatida o'tgan zamonni va sho'rolar davrini qiyoslab o'lanlar aytadi va kambag'allarga qayishayotgan yangi zamonga olqishlar yog'diradi — sovet davri mafkurasi darg'alariga xuddi mana shunday ijodkor, bulbul tilli oqin, yaxshi-yomonni ayirib ko'rsata oladigan shoirlar, ziyolilar, nattoq (nutqchi)lar kerak edi. Sal vaqt ichida Jambul she'rlari rus tiliga tarjima qilinib, o'sha paytlardagi eng ilg'or va obro'li gazeta-jurnallarda chop qilina boshlaydi. 1936-yil Moskvada bo'lib o'tgan qozoq adabiyoti va san'ati dekadasi (o'n kunligi) paytida qatnashgan Jambul hukumat rahbarlarini ulug'lab, minbarlarda o'lanlar aytadi va ommaviy olqish-shuhratga ega bo'ladi. Shu vaqtdan boshlab uning nomi va shuhrati yoyila boshlaydi. 1938-yilda uning ijodiy faoliyati boshlanganligining 75 yilligi Ittifoq miqyosida keng nishonlanadi. Ijodkorni jahonda mashhur bo'lgan shoirlar, adiblar, jurnalistlar, siyosiy-ijtimoiy arboblar qutlab, tabriknomalar yo'llaydi. Oqinning o'zi "XX asr Homeri" degan adabiy tahsin-laqabga ega bo'ladi.

Yoshligidan boshlaboq erlik-mardlik jasoratlarini kuylab dostonlar yaratgan, qozoqninggina emas, boshqa xalqlarning ham qahramon, yurtparvar botirlarini, sherpanjali, yo'lbarsyurakli sarkarda-yu jangovar mardlarni kuylab kelgan oqinning hayqiriq-ovozi 1941-yildagi dahshatli jang kunlarida yanada kuchli yangradi. O'zini el-yurtning otasi deb sezingan oqin frontga otlanayotgan bo'z yigit jangchilarga o'lan aytib fotiha berib, ularning ko'ngliga, qalbiga yovdan qasos olishday oliy sharafni quyib, "Otayov-la ayqashdik" kabi qo'shiqlarini yaratdi. Ayniqsa, Jambulning "Leningradlik jigarbandlarim" deb boshlanadigan she'ri o'sha yillarda misli ko'rilmagan darajada shuhrat qozondi. Leningrad shahrining eng qiyin, talafotli qamal kunlarida bu she'r har kuni radiokarnaylarida o'qib eshittirilar, she'r matni gazeta-jurnallarda qayta-qayta bosilar, ularning har bir satri har bitta fuqaroga tanish, har bitta yigit-qizning tilida edi. Bu she'r matni o'sha yillarda plakat-devoriy gazeta ko'rinishida ham sobiq Ittifoqning har bir shahridagi har bir bino va korxonalar eshigiga osib qo'yilgan. "Jambulning bu she'ri oddiy xalqdan boshlab jangchilargacha, yoshlardan boshlab chol-u kampirlargacha — hammaga yod bo'lib ketgan, xalq bu she'rni o'qish-eshitish orqali o'ziga mislsiz kuch-g'ayrat, jasorat topar edi..." deb yozadi atoqli adiblarning biri. Ol, qari oqinning o'sha kunlarda yozilgan, frontda halok bo'lgan o'g'li Alg'adayning xotirasiga bag'ishlangan she'rini, ota qalbidan otilib chiqqan misralarni, zor-u alamli satrlarni to'lqinlanmasdan, titramasdan o'qish mumkin emas.

CHAQIM

Ship-ship tegar mullaning
Qo‘lidagi to‘bilg‘i.[1]
Qo‘zg‘atmayin joyimdan,
Talay durra so‘qildi.
Tarsillatib tanaday,
Yirtar bo‘ldi to‘nimni.
“Tiling achchiq, bola!” deb,
Qaynatdi obdon sho‘rimni.
O‘qimay-yoq ketayin,
Bog‘lamanglar yo‘limni.
Oldingizdan o‘tayin,
Og‘ritmanglar ko‘nglimni.

O‘qimayman mullada, —
“O‘qi!” doim zo‘rlagan.
Darsga kelsa bolalar,
Tama qilar yem to‘rvadan.

Oq sallasin to‘nkarib,
Ko‘zin yumib, xo‘mrayib,
Uzun kunlar bo‘zlagay.
O‘qiguncha men unda,
Do‘mbiramni qo‘lga olay.

Yo‘rgakda-yoq tushiga
O‘lan kirgan bo‘layin.
Qiynama, ota, qiynama,
O‘zimcha o‘ynab-kulayin.

(1854)

[1] **To‘bilg‘i** — o‘simlik nomi.

OTAMGA

Sho‘rlikning o‘g‘irlab qora otin,
Yoziqsiz qiyib qanotin,
Yovonda yolg‘iz qoldirsam,
Shunda chiqarmi o‘g‘ri otim?!

El-oraga so‘z qilib,
Niyat yo‘q shovqin solmoqqa.
O‘tirgan o‘rnin to‘zdirib,
Nima bor otlar chopmoqqa?!
O‘lan va so‘zni do‘st qilib,
Kirishay she’riy san’atga!

Tilimga ergash, ey ota,
Fotihangni ber, ota!
Japaning o‘g‘li oqin bo‘p,
Yaxshi bo‘libdi, der, ota!

Do‘mbiramni so‘zlatay,
Kunda yasab ma’raka.
Ma’rakali ellarda
Bo‘ladi ko‘p baraka!
“O‘g‘rilik — tubi xo‘rlik”-ku,
Bo‘lmaylik elga kalaka!

(1856)

TAYTI BILAN SHIBIL CHOLGA

Hojidan kechagina keldi darak,
So‘yishga mol, sochishga aqcha kerak.
Taytikem uchmoqlardan o‘rin topdi,
Qazolanib, qolibdi eldan bo‘lak.

Aqchangni soch, og‘ayin, molingni ye,
Yaxshi o‘lim emasmi qut-baraka.

Yosh qolib, oldin-avval qari ketsa,
Shuning o'zi emasmi to'y-ma'raka.

Makkaga birov borsa — Shibil borsin,
Shibildan boshqang borsa — chiqimlarsan.
O'lganlarning kafanin yig'ib olib,
Oxiratga borganda chirillarsan!

(1860)

SARIBOYGA

Sarake, bir so'z aytay endi sizga,
Sizning so'z tarozidir doim bizga.
Do'mbiram qo'limdadir, istagim shul:
Bersangiz odil baho o'g'lingizga.

Manmanning ko'ngli ko'kda, yerda loshi,
Anglasak, olis yer va ko'k orasi...
Kamtarning o'zi kichik, fikri buyuk,
Birdekmi bu ikkovning martabasi?

Ba'zilar mol-dunyoni bosib yotar,
Hikmat aytsang, yuz burib, sasib yotar.
Mol-dunyo yig'ib, terib qo'lning kirin,
Qaylarga eltib-borib, kimga sotar?

Ba'zilar "na qilay?" deb titrab-qaqshar,
Har kimning og'ziga bir qarab yashar,
Ba'zilar mol-dunyoga yetolmaydi,
Oyog'in ipga tang'ib qo'ygan o'xshar.

Ba'zilar ko'ngli ko'kdan yuksakroqda,
O'zini kun va oyga teng ko'rmoqda.
Birovlar quruq so'zni qamchi qilib,
Quvni[1] minib, qulonni ovlamoqda.

[1] **Quv** — oqqush.

Qay ishni shundan menga ep ko‘rasiz?
Yo‘l tutsam o‘zim tanlab — o‘pkalarsiz...
Suyun ustoz[1] umidini oling yodga,
O‘lan bo‘lsin sheriging deb, yo‘l tilarsiz?!

(1865)

* * *

Ayrildim armon bilan hayron, Burim,
To‘lgan oyday edi-ya oppoq nuring.
Aldandim, oyog‘imni xato bosdim,
Bilmasdan jon achimas og‘a sirin.

(1866)

BOYUZOQ MULLAGA

O‘tinga ikkov ketdi, biri — mulla,
Chipor yo‘rg‘a minib borar mulla yo‘lda.
Mullasi Sarikemning o‘g‘irlik qilar,
Xudoyo, o‘zing kechir, tavba-tavba!

(1860)

QAMSHAT QIZ

Sarvinoz Qamshat qizning ko‘rdim ko‘rkin,
Qo‘ndirmish chekkasiga qunduz bo‘rkin.
Tulkiday orolanib, qiliq qilar,
Yoniga borolmaysan emin-erkin.
Men uni qironqushday ilar edim,
Qizil yuzin biz tomon bursa lekin.

[1] Suyunboy oqin yosh Jambulning iste’dodini juda erta payqab, uni 14 yoshida shogirdlikka qabul qilgan.

Ko‘ylakka chang tegdirmas kibor edim,
Qizlarni to‘shga tortib, qamrar edim.
Yurtchiday yurtda turmay, olis uchib,
Oladigan ovimni tanlab edim.

Sirtim qo‘rash[1] bo‘lsa bo‘lar, ichim suluv,
Shu bir ayb yuragimga solar g‘ulu.
Chehra bilan jonning ko‘rki bir xil bo‘lmas,
Qamshatqiz, kerak shuni fahm qiluv!

So‘lmasmi ko‘klam guli kuzgi oylar?
So‘lmasmi vaqti kelib bu chiroylar?
Enkayib ekinzorga kun qulasa,
Ko‘rksiz bo‘p qolmaydimi bul dunyolar?

Shularning bari misol o‘ylaganga,
Qamshat, o‘yla-o‘ylama — buni o‘zing bil.
Bir so‘z kelib, ko‘nglimga qo‘ndi mening,
Tinarmi aytib bo‘lmay quv-qizil til?..

(1896)

* * *

Sirti suluv jon ekansan
Ko‘zga ko‘rkam ko‘ringan.
Qiliqlaring bor ekan-a,
So‘zlashmoqqa eringan.
Qamqa-kamzul kiyibsan,
Qosh-qovog‘ing kerilgan.
Sodda-so‘lpi odamlarga
So‘zlamoq man qilingan.
Jubayingni[2] eshitdim men
Tanlab topgan elingdan.

[1] **Qo‘rash** — xunuk, ko‘rimsiz, degan ma’nolarda.
[2] **Jubay** — Juft, bo‘laJak ering, demoqchi.

Qoracharoq, tor bir odam,
Ismi Qarimboy deyilgan.
Unga tegsang, bir ko'rarman,
Qolganingni shalvirab.
O'shal damda, ey Qamshat qiz,
Qolarsanda qaltirab.
Ana shunda gaplasharman
Sen bilan, ey qiz, yaltirab!

(1896)

ZIQNA BOY BILAN JO'MARD QASHSHOQ

Moli ko'p boy yig'laydi qor yoqqanda,
Barin tashlar niyati molga oqqanda,
Yerdan oltin topganday qashshoq yurar
Ayoli chelak to'la sut soqqanga.

Moli ko'p boy qaymoq yeydi har ertalab,
Qo'y boqib gado yurar qo'zi haydab.
Jilla qursa ayronga to'ydirsa deb,
Yotsa-tursa tilaydi "Yo Xudoy"lab.

Ziqna boyning uyiga mehmon kelsa,
Qo'yadi qari qo'yin u mo'ljallab.
Jo'mard qashshoq uyiga mehmon kelsa,
Yolg'iz qo'yning turadi boshin boylab.

* * *

Boy — ziqna, qashshoq — gado, xalq ham hayron.
Yurtning ko'p ta'min totdik bo'lib mehmon.
Elning azamatlarini tanisam — men,
O't she'rim, qizil tilim, sababchi sen.

O‘LANCHI UMARGA

Boyga yoqay deb o‘ylama, Umar oqin,
Boylardan senga manov gado yaqin.
Enangni maqtab mirzo bir boplaydi,
Berarda qo‘yga qo‘ng‘ir cho‘loq otin.

Tinch o‘tir mening bilan aytishmayoq,
Yetadi senga, oqin, nahang-sayoq.
Hurpayib juni tushgan qo‘ng‘ir g‘oyday,
Urmoqqa qanot bilan turibman ayab!

JANIS OQINGA

Mening pirim — Suyunboy,
So‘z aytmasman sig‘inmay.
Nurli, suluv so‘zlari —
Menga bergan sovrinday!
Suyunboydan so‘z ochsam,
So‘z keladi burqirab
Qora dovul-quyunday!
Epkinimga duch kelgan
Ketolarmi surinmay?!
Parvozlanib uchaman
Ko‘ben[1] kabi urinmay.
Qochsang[2], quvib yetaman.
Bizga yobi[3] buyummi-ay?
Uncha-buncha oqinni
Men ko‘rmasman chivinday.

---

[1] **Ko‘ben** — ozib, so‘ng semirgan ot.

[2] Bu yerda, o‘lanni boshlab, aytishuvga kirishsang, demoqchi.

[3] **Yobi** — qirchang‘i ot. Jambul bu yerda Janisni mag‘lubiyatdan ogohlantirib, baribir yobi kabi ortda qolib ketasan, demoqchi.

Qani, boshlab yubor-chi,
Aytishmog'ing chiningmi-ay?!
O'yladingmi Jambulni
Kunda yenggan Shibilday?[1]

(1866)

MAMBETGA

Vo, qadrdon Mambetim,
Ovulingda olti kun
Dam olmay she'r yangratdim.
Kuy-qo'shiqqa to'ldirib,
Uyingga obro' jamlatdim.
Tuya berib, ot berib
Do'st ko'rinib shod etding.
Olti oy o'tib oradan,
Ovulimga sen yetding.
Jambul uyi mundoq deb,
Aybimni ochib ketding.

Uyim taqir va lekin,
So'zimni yurt tinglaydi.
Aytganlarim ma'quldir,
Uzoq-yaqin siylaydi.
Aybim ochib ketsang ham,
Meni xalqim anglaydi.
Boy bekorga mol bermas,
So'ng minnatin yuklaydi.
Qaytarmasang haqqini,
Orqadan xo'p gaplaydi.
Aytmay desam, bo'lmadi,
Gap-so'z qilib qo'ymadi.
Xayr-ehsonni bilmasa,
Ne uchun mol yig'naydi? *(1881)*

[1] **Shibil** — o'sha davrdagi mashhur oqinlardan. U bir necha marta Janis oqindan yengilgan bo'lsa kerak.

SAT SAYLOVDA

Sat ismli kishi Verniy uyezdiga qarashli Uzunqarg'ali hududida 1890-yili volost hokimi bo'lish uchun ikkinchi safar ham kurash olib boradi. Biroq oddiy xalq uning yana saylanishiga qarshi chiqadi. Chunki Satning nomaqbul ish yuritishi tufayli xalqning ahvoli ancha nochorlashib ketgan edi. Jambul uning shu kabi kamchiliklarini tanqid qilib o'lan chiqaradi. Qarg'ali, Qaskeleng ellari birga o'tkazgan bir maslahat yig'inida Jambul shu o'lanni Satning o'ziga aytgan ekan.

Lochin qushday taranib,
Sirting suluv ko'ringan.
Ne deb seni maqtaylik,
Yel esadi yeringdan.
Ozib ketdi tuyalar,
Qisrab qoldi biyalar.
Qish qirilib, yut bo'lding.
Elga yuking uyaver.
Chiqim bilan ham charchatding,
Endi xalq qandoq o'nglanar?
Ko'rganimiz shu bo'lsa,
Nima qoldi suyanar?
Qazmasam ham men uncha,
El o'zi juda kuyinar!

(1890)

ABAYGA

Salom aytinglar Abayga,
Kengash bergandi talayga.
Hammani yutgan qora yer,
Sabrli bo'lsin qalay-da.
Bir yutum suvday dunyosin
Dardini aytib kuymasin.
Yovonda bitgan boyterak,

Yolg‘izman deb yurmasin.
Yo‘qotsa tarlon qushini —
Bu ham Tangrining yo‘sini.
Norlar chidamas zil yukka
Shaylasin Abay o‘zini!

(1896)

TILAMISHGA

Ey Tilamish, Tilamish,
Tiling miltiqning o‘qinday.
Tegib ketsa kuydirgan
Saksovulning cho‘g‘inday.
Qarshi kelgan yov bo‘lsa,
Ketolmaydi bo‘g‘ilmay.
Quruq loshi qolguncha,
Qora terga cho‘milmay!
Kebekboy-u No‘g‘oyboy
Sening o‘tkir tilingdan
Qololmadi qutilmay!

(1896)

ABISHQA

Mambetali elida
Ataldim men “abishqa”[1].
Abishqa deb manov qiz
Tegib ketdi nomusga.
Abishqaning soqoli
Yo bu qizga tanishma?
Qarilik ham, payqasam,
Emas ekan olisda.

[1] **Abishqa** — qari, chol.

Cholnikiga o'xsharmi,
Qara bizning tovushga, —
Tongga qadar aytsam ham,
Bo'ysunmas u sovushga.
Yolg'on desang so'zimni,
Sinasin, ayt xolisga.[1]
Sayradi mana qizil til,
Eshitgin-u fikr qil.
Sarvday qiz ekansan,
Buyog'ini o'zing bil!..

(1896)

MANGKE HAQIDA

Jang'o'yliq[2] bo'lisi pishiq keladi,
Murunlari puchuq keladi.
Ikki yoqni sog'ib ichishda
Ko'zlarini qisib keladi.

So'zlarini uzaytira keladi,
O'ngachini qizartira keladi.
Foydasi kamroq chiqqan joyda
Tillariga tuz surta keladi.

Ingranib o'tirib oladi,
O'zini ming tusga soladi.
Oxiri Xudo yorlaqab,
Cho'ntagini to'ldirib oladi!

(1900)

[1] Xolis bir odamga ayt demoqchi.
[2] Manzil nomi.

XALQ DEB TUG‘ILGAN BOTIR

Yigitlikning davrinda
G‘ayratli bo‘lsa — er bo‘lar.
Turmasa yigit so‘zinda,
Avlodi uning kam bo‘lar.
Jasur bo‘lsa maydonda,
So‘zi xalqiga em bo‘lar.
Xalq deb tug‘ilgan mardlarning
Yuragi daryo — keng bo‘lar.
Birligi ketsa qay elning —
Har nokaslarga yem bo‘lar.
Fahmsiz bo‘lsa yo‘ldoshing —
Qilgan xayring sel bo‘lar.
Xalq deb tug‘ilgan botirning
Muhabbat-mehri mo‘l bo‘lar.
Shart odamni bog‘laydi,
Er yigit shartidan toymaydi,
Jazavasi avj olsa,
O‘limni kim ham o‘ylaydi?!
G‘ayrati bo‘lsa yigitning,
Shartni bajarmay qo‘ymaydi,
Otilgan o‘qday qaytmaydi.
Yo‘lda yovlarga duch kelsa,
Qo‘rqib tizginni tortmaydi.
Botir Qarash, Sovuruq,
Shapirashti, O‘tagan,
Bu botirlarning xizmati
Menga tanish avvaldan.
Jambulning ham sharti bor,
Adolat ko‘rmadi umrida, —
Yuragida dardi bor.
Jambulning dardi ichinda, —
Zulmning solgan o‘ti bor.
Jambul der: o‘tlarda toblandim,

Endi qironday qalqisam,
Zulmga qarshi balqisam!
El aytgan shart — er sharti,
Dushmanning boshini chalpisam!

(1900)

YONMA-YON TURSIN KUN VA OY

Jambulning keliniga bergan fotihasi

Omin denglar, qo'ling yoy,
Yonma-yon tursin kun va oy.
Olganing bo'lsin munosib,
Xafalik qochsin, hoynahoy.
Egizdan tug'ib o'g'il-qiz,
Mingani bo'lsin yo'rg'a toy.
Bir o'g'ling ketsin podaga,
Qo'yning izidan quvalab.
Birovi ketsin tuyaga
Ikki ko'zini uqalab.
Ekin eksin birovi
Ariq bo'yini yoqalab.
O'choqning boshini changlatib,
Birovi yursin dumalab.
Yilqini boqsin birovi
Asov otlarni huv-holab.
Tilini sayratsin birovi
Ko'pning oldida duolab.
Yaxshi nafas — yarim rizq,
Eskidan qolgan maqoldir.
Cho'zaverib ne qilay,
Fotiham tugay deb qoldi.

(1900)

VASIYAT

O‘h-ho‘yyy!
Dunyo misoli sayrondir,
Odam bir ko‘chgan karvondir.
Qiziq dunyoni qoldirib,
Oshamiz umr belindan.
Kirsang — borsan, chiqsang — yo‘q,
Saqlaninglar o‘limdan!
Qilichboydan taralib,
So‘z ibrati qilingan:
Do‘st-yoronga, kam-torga
Xayrli bo‘l deyilgan!
Qilgan xayring bo‘lmasa,
Ne lazzatdir umrdan?!
Davlatingdan na foyda —
Tuganmasday ko‘ringan?!
Sendan yodgor savob — shu
Xayring bo‘lsin qo‘lingdan.
Boshqa biron mol-dunyo
Ko‘milmaydi sen bilan!

(1901)

TO‘XTAG‘ULGA

Keldingmi, oqiyig‘im[1], olis yerdan,
O‘tibsan parvoz qilib asqar beldan.
Olmos pichoq qop tubida yotmas degan,
Xon-to‘ra aynalmasmi senday erdan.

Chin erlar elin topar izlab yurib,
Yursa ham bor umrida xorlik ko‘rib,
Qulonday oq bo‘g‘ovin uzib qochgan,
Yetibsan endi, mana, elga kelib.

(1912)

[1] **Oqiyiq** — burgutning bir turi.

ADOLAT KERAK XALQQA

Sariboyning o'g'li Qisiboy bo'lis bo'lib turgan davr ekan. Bir kuni Qisiboy Uzunog'och bozorida bir necha rus chinovniklariga, to'ralarga xalqning ahvolini, turmushini tanishtirib yurgan ekan. Bozorda yurgan xalq orasida Jambulni ko'rib qolgan bo'lis ulug'larga:

— Manov qozoqlarning mashhur oqini Jambul degan kishi, — deydi maqtanib.

To'ralarga tilmoch bo'lib yurgan odam Jambulni qilichi bilan turtib:

— Bu qanaqa oqin o'zi? — deydi mensimay. — Yog'och ko'tarib olib ay-haylaganning hammasi oqin bo'laveradimi?! Oqin bo'ladigan bo'lsa, qani bizni maqtab o'lan aytsin, hunarini ko'rsatsin! — deb buyuradi.

Shunda ulug'larning kekkayib kulishayotganini ko'rgan Jambul ichidan izza tortib, do'mbirasini qo'lga olib shu o'lanni boshlab yuboribdi:

Qo'liga qilich ushlagan,
Aqli-o'yi qisqadan.
Qozoqni xo'rlab, yoqtirmay,
Qilichi bilan nusxagan.[1]

Qashshoqni ko'rsa kerilib,
So'zlashmoqqa erinib.
Senlarga ermak bo'lmoqqa
Yurganim yo'q men zerikib.

Bozorga kelsam — tiyin yo'q,
Kiyishga biror kiyim yo'q.
Odam o'ldirgan o'g'riga
Ulug'lardan tiyim[2] yo'q.

Boyning bobini topmagan,
So'zim ulug'ga yoqmagan,

[1] **Nusxamoq** — ko'pchilik oldida niqtalab ko'rsatmoq.

[2] **Tiyim** — qat'iyat, man qilish.

Yolg‘on oqin — men emas,
“Yoziqsiz to‘ra” — sen emas.
Qashshoq-gado xalqni,
Jambul doim yoqlagan.

Qashshoqning yayragan kuni yo‘q,
Kirishga butun uyi yo‘q.
Ekin ekmoqqa yeri yo‘q,
So‘zini aytar eri yo‘q.
Qo‘liga yer tegsaydi,
Boydan gadoning kami yo‘q.

Qashshoq-gado, yoshining,
Rohati yo‘q bir boshining.
Ulug‘lar yurar qadrlamay,
Xalqning manaday asilin.

Boyning o‘rib oshligin,
Topolmay odil boshlig‘in,
Boydan haqqini ololmay,
Qashshoq, ko‘zingni yoshlading.

Boyning molini boqasan,
Kuzda pichanin chopasan.
Qo‘liga tushib qolgach sen,
Yaxshi ish qanday topasan?!

Qashshoqni boylar yalmasin,
Unutib tavba, vallosin.
Ulug‘dan shudir tilagim:
Adolat istar yuragim —
Qashshoqqa soliq solmasin!

Sarnasin oqin, sarnasin,[1]
To‘raga so‘zi bormasin.

[1] **Sarnamoq** — kuylamoq, qo‘shiq aytmoq. Bu so‘zning yana yig‘lamoq, dardini qo‘shiq qilib aytmoq degan ma’nolari ham bor.

Tinglamaydi ul to‘ra,
Xalq kutar oqin nag‘masin.
Qashshoqqa xo‘rlik ko‘rsatib,
Ovvoralikka boy solmasin.

Oqilsin kuyim buloqday,
To‘kilsin sirim quroqday.
Bo‘lis-to‘ralar yurgani yo‘q,
Xalqni xo‘rlab yig‘latmay.

Choparlari hovliqib,
Boradi elni chidatmay.
Bo‘lis-to‘ra, biylaring
Yuribdi xalqni quvnatmay.
Yozda azobga qoldirib,
Soliqqa molin oldirib,
Qashshoqlarga tenglik ber,
Qishin-yozin chuvlatmay!
Xalqning sirini terayin,
Barini aytib berayin,
Parvozda uchib ko‘rayin,
Chin so‘zni aytgan Jambulni
Boy ketdi nazarga ilmayin...

Shu joyiga kelganda, ulug‘lar Jambuldan achchiqlanib, jahl qilib, Qisiboyga ola qarab bozordan chiqib ketadilar. Xalq esa “tarqalinglar!” degan buyruqqa ham parvo qilmay, Jambulni yubormay, qurshab olib, “aytaver!” deb o‘rab turaveradi. Qizishib, o‘langa ilhomi kelgan Jambul xalqning qiziqib tinglayotganini ko‘rib, o‘lanni davom ettiradi. Do‘mbirasini yangratib, kuylarini jaranglatib, yuragidagi dardlarini to‘kib soladi.

To‘kayin she’rni xalqimga,
Xalq tinglab so‘zingni,
Yaxshi ko‘rsa o‘zingni
Tortinma, Jambul, tortinma!

Bulbuldayin sayrayin,
G'ayratimni qayrayin.
Shu'lamni elga tushiray,
Osmondagi oydayin!
Tosh burchakday[1] uchiray,
Shiddati kuchli so'z tayin!
Yig'ilib xalq turganda,
Tinglashga ko'ngil burganda,
So'z daryosin qo'zg'ayin.
To'lqini ketsin serpilib,
Borib tushsin tirqirab.

Bo'lis elni oralab,
Qashshoqni chopib, yaralab,
So'zini so'zlar mollining,
Ko'zini o'yar sho'rlining,
Osh beradi boy saralab.
Itday ko'rdim to'rani, —
Tomog'i to'ysa huradi.
Xalqning oqin farzandi,
Sirini fosh qilib beradi.
Oqin yugrukdan o'tadi,
Poygada yag'rin keradi.
Aytgani bari o'tirik,
Ulug'ga kim ham ishonsin?
Sizlovuq yara shekilli,
Badanga azob beradi.
Jambul oqin so'zlasa,
Yarasi qolar yorilib,
El mazasin ko'radi.
Qizil tilim, to'xtama,
Cher-xumordan chiqayin.
Xumorman yoshdan shundayga,
Nimadan qo'rqib turayin?

[1] **Burchak** — osmondan yog'adigan toshday qattiq yog'in, do'lning qattiq, muz shaklidagi ko'rinishi.

Cherimni aytsam aritib,
Tuzalar toshib chiroyim!
Ichdagi olov-yolinni,
Yashirib qayga tiqayin?
Kundan kunga kuchaysa
Aytmasdan qalay chidayin?

Tinglasin xalq quloq solib,
Biroz so'zlab ko'rayin.
Xalqdan ayab netaman,
Allohning bergan ko'mayin.[1]

Jambul ko'rdi yoshlikdan
Chopovul, zo'rlik, janglarni.
Birovni birov talagan.
Yirtqichlarni, zang'arni.

Sotilib tomoq, poraga,
Xalqini teng bilmay zarraga,
Ko'rdim shunday xonlarni.
Yursa ham xalqi oh urib,
Qachon shularni anglagay.

Qarshilik ko'rsatganlar
Xayr topmay haydalgay!
Yo'lini qilib molni oldi,
Molni olmadi — jonni oldi.
Qashshoqning botib joniga,
Xonning sermagan qilichi,
Tugadi tiriklik tinichi,
Xonning qo'li qonlandi!
Tun qorong'i dunyoda
Otadigan tonglar bor.
Qorong'ining chiroyi —
Yonadigan shamlar bor.

[1] **Ko'may** — ko'mayimdagi, tomog'imdagi ovozni, iste'dodni demoqchi.

Bu dunyoning tiragi —
Taqdirning o'lchov, sinog'i,
Shod bo'larlik damlar bor.

Saroyli, ko'shkli bog'larda,
Adolatli chog'larda,
Tantana qilgan xalq uchun,
Adolat uchun, baxt uchun
Sayrovchi bulbul topilar.
O'shanda zamona baxti deb,
Xalqni maqtasa haqli deb,
Oqinga sharaf yog'ilar.

Bozorga kelsam — oqcham yo'q,
Suyukli qo'nar bog'cham yo'q,
Sho'rlik gadoy-chorvaning
Xayrli tongi otgan yo'q.
Qorali elning xalqiga,
Hech kim to'g'ri so'z aytgan yo'q.

Xon-to'ralar aldasa,
Biy-bo'lislar avrasa,
Zaharli ilonday tashlanib,
Xalqda jon qolmasa,
Zamonning buzuq joyini
Kim aytar — Jambul aytmasa?

So'z tinglar zamon kez bo'lsa,
Zoriqtirmasdan tez bo'lsa,
Jambul guvoh emasmi,
So'zimni xalqim tinglasa?
Oqinlar yodlab sarnasa?!
So'zlarimga so'z qo'shib,
Jambulga she'r bag'ishlasa!
Qisiq yo'l to'g'ri chopilsa!
Qiyshiqqa to'siq yopilsa!

Jambulning she'ri toshqinlab,
Sel kabi ko'kdan yog'ilsa!
Oliq-soliq yig'nagan,
Qashshoqni yanchib-qiynagan,
Dushmanga jilov solinsa!

Eldan baxt ketib boradi,
Xon so'ragan qozoqning
Xo'rligi o'tib boradi.
Yo'qsil, qashshoq xalqni
Hamma kulgiga oladi.

Boyda ishtaha ochilgan,
Borni ham yo'q deb yashirgan,
Tepag'on eshak shekilli,
Tepkilab o'rin bermadi,
Bo'sh yotsa ham yer, qoshidan.
Shundaydir azob turlari,
Zuvullab o'tib turibdi
Zamonaning boshidan.

Yomon odat xalqda bor,
Boy aytsa, deydi:
"Yaraydi!"
Boy uni yorug'ga chiqarmas,
Jon achib, kim kimga qaraydi?!
Qashshoqqa bitta baxt bitsa,
Boy "mendan" deb sanaydi.

Qonini so'rib sho'rlikni
Devonaday talaydi.
Qashqir tekkan yilqiday,
Churqirashib-iskashib,
Biri birini yalaydi.
Boy yubormas foydasin,
O'tkazar avrab hiylasin.

Mana o‘shanday shumlarga
Jambul g‘ayrati qaynasin!

Boylikning tubi — foydadan,
O‘trik-quvlik — hiyladan,
O‘g‘irlik-zo‘rlik, talon va
Yuzlab yilqi, minglab qo‘y,
Boylar suvday haydagan.

Fol ochirib baxshidan,
Adashtirib yaxshidan,
Ko‘ngli qoldi xalqning ham
Xon, to‘ra, ulug‘, taqsirdan.
Zulm yasasa xalqqa,
Farqi bormi qonichar
Qo‘ylarga tekkan qashqirdan?
Umr bo‘yi o‘shalar
Elga ayovsiz qasd qilgan.
Ikki qozon bir uyga,
Zulm ko‘rsatib ostirgan.
Yo‘g‘on bilak, qamchi-la,
Nochorlarni qo‘rqitib,
Mazasin olib — shoshtirgan.
Suvda oqqan olqindi,
Xalq ham qoldi bujmayib
Ofatdan, o‘tdan, toshqindan.

Ayt-chi, xalqim, bekormi,
Umr shundoq o‘tarmi?
Yillar siljib o‘tsa ham,
Oylar oshib ketsa ham,
Kunlar quvib yetsa ham,
Ko‘kaydan alam ketarmi?
Erkinlik yo‘q elimda,
Egasi yo‘q yerimda,
Bahosi yo‘q, foyda yo‘q,

Baxtsiz sho‘rlik qayda yo‘q,
Yel bilan uchgan to‘zonday,
Foydasiz manglay teran-da.

Xalq bilan birga bo‘layin,
Aylana ichra charx urib,
Aniqlab, bilib, ko‘z ko‘rib,
Mehnatim singsin mening-da.

Asqar tog‘ g‘arib emasmi —
Oq-oydin ko‘li bo‘lmasa?
Er yigit g‘arib emasmi —
Belgili eli bo‘lmasa?
Elu yurt g‘arib emasmi —
Mustaqil yerga qo‘nmasa?
Ko‘k daraxt g‘arib emasmi —
Mevasi o‘sib turmasa?
Oqar suv g‘arib emasmi —
O‘zani toshib-to‘lmasa?
Nozanin g‘arib emasmi —
Erkakdan baxti yonmasa?
Qo‘y-sigir g‘arib emasmi —
O‘t-o‘lanini topmasa?
Qaynoq yoz g‘arib emasmi —
Qurg‘oqchilik xo‘rlasa?
Qora qish g‘arib emasmi —
Dalalar qorsiz muzlasa?
O‘choq ham g‘arib emasmi —
Solgan ko‘miring qizmasa?
Temirchi g‘arib emasmi —
Po‘latni toblay olmasa?
Oqin ham g‘arib emasmi —
Boylarni o‘trik maqtasa?
Zamona g‘arib emasmi —
Adolat ustidan hatlasa?
Fuqoro g‘arib emasmi —

Va'dalar ishga oshmasa?
Bo'z yigit g'arib emasmi —
Iqboli olg'a bosmasa?
Arg'umoq g'arib emasmi —
Haromter bo'lib oqsasa?
Podachi g'arib emasmi —
Podasin eplab boqmasa?
Baxshi ham g'arib emasmi —
O'trikni maqtab-yoqlasa?
Oydin ko'l g'arib emasmi —
G'oz-o'rdak kelib qo'nmasa?
Duradgor g'arib emasmi —
Yog'ochni tekis yo'nmasa?
Zamonning zebi emasmi,
Zamonning g'amin yemasmi,
Do'mbirasin olib qo'liga,
Jambulday oqin kuylasa!

Men ko'rdim talay boylarni, —
Xalqning baxtini boylagan.
Ajdarho kabi haybatli,
Elni so'rib yayragan.
Talaylar ketdi, joy qoldi, —
Umrning sho'ri qaynagan.
Oqin qanot yozolmas,
Xalqning ichi tozarmas,
Buzuq bo'lsa aylanang.

Do'mbirasin qo'lga olib,
Jambul san'atin gullatdi.
Ichida olov qo'zg'alib,
Kuy izidan kuy yetdi.
Shu hunardan Jambulning
Ko'ksiga gullar tang'ildi.
Umr chirkin, oh, netdi,
Vahima o'sdi, g'am yetdi,

Elni qayg‘u tebratdi,
Bosh qo‘sholmay, birikmay,
To‘z-to‘z bo‘lib el ketdi.

Aql aytuvchi dono yo‘q,
Qarshi turmoqqa chama yo‘q.
Elning g‘amin o‘ylashga,
Hasratsiz bir zamon yo‘q.
Xor bo‘lgan elda talay er,
Erlarni bosgan qayg‘u — cher.
Er mehnati ko‘rinmay,
Foydasiz ketgan oqqan ter.

Jambul she’rlarni naqshlab,
Eliga so‘zini bag‘ishlab,
So‘zi ketdi to‘kilib,
Toshgan suv kabi irg‘ishlab.
Jambulning jag‘i tolmagan,
Jambulning yeri yo‘q bormagan,
Uchqur tarlon shekilli,
Yugurib-uchishdan qolmagan.
Tog‘dan uchgan qironday,
Qo‘nar yerin tanlagan.
Tanasi qizib olganda
Oldiga odam solmagan.
Qizib Jambul yugursa,
Ey, kimlar yo‘lda qolmagan?!

(1912)

KO‘RGAZMADA

1913-yilda Romanovlar sulolasining Rossiya imperiyasi taxtiga chiqqanligiga 300 yil to‘lishi munosabati bilan tashkil qilingan ko‘rgazma (vistavka) kuni xalq oldida aytilgan mashhur o‘lani:

— Uysun, Nayman barchangiz
O‘stepkida[1] yig‘ilding.
Yo‘lda uchib to‘zon-tuz,
Almatiga quyilding.
Elda yurgan bekorlar,
Bir qal’aga uyulding.
Ulug‘ ko‘rsang, yoprilib
Shamol kungi qamishday
Bosh tekkuncha egilding.
Yursak ham sir olishmay,
Sir-a’moling men bildim.
Keltirdinglar nomusni,
Xo‘b xo‘rlanib kuyundim.
Bundoq qizziq ko‘rguncha,
O‘zi yaxshi uyimning.
Tiz bukmasman siz kabi,
Kerakmas pul-buyuming.
Bosh egmasman o‘lsam ham,
O‘lanimga buyurdim,
Faqat unga sig‘indim!

(1913)

ERK KETDI...

Erk ketdi fuqaroning bolasidan,
Ibrat ol bul so‘zimning sarasidan,
Oqpodsho buyruq qildi soldat ber deb,
O‘n to‘qqiz-u o‘ttiz birning orasidan.
Shu gapga tirik turib ko‘namizmi?
Mardlarni yot qo‘liga beramizmi?
Bo‘lmasa, bir xalq bo‘lib, bir saf bo‘lib,
Boshlasa biron botir, yuramizmi?

(1916)

[1] “Vistavka” so‘zining buzilgan shakli.

SHOH FARMONI TARQALDI

(1916-yil voqealari)

Qizig‘ingni ko‘p ko‘rdim,
Qarabastov, Qulonsoz![1]
Kunlarimni o‘tkazdim
Senda yurib uzoq yoz.
Maysazorga yoyilgan
Bizlar edik o‘rdak-g‘oz.
Vahimaga berilmay
Qilar edik suhbat-soz.
Shoh farmoni tarqaldi,
Bormi bunga bir iloj?
Ichga to‘lgan zorimni
Qancha aytsam shuncha oz!

Yigitlarni qo‘shoqlab,
Qalay qiyib berarmiz?
Ko‘z yoshimiz munchoqlab,
Dil ichikib o‘larmiz!
Ko‘k yaylovni qoldirib,
Qalay ko‘chib ketarmiz?
Ko‘krak to‘la dard-hasrat,
Xo‘rlik bilan o‘tarmiz!

“Besh uydan bir yigit!” deb,
Bo‘lislar yurar chopqillab.
Yasovullar uy tintar,
Qilichlari yarqillab.
Ko‘rgan kunimiz qursin,
Yaproqdayin qaltirab!
Bitgan kabi majoling,
Kunda yurak holsirab...

[1] Yaylov nomlari.

Bu dunyoning tengligi —
Yursang agar erkin, bo‘sh.
Jon qisilsa, ne chora?
Topilmaydi yaqin do‘st!
O‘z ichingdan chiqqanlar
Tayoq urar o‘zingga.
Har narsaga bir zavol
Bordir dunyo yuzinda.
Biy-bo‘lislar dong qotdi,
El ishiga yaramay.
Elni, xalqni engratdi,
Ko‘z yoshiga qaramay.
Endi o‘ylang, ne qoldi? —
Ota yurtdan ketmoq bor.
Yo‘lga tikib jonlarin,
Bir tavakkal etmoq bor.
Shu bo‘lmasa, chopqillab
Ko‘r taqdirga ko‘nmoq bor.
Ko‘nsang, kunda qon yutib,
It xo‘rlikda o‘lmoq bor!

(1916)

QONLI BUYRUQ

(1916-yil voqealari)

Verniydan generallar qildi buyruq,
Buyrug‘ining tagida og‘ir quyruq.
Navqiron yigitlarni olar emish...
El-yurtning yuragiga tushdi sovuq.

Sho‘rlik xalq zor yig‘ladi holin aytib,
“Yurtdan chiqib ketdimi — kelmas qaytib!”
Deydi-da, qaltiraydi, mo‘ltiraydi,
Qayg‘udan kecha-kunduz azob tortib.

Verniyning qadam bosmay qal'asiga,
Chol-kampir osiladi bolasiga.
Hech biri em topmaydi yig'lasa ham,
Mazlumning yurakdagi yarasiga.

Pristav kelib qoldi bola so'rab,
Xalq turar g'azab bilan uvlab-guvlab.
Qirsang ham bolamizni bermaymiz deb,
Ota-ona qaqshaydi, ko'r, chuvullab.

Pristav achchiqlandi: "olamiz!" deb,
Yigitlar: "Yo'q, bormaymiz, qolamiz!" deb.
"Agarda qaroringni o'zgartmasang —
Boshingga bir vayronni solamiz!" deb.

O, jamoat, qaranglar manov joyga,
Xalq yig'ildi, mengzadi asov soyga
To'fon kabi avjlandi, to'lqin urdi,
Bir najot bo'larmi deb shirin jonga.

Qarg'ali degan toshqin bir o'zanda,
Yigitlar yig'ildilar sal fursatda.
Pristav ketdi: "hali ko'rasizlar,
Alamimni olaman, deb, albatta!".

Barcha ishni pristav yodlab oldi,
Boshchilarni qog'ozga xatlab oldi.
Otlantirib bu yerga soldatlarin,
Botir-u norg'ullarin saflab oldi.

Yoz kuni, qaynab yotar dunyo — hovuz,
Odamlar rangi qonsiz, mollar holsiz.
Shu kunlar ayni ro'za davri edi,
Bunday kunda ro'zani ne qilamiz?

Qarg'alining suvida og'iz ochdi,
Xaloyiqqa bir balo duchorlashdi.

Boshchilari ketgan edi, toqat qolmay,
To‘plangan yurt hayronda jon talashdi.

Soldat kelib olib ketdi xalqni haydab,
Boradi bo‘zbolalar ko‘zi o‘ynab.
Ayni yoz, kunlar issiq, nafas qaytar,
Xalq ketdi avaxtaga sho‘ri qaynab.

Yaxshidan yaxshi qo‘ymay saylab oldi,
Qirg‘iz, qozoq avaxtaga juft qamaldi.
Bilmadi ne bo‘lganin sirtdagi xalq,
Qamalganlar qiynoq, azob, o‘tda qoldi.

Mahbuslar chuvillashar “netamiz?” deb,
Sirtdagi xalq “biz qayga ketamiz?” deb.
General, gubernator so‘roq solar
“Yaylovda tug‘ ko‘tarib chopgan kim?” deb.

Hech odam aytmagandi qo‘rqib, dodlab,
General o‘zi aytdi “Bekbo‘lat!” deb,
Bekbo‘lat bo‘la qoldi tug‘ ko‘targan,
Buyruq qildi “dor tikla, osib tort!” deb.

Qaliqul ham birga bordi dor ostiga,
Boybo‘sin qo‘sha kirdi orasiga.
Avaxtada qolganlar esdan toldi,
Qamchi tegib ko‘zining qorasiga.

Aravaga irg‘itdilar go‘yoki qop,
“Imoningni aytuvchi mullangni top!
Un chiqarmay o‘tir, ey nodon to‘da,
So‘zlay ko‘rma, bo‘zlama, og‘zingni yop!”.

Samsiga qo‘nib yotgan Bo‘tpay eli,
Shovqin-u faryod bilan to‘lgan edi.
Tutqinlarni bo‘shatib ololmasdan,
Bir balo uzra yana balo keldi.

Pristav ham Samsiga borgan ekan,
Jonibek masjidiga xalq kelgan ekan.
Jonibek hoji o'zi ora turdi,
Bir bo'lis xalq g'azabga to'lgan ekan.

Chiqib ketolmay pristav ham halak bo'ldi,
Jonibek omonlikka sabab bo'ldi.
Ertasi kun qutilib, Uzunog'ochga
Changitib ketaverdi qora yo'lni.

Bo'lak-bo'lak to'planib Bo'tpay eli,
Boy-ko'pasni o'ldirdi, g'olib qo'li.
Dastiga shundan boshqa tuk tushmadi,
Kezsa ham yon-atrofni sarson bo'lib.

Zo'r kuchga odamlar bas kelolmasdan,
Oqibatin ne bo'larin bilolmasdan,
Kuch yig'olmay, uquvsiz urush qilib,
Yigitlar o'lib ketdi o'ch olmasdan.

Shienda[1] ham soldat bilan urush bo'ldi,
Shu urushda qo'rboshi Sattor o'ldi.
"Sattor o'ldi, el qochdi" degan xabar
Dasht aro yurtdan yurtga keng yoyildi.

Chuvullab toqqa qaray el jo'nadi,
Oxiri nima bo'lar — kim biladi?
Toqqa chiqib, o'rmalab, toshga buqib,
Xalq bilmaydi — kim o'lib, kim qoladi?

Ertasi hamma yerga askar bordi,
"Xalq qochmay, kelsin!" deya xabarladi.
"Kim ko'rinsa, otadi" degandan so'ng,
Tog'dagilar kirar yer topolmadi.

[1] **Samsi, Uzunog'och, Shien** — manzil nomlari.

...Otlandik ulug'larga borishga ham,
Bo'rsiqday elni so'rgan bo'lisga ham.
Ko'p erlar o'lib ketdi yov o'qidan,
"Ozodlik!" deb chiqqandi el urushga ham.

(1916)

TASHKILOTCHILARGA

Zamona og'ir bo'lmadi,
Jambul so'zdan qolmadi.
El yaylovdan ko'chmadi,
Ko'kdan yashin tushmadi.
Senlar chetga chiqargan
Jambulning oti o'chmadi.

Men boyagi Jambulman,
Haliyam so'zda dadilman.
Dilingizga yoqmagan
Men sizlarga ne qildim?
Qay biringning uyingga
Sadaqa so'rab men kirdim?!

Jonim borki gavdamda,
Senlardan kam bo'lmasman.
Durullatib har yerda
O'lan-kuyni qo'ymasman.
Do'mbiramni qo'lga olib,
Keng yelkamni rostlayman.
Tek shunda duch kelmanglar,
Men sizlarni boplayman!

(1921)

OQIN BO‘LDIM O‘N UCHDA

Oqin bo‘ldim o‘n uchda,
Olg‘ir qushday tarandim,
Oldi-ortimga qarandim,
Parvoz qildim har yerda,
Aytishmoqqa yaradim!
Javob bergim kelmaydi,
Desa: qayga borarsan?
Payqadim biroz oralab,
Shapirashti, Yesey[1] bolasin!
Oqinlik qo‘nmay turganda
Jovdirab Jambul turar jim.
Ulug‘ bilan to‘raning
O‘g‘irlaganday tanasin.
Chorlasin Jambul, yarqirab,
Qiron qushday charx urib,
Payqasin unin, chamasin.
Og‘ayin, elning ichidan,
So‘z uqmas nodon kishidan
Topmadi Jambul bahosin.
Qaytmadim hech, o‘rladim,
Do‘mbiramni sermadim,
Oqinlar bilan talashdim,
Yugruklar bilan yondashdim,
Yolg‘on oqin kez bo‘lsa,
Undayga yo‘l bermadim.
Toshqinladi o‘lanim,
Yuksalib, chaqnab hunarim,
To‘ldirishga intildim,
O‘lanning salqi kamarin.
Sadoq kabi saylanib,
So‘z o‘tkirin o‘ylanib,
Otar o‘q kabi bezandim.

[1] **Shapirashti, Esey** — shu urug‘lar yashaydigan manzil nomlari.

Yel so‘zdan topib sururni,
Qo‘yvormasdan g‘ururni,
Qiyshiqni tuzab ketdim men.
Ortiqni til bilan aytdim men.
Yelday uchqur so‘z topib,
Yaqin qildim olisni,
Yosh Jambul xalq-la tanishdi.

O‘tirik so‘zni suymadim,
Dunyo uchun kuymadim,
Oltiniga birovning
Yo‘lda yotsa, tegmadim.
Yirtiq kiyim — kiyganim,
Oriq, yag‘ir — minganim,
Tumonat to‘pni qoq yorib,
Yoshlikda chaqnab yurganim.
Oq bo‘nanday yelganim,
Oqinning ko‘rib merganin,
Umr bilan yondashib,
Qashshoq-la hisoblashib,
Haqiqatni so‘yladim.
Oq do‘mbira — suyganim.
So‘zning o‘qini mo‘ljallab,
Olisdan otib yetkazdim.
Dushmanga qarab otganda,
O‘mganidan o‘tkazdim.
Mergan bo‘ldim, otgichman,
Ko‘zladim ko‘rsam go‘zalni.
Chechan bo‘ldim, topgichman,
Oldimda ko‘p el sinaldi.
To‘g‘ri yo‘ldan to‘talab[1],
Elning sirin yetalab,
Orqalab, orqa qir oshib,
O‘jarlanib, chidashib,
Jambuldan kim bor chidamli?!

[1] **To‘talamoq** — to‘g‘ri, qiyshaymay yurish.

O‘n yetti bilan o‘n sakkiz —
Tolchiviqday buralgan.
Yosh oqin Jambul atoqli,
O‘n uchdan boplab sanalgan.
Jo‘yasin topgan yel so‘zli,
Uysun, Nayman xo‘p olgan.
Go‘ro‘g‘li sulton, O‘tagan
Shajarasin tinglasa
El chiqardi hunardan.
O‘lanni qachon doritgan,
Davlatga qachon yor etgan.
Jambul oqin nasibi —
O‘zimni sevgan xalqdan.
Xazinasi keng dunyo,
Jambul qachon toriqqan?
Ko‘ngil ochib ketayin,
Biroz xizmat etayin,
Xalqqa, mungli zoriqqan.
Cher-xumordan chiqarib,
Chertayin ko‘pli o‘lanni
Yoshlikdan bo‘yga taratgan.
O‘lan degan hunarni,
Davlat — elning rizqi-ku,
Sarqilmas qozon kamarli.
Charchamasdan, charx urib
Oraladim har elni.
Ulug‘ to‘y, yig‘in, oshlarda,
Orqa Olatog‘ — asqarda
Yig‘ilgan to‘pda qari-yosh
Sevindi, tinglab shod bo‘ldi.

Yosh yigirmaga kelganda,
O‘r takaday yelganda,
Oldimdan chiqqan hoy-huylab,
Yo‘liqdim talay merganga.
Tishini qayrab yursa-da,

Otolmadi mo‘ljallab,
Qoramni mergan ko‘rganda.
Tirik kunda orttirsam,
Qo‘limga qilich choptirsam,
O‘zimni sanab men yurdim
Tirik emas, o‘lganga!

Yigirma beshga oshganda,
Oy ilashdi osmonda!
Yulduzlar turdi mo‘ralab,
Yangratib kuy bosganda!
Talqonlab buzdim bo‘g‘ovni,
Kamolga kelib toshganda.
Ulgi berib o‘landan,
Elga urug‘ sochganda.
Kurashmoq bo‘lib kelganlar
Changga ilashmay qochganda.
Do‘mbiraning pardasin
Yuksaltirdi o‘n barmoq
Dam olmasdan bosganda.
Yo‘ldosh bo‘ldi do‘mbira,
Jambul charchamas sira.
O‘ttiz turibdi o‘ylanib,
Meni o‘ziga chaqira.
Zamonadan qolishmay,
Quloch siltab olisga-ay,
Besh barmog‘im qarsillar,
Yel so‘zni yurak yondirar.
Qulog‘imni qondirar.
O‘ttizdan oshdi yoshimiz,
Aqlga to‘lib boshimiz.
Chaqmoqday chop, to‘lib oq —
Poygaga tushgan arg‘umoq —
Oqin — jonning yuragi,
Yosh boladay minazi,
Bolalik — shunday noyob chog‘!

O‘tkir so‘zim qilichday,
To‘g‘radim so‘zni qolishmay.
Kengaydi so‘zning chambari —
Taqdirning tuhfasi bari!
Boraverdim qolishmay,
Yoshim ketdi olisga-ay,
Ko‘ngich bo‘ldim umrga,
Minazim — yumshoq qayishday.
Asldan so‘qqan oq shamshir,
Kelaman men ham qayishmay.
Zang bosmadim, sinmadim,
O‘zimni o‘zim chinladim,
Qirg‘iz-qozoq yig‘ilsa,
To‘pni yorib kuyladim.
To‘pdan o‘zgan oqinni,
To‘p ichida tingladim.
Poyga otiday yulqinib,
Chopmay qarab turmadim.
Qo‘ygan umr yaratib,
Yel so‘zimni taratib.
To‘xtamadim qizganda,
Xalqim tinglab turganda,
Tun ortidan tun ketdi,
Kun ortidan kun ketdi,
Kunlar botib, tong otib,
Kelganda yugruk bobina,
Poygani bermas chopganda,
Kim to‘xtata oladi
Qizib shiddatlanganda?!

Ko‘rdi Jambul qirqni ham,
Navbat kutar damo-dam,
Simga tortilgan kumushday.
Sinimni buzmay turganda,
Yigirma besh qayta kelganday.
Qirqda ham javlon urarman,

Tog‘larda uchgan qironman,
O‘lanim ketdi selday bo‘p.
Yer yuzini qoplagan,
Suvga oqqan sangday bo‘p.
Yeri yo‘q borib yotmagan.
Qirq besh ham kelib yo‘liqdi,
Ellik ham keldi erkinlab.
Jambulni ellik o‘ylatdi.
Ellikni yosh deb esga olmay,
Yumshadim ko‘p g‘ayratni,
Asov ot qilib o‘ynatdi.
Saqladim esda o‘ylanib,
Ellikning esib o‘tarin.
Qizil ko‘zi alaqlab,
Qizil tili salaqlab
Ozuv tishi shilqillab,
Bo‘g‘inlari bilqillab,
Oq ko‘pik sochib og‘zidan.
Arslon kabi hayqirib,
Qarilikni chaqirib
Oltmishning bildim yetarin.
Oltmishdagi chollarday
Qolmadim ammo chatilib.
Qilgan yaxshi ishlarim,
Hammasin o‘tdim yod qilib.
Olddagi umr — o‘tgan yosh,
Oqchil tortdi aziz bosh.
Kumushlandi soqolim.
Ozlab belgi beradi
Yaralsam ham temir-tosh.

Yetmish ham yetdi yelganday,
Hayotni bildim ko‘rganday.
Charchamasday bul taqdir
Bir xosiyat berganday.
Qarilik emas, shu kunlar

Charchatdi meni zamonim.
Ko‘krakda qotib cher bo‘ldi
Qayg‘u-dard ichga qamalib.
Ellik yil qirg‘in bo‘lsa-da,
El ko‘rgandan tonarma?
El og‘zida so‘z bo‘lib
Ketdi so‘zim taralib.
Jambul aytmas o‘landa
Dunyoning o‘trik — yolg‘onin.
Dardni tarqatib shul kezda,
Qo‘zg‘adim dilning armonin.

O‘lanim to‘fon suviday,
Yettisuvdan axtardim.
Tinglamay yaqin-olisin,
Dunyoni qoplab tovushim,
Oltoydan ham hatladim.
Qartaydim deb umrda,
Qayg‘ulanib yotmadim.
Yoshlik — naqadar yoqimli,
Uni keldi maqtagim!
Maqtamasam ne bo‘pti,
Ko‘ngil kuylarin yoqladim!
Yetmishdan oshib, saksonga
Siljidim, eplab hatladim.
Qarilikni bo‘yinlab,
Shoshilib ham ketmadim.
Ko‘plar saksonda toriqdi,
Charchagan el zoriqdi,
Tenglik bergan zamonga
Shukrim bu — tirik yetganim!
Betimga chiroy — nur berdi,
Jon-tanamga ko‘rk berdi,
Teng ko‘rib qashshoq-gadoni,
Keldi yaxshilik zamoni!

(1922)

YOSHLAR OLDIDAGI SO‘Z

Ay, Jambul, navbat keldi, so‘zing boshla,
Quloching keng-keng yozib, qadam tashla!
Oldinda yangi hayot egalari,
Aytganingni eshitsin, ko‘ngil xushla!
Aytmayman deganingga qo‘yadimi
Erk, mehnat qo‘ynidagi manov yoshlar.
Ko‘rgan eding tuman bosgan, erksiz yo‘lni,
Yoshlarga aytib bergin o‘rnak ishlar.
Axtar-chi sandig‘ingning og‘zin ochib,
Bo‘lgan-ku senga so‘zning koni nasib.
O‘lanning buloqlari bekilmasdan
Elingga bahra yetkaz oshib-toshib.
Kuy chertib, yangrat endi do‘mbirangni,
Yuraklar rohatlanib jo‘shsin, mayli.
Bor edi alvon rangli termalaring,
Shunga o‘t, tillaringdan tomiz moyni.
A... u!..
Termadan so‘zni boshlayin,
To‘pdan uzgan tarlon edim,
Parvozlardan tondimmi?
Tuyog‘im to‘zib, to‘pay bo‘lib,
Qadamni mayda oldimmi?
Chol ekanim bilinib,
Poygada ortda qoldimmi?
O‘h!..
Do‘mbiram olib qo‘limga,
O‘n yoshimdan sayradim.
Yetmish yoshdan o‘tsam ham,
Poyga[1] bo‘lsa qolmadim.
Bugungiday esimda:
Tumanni yorib she’r bilan
Semeyga ham borganim.
To‘pdan o‘zib unda ham,

[1] **Poyga** — bu yerda chechan va oqinlar musobaqasi degan ma’noda.

Poyganing oldini olganim.
Olganim qursin, na iloj,
Ey bevafo shum dunyo,
Meni nega aldading?!
Bugungiday yig'inda
Bir soat ham bo'lmadim.
Jamoaning oldida
So'zimni ayta olmadim.
Yoshlar bilsin qayoqdan
Nechuk Jambul bo'lganim?
Terib so'zning rastasin,
Tutib kuyning dastasin,
Tarixiy yig'in oldida
Poygani chopib olmadim.
Endigi tilak bittadir,
Qimirlab qol, jag' va til,
So'z tanobin astarla,
Tabarruk so'z ayt yoshlarga.
Ne qilsa ham Jambulga
Endi yoshlik kez kelmas.
Yuragida asragan
Asl so'zi o'zgarmas.
Sizlarniki bul zamon,
Bunga talash so'z bo'lmas.
Ishlansa ham qanchalik —
Oltin o'zgarib jez bo'lmas.
Oyoqqa o'rab qo'ysang ham
Asl ipak bo'z bo'lmas.
Balchiq surtib qo'ysang ham
Durru gavhar tosh bo'lmas.
Yomonlik — odam fe'lidan,
Bosh bo'lganlar yosh bo'lmas.
Qaychilab toshga ursang ham,
Po'latning sifati past bo'lmas.
Tinglab ko'r qari Jambulni,
So'zi sizlardan kam bo'lmas.

Asl so‘zning koniman,
Kim aytishsa men bilan
Talay-talay yengilgan.
Parvoz qilsa chin tarlon,
Duch kelgan cho‘qqini oladi.
Hay-hoylasa chin oqin
Qo‘shig‘i elda qoladi!

(1934)

ORDEN OLGANDA

To‘qsondagi Jambulga
To‘lqin-to‘lqin so‘z keldi.
Qish so‘ngida ko‘klamday
Qari ko‘nglim o‘zgardi.

El qadrini ko‘targan
Shodlik zamon kez keldi.
Quvvat berdi hur hayot,
Bo‘zbolaman men endi.

Olgan oltin ordenim
Yangroq she’rim tufayli.
Ko‘rkam Vatan oldiga
Shoir she’rin to‘kadi.

Qaynagan ish, ulkan kuch
Qahramonga berar nom.
Qiron qushday shaxdam uch,
Sayra, chechan do‘mbiram!

Qalbga malham kuy bilan
Bor olamni bir chayqat.
Yashash go‘zal, ko‘ngil shod,
Vatanga zeb kuylar ayt.

Vintovkali sarbozlar
Chiqqan kabi urushga.
Do'mbirasin bezatib,
Jambul borar kurashga.

Sarboz chopib qilichin,
Yulsa yovning bo'ynini,
Kuy dahshatga ko'madi
Dushmanlarning qo'ynini.

Kuyning uchqur bo'lgani —
Yangi hayot ne'mati.
Menga ilhom, kuch bergan
Elning baxti, rahmati.

Chiqib ko'm-ko'k dalaga,
Yurtni kuylayman hozir.
Kuylarimdan dillarga
Yog'sin dasta-dasta nur.

(1936)

ABDULQOSIM LOHUTIYGA

Baxtli el bosh qo'shganin etib o'lan,
Lohutiy, tojikcha xat yozding dildan.
Mehringdan yuragim chin erib ketdi,
Qozoqcha men ham javob yozdim shul dam.

Sening she'ring — xalq she'ri,
Xalqi tojik
Bulbulday yangratadi kuyni nozik.
Men aytsam, qozoq xalqi jo'r bo'ladi,
Tutib ketar dunyoni shodlik sozi.

Baxtli yurt, oltin quyosh nurlariga
Bizning xalq qo'shiq aytar zavqin solib.

O‘lan, she’r oqqush kabi qatorlansa,
Izidan kuy ergashar ko‘kni yorib.

Dog‘iston tog‘larida Sulaymonning[1]
She’rlari kelar buloq kabi oqib.
Belorus dalalarin oqin Yanka[2]
Dunyoga tanitmoqda kuyga solib.
Birikib qirg‘ir, qozoq, o‘zbek, tojik,
Ulug‘ yurt she’r aytadi kuyga qorib.

Ko‘tar tovshing, she’rlaring yaraqlasin,
Firdavsiyning urpog‘i oqin Qosim!
Tog‘lardan quyi engan buloqdayin
Ming chechan bizlar bilan sharaqlasin.

She’r bo‘ldi Vatanimiz, ulug‘ mehnat,
Xalq do‘stligi, totuvlik, mehr-muhabbat.
Turmushdan zulm-u zulmat yo‘qolgani —
Yer yashnab, elga qo‘ndi baxt va davlat.

Lohutiy, nazaring sol, yashnadi bog‘,
Bul bog‘da chiroy ochdi gul-qizg‘aldoq.
Iforlar balqib, xayollarni olib,
Shudringlar yaltiraydi marjonday oq.

Bildim men qartayganda hayot sirin,
Dunyoning to‘rt burji va o‘yli-qirin.
Yer osti, dengiz tubi, qit’alarni,
Asqar tog‘ cho‘qqilarin, qo‘ng‘ir yerin.

Lohutiy, ikkimizda birdir tilak,
Bir bayroqning ostida urar yurak.
Turli tilda yangratdik bir qo‘shiqni,
Xalqlar bo‘ldi yelkadosh, do‘stlik — tirak.

---

[1] **Sulaymon Stalskiy** — Dog‘istonlik shoir.

[2] **Yanka Kupala** — Belaruslik shoir.

Fors elining g'azali, qozoq she'ri,
Qo'shilib to'ldiradi birin biri.
Qari og'ang shul do'stlikni kuylayverar,
Tarixning kuylab o'tgan ming bulbuli.

Shul niyatda to'lg'onib uchar xayol,
Qosim shoir, do'mbirangni qo'lingga ol.
Asrlarni to'ldirsin bizning kuylar,
Yashnayversin qardoshlik, baxt-u iqbol.

(1936)

KULESHGA

Qizim keldi qoshimga qizg'aldoqday,
Turibdimi men qarining so'zi yoqmay?
Seni tuqqan onangdan aylanayin,
Vujudingda nuqson yo'qdir bir ushoqday!

Yosh edik, tog' qulatib, suvday toshdik,
Endi bugun oxirgi qirdan oshdik.
Tog'larda botgan quyosh shu'lasiday,
O'zib ketib qolibdi asov yoshlik!

Qiz tugul, endi menga kampir qayda?
Shu kunlar sog' yurganim o'zi foyda!
Oqcha yuz, o'ymoq og'iz suluv bilan
Uchrashib yurganman, voh, teran soyda!

(1936)

TO'QTAG'UL

Nabiram bir kitobni o'qib yotdi,
Kitob so'zi har kimning fikrin tortdi.
Payqadim, tinglaganning ko'ngli o'sib,
Har so'zidan bir dunyo lazzat topdi.

Xumorin yozib, joni rohatlanib,
Qo‘zg‘almay, farog‘atga obdon botdi.
Jon erib, yurak yumshab, gavda titrab,
Vujudni asl so‘zlar jimirlatdi.

Olmosday har bir so‘zi yarq-yurq chaqnab,
Pokiza hissiyotlar suvday qaynab,
Tez yetdi tinglovchining ko‘kayiga,
Shiddatin goho chinlab, goho qayrab.

Yetaklab xalq xayolin, o‘yin bezab,
O‘chmasday, yuraklarga naqshin tuzab,
O‘zgalardan oshib-toshgan fazilati,
She’riga asl so‘zni tizgan saylab.

Kim bu? — deb, orziqadi inson dili,
Bilgisi kelganlarga aytay shuni:
Shopirgan Olatovning qo‘shiqlarin,
Bu — qirg‘izning atoqli To‘qtag‘uli!

Tiyonshon cho‘qqisiday bo‘yi yuksak,
To‘qtag‘ul yuksak kuyning cho‘ng g‘ururi.
So‘zlari sof oltinday ko‘zni tortib,
Yarqirab, jon balqitib turar nuri.

El aro mingdan o‘zgan yugurugi,
Yurakni jizillatgan tong bulbuli.
Asrlar elagidan o‘tgan oqin,
Qirg‘izda kunning ko‘rki, so‘zning guli.

Teranroq tikilsangiz she’rlariga —
Ko‘rinar el quvonchi, elning mungi.
Boylarning yaltillagan qilichidan
To‘qtag‘ul seskanmagan so‘nib uni.

El ezilsa — ezilib yig‘laganlar,
El yaxshi ko‘rmasinmi shunda buni?!

To‘qtag‘ul faryod to‘kkan achchiq tildan,
Zolimlar doim izza topgan undan.
Qo‘l-oyog‘in bo‘g‘ovlab po‘lat zanjir,
Ayirgan tor qafasda yorug‘ kundan.

Sibirning sovug‘ida yurganda ham[1],
Odil so‘z To‘qtag‘ulga bo‘ldi hamdam.
Olisdan el qulog‘in jaranglatib,
Yangratdi o‘tkir so‘zni dadil, o‘ktam!

O‘ylasam To‘qtag‘ulday odil erni,
Yuragim to‘lib-toshib qoyil derdi.
“Ozodlik, ozodlik!” deb kuylab o‘tgan
To‘qtag‘ul — el umidi, elning dardi.

Ozodlik zamoniga yetib eli,
Mana, bugun gullab-yashnab qulf uradi.
Ulug‘ bayroq ko‘z olib yuksaklarda,
To‘qtag‘ul orzusiday hilpiraydi.

To‘ldirgan Olatovning o‘y-u qirin,
Ko‘raman porlab turgan baxtning nurin.
Teng o‘sgan shunqor o‘g‘lim, nurli qizim,
Shularning shiviridan eshitaman
To‘qtag‘ulning sayroqi bulbul unin.

Tinglagan edik kecha zorli she’rin,
Tinglaymiz bugun mana nurli kuyin.
El sevgan ezgu narsa izsiz qolmas,
Oqin tomon yetaklab keldi yo‘lim.
To‘qtag‘ulning nuramas do‘ng qabriga
Shul she’rim — esdalikka qo‘ygan gulim!

(1936)

[1] To‘qtag‘ulning Sibirga surgun qilinganiga ishora.

BOLALARGA

Omonmisiz, ko‘z nurim, chiroqlarim,
Sohilda o‘sgan gul-u chechaklarim?
Haftada bir ko‘rmasam yurolmayman,
Siz-ku mening kiprig-u qaroqlarim!

Qo‘noqqa keldi, mana, Jambul otang,
Ko‘p yillar yuk ko‘tardi bukur gavdam.
Havasim kelar sizning davringizga,
Quvonib sizdan mehrim qonar har dam.

Bilaman, hayotingiz dorilomon,
Kunduz-tun yoshligingiz yashnar shodon.
Oy-yulduz, kunning ko‘zi, suv va havo
Barchasi sizlarniki, nurday ayon...

(1937)

QAYTA KELGAN YOSHLIK

(Kavkaz safaridan qaytib kelganida kutib oluvchilar oldida aytgan).

Bul Jambul yashayotir to‘qson yoshni,
To‘qsondan nari o‘tib, yuzga oshdi.
Chevar so‘z, asl marvarid shodlik she’ri
Jambulning kuylarida to‘lib-toshdi.

Bul Jambul ko‘rgan avval zulm-u talon,
Duch bo‘ldi endi unga oltin zamon.
Yoyilib o‘sib yotgan shajaraman,
Tarixning do‘mbirasin chaldim ravon.

Chol bo‘lsam ham qatordan qolganim yo‘q,
O‘lanim do‘stga malham, dushmanga o‘q!

Meni ham yangi davron yashartirdi,
Shul sabab endi mening armonim yo‘q.

Jambulning ardoqlanib bulbul so‘zi,
Nur to‘qib gavhardayin ikki ko‘zi,
To‘qsonda qaytib olib yigitlikni,
Yasharib chol bobongning turgan kezi!

Yigirma besh yana menga qaytib keldi,
Oltin kunning salomin aytib keldi.
She’r aytmay, kuy yangratmay tinch tursinmi
Shodliklar ato qilgan davrda endi!

Vo dunyo, qaytib keldi menga yoshlik,
Davrida o‘ynab-kuldik, to‘lib-toshdik.
Kavkazdan, Olatovdan oqqan kabi
Shodliklar bulog‘ining qulfin ochdik!

(1938)

MEHNAT HAQIDA

Baring ham omonmisan, aziz xalqim?!
Siz sabab, mana, men ham orden oldim.
Kim mehnat rusumiga amal qilsa,
Izlamay qo‘llariga kelar oltin.

Chol bo‘lsam ham, mehnatim shon keltirdi,
Yer-u osmon o‘rtasida men balqidim.
Yoshsizlar, talpininglar mehnat qilib,
Aytilgan bul so‘zimning anglang farqin.

Mehnatni e’zozlanglar qadrin bilib,
Erinmay intilinglar erta turib.
Qondirib sug‘oringlar ekinlarni,
Begona o‘tni qo‘ymang, tashlang yulib.

Ta'mirlab mashinani oling to'plab,
Poygaga chiqqan kabi otni eplab.
Barini ijro qiling momentinda[1],
Bitmas ish bor ekanmi olsang ko'plab.

Baxtiyor mehnatkash, ahil bo'ling,
Yetaklab g'alabaga borsin yo'ling.
Rizq, ne'mat — bari mehnat samarasi,
Rohatga, boylikka ham siz duch keling.

Yovuzlar qo'yganmidi zor ingratmay,
Xor bo'lib, yer va suvga yetdik yetmay.
Yer-suvga ega bo'ldik, tenglik oldik,
Bul kunga yetarmidik mehnat etmay?!

Nasihat-o'gitimga ko'ngil bergin,
Vatanchi o'g'lonlari tanti elning!
Mard, azamat yigitlar orden olar,
Ko'kragin iydirolsa qora yerning!

(1938)

VATANNI SEV

Balqitib baxt kelganda elga, yerga,
Yashargan Jambulman men xalq-la birga.
Do'st diydori sevintirdi, xushdir ko'nglim,
Muhabbat — tenglik dedim el-u yurtga!
Yonib turgan issiq yurak — ko'ngil sehrim,
Yangroq qo'shiq, sevimli kuy, dono satrim,
Vatanimga, do'stlarimga, xalqimga ham
Tortiq bo'lar to o'lguncha she'rim — mehrim!
Shodligim qulf urmoqda yashnab tilak,
Yashargan Jambulda bor yolg'iz tilak.
Tilagim — do'stlarimning diydoridir,

[1] **Momentinda** — o'z vaqtida, demoqchi.

Hayotning lazzati shu, deydi yurak!
Shul yurak: "El boyligi, deydi, birlik",
Birliksiz bo'larmikan hech tiriklik?!
Olamda bor odamning baxti uchun
Poydevor bo'ladigan — metin do'stlik!
Men asrni qoraladim, yuzga keldim,
El baxtini talay yillar izlab edim.
Nur yopindim, quchdim oyni, quyoshni ham,
Quvvat berdi izlagan, topganlarim!
Urpoqlarim, izlab kelgan hur avlodim,
Xalqqa qasddir — do'stlik shartin buzsa har kim.
Hilpirasin do'stlik tug'i, tinchlik tug'i,
Bir-birovga quchog'ing och — vasiyatim!
Vasiyatim — xalqingni sev, Vatanni sev,
Vatanini ardoqlagan odamni sev.
Ezguliklar yaratib senga bergan
Shul bugungi baxtiyor zamonni sev!

(1938)

TICHINA O'G'LIMGA

Atoqli ukrain shoiri Pavlo Tichina Jambulning tavalludi munosabati bilan o'tkazilgan katta tantanali majlisda she'r o'qib oqinga bag'ishlagan edi, shunga Jambulning aytgan javobi

Elim deb yonib-kuyib yurganingda,
Bilganman nomingni-da, she'ringni-da.
Ota deb she'r bitibsan menga, o'g'lim,
O'ssang ham anov olis Ukrainda.

O'laning yetib keldi o'tovimga,
Kuch ortdi bilagimga, vujudimga.
O'tlug' she'r — o'z bolamning sovg'asi deb,
Saqlayman uni doim yuragimda.

Ko‘p rahmat kelib tursa shunday odam,
Ukrain mehri bilan to‘ldi gavdam.
Siyloving, hurmatingning hurmati deb,
Yubordim shul she’rimni, bolam, men ham!

(1938)

JAMBULNING XALQ UCHUNDIR QOLGAN YOSHI

Deputatlikka nomzod qilib ko‘rsatilgan Jambul 1938-yil 18-iyunda o‘z saylovchilari bilan uchrashganda aytgan o‘lani

Yuz yoshda baxtin topgan oqin Jambul,
Dunyoni oldi tugal oting, Jambul.
Orziqqan tilagingga yetding bugun,
Dalada bitgan guldir zoting, Jambul.
Farang, Hind, Ispan, butun Ittifoqda
O‘qishgan sening she’ring — xating, Jambul.
El so‘zi — maqtov, yuklar majburiyat,
So‘zingdan teran o‘yga botir, Jambul.
Gupirar atrofingda nur toshqini,
Ummonday yog‘dularni toshir, Jambul.
Sho‘ng‘ib chiq tubi teran xayolingga,
So‘zingning to‘pla qimmat toshin, Jambul.
Odamzodning qaymog‘i do‘stlik uchun
Totimli she’r sharbatin shopir, Jambul.
Rizq bergan, rivoj bergan, hayot bergan
Shu xalqing, el-u yurting nodir, Jambul!
Xalqingni ardoqlagan zamonangning
Cho‘qqiga chiqar yorug‘ otin, Jambul.
Kuch bergan, yuragingga quvvat bergan
Xalqingni ardoqlab sev, oqin Jambul.
Xalq uchun to‘rga to‘shab to‘shak qilar,
Oqargan soqolin va sochin Jambul.
Ko‘klarga tegib turgan yelkasidan

Egadi ko'pchilikka boshin Jambul.
Men Jambul — yuz yashagan chol deputat,
El meni saylamoqqa qildi himmat.
Deputat — xalq ishonchi, e'tiqodi,
Mas'ullik hissi ulkan, o'rni qimmat.
Bo'lmasa tenglik dunyo qonunlari,
Hech elda ozod bo'lmas odamizod.
Ishongan odamini saylamoqqa
El-yurtning ixtiyori bo'lmog'i shart.
Shul sabab barcha elim-yurtim degan
Qatnashib, ovoz berar, bul — sharofat!
Mehrli birlik, do'stlik va ahillik
Yashnadi, ne istasam ko'nglimdir shod.
Mayliga ming yashasin, yuz yashasin,
Bunday kunni ko'rganda har odamzod.
Chol Jambul el ishongan deputati,
Ishonchni oqlamoqdir bor maqsadi,
Bosh egib el-yurtimga xizmat qilay,
To'ralik — deputatning emas oti.
Ishonib xalqim menga ovoz bersa,
Bo'ynimda Olatovday elning haqqi.
So'nggi dam kelguncha men kuylab o'tay,
Elimning yuksak bo'lsin martabasi.
Asl she'r parvoz qilsin yozib qanot,
Yoritsin bor olamni nur-shu'lasi.
Taraqqiy topsin san'at, madaniyat,
Yuksalsin elning obro'-saltanati.
Qari edim, lekin yoshdir ko'nglim hanuz,
Quvvatim — elning baxti, sharofati.
Men askar — saf oldida sadoq tortgan,
Zarb yeydi elimga kim qilsa qarshi.
Saylovchi xalq oldida ont ichaman,
Jambulning xalq uchundir qolgan yoshi.
Tinimsiz kecha-kunduz xizmat qilsin
Jambulning qari joni, do'mbirasi!

(1938)

BIZNING VATAN QIRONLARI

To‘lg‘ondim, yana to‘lg‘ondim,
Do‘mbiram olib o‘ylandim,
Tog‘imga o‘q otganning
Qiron qulatdi tog‘larin.
Havomga o‘q otganning
Qiron qirqibdi ovlarin.
Qutirgan samuraylarning
Qiyratdi shul qo‘l solganin.
Bultimga o‘q otganning
Qo‘l-oyog‘in boyladim.
Oyimga o‘q otganning
Botirdi erlar oylarin.
Kunimga o‘q otganning
Qul qildi erlar jonlarin.
Yerimga qadam bosganning
Askarim bosdi qonlarin.

Qironlar uchar qasd bilan,
Bolalarining mardligin
Ko‘rib chol Jambul jo‘sh urgan.
To‘qsonga kelgan yoshinda,
O‘ynatib yovning boshinda
Oq shamshirlarin qo‘sh urgan.
Nuqsonni she’r fosh qilar,
Bul she’rim yetsin do‘stlarga,
Bul she’rim yetsin qasdlarga,
Vatanimning yoviga
She’rlarim, o‘q bo‘lib sachranglar.
Vatan uchun maydonda,
Mard ko‘kragi qalqon-da!
Kuysin o‘zining o‘tiga
Yurtimga o‘q sochganlar.

Vatanimning nomiga
Gard yuqtirmas mardlar bor.
Qiron qush kabi uchganlar!
Qutirgan yov duch kelsa,
Qiron qushday mardlarim
Burib tashlab ketadi.
Qilichdayin mardlarim
Qiyib tashlab ketadi.
Yov o‘q otsa yurtimga,
Yov suyagin ortiga
Uyub tashlab ketadi.
Ko‘kka tirak Quzartog‘,
Quzartog‘da turar tug‘,
Yapaloq uchib yetarmi?
Tog‘ni uchirgan Isrofil,
Ko‘pning kuchi bir dovul,
Oldidan yov o‘tarmi?
Osmonda turgan oy — Vatan,
Ko‘kda turgan tun — Vatan,
Kulli olamga kulib,
Yashnab turgan gul — Vatan!
Ko‘p sog‘ingan tilakdan
Bahra olgan chin Vatan!
Elbursning tog‘iday
Bo‘y tiklagan shul Vatan!
El va mening baxtimga
Topilgan toj-taxtimday,
Kundan olgan gavharim —
Charaqlagan nur Vatan.
Ulug‘ yurtni ardoqlab,
O‘stirgan ham shul Vatan.
O‘g‘illarni mard qilib
Jo‘shtirgan ham shul Vatan!
Zabardast tuproqlarga
Kuch bergan shul Vatan!

Nayzasi o‘tkir, to‘xtamas,
Solganda toshdan o‘tadi.
Qilichi o‘tkir, oq olmos,
Chopganda toshni kesadi.
Oti yugruk askarim
Chopganda yovga yetadi.
Qo‘li kuchli botirim,
Qaysi yov omon ketadi?
Qalin qo‘shindan hayiqmas,
Yigitlari — jo‘tali.
Yodga olganda zamonni,
Yana sevaman Vatanni,
Boshimdan quyib baxt nurin,
Gulga burkadi Vatanni.
Cho‘qqida o‘sgan chinorday
Chiniqtirdi odamni.
Qiya toshlarda toymasday
Botir qildi bolamni.
Chekimga yovni keltirmay,
Yovga bir qadam yo‘l bermay,
Ulug‘ Vatan yo‘liga
Qayrilmas po‘lat yaraldi.
Sinamoq uchun kelgan yov,
Quyarin bilmay o‘tda o‘ynab,
Botirin bilmay suvda o‘ynab,
Bizlarga og‘zin ochganda,
Bizlarga qahrin sochganda
Ulug‘ Vatanning kuchidan
Kul-talqon bo‘lib tarqaldi.
Soqchi bo‘lgan o‘g‘liga
Shirin so‘zlarin oqizib,
Olqishlar aytib mardlikka,
Quvondi Jambul, quvondi!

(1938)

VATANIMNING QIZLARI

Shahlo ko'zlari yayragan,
Talpinsa ko'zlari tolmagan,
Tabassumli qizlarim
Yuzlari qizil olmadan.
Oltin kiprik, oy qovoq,
Jamoli yorqin oynadan.
Chehrasi ko'kning qip-qizil
Yulduzi kabi o'ynagan.
Ko'kda bo'lsa — ko'k ichra,
Yerda bo'lsa — yer ichra,
Qo'lga olganin qo'porib,
Yengmay-yiqitmay qo'ymagan.
Olatovning oltin soz
Bulbuli kabi sayragan.
Baxt dorigan Vatanning
Bag'rini qizlarim joylagan.
Qartaygan Jambul otaning
Qizlarimday yashnagan
She'ri bor — sizga atalgan.
Qizlarimni ko'rganda,
Qizlarim bilan yurganda
Tepam ko'klarga tegadi.
Qizlar quvonib kulganda,
Ko'rganim sayin yasharib,
Ko'maydan o'lan kelganda
Jambul shamolday esadi.
Biringiz bilgir o'quvchi,
Biringiz gilam to'quvchi,
Biringiz do'xtir, biringiz
Dalada qo'zi boquvchi.
Shularni ko'rib quvonar
To'qsonga Jambul yetganda.
Jambul gerdaymay ne qilsin,
To'qson yoshni burgutday

Burmalab tashlab yengganda.
Ko'llarda suzgan oqquvday
Qizlarimni o'stirgan,
Shaxtaning toshin ezuvchi
Ullarimni o'stirgan,
Yuragimda yaralgan
Kuylarimni jo'shtirgan
Quyoshday nurli Vatanim!
Unga fido jon-tanim!
Vatan uchun, el uchun
To'lqini kumush ko'l uchun
Ko'kalamzor yer uchun,
Qizlarim, gulday yayranglar,
Ijodda, ishda toymanglar!
Sizlar ham bir askarsiz,
El ustiga yov kelsa,
Tosh-talqonin chiqarib,
Buloq suviday qaynanglar!

(1938)

MEHNAT KO'KLAMI

Qor eridi, ketdi muz,
Keldi bahor, keldi yoz.
Issiq nafas zaminga
Kun porlab berdi pardoz.
Ko'k gurkirab qulf urib,
Ko'klam nurin sochdi soz.
Ovulga ovul yaqinlab,
Yerga soldi poyondoz.
Oydin ko'lga yetay deb
Qanot qoqar o'rdak-g'oz.
Yorug'landi yana jon,
Quvonchiga so'zlar oz.
O'ynab yurar bolalar,

Qizarib-bo‘rtib yuzlari.
Chirqillashib o‘ynashar
Qulun, buzoq, qo‘zilari.
Yashartirdi har jonni,
Tozartirdi har qonni,
Quvontirdi insonni,
Yayratdi Jambul cholni,
Ko‘rkamlarning ko‘rkami,
Ko‘lda kema yelkani —
Vatanimning ko‘klami!
Jambul yuz yosh yashadi,
O‘lgan odam tirilmas,
O‘lgan edim — tirildim,
Shuni aytmasam, bilinmas.
Aytsam dunyo oldida
Tulporday tilim surinmas.
Haqiqatga — quyoshga
Tizza bormikan bukilmas.
O‘tgan umrimni umrga
Hisoblasam — chin emas.
“Gung” ataldim — qiz emas,
“Qul” ataldim — ul emas.
Tiriklik qilgan xalq uchun
Umr degani bul emas.
Mung taratdim yetmish yil,
O‘lan emas, kuy emas.
Qirda ko‘rsam qizg‘aldoq —
Ko‘ngil tortar gul emas.
Shodligi yo‘q, zori bor,
Yetmish yillik umrida
Chala yurgan qoni bor,
Tirik bul Jambul emas!
Mana bahor, mana yoz,
Jon yayraydi, ko‘ngil soz,
Tiniq hayot ko‘linda
Soyalagan elim — g‘oz,

Chin ko'klamga quchoq yoz!
Shunday ko'klam bo'lmasa
She'rim qilmasdi parvoz!
Erkin elning quvonchi —
Ko'klam kuni quysa nur!
Shodmon elning quvonchi —
Shirin qo'shiq, pok shuur.
Yangi dunyoning quvonchi —
Ko'k maysadan chiqsa gul.
Yetti o'zanda tiniq suv —
Oqqan ne'mat, rizq suluv.
Yalpoq dala yashnasin
Vatanda ko'rmay g'uluv.
Yashnab o'ssin butalar,
Yangi ko'klam, yangi yil.
Eski dunyo yashnasin,
Gurkirasin yam-yashil.
Gul-bog'chali zamonda
Yangroq tilli men — bulbul.
Zamona ko'klamida
Tug'ildi yangi Jambul!

(1939)

MUALLIMLARGA SALOM

Elimning qari-yoshini,
Bilimning gavhar-toshini
Charaqlatgan buloqday.
Posboniday tarixning,
Ko'zini ochib xalqning,
Tunda yongan chiroqday, —
O'qituvchi muallim,
Bilimi elga ma'lum.
O'qitib elning bolasin,
Ochib ko'ngilning lolasin,

O‘qimishli yoshlarni
Avayladi giyohday.
Gul bormidi yerimda,
Bilim bormidi elimda,
Yangi zamonning nurlari
Yorimasa ziyoday.
Ozodlik kuni tuqqali,
Po‘latday belni tutgali
Yangi zamonda xalqim
Baxt-iqbolni quchoqlab,
Yurtim bo‘ldi uchmog‘day.
O‘qituvchi muallim,
Sizlarni hayot nurladi.
Oltin tongday ardoqlab,
Orden bilan siyladi.
Bizning elday el bormi —
Muallimni siylagan?
Kasb bormi hech shunchalar
Mehnati a’lo siylangan?
To‘qsondan oshgan yoshida
Hayotdan yangi nur oldi —
Jambul muallimlarni
Shundan sevib kuyladi.

(1939)

MAY SHE’RI

Vatanning dala-yeriga
Qarasam, o‘zan quyilar.
Shudgorga ekin ekilar,
Dehqonning traktoriga
Ko‘k so‘qalar taqilar.
Yerlarda muz yorilib,
Quyoshdan nur olinib,
Qish kunida qor yopgan

Yerlarga ko‘k to‘kilar.
Qarasam, g‘ozlar qiy-quvlab
Ko‘k o‘rdak uchar ko‘llardan.
Oydin ko‘l oyga sapchiydi
Toshqin o‘zanli suvlardan.
Vaqqillab baqa, baliqlar
O‘ynoqlar chipor gullarday.
Jambulning she’ri yangraydi
Shundoq ham balandda yellardan.
Kuy to‘kdi qari do‘mbira
O‘n pardadan sellarday!
Qartaygan sayin bul Jambul,
Yasharib quloch keradi.
Ko‘rsa-da talay may oyin,
Bugungiday yashnagan
Shodumon kunni ko‘rmadi.
Yangi zamonda yangradi
Jambulning she’ri va tilagi.
Vatanni yovdan qizg‘onib,
Gursillar kuchli yuragi.
Qoni qora yovlarni
Yurakdan chiqqan kuchli kuy
Bugun burgutday buraydi!
Ulug‘ davron zavqiga
Shum ko‘ppaklar huradi.
Hursa hursin, shu taxlit
Hurib borib o‘ladi.
Bizga hurishin qo‘ymasa,
Yo chin hujumni o‘ylasa,
Gurkiragan kun kabi
Xalqim qahrini to‘kadi.
Vatanga bergan ontimiz,
Achchiqlansa xalqimiz
Yovlarni o‘q bilan bostirib,
Yetti qavat yer ostiga
Chiqmasday qilib ko‘madi!

Hezlanib bizga o‘q otgan
Samurayin japonning
Qirdi Hasanning ko‘linda
Botir askari Vatanning.
Yovga ko‘kdan joy tashlab,
O‘lim bilan ayqashlab,
Yovga g‘azab botmonin
Tashlab, otgan o‘qdayin
O‘lanning o‘qin otaman!
Vatan uchun tortinmay,
Vatan botirlarinday,
Yov tegsa mening yerimga,
Mundan ham kuchli o‘q otarman!
Botiri uchun zamonning,
Iqboli uchun dalamning
Hayot bergan xalqimga
Aytarman o‘lan, aytarman!
Oq kirsa ham soqolga,
To‘xtovim yo‘q maqolga,
Qartaygan sayin yashargan
To‘qson yoshli otangman!
Shul sababdan ko‘nglimga
O‘lan to‘lib, umrimga
Quvonib qarab, qulf urib,
Gullagan manov zamonda
Jambul bo‘lib o‘tarman!

(1939)

MEN BIR BIYIK BOYTERAK

Men bir biyik boyterak,
Ko‘kka bo‘yim bo‘ylagan.
Qarmoqli teran tomirim
Yoyilib yerni boylagan.
Butog‘im bormi gurkirab

Yaprog‘ini yoymagan?
Kundan ko‘rkam nur olib,
Bargimga kumush o‘ralib,
Havodan ifor hid olib
Yaproqlarim yayragan.
Boyterakman deganim —
Yoshim yuzlarni qamragan.
Tomirim teran deganim —
Xalqim-ku rangin gullagan.
Kurtaklar yaproq yorgani —
Yoshlik chog‘imdir guvlagan.
Yaproqlarim deganim —
Manov bolalar chuvlagan.
Toshni ezgan o‘g‘lonlar,
Uyadan uchgan qironlar,
Qanot qoqib shovlagan.
Yumush desa teng turib,
Maydon desa intilib —
Qamali bormi olmagan?
Oqmo‘la va Qartali
Temiryo‘lin tortishda
Sharqiy yo‘lni chambarlab
Yotqizib cho‘ng po‘latni,
Mehnatda ortda qolmagan!
O‘rol-Ko‘chim kanalin,
Mirzacho‘lning orolin,
Ko‘lga belab alafin,
Suvga to‘g‘on boylagan.
Oltoyning oltin nodirin,
Qarag‘anda ko‘mirin,
Tayyor qilib qo‘l ila
Yurtga sovg‘a aylagan.
Maydonda g‘ofil qolmay deb,
Vatanni yovga bermay deb,
Farzandlar g‘ayratlanib,
Askarlikka otlanib,

Miltig'in zang olmagan.
Qozog'iston to'yiga,
Yoshlarning o'sgan bo'yiga
Qarab ko'nglim quvonib,
She'rim bor hali men aytmagan!

(1940)

ABAYNING SURATIGA

Manov turgan Abayning suratimi?
O'lan-so'zning gurlagan shiddatimi?
Aql-u g'ayrat, bilimni teng ushlabdi,
Qoyilman Abayning zo'r qudratiga!

Oqin nomi taralgan har to'rt tomon,
So'z tufayli yashar u tirik hamon.
She'ridan Arg'in, Nayman hayratlanar,
Shul insonda bormikan biror armon?!

Teran xayol tubida dengizi bor,
Ko'rarsan, xo'p tikilib boqsang takror.
Har odam bahra olar shul dengizdan,
Abayning suratida shunday sir bor!

(1940)

"JAMBUL O'LAN AYTMAYDI..."

1941-yilning dastlabki kunlari. Jambul boboning uyiga adabiy kotib G'ali O'rmonov kelib: "Jambul bobo, bugun nima haqda o'lan aytasiz?" deganida, to'shakka yonboshlab yotgan oqin shunday deydi:

— Jambul o'lan aytmas qiyshaygandan keyin,
Yalqovlashib qoldim qartaygandan keyin.

Ko‘ngilsizroq ko‘rinaman shekilli-yov,
Do‘st olislab, yonda jar toygandan keyin.

Tortinchoqroq qilig‘im, urushqoqroq,
Erinchoqroq bo‘libman, tirishqoqroq.
Ha-halasa, tulporday qoni qizgan
Oqin edim bir paytlar urinchoqroq.

Qartaydim-ov, uyqu olar bog‘lab-tang‘ib,
Yosh boladay ketaman har on qalqib.
G‘alijon-ov, yozuvingni qo‘yib tur-chi,
Men charchabroq o‘tiribman boshim gangib...

(1941)

“SOQOLIM — TEMIR KURAK...”

Jambul 1941-yil fevral oyida Qozog‘iston SSR Oliy Soveti sessiyasida qatnashish uchun Almatiga otlanayotib, oynaga qaragan lahzalarida shu o‘lanni aytgan:

— Soqolim — temir kurak, bo‘r bo‘yalgan,
Salladay sochim siyrak, oz-moz qolgan.
O‘tiraman bir-bir qarab o‘tganlarga,
Qarilik nimam qo‘ydi xo‘rlamagan?

Qulfirgan qizil chiroy tusimni oldi,
Og‘zimni o‘pqon qilib tishimni oldi.
Bo‘shatib suyagimning bo‘yinlarin,
Qaddi-bo‘ydan sug‘irib kuchimni oldi.

Qarilik ikki ko‘zni qizartirar,
Suyakdan etni shilib uzaytirar.
Enkaysang, botmonday yuk yelkang bosib,
Ikki tizzang ichinda tuz orttirar.

(1941)

"YETDIM-KU YURA-YURA QIR BOSHIGA..."

1941-yil fevral oyida Jambulning betoblanib yotganini eshitib shifokor Rahimboy Do'simbetov hol-ahvol so'rab keladi. Shunda oqinning aytganlari:

— Yetdim-ku yura-yura qir boshiga,
Umrim — yo'l, tugamaydi bir asrga.
Halvirab titrab turar ikki oyoq,
Kuchim yo'q na yurmoq, na tirmasharga.
Tomirim nima deydi, shifokorim?
Jambulga yaqinroq kel sirlasharga.
Yetaklab bir-ikki kun yuringlar-chi,
Duch bo'ldik demay qandoq dardisarga.
Qoldim men teshigi ko'p uyday bo'lib,
Turganday yon-verimda shamol yelib.
O'zimga o'z darmonim yetmaydi-yov,
Qo'llashib yubormasa birov kelib.

(1941)

OLQISH

1941-yil mart oyida oqin Jambul Jabayev xalqlar do'stligini mustahkamlashdagi va adabiyotni rivojlantirishdagi ulkan xizmatlari uchun SSSR Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Suyunchilab kelganlarga aytgan o'lani:

Do'st-yoronim chopishib
Suyunchilab kelibdi.
Egallab bor gavdamni
Zo'r bir quvonch eritdi.
Qari jirov she'riga
Ulkan siylov beribdi!
Bu hurmatga — daryo suv

Siyoh bo‘la qolsa-yu,
Qog‘oz bo‘lsa yaproqlar,
G‘ayratim bo‘lsa edi, —
So‘zlar topsam gavhardan,
Kuy chiqsa o‘n pardadan,
Zavqim tarqalsa edi!
Yotgan edim bir chetda,
Qo‘shibdilar zo‘r safga,
Umrimni yuksaltirgan,
O‘lanimga jo‘sh bergan —
Olqish bo‘lsin Vatanga!

(1941)

KO‘KLAM VA MAY

Ko‘rdim yana ko‘klamni,
Yuzi kulib keldi yoz.
Yangi uyning to‘riga
Ko‘kning nurin to‘kdi yoz.
Dalaga yoshlar ekdi don,
Don ekkan dala — keng maydon,
Yeng shimarib mehnatga,
Elim, yerim qildi hazz[1].
Yomg‘ir to‘kib osmonim,
Gullar sochib bo‘stonim,
Bulut ko‘chgan tog‘imning
Qiron o‘par asqarin,
Mehnat qilib, tanini
Chiniqtirar yoshlarim.
Ko‘kda suzar o‘rdak-g‘oz,
Toshib oqdi Ili, Chu[2],
Qushlar uchib qiyda-da-chuv,

[1] **Hazz** — rohat, farog‘at.

[2] Daryo va manzil nomlari.

Yozga chiqdilar peshvoz.
Yilqida biya qulunday,
Quyruq otib qulonday,
Mollar ma'rab dalada,
Shunday go'zal pallada
Xo'shlashdi yoz va ayoz.
Ko'rib yozning qaynovin,
Mening yangi yaylovim,
Olatovday qo'l silkib,
Menday cholga kel-kel deb,
Qulf urar anov Qulonsoz[1].
Ko'ngil shunqorday talpinib,
May oyida balqidik.
Mana, yana may keldi,
Quvonchlarga shay keldi!

(1941)

UMRIMNING QISHIN YOZ QILDI

Umrimning qishin yoz qildi,
Elning ko'nglini mast qildi,
Yashasin ulug' Vatanim,
To'qson beshdagi Jambulni
Bo'zboladan o'zdirdi.
Yer yorilib cho'p chiqdi,
Cho'p chiqqanda ham ko'p chiqdi,
Yaylovim endi salqinlab,
Ko'nglim mening yolqinlab,
Zamonamning har so'zi
Aytilayotir oltinlab,
Kunning ko'ziday yaltillab!

(1941)

[1] Daryo va manzil nomi.

ZAMIN BOYLIGI

Bu yilgi ko‘klam yashnadi,
Qish quvvatsizlana boshladi,
Qor erib, tog‘lar to‘kdi yosh,
Suvlar dalaga urdi bosh.
Yozildi yerning yozig‘i,
Qarab yotmasdan xalq o‘zi,
Jambulning ham kolxozi, —
Yotgan jo‘tani yollanib,
Yerlarni yirtdi qoq yorib,
To‘g‘ragan kabi qazini,
Ko‘p maydonlarga ekdi don,
Yuksalsin deya ko‘p xirmon,
Olatovdan tik oqqan
Ko‘zi qaynar buloqdan
Yashnadi yerning ozig‘i.
Zamin boyliklar beradi,
Mehnat qilganlar emadi.

(1941)

MOL OZIG‘I

Qirlarimda, dalamda,
Olatovning bag‘rinda
Yomg‘ir bilan bahslashib,
Qancha maysa yashnagan.
Moyto‘baning etagin,
Uzunog‘ochning maydonin,
O‘tirgan ovulimning
Qarasam to‘rt tomonin —
Ko‘k giyoh o‘rab tashlagan!
Bularni xalqimning ko‘rmog‘in,
Ustara soch olganday,
Mashinalar o‘rmog‘in

Maysaning yashnab-unmog‘in,
Aytsam ham ado bo‘lmaydi.
Mashina kelib cho‘p chopdi,
Cho‘p chopgandayam ko‘p chopdi, —
Yo‘rg‘adayin chopsa ham,
Sut chayqala qolmaydi!
Oyoq bossang tog‘ bo‘lib,
Ko‘k o‘rmonli bog‘ bo‘lib,
Olisdan boshoq ko‘rinar.
Molini yutga bermovchi,
Qishki sovuqqa ko‘nmovchi,
Somonni siqsang bol chiqqan,
Donini siqsang moy chiqqan,
Elning molining ozig‘i
Xirmon-xirmon uyular.

(1941)

JON OZIG‘I

Zang bosib to‘zmas joningga,
Gavdangda issiq qoningga,
Quvvat ham bergan bo‘yingga,
Yer-jahonning nur ko‘zi —
Yarqiragan kun oziq!
Qo‘ng‘ir salqin havoda,
Tog‘da, maydon-dalada,
Ifor isli mevada
Qalbingga yo‘l olganday
Ko‘ngilga xush gul oziq.
Tevaragi tepkusiz,
Beldan kechib o‘tkusiz,
Ot choptirsang yetkusiz,
Aylanasi oychalik, —
Oydin mavjli ko‘l oziq.
Xazinasin to‘ldirgan,

Uy tiklagan chodirdan,
Yemishi ko'p o'rilgan,
Oltin beshik — yel oziq.
Mehnat bilan tug'ilgan,
Qo'sh burumday o'rilgan,
Ko'rsang ko'zing suringan
Ne'mat boshi — yer oziq.
Keng dalaga sig'magan,
Ko'ngilda qaynab-o'ynagan,
Shul ekinlarni yig'nagan,
Baxtli turmushni kuylagan
Jonga tatimli she'r oziq!

(1941)

YALQOVLARGA

Yalqovlar bor bizlarda,
Yumushga qo'li tegmaydi.
Enkayib boshin egmaydi,
Evrila olmas urchuqday,
Manglayidan ter chiqmay.
Mehnatdan araz kishiday,
Qimirlashni sevmaydi.
Zar unishin mehnatdan,
Bol emishin mehnatdan
Nega shular bilmaydi?!
Ishga borsa sudralib,
Bemaza so'zlar aytgani.
Qult-qult etib yutinib,
Atrofga chirt-chirt tupirib,
Nosvoydir otgan-totgani.
Qimirlashga erinib,
Yumush desa kerilib
Turaversa, ne bo'lsin
Mehnat-kunga topgani?

Bul yalqovlar aqlga
Kelmas ekan, oxirda, —
Beligacha ziyonga
Chiqmas bo'lib botgani!

(1941)

XIRMON BOSHIDA

Keldim men ham xirmonga,
Chidamay qarab turganga,
To'qsondan o'tdim demayman,
Shimarib etak-yengimni,
Qo'riqlayman elimni.
She'rga to'lib ko'mayim,
Yigitday tiklab belimni,
Xalqim bilan birgaman,
Kuchukday tortishib yov bilan,
Bermasman nomus-kekimni.
Og'zi-boshini chang qilib,
Eslaridan tondirib,
Ko'tarolmasdan qaytadan,
Boshlarin obdon majaqlab,
Shunda olarman damimni.

(1941)

LENINGRADLIK FARZANDLARIM

Leningradlik farzandim,
Iftixorim sen eding!
Neva o'zanin sevimli
Bulog'imday ko'raman.
Ko'prigidan qarasam,
O'rkach-o'rkach suvlarin
Cho'qqilarmi, der edim.

Chayqalgan u ko‘k dengiz
Cho‘miltirar dilbandin.
Oqshomi kunday yashnagan,
Osmonga shu’la tashlagan,
Uylarini ko‘rgandim!
Yelkadosh bo‘lib olisda
Duo qilib yurgandim...

Eshitib yov kelganin,
Ta’m bermay qoldi yeganim.
Qiynalib, hatto ko‘zimdan
Qancha yoshlarni to‘kkanim.
Shunday ulkan saltanat
Bo‘lsinmi yovning ermagi?
Yovga qolsinmi Leningrad
Boshini egib ko‘ngani?
Yashagayman umrimni
Yovning barini yenggani!
Shaldiratib suyagin,
Tuproqqa tiqib ko‘mgani.
Qozog‘iston tomondan
Sizlarga salom yo‘lladim,
Salgina quvvat bergani.
Lashkar ketdi yo‘l to‘lib,
Neva gullarin qo‘riqlang,
Leningradning erlari!
Yoshlarga o‘rnak bo‘linglar,
Zamonamning sherlari!

Ota-bobong boyagi
Ayon edi Jambulga,
Kishanda qo‘l-oyog‘i,
Surgun bo‘lgan ovulga.
To‘rt podshohdan turtki yeb,
Kelganlarin bilardim.
Peterbo‘rdagi qora kuch

Qulasa deb tilardim.
Mana, endi umr o‘tdi,
Soqol-sochim oqarib,
Shunda bir kuy tebratdi
Boltiq havosin yorib.
Qo‘ng‘irog‘i quloqdan
Ketmasday bir kun edi...
Leningradning ul-qizi,
Bo‘shashmanglar, farzandim!

Do‘koningda ming alvon
Mashinalar ko‘rganman.
Kirov berdi xalqimga,
Quvonch bilan olganman.
Sizlar bilan qachondan
Og‘a-ini bo‘lganman.
Suv qironi shekilli —
Boltiqdagi erlarim,
Sovg‘a olib har turli
Kelganlaring ko‘rganman.
Sizlar bilan necha bor
Zavq-u safo surganman!
Nevaram va chevaram
Yoshlikdanoq sizlardan
Ilm-u hunar o‘rgangan.
Bugun Jambul tinglasa,
Eshitdi yov kelganin.
Eshigingda yotvolib,
Cho‘zgan emish o‘mganin.
Yetti boshli yalmog‘iz
Botiribdi changalin.
Endi ko‘rgayman uning
Esdan ketib o‘lganin.

Maqsadiga yetmas ul,
Eshik oldida qonsirar,

Ajal haydab kelibdi,
Ilon boshi yanchilar,
Yov zulmati archilar.
Yana sayrar bulbullar,
Yana chaqnar yulduzlar,
O'ynab-kular ul-qizlar!

Bu — ulug' xalq o'sgan yer,
Mehrim bordir yoshlikdan.
Yov zulmini eshitib,
Dovshim chiqdi g'ashlikdan.
O'qlar tegib, o't yonib
Bir dunyo mol sochilgan.
Qonichar yov chopadi,
Og'zi katta ochilgan.
Biroq uning umri oz,
Shul sabab yov "tez-tez!" der.
Ajaliga oshiqqan
Yuholarni yutar yer.
Qarshi otlandi yovga yurt,
Ko'tarildi tezda el.
Yov lashkari qalin deb
Cho'chimadi bizning el.
Oldgi tirak sen eding,
Tug'imni yov ololmas.
Leningradning to'riga
Yov oyog'in sololmas.
Kelgan yovni qarshilab
Yenggan eding avval ham.
Yov suyagi uyulib
Qolgan qadam-baqadam.
Sen bir gavhar, asl tosh,
Kimlar sen deb urinmas.
Ulug' shahar hech qachon
Yov qo'liga berilmas.
Ulug' rus qal'asiga

Chor-atrofdan kuch kelar.
Ovul, shahar va qishloq
Botirlarin yuborar.
El salmog'i — qo'rg'oshin,
Himoyalab o'rdasin,
Kelayotir qal'aga,
Endi yovlar sho'rlasin!
Qozog'iston yeridan
Mehrim sizlarga sochilgan.
Sur qo'rg'oshin, temir bo'p
Devoringizga qo'shilgan.
Qora ko'mir, qizil mis,
Yana o'tli kuchimiz
Sizga o'zini oshirgan.
Vaqti-soati yetganda,
Xudoyim yorliq etganda,
Yovning tili bog'lanar
Shular so'zlab ketganda!
O'qqa o'xshagan donlarim,
Qizilchiroy olmalar,
Bolday bo'lib ta'mlari,
Borayotir bari ham,
Yugruk, tulpor, yo'rg'alar.
Shular bari — ko'magim,
Xunxorlarni yengmoqqa.
Yeganini yelkadan
Siqib olavermoqqa.

Vo, qahramon farzandim,
Iftixorim, dilbandim,
Qutirgan yov ajalin
Sirda turib angladim!
Maktab, zavod, shaxtadan
Yig'ildi ul-qizlarim.
Katta-kichik qo'l ushlab,
Lashkarlar hujum boshlab,

Qaytmaslik, qo‘rqmaslikka
Qari-yoshga o‘y tashlab,
Vatan buyruq berganda
Bo‘sh kelmagin, ey farzand,
Yiqilmasin Leningrad!
Saf-saf bo‘lib qo‘shinlar
Himoyangga yaqinlar.
Qonli maydon oldda bor,
Yanchiladi ajdaho!
Yotolmayman to‘shakda,
Jonim topmaydi qaror!
Qandoq rohat olarman?!
Yetib borsin sizlarga
Shul she’rimning har bandi.
Bor bo‘l ulug‘ shaharda
Ey, qahramon farzandim!

(1941)

TEMIR TULPOR MINGAN QIZ

Qarayman-u qarayman
Uzoq-yaqin umrimga.
Esga tushar talay kun,
Bari o‘tgan elimda.
El boshiga ish tushsa,
Er otlangan o‘limga!
Ko‘k nayzasin qo‘lga olib,
Shamshir taqqan beliga.
Dobullarin o‘ngg‘arib,
Sovutlarin bo‘ktarib,
Bulutli kunday mung‘ayib,
Ko‘chgan elday tarqalib,
Erlar ketgan yiroqqa,
Yovni yengib kelmoqqa.

El deb engragan erga
Nimadir o‘zi o‘lim?
Mardlik menga jo‘sh berar,
Ilhomga to‘lar ko‘nglim.
Shunday kunda sinovdan
O‘tar qizim, kelinim.
Men shularni kuylayman,
Shularga she’r, o‘lanim!
Chala qo‘ymay hech ishni,
To‘rt bo‘lib tun uyqusin,
Talay kunlar kelsa-da,
Sotmas erlar nomusin.
Erta turib, kech yotgan,
Er o‘rnida tun qotgan,
Kerak bo‘lgan o‘rnida
Erning tulporin tutgan.
Kiprik qoqmay tonglarda
Ega bo‘lib mol-jonga,
Sira tinim topmagan.
Erga hordiq-dam bo‘lib,
Elga mador-jon bo‘lib,
Erdan ortiq ot olgan.
Ne ish bo‘lsa ma’qul deb,
El-u yurtin qadrlab,
Ishonchlarni oqlagan.
Ikki kishi bosh qo‘shsa,
Qizlarimning ishini
Ertak qilib maqtagan.
Qasd aylagan dushmanni
Erk bermasdan toptagan.
Tug‘di yana og‘ir kun:
Zamon keldi kutmagan!
O‘q bilan o‘t tumani
Yer-jahonni qoplagan!
Erlar harbda, maydonda,
Tolmay qilich siltagan.

El uchun er jon bersa —
Ish emasmi bul kerak?!
Yov otganda zambarak,
Hayiqarmi er yurak?
Tumanlarda yo‘l topib,
Po‘lat qush qanot qoqib,
Yondosh bo‘lib bulutga,
Yovni tenglab chiqitga,
Yov yuragin ko‘chirib,
Ko‘kdan yashin tushirib,
Yov tinchini bermagan.
Botir bo‘lsa farzandlar —
Bormi elda armonlar?
Omon bo‘lsa shunday er,
Yengilarmi bizning el?
O‘rnak oling, kelinglar,
Eldagi qiz-kelinlar!
Temir tulpor mingan qiz
Har kun chiqar oldimdan.
Tulporini gurlatib,
Yer-u qirni guvlatib,
El-u yurtni to‘q etgan,
Dushman ko‘ksiga o‘q ekkan,
Yaxshi ko‘rib joninday,
Traktorin saqlagan,
Qashqoldoqning qoninday
Qoshiq moyin saqlagan.
Frontning yeb g‘amini,
Uydagi oshin totmagan.
Qorong‘i oysiz tunlarda
Sherik bo‘lib hulkarga
Traktorin gurlatgan!
Qirda ekin qulf urib,
Boshoq tortdi g‘alla-don!
Qizlarimga bo‘lishib,
Uydagi ona, yosh bolam,

Yurt g‘ayrati to‘lishib,
Chollar ham qarab yotmagan.
Qancha bo‘lsa ko‘p yumush,
Qiz-kelinim boplagan!
Ertaga yovni yengganda,
Erlar qaytib kelganda
Ikkovingni quchoqlab,
Ko‘zdan yoshi munchoqlab,
Qari oqin shunday der:
— Endi hordiq olinglar!
Haqqing bordir, baxting bor.
Qulun-toyday birga o‘sib,
Davri davron surishib,
Sevar sizni otalar,
Sevar sizni onalar!

(1942)

KUZATISH

Otangdan fotiha ol, bolam,
Arg‘umoq otga min, bolam.
Oq soqolim hilpirab,
Ortingda qoldim men, bolam!
Qulog‘ingda, qulunim,
Tovushim tursin kuylagan.
Orli Alg‘adayimsan[1],
Ota so‘zini siylagan.
Otlantirdim maydonga,
Omon-eson yur, bolam!
Obro‘larga ega bo‘l,
Chakki bosma bir qadam.
Atoq bergan otangga
El qadrini bil, bolam.
El birligi, mard ishi

[1] **Alg‘aday** — o‘g‘lining ismi.

Sinovdadir bul zamon!
Senga aytgan so‘zimdan
Saboq olsin har odam.
Anglaganlar, bu gapni
Otam aytdi, der bolam.
Xo‘sh, xo‘sh, bolam, yaxshi bor,
Xayrlashdim mardonavor!

(1942)

QARAG‘ANDAGA MAKTUB

Qarag‘anda erlari,
Maydondagi botirday
Ulug‘im deb sizlarni
Siylab salom yubordim!
Yuz yashagan Jambulning
Jo‘shtirsin deb yuragin!
Qoqsin deb mehnat dovulin,
Tolmasin deb bilaging!
Yerlaringda ko‘mir bor,
Ko‘mir bo‘lsa — temir bor,
Temir bo‘lsa — qurol bor,
Qurolli elda umr bor,
Ko‘mir kerak bariga,
G‘ayrat-la mehnat qilinglar!
Bo‘sag‘ada yov turar,
Ayashga ne o‘rin bor?!
Or-nomusdan shahdlanib,
Tushasizlar shaxtaga.
Qimirlanglar, yigitlar,
Xalqimizning baxtiga!
Maydonda qon to‘kishdan
Ko‘mir qazuv battarmi?
Mehnatdan chetda tursin deb

Onalar o‘g‘il tug‘armi?
Yov yoqadan olganda
Botir qarab yotarmi?
Bas, bolalar, qimirlang,
Jon ayamang hech qachon.
Ikki ko‘zim sizlarda,
Yursam ham men qay tomon.
Er shaylanib otlansa,
Bir to‘p dushman — buyummi?
Botirlarim saflansa,
Yovni yengmoq qiyinmi?!

(1942)

O‘G‘LIMGA XAT

Xatingni olib quvondim,
Voqifman ahvolingdan ham.
Gvardiyachi unvoning
Qutlug‘ bo‘lsin, jon bolam!
Suronchi, Sovruq singari
Bo‘libsan, bolam, qahramon.
Hayiqmay sira dushmandan,
Qasd qilsang, yovga yo‘q omon.
Salom yo‘llabdi do‘stlaring,
So‘zlari shamshir singari,
Po‘latday qizib toblangan.
Necha ovuldan to‘planib,
Yigitlar edi otlangan
Yov bilan ayovsiz savashib,
Mal’unni iziga qaytargan.
Yozibdi ular ham xatida:
“Haydaymiz yovni vatandan!
Bo‘lmog‘i aniq yaqinda
Yovuzning o‘rni jahannam!”
Bolam, esingdan chiqarma,

Aytgandim Vatan farmonin,
Yovdan chekinma, zarba sol,
Yozilar shunda armoning!
Aynimay, bolam, ontingdan,
Otangning so'zin olibsan.
Tushundim o'qib xatingdan,
Dushmanga qo'rqmay boribsan.
Tap tortmay sira o'limdan,
Oringni saqlab qolibsan.
Yovning qamalin o'pirib,
O'ragan devorin yoribsan.
Murdasin yo'lga to'ldirib,
Toptay-ezg'ilay qolibsan.
Jazosi shul deb zolimning
Xatingda, bolam, yozibsan.
Roziman, bolam, roziman,
Roziman ishingning bariga.
Sen uchun so'zim bor, jonim,
Quloq sol otangning she'riga.
Savash ko'p, bolam, oldingda,
Talash ko'p, bolam, yo'lingda,
Qaltirar hamon yer va ko'k,
Ingroq bor xalqning joninda.
Yovga o'q otsang sharaqlab,
Chaqmoqday tegadi charaqlab.
Bulutdan poklanar keng osmon,
Qochmoqqa yer topmay, qaltirab!
Zolimlar qochmoqqa shoshadi,
Tovushing yangraydi tobora,
Martabang ulg'ayib-o'sadi.
Haybating oshar dushmandan,
Yovuzning kuchini kesadi.
Ayama, bolam, ayama,
Falokat shunda ko'milar.
Alg'aday[1], doim olg'a bos,

[1] **Alg'aday** — o'g'lining ismi.

O‘zini ayagan yemrilar!
Poygaga borimni tikkanman,
Sizlarga yo‘lladim she’riy yo‘l.
Do‘stlaringga ham shuni ayt,
Dushmaningni sen yengib qayt,
Topshirib aytganim mening shul!

(1943)

BOBOMIZ JAMBUL OQINGA

1943-yilning 20-mart kunida Jambul bobo nomiga frontdan jo‘natilgan maktub va she’r keladi. Unda shunday deyilgan edi:

“N” qism jangchilaridan salom!

Qozoq she’riyatining alp chinori, xalqimizning sevimli Jambuli, Sizga “N” qism qozoq bo‘linmasi jangchilari alangali salom yo‘llab, qo‘lingizni qattiq qisadi. Biz, jangchilar, bu maktubni har birimiz o‘z uyimizga yozayotganday yoniq mehr, samimiy qalb bilan, oltin quyoshning olamga sochayotgan nurlariga tikila o‘tirib, suyukli qozoq dalalarini ko‘z oldimizga keltira o‘tirib Sizga yo‘llamoqdamiz. Sizni o‘zimizning mehribon padarimiz kabi sog‘inib yodga olamiz!

Qadrli Jambul bobo! Sizning “O‘g‘limga xat” degan o‘laningiz tonggi sarin yelday esib bizlarga yetib keldi. Bizlarga g‘ayrat bag‘ishladi. Biz barimiz ham, shu xatni yozib o‘tirganlar, botir do‘stlarimiz haqida Siz yozgan ajoyib she’rlarni, o‘lanlarni hali ko‘p o‘qiymiz, deb umid qilamiz. Tinglang, bobo, mard farzandlaringizning ovozini:

Bir asr yashagan donishmand,
Ey Jambul bobo, olisdan
Tinglab quloq solingiz.
Frontdagi farzandlar
Jangovar salomini
Qabul qilib olingiz.
Minglab botir farzandga
G‘alaba mujdasiday

Yetib keldi xatingiz.
Salom yo'llab yurak-la,
Olovli, uchqur tilak-la
Keldi muhabbatingiz.
Vo, qadrli bobojon,
Savashdagi qahramon
Farzandlarga ishoning.
Ayamay yovni qirib,
Do'pposlab, urib-surib
Yovning olamiz jonin.
Pok bo'lguncha yo'limiz,
Tozarguncha qo'limiz,
Buyuk Asqar tog'imiz,
Yashnasin deb bog'imiz
To'xtamasmiz bir lahza,
Pisandmas charchog'imiz.
Fashist degan zolim yov
O'ynamaydi, kulmaydi,
Odamning tilin bilmaydi,
O'ldirmog'-u osmoqdan
Boshqani ko'zga ilmaydi.
So'zlashmoq kerak ular-la:
Uchqur o'qlar so'zi bilan,
O'tkir nayza o'zi bilan,
Po'lat xanjar yuzi bilan,
Shuni tushunar nemislar,
Uqib olar chini bilan.
O'shandoq ayyorning talayin
So'zga keltirib o'rgatdik.
Ot dumiga sudratdik,
Oz kelganin ozdirib,
Ko'p kelsa, bir-bir otdik.
Qizil o'tni qoq yorib,
O't ustiga o't yoqib,
O'q ustiga o'q yog'ib,
Dushmanning yotgan yeriga

Otilib kirdi u borib, —
Yurakli botir Burishev!
Granatani qo'lga olib,
Botirday qasdda to'lg'onib,
Birini o'ngga qulatib,
Birini so'lga sulatib,
Qirg'iyday tegdi nemisga
O'q yomg'irini zuvlatib!
Botir o'g'lingiz Boymurzin
(Abdurahmon o'z oti)
O'yib tushar dushmanin,
Yigitning o'tkir po'lati.
Azaliy yovni ko'rganda
Otilib sabr-u toqati
Qulatib tashlar qironday
Kelganda muddat-soati.
Naq bir jangning o'zida
Nemisning besh tankasin
Birma-bir yoqib yubordi,
Sindi dushmanning qanoti.
Ko'k zambarak sudratib,
Talashgan yovni qiyratib,
Ernazarov Mirzaboy
O'g'lingiz — u ham jasur er,
Uchgan qushni iluvchi,
Yeldayin chopib yugurar,
Piyoda askar yordami
Zarur bo'lsa — taxt, tayyor,
Qanotsiz uchqur yigitlar,
Otgani og'may tegadi,
Nemislarning o'ligin
Tog'-tog' qilib uyadi.
Nechtasin otib dushmanning
Tanklarini qaytarmoq,
Yovga tinmay o'q otmoq
Odatin ular suyadi!

Qirning qayrilmas qironi,
Dalaning chopqir quyoni,
Nemislarning ikki yuz
Qirqini qator o'ldirgan
Sulaymonov Ibroyim, —
Qozoqning botir o'g'loni!
Ashekey o'g'li Rayimjon
Botir bo'lib tanilgan,
Aqlli, dono kapitan,
Olg'a boshlab askarni
Talay yovdan olgan jon.

To'lib yotar shundayin
Botir erlar — qahramon.
O'zing ham shirin sas bilan,
Bulbulday nafas bilan
Farzandlarni, bobojon,
Kuylab yubor yangratib,
Nomlarin bilsin jahon!
Shum fashistni, bobojon,
Yer qilamiz, yengamiz!
Siz orqali xalqqa ham
Shunday va'da beramiz!
Xushvaqt bo'ling, bobojon,
Uzatdik, mana, qo'limiz.
Yana ko'p yillar siz yashab,
Sog'-salomat bo'lingiz!
Farzandlar g'alabasini
Tez orada ko'ringiz!
Bizning qahramonlikni
She'r-doston qilib yuringiz!

"N" qism askarlari, komandirlari va siyosiy xodimlarning topshirig'i bilan, xat yo'llovchilar: ordenli yosh shoir serjant Azilxon Nurshayxov, qo'shordenli mergan Ibroyim Sulaymonov, ordenli leytenant Mati Xusainov, kapitan O'ljaboy Barmanqulov, medalli

mergan Zamonbek Matayev, kapitan Qosim Sharipov, medalli serjant Alimjon Mamirboyev, leytenant Islom Nazarov, ordenli katta leytenant Mavlen Isin, qo'shordenli katta leytenant Odil Bilolov, jangovor vrach Mariyam Sirliboyeva, mayor Abdurahmon Do'sanov, ordenli qizil askar Birgaboy Abdukarimov, ordenli qizil askar Muqon O'marboyev, katta leytenant Shahzoda Ateev, kapitan G'aysa Do'simbetov, kapitan Idris Isatoyev, katta leytenant Beksulton O'marov, leytenant Qalijar Qabdullinov, katta leytenant Bolabek Rahimjonov, katta leytenant Jilqiboy Qasqaruvov, medalli katta serjant Jusup Batalov, podpolkovnik Saqtag'an Beyishov.

(1943)

"QIZIL YULDUZ" GAZETASIGA

Qayralgan qilich, nayzaday,
Har so'zi xalqqa mazaday,
Hammaga ma'lum u qanchadan,
Tarbiya so'zlardan tolmagan.
Ruhlantirgan har qalbni,
Kurashga undagan u xalqni.
Jangovar "Qizil yulduzim",
Mardlikka namuna sen o'zing!
Hamisha nurlidir yuz-ko'zing!
Ijoding ellarga yetkazib,
Yangratding Jambulning she'r-so'zin.
Qo'limda ko'hna do'mbiram,
So'zlasa donodir u biram,
Botir u, minglarni yiqadi!
So'zidan dushman ham qo'rqadi!
Xalq bilan bir jon-u bir tandir,
Or-nomus talashib yurgandir,
Har doim u yengib chiqadi! *(1943)*

OLATOVNI AYLANSAM

Oqinning to'ng'ich bolasi Alg'aday frontda halok bo'lganda, shu qayg'uli xabarni keltirgan Kenan Azirbayev boshliq bir guruh ko'ngil so'rab kelganlar oldida aytganlari:

1

Tunov kuni ketgandan,
G'ali[1], endi keldingmi?
Alg'adayning murdasin
Yo'l-yo'lakay ko'rdingmi?

Tinch uxla, tuproq quchdi
Gul tanangni, dedingmi?
Qandoq tashlab ketding-a
Chol otangni, dedingmi?

Titrab-qaqshar yuragim,
Zirqiraydi belim ham.
Qazo topib tilagim,
Holim qiyin mening ham...

2

Olatovni aylansam,
Topilarmi Alg'aday?
Sariorqani aylansam,
Yer bormi tin olguday?
O'limning uv[2] ekanin
Menday bir g'arib bilar.
Uy ichida oh urib,
Ko'zim yoshlarga to'lar.

---

[1] **G'ali O'rmonov** — Jambulning adabiy kotibi.

[2] **Uv** — zahar.

3

Quruq loshman, esim yo‘q,
Uzatguday dastim yo‘q.
Bolalarga so‘zim shul:
“Ezgulikning kechi yo‘q”.

Bola qoldi yetim bo‘p,
Kelin qoldi yesir bo‘p.
Ko‘z soling biz g‘aribga,
Biz qoldik bir qism bo‘p.

4

Temir o‘zak banda yo‘q,
O‘lmas odam elda yo‘q.
“O‘rinsiz bul o‘lim” deb
Shak keltirmoq menda yo‘q.

Ko‘p uringan yobining
Yol-quyrug‘i surilar.
Shul kabi, Jambulda ham
Yupqalandi terilar.

Ko‘nglim bo‘sh men qarining,
Suyaklarim so‘kilar.
Ko‘tarmay jon taftini,
Ko‘zdan yoshim to‘kilar...

(1943)

SARG‘AYIB OTGAN TONGMIKAN?

(Alg‘adayga atab aytgan marsiyalari)

Sarg‘ayib otgan tongmikan?
Sari oyoq bo‘lgan bormikan?
Sarg‘ayibgina chaqirsam,
Alg‘aday-huuu!
Bolam kelar kun bormikan?

Bo‘zarib otgan tongmikan?
Bo‘z oyoq bo‘lgan bormikan?
Mingan oting jigarrang,
Kokildan oqqani termikan?
Tepaga chiqib bir chaqirsam,
Alg‘aday-huuu!
“Otamning tovushi” dermikan?

Otim surinib ko‘p yo‘rtar,
Alg‘adayni oldi ep-erta.
Men yig‘lamay kim yig‘lasin,
Yol-quyrug‘i kap-kalta.
G‘oz keladi g‘og‘illab,
Baloq juni yalpillab.
Alg‘aday kelsa yarqillab,
Chiqmasmi edim chopqillab?!
Qozig‘urt bilan Qoratov,
Tamomi tog‘larga pana tov,
Dunyoning barcha qizig‘i
Qiz bilan o‘g‘ilda bo‘lar-ov!

Yoshim yuzga kelganda,
Qartayib, gavdam o‘lgandi.
Oq tayoqqa suyanib,
Alg‘aday-huuu,
Sen yig‘lasang jo‘n edi.

Qo‘rqitmasman, Xudoy, man,
Xor qilganingdan yig‘larman.
Yoshim yuzga kelganda
Alamdan bag‘rim tig‘larman.

Rahmat, rahmat, Kenanim,
Ko‘ngil so‘rab kelganing.
Belimni mahkamlab olayin,
Endi o‘rnimdan turayin...

(1943)

SALOM SIZGA, YOSH AVLOD!

Ko‘zimda yog‘du-nur porlar,
Sizlarni aytsam, burqirab
Gavdamga quvvat oralar,
Toshbuloq kabi sharqirab
Ko‘ngilga o‘lan-she’r kelar.
Boshimizga xavf do‘nsa,
Yovlar tutashib kelsa,
Qahringni sochib intilding.
Ko‘k bulutni kiyinding,
Yog‘ar kunday tuyulding.
Boshingni tiklab o‘limga,
Qo‘rg‘on bo‘lib elingga,
Yovlarni bukib-yitirding.
O‘ligin o‘tda kuydirding,
Ozodlikning yo‘lini
Chaqmoq bo‘lib yoritding.
Yesir ayol, kampir-chol,
Yosh go‘dakka bo‘lib yor,
Band-bo‘g‘ovdan aritding.
Ulkan Vatan — beshiging,
Baxtga ochgan eshigin,

Shul Vatanning bag'rida,
Bolam, ortiqdir nasibing!
Sizlar Vatanning joninday,
Tomirdagi qoninday,
Zavoddagi olovday,
Maydondagi yalovday,
Ekindagi g'ovurday,
Dupur-dupuringizni
Eshitaman — dovulday!
Uyum bo'lib, birlashib,
Quvvat bo'lib ko'ngilga,
To'lin oyday nurlanib,
Yigirma beshga kelganda,
To'y boshlatib, quvonib,
Qizig'ingni ko'rganda.
Salom sizga, yosh avlod! —
To'ylaringni tabriklab
Kuy yangratay men ham shod!..

(1943)

BOBO ALLASI

Jambulning urushda halok bo'lgan o'g'li Alg'adaydan qolgan tirnoq — Quvonishbekka qarab aytgani:

Ey Quvonish, Quvonish,
Sensan menga yupanish,
Alg'adayim o'lgandan
Yig'i edi menga ish.

"Ota, ota" deb kelding,
Quchog'imga olayin.
Oppoq yuzingdan o'pib,
Bir quvonib qolayin.

Ovunch bo‘lib o‘tirgin,
Senga tuhfa she’r, so‘zim.
Ko‘nglimni obod qilding,
Quvonib qoldim, qo‘zim!

(1944)

SO‘NGGI SO‘Z

So‘ndingmi yarqiragan shamchirog‘im,
Qoldingmi toshday bitib qo‘sh qulog‘im.
Yotsam ham to‘shak tortib, darmonim yo‘q,
Birgina so‘zlab turar yolg‘iz jag‘im.

Qolibman ega bo‘lmay o‘zimga o‘zim,
Holim yo‘q, kuch-quvvatli o‘tdi kezim.
Bolalar, to o‘lguncha do‘st bo‘linglar,
Sizlarga shudir aytar so‘nggi so‘zim!

(1944)

AYTISHUVLAR

JAMBUL BILAN OYKUMUSHNING AYTISHUVI

Jambul:
Ataylab, ot terlatib keldim to‘yga,
Oykumush, o‘zing meni solding o‘yga.
Hovuri bosilmagan bo‘z yigitman,
Gina qilma, shoshilib kirdim kuyga.

Oykumush:
Hovliqib, omonlashmay shoshib nuqul,
Odobni o‘rganmabsan yoshdan, Jambul.
Shoshilmay, aqling bilan ish boshlasang,
Hatto arshi a’loga ham toparding yo‘l!

Jambul:
Shoshilmoq bir odat-ku biz yoshlarga,
Shu yoshlik otdi bizni talay jarga.
Men seni yotsam-tursam o‘ylanaman,
Yem bo‘lib ketarmi deb yomonlarga.

Oykumush:
Anglarmi banda o‘zi dunyo ishin?
Tentak-ov, ko‘rgin kezib elning ichin.
Yurtchilik, ayol-qizning yo‘li bo‘lak,
Sira ham g‘am yema sen mening uchun!

Jambul:
Qarqaraday turibsan sen zo‘r bo‘lib,
Ketarsan bir yomonga so‘ng xo‘r bo‘lib.
Ko‘zingga ko‘kchivinni uymalatar,
Peshoning qolmasmikan, voh, sho‘r bo‘lib?!

Oykumush:
Jambul-ov, qayg'urasan nega muncha?
Qiz degan bog'da bitgan erksiz g'uncha.
Qo'ldagi qarchig'aying qayga ketdi,[1]
Dunyoning ixtiyori senda bo'lsa?!

Jambul:
Yigit, qiz yashayverar sho'rli bo'lib,
Yurmasa birga o'ynab, birga kulib.
Xumori bosilmagan orsiz ko'ngil
Turibdi yana sendan umid qilib!

Oykumush:
Yigitga ishq umidi — bir havasdir,
Havasiy ishq fe'lingga ko'rk emasdir.
Tentak-ov, gapni cho'zmay to'g'risin ayt,
Dono bo'lib ko'rinmoq endi basdir!

Jambul:
Tugma emas, to'qqiz emas tilaganim,[2]
Ko'nglingni yupatolmas hech o'lanim.
Bo'lsang agar fahmli, farosatli,
O'zing ayt, qani sening sir bilganing?

Oykumush:
Jambul-ov, so'zga xasis jon ekansan,[3]
Qay so'zimni yoqtirmay qolgansan san?

---

[1] Bu yerda Oykumush Jambulning ilk muhabbati — Burumqizni eslatmoqda. Jambul yoshligida Burumqiz bilan sevishib, uni hatto olib ham qochgan edi. Afsuski, Jambul ota-onasi, qarindoshlarining tazyiqi, qiz tomonning noroziligi sabab, Burumqizdan voz kechishga majbur bo'ladi, qizni ota-onasi kelib olib ketadi. Burumqiz ota-onasi xohlagan odamga turmushga chiqishga majbur bo'ladi.

[2] Bu yerda "so'rayotganim tugmaday kichkina narsa ham emas, to'qqiz-to'qqiz kabi katta mol-mulk ham emas" degan ma'noda. To'qqiz-to'qqiz, ya'ni chorvaning hamma turidan to'qqizta-to'qqizta qilib in'om yoki qalin berish odati turkiylarda qadimdan mavjud bo'lgan odatdir.

[3] Xushomadni bilmas ekansan, demoqchi.

Gapni cho'zmay, istagingni bildirsang-chi,
Tilagingni ayt, dardingni qilay oson!

Jambul:
Ko'z tashlab sen tomonga chekdim zorni,
Diydoring olovlatdi kayf-xumorni.
Tushunarding qo'limga bir ushlatsang
To'shingda pishib turgan juft anorni!

Oykumush:
Ko'nmasman bunga, Jambul, bas qil, qo'y sen,
Yaxshi gap qil, bu davra so'zga to'ysin.
Shirin so'z — jon ozig'i degan gap bor,
Xaloyiq sen-u meni maqtab yursin!

Jambul:
Oykumush, sog'-omon bo'l, iloj qancha,
Ketaylik sir bildirmay, dil ko'ngancha.
Ismingni, ruxsoringni unutmasman
Vujudda o't, ko'zimda nur so'nguncha...

(1864)

JAMBULNING BAQTIBOY OQIN BILAN TANISHUVI

Baqtiboy:
Bizning ovul Qoratol,
Shangg'iroqning bo'yinda.
Men uyimdan chiqqanda
Sen bor eding o'yimda.
O'zing qanday, men qanday,
Olov bordir gavdamda.
Keksarganday chog'im bor,
Ko'zingni och shul damda.

Qo‘ychini Xudo urganda,
Cho‘ponga tegar tayog‘i.
Kuy ichinda o‘sganman,
Men — o‘lanning sayog‘i.[1]
Kuyni, so‘zni yangratgan
G‘ayratim yo‘q boyagi.
U kunlarda izlardim
Nasibamni olisdan.
O‘n bir oqin Naymanda,
Birining oti Arslon.
Arslon bilan men edim,
Kecha-kunduz olishgan.
Olishganda obro‘ymi
Raqibingdan qolishsang?
O‘sha ulkan poygada
Qolmaganman chopishdan.
Endi qarigandaymiz,
Ikki oyoq chalishgan.
Bir so‘zlayin deb keldim,
Tanib seni tovushdan.
Ho‘jalarning to‘yinda,
Jambul oqin, sen bilan
Fursat shuldir topishgan.

Jambul:
Avvalo salom berayin,
Yoshingiz ulug‘, og‘a deb.
O‘lan-so‘zga chopayin,
Keldi menga chama deb.
Bo‘yda g‘ayrat borida
Tildan o‘lan to‘kilsin.
Siylashganimiz ko‘rib,
El ko‘ngliga nur to‘lsin.
Ko‘pni yengib so‘z bilan

[1] Baqtiboy oqin bu yerda: yoshligimdan boshlab, qayerda o‘lan aytilgan bo‘lsa, borib tinglardim, demoqchi.

Mashhur bo'lgan o'zingsan.
Abaq, Taraq orasin
Oralagan sherimsan.
Olis-yaqin barini
Saralagan erimsan.
Oldingizda so'zlayin,
O'lan qadrin ko'rgaysiz.
Agar so'zim xush kelsa,
Fotihangiz bergaysiz.
Xush kelmasa o'lanim,
Yuzingizni burgaysiz.
Men naslimni aytayin,
Shapirashti elinda,
Qoraqastaq manzili,
Mayto'baning to'rinda,
O'lan bilan chiqqanman
Olatovning beliga.
Ovozim tez tarqaldi
Qirg'iz, qozoq eliga.
G'ozday qalqib, erinmay
O'lan terdim yoshimdan.
Moyket oqin, Qulmambet
O'rin berdi qoshidan.
Moylixo'ja, Qulinchoq
Pirim edi bosh urgan.
Aytganlari — namuna,
So'zi a'lo zumraddan.
Qisqa qilay so'zimni,
To'xtatdim shul fursatdan...

(1872)

MOYKAT OQIN BILAN DIYDORLASHUVI

Jambul:
Ulkansozning boshinda,
Kichiksozning qoshinda,
Sarikamning oshinda,
Qambarning qora yo‘rg‘a otinday,
Men ham keldim yelishga.
Quyrug‘imni tukkan so‘ng,
Qanotimni suzgan so‘ng,
Yel ag‘dargan qangboqday[1],
So‘zlar keldi tilimga.
Ulkan — og‘a, kichik — ini,
Barini aytib berayin.
Chin yugrukni aytaman.
Chopgan sayin yeladi.
Chin shunqorni aytaman,
Olisdan qushni iladi.

Moykat:
Safar chekib kelgandim,
Sariboyning oshiga.
O‘ttiz kishi elimdan
Ergashdilar qoshima.
Kuy kuylay deb chiqqandim
Moyto‘baning boshiga.
Suron solsin tovushim,
Olatog‘ning toshiga.
Eshituvchi edim tovushin,
Jambul bor deb o‘shunda.
Oqin bo‘lsa kelmaydi
Nega mening qoshimga.
Nega salom bermaydi,
Men kabi qari do‘stiga?

[1] **Qangboq** — shamolda uchib yuradigan o‘t-o‘lan, o‘simlik, xazon.

Jambul:
Assalomu alaykum, Moykat og‘a!
Eshitib ovozingni keldim, mana.
Oldidan ulkanlarning o‘tmayin deb,
Hayallab odob saqlab turdim yana.

Sizmisiz oqin og‘a Moykat degan,
Bir so‘zi bir so‘zidan qayta o‘tmagan.
Parvozlanib dilingdan o‘lan chiqsa,
Iymanib barcha oqin hurmatlagan.

Kelibsiz bizning elga atay izlab,
Mehmonni biz qilamiz hurmat-izzat.
Sudralib oldingizda so‘z so‘zlamay,
Etayin men ham sizni endi hurmat.

So‘zlagan og‘a turib, inidan bez,
Azaldan elda shunday bor edi so‘z.
Og‘ayinni oralash bir bu emas,
Siz bilan hali talay bo‘larmiz kez.

Moykat:
Barakalla, Jambulim,
So‘z jo‘yasin keltirding.
Odobingni payqadim,
Ko‘tarilib yelpindim.
Otali so‘zda ma’ni mo‘l,
Ko‘zimga yosh keltirding.
Katta juzni oralab,
Kayfiyatin ko‘p bildim.
Yoshi ulug‘ni og‘a deb,
Men ham xizmat ko‘p qildim.
Topib aytgan so‘zingga
Qoyil qolib, kerildim.
Mehrim tushdi o‘zingga,
Fotha bersam deb turdim.

Jambul:
Ovmin, fothangizga ko'tardim qo'l,
Sizga xizmat qilayin men ham shu yo'l.
To'y qilsak, to'rimizda bo'ling doim
Mening ham, Moykat og'a, tilagim shul.

Moykat:
Yon-yog'imga qarayin,
Yoqalab ko'z solayin.
Omon-eson bormisan,
Olisda yurgan og'ayin.
Oldilaringga kelganda,
Noming kuyga solayin.
Uzoq kunlarni qamrab,
To'lsin ko'ngil saroyim.
Yugurtirib barmoqni,
Qo'sh ichakni[1] qoqayin.
Olatovning ichida
Gupurlab bir chopayin.
Aytib yursin so'zimni,
Mahalla, yurt, og'ayin.
Omon-eson bormisan,
Shapirashti, Yekayim[2].
Ovulingda duv-duvlab,
Kuy taratib ketayin.
Savdogardan bo'z qolar,
Oqinlardan so'z qolar.
Ayta yurar ortimdan,
So'zim ayab netayin!

(1891)

[1] **Qo'sh ichak** — ikki torli, ya'ni do'mbiram demoqchi.
[2] Urug' nomlari.

MUNDARIJA

ABAY

Qozoq xalqining ulug‘ namoyandasi *(Qaldibek Seydanov)* 4
Sharq shoirlariga taqlid 10
“Fuzuliy, Shamsiy ...” 10
“Alifbe” she’ri 11
“Tinchlan, ko‘nglim, tinch...” 12
Burgutchi 14
“Porlagan oq kumushday keng ...” 16
“Yoshlikdan bilim izlab ...” *(Mirtemir tarjimasi)* 17
“Qaridik, g‘amga botdik, ...” *(Uyg‘in tarjimasi)* 18
“Qaridik, gam bitmay, ko‘paydi ...” *(Asqad Muxtor tarjimasi)* 20
“Qozog‘im, sho‘rlik yurtim...” *(Mirtemir tarjimasi)* 21
“Boylar yurar yiqqan molin...” 22
“Ko‘nglim qaytdi do‘stdan-da...” 23
“Adashganning oldi — jo‘n, orti...” *(J. Jabborov tarjimasi)* 25
“Bo‘z bolalik chinakam go‘zal...” *(Muhammad Ali tarjimasi)* 26
“Yigitlar, o‘yin arzon, kulgi...” *(G‘ulom Shodi tarjimasi)* 27
“Podsho xudoy, sig‘indim...” 31
“Bozorga, qarab tursam, har kim...” *(Uyg‘in tarjimasi)* 31
“Internatda o‘qiydi...” 32
“O‘kinch to‘la ko‘p umr ketdi...” 35
“Sabrsiz, orsiz, erinchak...” 36
“O‘zga elda bor bo‘lsa...” 39
“O‘lan — so‘zning poshshosi...” *(Mirtemir tarjimasi)* 44
“Birovning kishisi o‘lsa, qorali ...” 46
Kuz *(Mirtemir tarjimasi)* 48
“Yoz ketdi, qishning boshi, dala ...” *(Mirtemir tarjimasi)* 49
Qish *(J. Jabborov tarjimasi)* 50
Ko‘lamboyga *(Asqad Muxtor tarjimasi)* 51
“Yelsiz tunda yorug‘ oy...” *(Uyg‘in tarjimasi)* 52
“Mast bo‘ladi bo‘lising...” 52
“Qalbingda o‘ting bo‘lsa...” *(G‘ulom Shodi tarjimasi)* 54
“Men o‘lanni yozmayman ermak ...” *(Mirtemir tarjimasi)* 55
“Avvaldan bir sovuq muz...” *(Uyg‘in tarjimasi)* 56

23 - 22-355

"Oshiqlik bor, humorlik bor ..." 57
"Xor bo'ldi jonim, ..." 57
Yigit so'zi *(Uyg'in tarjimasi)* 58
Qiz so'zi *(Uyg'in tarjimasi)* 60
"Bilakday orqasida o'rgan ..." 61
"Metin do'stlik xalqda yo'q, ..." 62
"Yoshlikning o'ti, qaydasan, ..." 63
"Yarq etmas qora ko'nglim ne ..." 63
"Em topolmay, ..." *(G'ulom Shodi tarjimasi)* 64
"O'zgaga, ko'nglim, ..." 65
"Ba'zan esar ko'ngil qurg'uring ..." 66
Ko'klam *(Mirtemir tarjimasi)* 67
"Oshga, to'yga boradigan ..." 69
"Ota-onaga ko'z quvonch — ..." 70
"Toyga mindik, ..." 72
"Zamonoxir yoshlari, ..." 73
"Ko'zidan boshqa o'yi yo'q, ..." 74
"Yoshlikning o'ti lovullab, ..." 75
"Qizarib, surlanib, ..." 77
"Suluvlar sarasi, ..." *(Mirtemir tarjimasi)* 78
"Mensinmas edim nodonni, ..." 81
Topishmoq 82
Topishmoq 82
Topishmoq 83
"Yuragim, o'y-bay, urma endi, ..." 83
"Qayg'u chiqdi il(i)mdan, ..." 84
"Isitgan, sovutgan ..." 86
"Ba'zi o'smir zamondoshlar xafa ..." *(Asqad Muxtor tarjimasi)* 87
"Sevgi tili — so'zsiz til, ..." *(Mirtemir tarjimasi)* 87
Abdurahmon xastalanib yotganda *(J. Jabborov tarjimasi)* 88
"Talay so'z bundan burun ko'p ..." *(Uyg'in tarjimasi)* 90
"Och kishi tinchlanarmi to'ymaguncha, ..." *(Mirtemir tarjimasi)* 90
"Yoshlik o'tdi, bildingmi? ..." *(Mirtemir tarjimasi)* 92
"Tabiat o'lar, balki inson o'lmas, ..." *(Muhammad Ali tarjimasi)* 92
Abdurahmon o'lganida 93
"Kechagi O'spon og'asi ..." 94
"Kechagi o'tgan er Abish, ..." 95
Abdurahmon o'lganida 95
Abdurahmonning o'limiga 97

Abdurahmonning o'limiga ... 98
Abdurahmonga ... 99
Abdurahmon o'lganidan so'ng o'ziga aytgan yupatishi ... 100
Abdurahmonning ayoli Mag'ishga Abayning aytgan yupatishi ... 101
Abdurahmonning ayoli Mag'ishga Abay yozib bergan yo'qlov ... 103
"Molga do'stning do'sti yo'q ..." *(Uyg'un tarjimasi)* ... 107
"Tuqqan ota-ona yo'q..." *(S. Akbariy tarjimasi)* ... 108
"Bir go'zal qiz bo'libdi xon..." *(Uyg'un tarjimasi)* ... 109
"Soatning chiqillashi emas..." ... 110
"Ko'ngil qushi potirlar chortarafga..." ... 111
"Odamning qay bir kezlari..." ... 112
"Ko'k ola bulut bukilib..." ... 113
Xotini bilan Masaqboy *(J. Jabborov tarjimasi)* ... 114
"Ko'k tuman — oldingdagi kelar..." ... 115
"Kimdir seni ko'pik sochib ko'p..." ... 116
"Quruq hov-huv baqirgan..." ... 117
"Men salom yozaman..." ... 117
"Quvvati o'tday burqirab..." ... 118
"Shum dunyo to'nab yotar..." *(Sulton Akbariy tarjimasi)* ... 118
"Xasta yurak uradi hech..." ... 119
Eshak *(Masal)* ... 120
"Esingda bormi yosh kuning?..." ... 121
"Yuragim mening qirq..." *(Razzoq Abdurashid tarjimasi)* ... 122
"Nurli osmonga intilib o'sgansan..." *(Muhammad Ali tarjimasi)* ... 123
"Yuragim, nena sezasan..." *(Uyg'un tarjimasi)* ... 123
"Ko'lanka bo'y uzaytib..." *(J.Jabborov tarjimasi)* ... 124
"Quyoshni vaqt itarib..." ... 125
""Uyalaman" degani ko'ngil..." *(S. Akbarov tarjimasi)* ... 126
"Bargi so'lib qolgan eski..." *(J.Jabborov tarjimasi)* ... 126
"Bo'g'insiz tiling..." ... 127
"To'tiqush tusli kapalak..." ... 127
"Allohning o'zi ham rost, so'zi ham rost..." ... 128
"Yurak — dengiz, qiziqning ..." ... 130
"Yolin va o'tdan yaralib..." ... 131
"Do'mbiraga qo'l suqma..." ... 131
"O'z aybimga kuz solib..." ... 132
""Men bo'laman!" — demanglar..." ... 133
"Olimdan nodon ortmas uqqan..." ... 134
"Tubinda chin mehnat — bu ekin..." ... 134

"Yo'l ko'rmoq, dastur bilmoq, ..." 134
Bolalik chog' 135
Lochin bilan chumchuq 136
Sharifga 137
Abraliga 137
Jaqsiliqqa 138
Ilm topmay maqtanma... 138
Yodingda bormi... 141
Kuchuk asrab, it etdim... 141
Kuyisboyga 142
Qora xotinga 142
Kun ketidan kun tuvar 142
Bolalik o'tdi, bildingmi? 142
O'lsam, o'rnim 143
Ushbu qimiz qozoqqa... 144

Dostonlar

Iskandar 145
Mas'ud 151
Azim hikoyasi 157

Qora so'z

Mehr va qahr uyg'unligi (*Qozoqboy Yo'ldoshev tarjimasi*) 173
Birinchi so'z 177
Ikkinchi so'z 178
Uchinchi so'z 179
To'rtinchi so'z 182
Beshinchi so'z 183
Oltinchi so'z 184
Yettinchi so'z 185
Sakkizinchi so'z 186
To'qqizinchi so'z 187
O'ninchi so'z 188
O'n birinchi so'z 190
O'n ikkinchi so'z 190
O'n uchinchi so'z 191
O'n to'rtinchi so'z 192
O'n beshinchi so'z 193
O'n oltinchi so'z 194

O‘n yettinchi so‘z 194
O‘n sakkizinchi so‘z 196
O‘n to‘qqizinchi so‘z 197
Yigirmanchi so‘z 197
Yigirma birinchi so‘z 198
Yigirma ikkinchi so‘z 199
Yigirma uchinchi so‘z 200
Yigirma to‘rtinchi so‘z 201
Yigirma beshinchi so‘z 202
Yigirma oltinchi so‘z 203
Yigirma yettinchi so‘z 205
Yigirma sakkizinchi so‘z 208
Yigirma to‘qqizinchi so‘z 209
O‘ttizinchi so‘z 210
O‘ttiz birinchi so‘z 211
O‘ttiz ikkinchi so‘z 211
O‘ttiz uchinchi so‘z 213
O‘ttiz to‘rtinchi so‘z 214
O‘ttiz beshinchi so‘z 216
O‘ttiz oltinchi so‘z 216
O‘ttiz yettinchi so‘z 218
O‘ttiz sakkizinchi so‘z 219
O‘ttiz to‘qqizinchi so‘z 235
Qirqinchi so‘z 236
Qirq birinchi so‘z 238
Qirq ikkinchi so‘z 239
Qirq uchinchi so‘z 240
Qirq to‘rtinchi so‘z 243
Qirq beshinchi so‘z 244

JAMBUL

Muzaffar Ahmad tarjimalari 246
O‘tyurak shoir *(Muzaffar Ahmad)* 250
O‘lan so‘zining poshshosi 250
Chaqim 251
Otamga 251
Tayti bilan Shibil cholga 252
Sariboyga 252

"Ayrildim armon bilan hayron, ..." 253
Boyuzoq mullaga 253
Qamshat qiz 253
"Sirti suluv jon ekansan ..." 254
Ziqna boy bilan jo'mard qashshoq 255
"Boy — ziqna, qashshoq — gado, ..." 255
O'lanchi O'marga 256
Janis oqinga 256
Mambetga 257
Sat saylanarda 258
Abayga 258
Tilamishga 259
Abishqa 259
Mangke haqida 260
Xalq deb tug'ilgan botir 261
Yonma-yon tursin kun va oy 262
Vasiyat 263
To'htag'ulga 263
Adolat kerak xalqqa 264
Ko'rgazmada 274
Erk ketdi 275
Shoh farmoni tarqaldi 276
Qonli buyruq 277
Tashkilotchilarga 281
Oqin bo'ldim o'n uchda 282
Yoshlar oldidagi so'z 289
Orden olganda 291
Abdulqosim lohutiyga 292
Kuleshga 294
To'qtag'ul 294
Bolalarga 297
Qayta kelgan yoshlik 297
Mehnat haqida 298
Vatanni sev 299
Tichina o'g'limga 300
Jambulning xalq uchundir qolgan yoshi 301
Bizning vatan qironlari 303
Vatanimning qizlari 306
Mehnat ko'klami 307

Muallimlarga salom 309
May she'ri 310
Men bir biyik boyterak 312
Abayning suratiga 314
"Jambul o'lan aytmaydi..." 314
"Soqolim — temir kurak..." 315
"Yetdim-ku yura-yura qir boshiga..." 316
Olqish 316
Ko'klam va may 317
Umrimning qishin yoz qildi 318
Zamin boyligi 319
Mol ozig'i 319
Jon ozig'i 320
Yalqovlarga 321
Xirmon qoshida 322
Leningradlik farzandlarim 322
Temir tulpor mingan qiz 327
Kuzatish 330
Qarag'andaga maktub 331
O'g'limga xat 332
Bobomiz jambul oqinga 334
"Qizil yulduz" gazetasiga 338
Olatovni aylansam 339
Sarg'ayib otgan tongmikan? 341
Salom sizga, yosh avlod! 342
Bobo allasi 343
So'nggi so'z 344

Aytishuvlar

Jambul bilan Oykumushning aytishuvi 345
Jumbulning Baqtiboy oqin bilan tanishuvi 347
Moykat oqin bilan diydorlashuvi 350

Izoh: *Mundarijada tarjimon nomi ko'rsatilmagan asarlarni Muzaffar Ahmad o'zbekchalashtirgan.*

A 12 Abay. Jambul [Matn]: nazm / to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Muzaffar Ahmad. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 360 b.
ISBN 978-9943-8733-9-1

UO'K 821.512.122-1
KBK 84(5Qoz)-5

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

ABAY
JAMBUL
72-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Sunnat Xo'jaahmedov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Dilafruz Matyoqubova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^1/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 22,5. Nashriyot-hisob tabog'i 17,75.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 139-1/22 Buyurtma raqami № 22-355

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

ABAY
JAMBUL